



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659

2025/N^o4



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnal

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2025-yil 4-son

DENOV – 2025



Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi) nashrlari ro'yxatiga kiritilgan. Entrepreneurship and pedagogy scientific and methodical journal was included in the list of publications on Pedagogical Sciences at 13.00.00 based on the decision of the HAC (the Higher Attestation Commission) No. 325/5 dated September 30, 2022.

Tahrir kengashi raisi: Ruziyev Oybek Abdimo'minovich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori.

Bosh muharrir: Shukurov Rustam Eshonqulovich – Imiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Mas'ul muharrir: Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich – O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Mas'ul kotib: Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i.

Muharrir: Mordayev Bekzod Turobovich.

Chairman of the editorial board: Ruziyev Oybek Abdimuminovich – Rector of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy.

Editor-in-chief: Shukurov Rustam Eshonkulovich – Vice-Rector for scientific affairs and innovations.

Responsible editor: Butayev Usmonjon Khayrullayevich – Vice-Rector for academic affairs.

Responsible secretary: Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Head of the department of scientific research, innovations and scientific-pedagogical personnel training.

Editor: Mordayev Bekzod Turobovich.

Tahrir hay'ati a'zolari:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor, O'zDJTU.

Sol Von Te (Janubiy Korea) – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (AQSH) – Biologiya fanlari doktori (DSc), professor, DTPI.

Musurmonqulova Madina Nosirovna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Rajapov O'tkir Do'snaye'vich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Melikov Otabek Maxmadaminovich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Allayarova Soliha Narzullayevna – Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent, TDYU.

Shukurov Rustam Eshonqulovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Maxmudov Shokir Kamolovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

To'raxonov Fozil Bobonazarovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mirzayev Mutalib Jurayevich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Members of the Editorial Board:

Rakhimov Ganisher Khudoykulovich – Doctor of philological sciences (DSc), professor, UzSWLU.

Sol Von Te (South Korea) – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (USA) – Doctor of biological sciences (DSc), professor, DTPI.

Musurmonkulova Madina Nosirovna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Doctor of philological sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Rajapov O'tkir Do'snaye'vich – Doctor of economic sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Doctor of economic sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Melikov Otabek Makhmadaminovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), associate professor, DIEP.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Allayarova Soliha Narzullaevna – Doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor, TSUL.

Shukurov Rustam Eshonkulovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Makhmudov Shokir Kamolovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Turahonov Fozil Bobonazarovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Mirzaev Mutalib Juraevich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.



Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Ro'ziyeva Inobat Jo'rayevna – Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Xamroyeva Marg'uba Komilovna – Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Xolmurodov Mengboy Amirovich – Biologiya fanlari nomzodi, DTPI.

Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Nazirov Baxtiyor Safarovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Muminov Ulmas Ravshanqulovich – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Xo'janova Tamara Jo'rayevna – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Toshboboyev Maqsud Jalilovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Raxmatov Erkin Tog'aymurodovich – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich – Texnika fanlari nomzodi, dotsent, DTPI.

Tursunbadalov Umid Abdumalikovich (Tojikiston) – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Sobirova Mavjuda Ro'ziyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Eshkarayev Ulug'bek Choriyevich – Texnika fanlari nomzodi, dotsent, DTPI.

Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent, DTPI.

Shukurov Dilmurod Xursanovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent DTPI.

Abduraxmanov Alijon Abdulaxatovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Primqulov Begali Sheraliyevich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Karimov Husniddin Rustamovich – Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Kulbosheva Xurshida Xasanovna – Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna – doktorant, DTPI.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Ruziyeva Inobat Jurayevna – Doctor of philosophy in biological sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Khamroyeva Marguba Komilovna – Doctor of philosophy in biological sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Xolmurodov Mengboy Amirovich – Candidate of biological sciences, DIEP.

Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Nazirov Bakhtiyor Safarovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Muminov Ulmas Ravshankulovich – Doctor of philosophy in historical sciences (PhD), DIEP.

Khujanova Tamara Zhurayevna – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Toshboboev Maksud Jalilovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Rakhmatov Erkin Togaymurodovich – Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD), DIEP.

Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich – Candidate of technical sciences, associate professor, DIEP.

Tursunbadalov Umid Abdumalikovich (Tajikistan) – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.

Sobirova Mavjuda Ruziyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Eshkarayev Ulugbek Choriyevich – Candidate of technical sciences, associate professor, DIEP.

Ismatov Sunnatilla Shamsulloyevich – Doctor of technical sciences (DSc), associate professor, DIEP.

Shukurov Dilmurod Khursanovich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), associate professor, DIEP.

Abdurakhmanov Alijon Abdulakhatovich - Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.

Primkulov Begali Sheraliyevich – Doctor of philosophy in technical sciences (PhD), DIEP.

Karimov Khusniddin Rustamovich – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.

Kulbosheva Khurshida Khasanovna – Doctor of philosophy in chemistry (PhD), DTPI.

Sodiqova Bakhtigul Ibodullayevna – Doctoral student, DIEP.

IJTIMOIIY FANLAR

SHERMUHAMMAD QO‘RBOSHI: SOVET BOSQINIGA QARSHI XALQ QARSHILIK HARAKATI YETAKCHISI SIFATIDA

MENGLIBOYEV AKMAL XOLTO‘RAYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix va falsafa” kafedrasi dotsenti

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: akmalmengliboyev0@gmail.com

UDK: 93/94

<https://orcid.org/0000-0001-5090-0240>

XURSANOVA FARANGIZ ULUG‘BEK QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Tarix va falsafa” kafedrasi talabasi

Email: farangizxursanova80@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-1935-9223>

Kalit so‘zlar:

istiqlolchilik harakati,
Madaminbek,
Turkiston,
bosmachilik, O‘rta
Osiyo byurosi,
Oktyabr inqilobi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida Sovet bosqiniga qarshi yuzaga kelgan xalq harakatining yetakchilaridan biri – Shermuhammad qo‘rboshining siyosiy-harbiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda qo‘rboshining mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik g‘oyalari asosida harakat qilgani, mahalliy aholi orasida katta obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgani hamda uning kuchli tashkilotchilik qobiliyati haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Maqolada, shuningdek, Sovet hokimiyatining bosqinchi siyosatiga qarshi kurash jarayonida Shermuhammad qo‘rboshining tutgan o‘rni, harbiy yurishlari, siyosiy pozitsiyasi va tarixiy ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Ushbu maqola tarixiy hujjatlar, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar hamda mahalliy voqeliklar tahliliga tayanilgan holda yozilgan bo‘lib, Shermuhammad qo‘rboshining tarixiy siyosini chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

ШЕРМУХАММАД КУРБАШИ: КАК ЛИДЕР НАРОДНОГО ДВИЖЕНИЯ ПРОТИВ СОВЕТСКОГО ВТОРЖЕНИЯ

Ключевые слова: движение за независимость, Мадаминбек, Туркестан, басмачество, Среднеазиатское бюро, Октябрьская революция.

Аннотация: В данной статье анализируется политико-военная деятельность одного из лидеров народного движения против советского вторжения на территории Бухарского эмирата в начале XX века – Шермухаммада Курбаши. В нем подробно рассказывается о том, что Курбаши действовал на основе идей национального освобождения против колониализма, пользовался большим авторитетом среди местного населения и обладал сильными организаторскими способностями. В статье также освещается роль Шермухаммада Курбаши в борьбе против захватнической политики советской власти, его военные походы, политическая позиция и историческое значение на основе научных источников. Данная статья написана на основе исторических документов, современных научных исследований и анализа местных реалий и служит для глубокого раскрытия исторической личности Шермухаммада Курбаши.

SHERMUKHAMMAD KURBASHY: AS THE LEADER OF THE NATIONAL RESISTANCE MOVEMENT AGAINST THE SOVIET INVASION

Keywords: independence movement, Madaminbek, Turkistan, Basmachi movement, Central Asian Bureau, October Revolution.

Abstract: This article analyzes the political and military activities of Shermuhammad Kurbashi, one of the leaders of the popular movement against the Soviet invasion in the territory of the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century. It provides detailed information about the kurbashi's actions based on national liberation ideas against colonialism, his great authority among the local population, and his strong organizational abilities. The article also highlights, based on scientific sources, the role, military campaigns, political position, and historical significance of Shermukhammad Kurbashi in the struggle against the aggressive policy of the Soviet government. This article, written based on historical

documents, modern scientific research, and analysis of local realities, serves to deeply reveal the historical figure of Shermuhammad Kurbashi.

KIRISH

XX asr boshlarida Sovet tuzumi va uning harbiy kuchlariga qarshi yuzaga kelgan milliy-ozodlik harakati tarixda “Istiqlolchilik harakati” nomi bilan ma’lumdir. Biroq Sovet davri manbalarida bu harakat ataylab “bosmachilik” tarzida noto’g’ri talqin qilinib, millat ozodligi uchun jon fido qilgan qo’rboshilar “bosmachi” sifatida kamsitilgan. Aslida esa bu harakat Vatan mustaqilligi, xalq erkinligi va milliy qadriyatlarni himoya qilish yo’lida olib borilgan mardona kurash edi. Shu yo’lda ko’plab vatanparvarlar, jumladan, Shermuhammadbek ham o’z jonini fido qilgan.

1917-yilgi Oktyabr inqilobidan so’ng Sovet hokimiyatining Turkistondagi siyosati mahalliy xalqning turmush tarzi va qadriyatlariga zid ravishda olib borildi. Ayniqsa, Farg’ona vodiysi, Buxoro va Xiva hududlarida zo’ravonlik, talon-toroj va iqtisodiy bosim kuchayib, xalqning noroziligi oshdi. Natijada, keng qurolli qarshilik harakatlari vujudga keldi. Ana shunday murakkab va tahlikali sharoitda shakllangan istiqolchilik harakatida Shermuhammad qo’rboshi markaziy o’rin egalladi. U o’zining siyosiy yetakchiligi, harbiy iste’dodi va xalq orasidagi obro’-e’tibori bilan ajralib turdi. Aynan shu fazilatlarini uni Farg’ona vodiysida Sovet kuchlariga qarshi samarali kurash olib borgan eng yirik rahbarlardan biri sifatida tarixda muhrladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda Shermuhammad qo’rboshining siyosiy va harbiy faoliyati qator ishonchli tarixiy hamda ilmiy manbalarga tayangan holda tahliliy yondashuv asosida o’rganildi. Avvalo, Q. Rajabov va M. Haydarovlarning “Turkiston tarixi” asarida 1917-1924-yillar oralig’ida mintaqada yuz bergan siyosiy jarayonlar, xususan, istiqolchilik harakatining paydo bo’lish sabablari, rivojlanish bosqichlari va oqibatlari atroflicha yoritilgan. Ushbu manbada ayniqsa, Sovet hokimiyatining Turkistondagi zo’ravon va repressiv siyosati mahalliy aholining noroziligini kuchaytirgani, bu esa qurolli qarshilik harakatlarining shakllanishiga turtki bergani alohida ta’kidlanadi [1]. Shu nuqtayi nazardan Shermuhammad qo’rboshining faoliyati ham tarixiy va ijtimoiy kontekstda o’rganildi.

Shuningdek, Qahramon Rajabovning “Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar” nomli tadqiqoti harakatning mafkuraviy asoslarini ochib berishda muhim manba bo’ldi. Unda Turkistonda shakllangan milliy-ozodlik g’oyalari, ularning shakllanishida jadid ma’rifatparvarlari, diniy ulamolar hamda harbiy yetakchilarning tutgan o’rni ilmiy asosda tahlil etilgan [3].

Harakatning tashkiliy tuzilishi, qurolli qarshilik strategiyalari, yetakchilar oʻrtasidagi aloqalar va ularning faoliyat yuritgan geografik hududlarini aniqlashda esa A. Isoqboyevning “Istiqlolchilik harakati tarixi” qoʻllanmasi asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qildi [4, 150].

Shermuhammad qoʻrboshining shaxsiy hayoti, harbiy rejalari, liderlik salohiyati hamda xalq orasidagi obroʻ-eʼtiboriga oid eng muhim maʼlumotlar M. Xoʻjayevning “Shermuhammadbek qoʻrboshi” nomli maxsus tadqiqotida batafsil yoritilgan. Ushbu asarda qoʻrboshining bolalik davridan boshlab, Sovet kuchlariga qarshi olib borgan kurashlari hujjatlar, guvohlar xotiralari va tarixiy dalillar asosida ilmiy tahlil qilingan [6, 200].

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili Shermuhammad qoʻrboshining tarixiy obrazini mafkuraviy, siyosiy va harbiy jihatdan har tomonlama ochib berish, uning faoliyatini mavjud tarixiy haqiqat asosida qayta tiklash imkonini berdi. Shu bilan birga, mazkur manbalar tadqiqot uchun puxta ilmiy asos va mustahkam nazariy tayanch vazifasini oʻtadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy izlanishlar tarixiy-tahliliy, manbashunoslik va biografik metodlarning uygʻun qoʻllanilishi asosida olib borildi. Biografik yondashuv Shermuhammadbek shaxsining siyosiy qarashlari, liderlik salohiyati va xalq bilan oʻzaro munosabatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Shu orqali uning harakatdagi roli nafaqat harbiy qoʻmondon, balki mafkuraviy yetakchi sifatida ham koʻrsatib berildi.

Manbashunoslik yondashuvi asosida sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy adabiyotlar, xotiralar hamda arxiv hujjatlari oʻrganildi. Bu esa tarixiy voqealarni biryoqlama talqinlardan holi ravishda yoritishga yordam berdi.

Bundan tashqari, zamonaviy tarixshunoslik tamoyillariga tayangan holda Shermuhammadbek faoliyatiga xolis va obʼektiv baho berishga intilindi. Natijada, uning milliy-ozodlik harakatidagi oʻrni siyosiy, mafkuraviy va harbiy jihatdan yanada aniqroq ochib berildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

XX asr boshlarida Fargʻona vodiysida yuzaga kelgan mustamlakachilikka qarshi harakatlar ichida Shermuhammadbek (1893-1970) oʻzining siyosiy yetakchilik qobiliyati, harbiy mahorati va xalq orasidagi yuksak obroʻ-eʼtibori bilan alohida ajralib turgan shaxs edi. Arxiv hujjatlari va zamondoshlari xotiralarida u sodda, kamtar, halol va adolatparvar inson sifatida tasvirlanadi. Uning ichki pokligi va

xalqparvarligi bois, “betahorat ot minmagan, yasanishni lozim topmagan, kamgap inson” sifatida eslab o‘tilishi ham bejiz emas [1, 136].

Shermuhammadbekning xalq orasidagi obro‘-e‘tibori faqat shaxsiy fazilatlari bilan emas, balki milliy-ozodlik harakatidagi faoliyati bilan ham chambarchas bog‘liq edi. U nafaqat qurolli kurashni uyushtirgan qo‘mondon, balki mafkuraviy jihatdan ham xalqni birlashtira olgan lider sifatida tarixda o‘z nomini qoldirdi. Uning faoliyati Sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, xalq xotirasida mustaqillik timsoli sifatida saqlanib kelmoqda.

1920-yillar boshida Sovet qo‘shinlari Farg‘ona vodiysidagi milliy-ozodlik harakatiga keskin zarbalar berdi. Bu davrda Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va Xolxo‘ja kabi mashhur qo‘rboshilarning kuchlari asosiy nishonga aylandi. Jumladan, 1920-yil yanvarida qizil qo‘shinlar Bachqir hududini egallab, Ergash qo‘shini ustidan ustunlikka erishdi. Shu bilan bir paytda Monstrov boshchiligidagi dehqonlar armiyasi ham tor-mor qilinib, Gulcha qal‘asi bosib olindi va Monstrovning o‘zi asirga tushdi. Bu voqealar Sovet hukumatining Farg‘ona vodiysida istiqloqlilik harakatini bostirish yo‘lida olib borgan keng ko‘lamli harbiy yurishlarining yaqqol dalilidir.

1920-yil fevralida Garbuva-Qoratepa-Shahrixon yo‘nalishida Shermuhammadbek boshchiligidagi qo‘shinlarga qizil armiya tomonidan kuchli zarba berildi. Og‘ir janglardan so‘ng u Oloy vodiysiga chekinishga majbur bo‘ldi. Shu davrda qizil qo‘shinlar Madaminbek lashkariga ham hujum uyushtirib, Norin va Qoradaryo qo‘shilishida unga sezilarli talofatlar yetkazdilar.

Sovet qo‘mondonlari istiqloqlilik harakatini faqat harbiy kuch bilan emas, balki siyosiy yo‘llar orqali ham bostirishga urindilar. Qo‘rboshilarga muzokaralar taklif qilindi. Murakkab siyosiy sharoitda ayrim rahbarlar bu taklifni qabul qilish yo‘lini tanladilar. Jumladan, 1920-yil mart oyida Madaminbek sovetlar bilan sulh imzolab, o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Kelishuvga ko‘ra, u va uning 1200 dan ortiq yigitlari daxlsizlik, qurol saqlash huquqi hamda tinchlikni ta‘minlash jarayonida ishtirok etish imtiyoziga ega bo‘lishlari kerak edi. Biroq oradan ko‘p o‘tmay, bu shartlar buzildi va Madaminbek sovetlarning siyosiy makri qurboniga aylandi [2, 254-255].

Madaminbek sulhni foydali yo‘l deb hisoblab, boshqa qo‘rboshilarga ham sovetlar bilan muzokara olib borishni tavsiya qildi. Ammo Shermuhammadbek va Xolxo‘ja bu taklifni qat‘iyan rad etib, uni xoinlikda aybladilar. Natijada Madaminbek qatl qilindi. Bu fojiali voqea vodiydagi qo‘rboshilar o‘rtasida ishonchsizlik va ichki ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Shunga qaramay, istiqloqlilik harakati to‘xtamadi. 1920-1923-yillarda kurash yanada jonlanib, Shermuhammadbek, uning ukasi Nurmuhhammadbek, shuningdek,

Islom Pahlavon va Rahmonqul kabi qo‘rboshilar milliy ozodlik harakatiga rahbarlik qildilar. Ularning jasorati, vatanparvarligi va mustaqillik yo‘lidagi fidoyiligi xalq xotirasida o‘chmas iz qoldirdi. Farg‘onada boshlangan bu qarshilik keyinchalik butun Turkiston bo‘ylab yoyildi. Shermuhammadbek esa bu davrning eng sobitqadam, qat’iyatli va xalqparvar rahbarlaridan biri sifatida tarixda muhrlandi.

1920-yilning yoz va kuz oylarida Turkistondagi istiqlolchilik harakati yangi bosqichga ko‘tarildi. Sovet hukmronligiga qarshi kurash yanada avj olib, tobora murosasiz tus oldi. Ana shu murakkab davrda Farg‘ona vodiysida istiqlol bayrog‘ini baland ko‘targan shaxs Shermuhammadbek (1893-970) bo‘ldi. U xalq ishonchini qozongan, jasoratli va xalqaro tajribaga ega qo‘rboshi sifatida harakatning yetakchiligiga chiqdi.

1920-yil 3-may kuni Oltiariq tumanidagi G‘aribota qishlog‘ida vodiyning turli hududlaridan kelgan qo‘rboshilar hamda tinch aholi vakillari ishtirokida tarixiy qurultoy o‘tkazildi. Unda “Turkiston – Turk mustaqil islom jumhuriyati”, ya’ni “Turkiston muvaqqat hukumati” tuzildi. Qurultoy qaroriga ko‘ra, Shermuhammadbek hukumat raisi va islom qo‘shinlarining oliy qo‘mondoni – “Amir al-muslimin” etib saylandi [3, 12].

Shermuhammadbek boshchiligidagi istiqlol harakati erk va ozodlik timsoli bo‘lgan yashil bayroq ostida tezlik bilan kuchaya bordi. Ilgari Madaminbek bilan birga faoliyat yuritgan yoki keyinchalik sovetlarga taslim bo‘lgan sobiq qo‘rboshilar ham o‘z yigitlari bilan Shermuhammadbek lashkariga qo‘shildilar. Sovet manbalarida bu holat shunday izohlangan: *“Agar Madaminbek eng kuchli qo‘rboshi bo‘lgan bo‘lsa, Shermuhammadbek eng xayflisi edi”*.

1920-yillarda Shermuhammadbek rahbarligidagi Farg‘ona vodiysidagi harakat sovet bosqiniga qarshi o‘zining siyosiy va harbiy tuzilmasini shakllantirdi. Ozod qilingan hududlarda qadimiy an‘analarga asoslangan boshqaruv tizimi qayta tiklandi. Ellikboshilik, yuzboshilik va mingboshilik lavozimlari joriy qilinib, soliqlar aholidan ellikboshilar orqali yig‘ilib hukumat xazinasiga yo‘naltirildi. Bu mablag‘lar faqat zarur ehtiyojlar – oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va mudofaa xarajatlariga sarflandi. Boylar, savdogarlar va ulamolardan olinadigan soliqlar ham belgilangan bo‘lsa-da, ularning miqdori sovet hokimiyati qo‘ygan og‘ir soliqlarga nisbatan ancha yengil edi.

Shermuhammadbek harbiy islohotlarga ham katta e’tibor qaratgan. U jangovar tajribaga ega yigitlardan iborat maxsus otryad tashkil etib, uni alohida jangovar kuch sifatida shakllantirdi. Ushbu otryad a’zolari o‘ziga xos harbiy libos kiygan: yarim oy va yulduz belgili kiyimlar, qizil do‘ppi, kalta yaktak, charm patrontash va rus uslubidagi etiklar. Harbiy kiyimlar mahalliy chevarlar tomonidan tikilgan, jangchilarning oziq-ovqat va dori-darmon ta’minoti esa mahalliy aholi zimmasiga

yuklatilgan [4, 51-52].

O'sha davr Turkiston MIK raisi In'omjon Xidiraliyev 1920-yil sentabrda bosmachilar (istiqlolchilar) soni 70 ming kishiga yetganini qayd etib, bu holat sovetlarni jiddiy tashvishga solganini ta'kidlaydi.

1921-yil bahorida Shermuhammadbek yetakchiligidagi kuchlar sovet hokimiyati vakillari bilan muzokaralarga kirishdi. Uchrashuvda qo'rboshining eng yaqin va nufuzli safdoshi Aliyorbek o'z talablarini ilgari surdi. Unga ko'ra: shariat qonunlariga to'liq amal qilish, imom va noiblarni xalq tomonidan mustaqil saylash, shuningdek, oziq-ovqat taqsimotini bekor qilish talab etildi. Bu shartlar harakatning diniy-ijtimoiy tamoyillarga sodiqligini yaqqol namoyon qilardi. Biroq sovet hukumati bu talablarni qat'iyan rad etdi. Oradan ko'p o'tmay, Aliyorbek Qizil Armiya tomonidan hiyla bilan qo'lga olinib, 1921-yil noyabrda revolyutsion tribunal hukmi bilan otib tashlandi [5, 18].

Shu yili sentabr oyida sovet qo'shinlari Farg'ona vodiysida keng ko'lamli hujum boshladi. Ikki asosiy yo'nalishda – Marg'ilonda Shermuhammadbek, Andijonda esa Isroil qo'rboshi boshchiligidagi kuchlarga qarshi harbiy amaliyotlar olib borildi. 1-noyabr kuni esa Muhiddinbek lashkarlariga qarshi janglar boshlandi. Qizil Armiya uch oy davomida Shermuhammadbekning asosiy tayanch punkti – Garbuvo qishlog'ini egallashga muvaffaq bo'lmadi. Harbiy ustunlik bir muddat sovetlar, bir muddat istiqloqlilik kuchlari tomonida bo'lib turdi.

Sovet qo'mondonligi bu davrda faqat qurol kuchiga emas, balki siyosiy-psixologik taktikalarga ham tayandi. Xususan, ular Farg'ona vodiysidagi o'zbek qo'rboshilarini tog'larda faoliyat yuritayotgan qirg'iz guruhlariga qarshi qo'yishga urinib, ichki kelishmovchiliklarni kuchaytirdi. Natijada Shermuhammadbek va Muhiddinbek o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keldi. Sovet razvedkasi va targ'iboti bu nizolarni yanada chuqurlashtirdi. 1921-yil davomida yuz bergan janglarda milliy harakat qariyb 2500 nafar yigitidan ayrildi.

Shu murakkab sharoitda Shermuhammadbek Marg'ilon yaqinida barcha qo'rboshilar ishtirokida umumiy qurultoy chaqirdi. Qurultoyga diniy ulamolar va ma'rifatparvar ziyolilar ham taklif qilindi [6, 24]. Shermuhammadbek yig'ilishda mavjud vaziyatni tahlil qilar ekan, kurash taktikasini o'zgartirish zarurligini ta'kidladi. U yirik to'qnashuvlardan voz kechib, kichik harbiy guruhlar orqali Qizil Armiya qismlariga mobil zarbalar berishni asosiy jang usuli sifatida ilgari surdi.

1922-yil 15-20-aprel kunlari Samarqandda yarim yashirin tarzda o'tkazilgan Turkiston musulmonlarining II Qurultoyida Shermuhammadbek katta ma'ruza bilan ishtirok etdi. Qurultoyda 7 bo'lim va 36 moddadan iborat muvaqqat konstitutsiya qabul qilindi. Unga ko'ra, Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Ettisuv, Zakaspiy

viloyatlari hamda Amudaryo bo‘limi “Turkiston – Turk mustaqil islom jumhuriyati” tarkibiga kiritildi. Yangi hukumat 15 kishidan iborat bo‘lib, prezident, vitse-prezident va bosh kotibdan tashkil topgan ijroiya qo‘mitaga tayangan. Shuningdek, harbiy ishlar, tashqi ishlar, moliya va adliya vazirliklari tuzildi. Hukumat a‘zolari asosan turli viloyatlarning harbiy qo‘mondonlari orasidan saylangan edi [4, 51-52].

Samarqandda rasmiy tasdiqlangan hukumat qisqa fursatda Qizil Armiya bosimi tufayli joyini o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Uch oy ichida hukumat qarorgohi Samarqanddan Namangan, O‘sh, Marg‘ilon yaqinidagi G‘oyibota va Norin kabi beshta manzilga ko‘chirilgan. Bu holat istiqloqlolchilarning doimiy tayanch va qo‘llovga muhtoj bo‘lganini, biroq shu bilan birga ular siyosiy hamda tashkiliy jihatdan ma‘lum tajriba orttirib, birlashgan kuch sifatida harakat qilganini ko‘rsatadi.

1922-yilda sovet hokimiyati “bosmachilik” deb atagan milliy-ozodlik harakatini tugatish maqsadida O‘rta Osiyoda keng ko‘lamli harbiy-siyosiy choralar ko‘ra boshladi. Bu jarayonga G.K. Orjonikidze va Eliava kabi yuqori martabali arboblarni jalb qilinib, Turkistonga yuborildi. Ularning tashabbusi bilan RKP(b) O‘rta Osiyo byurosi (Sredazbyuro) tashkil etildi va u bosmachilikka qarshi kurashning bosh siyosiy markaziga aylandi. Byuroning ko‘rsatmasiga asosan Farg‘ona vodiysiga qo‘shimcha qo‘shinlar safarbar qilindi hamda Buxoro va Farg‘onada keng miqyosdagi harbiy harakatlar boshlandi.

Shermuhammadbek boshchiligidagi kuchlar Baliqchi va Sirdaryo bo‘ylarida qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Ayniqsa, 25 kun davom etgan G‘orbuvo janglari minglab qurbonlar bilan milliy ozodlik kurashi tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Og‘ir yo‘qotishlarga qaramay, Shermuhammadbek ichki kelishmovchiliklarni bartaraf qilib, kuchlarni birlashtira oldi va Uchqo‘rg‘onni egalladi. Biroq Qizil Armiya bosimining kuchayishi uni yana chekinishga majbur qildi. Shu tariqa u O‘sh orqali O‘zganga yetib bordi.

1922-yilning 15-25-iyul kunlari O‘zgan atrofida kechgan janglarda Anvar Posho yordam so‘radi. Shermuhammadbek uning iltimosiga binoan Nurmuhhammadbek boshchiligida qo‘shimcha kuch yubordi. O‘zgandan chiqqan Shermuhammadbek Oloy tomonga yo‘l oldi. Qizil Armiya qo‘mondoni Yudin uni quvishda davom etdi, biroq Shermuhammadbek Art dovonidan o‘tib, kurashni davom ettirish imkoniga ega bo‘ldi.

1922-yil sentabrida O‘sh shahridagi Hazrati Jome’ masjidida Muhiddinbek va uning safdoshlari ustidan ochiq sud jarayoni o‘tkazilib, ular omma oldida otuvga hukm qilindi. Xuddi shu davrda Qo‘qonda Rahmonqulibek va boshqa ko‘plab ishtirokchilar ham sud qilinish, qatl etildi.

1923-yilda yuz bergan ocharchilik mahalliy aholining sovet hokimiyatiga

munosabatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Sovet hukmronligi aholi orasida oziq-ovqat va urug'lik g'alla tarqatish orqali e'tibor va qo'llovni qozona oldi. Natijada milliy harakat tobora zaiflashib, harbiy kuchlardan mahrum bo'la boshladi.

Shu davrda Shermuhammadbek Afg'onistonga o'tishga muvaffaq bo'ladi. U o'z xotiralarida Badaxshonga kirib kelganida Afg'oniston podshosi Omonulloxon vakillari tomonidan tantanali kutib olinganini alohida ta'kidlaydi. Ular unga ruhiy madad berib, "taqdir shunday yozilgan" deya tasalli bildirgan edilar. Shermuhammadbek Pomirga yetib borgach, bu yerda yangi qo'shin tuzishni rejalashtiradi. Ammo zarur moddiy resurslarning yetishmasligi bu niyatni amalga oshirishga imkon bermaydi va u yana Afg'onistonga qaytishga majbur bo'ladi.

1925-yildan boshlab Sovet-Afg'on munosabatlarining mustahkamlanishi oqibatida Afg'oniston hukumati sovetlarga qarshi kuchlarga boshpana bermaslik siyosatini yo'lga qo'ydi. Bu esa Farg'onadan chiqqan muhojirlarning hayotini yanada mushkullashtirdi. Shunga qaramay, Shermuhammadbek kurash yo'lidan chekinmadi. U ilgari unga muxolif bo'lgan ayrim qo'rboshilar bilan Afg'onistonda uchrashib, kelishuvlarga erishdi. Jumladan, Ibrohimbek Laqay bilan bir necha bor uchrashuvlar o'tkazilib, kechirimlar va fikr almashuvlar yuz berdi [6, 110-123].

1930-yilgacha Shermuhammadbek Afg'onistondan Sovet kuchlariga qarshi ikki bor yurish uyushtirdi. Biroq bu harakatlar kutilgan natijani bermadi. Vatanni tark etar chog'ida u daryo bo'yida to'xtab, yuragini ezgan sog'inchi va armonlar bilan ona yurt sari termulganini xotiralarida qayd etadi.

Keyingi hayotining barchasi muhojirlikda kechdi. 1945-yilgacha u Afg'oniston va Hindistonda, 1951-1959-yillarda Pokistonda, 1959-yildan umrining oxirigacha esa Turkiyaning Adana shahrida istiqomat qildi. Vatan sog'inchi unga umr bo'yi hamroh bo'ldi. Nihoyat, 1970-yil 10-mart kuni u 77 yoshida olamdan o'tdi.

XULOSA

Shermuhammad qo'rboshi Turkiston tarixida xalq ozodligi, din va milliy qadriyatlarni himoya qilish yo'lida mardona kurash olib borgan jasur sarkarda sifatida alohida o'rin egallaydi. Maqolada keltirilgan tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, u sovet bosqiniga qarshi eng barqaror va siyosiy jihatdan yetuk pozitsiyaga ega bo'lgan, xalq orasida yuksak obro'-e'tibor qozongan yetakchilardan biri edi. Shermuhammadbekning mustaqil Turkiston davlatini barpo etish yo'lidagi intilishlari, diniy hamda ijtimoiy qadriyatlarni asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlari uning shaxsini oddiy harbiy qo'rboshidan yuksak darajadagi siyosiy arbob darajasiga ko'tardi.

U muhojirlik yillarida ham kurashdan to'xtamadi. Afg'oniston, Hindiston,

Pokiston va nihoyat Turkiyada yashab, umrining oxirigacha Vatan g‘ami va ozodlik orzusi bilan yashadi. Qiyin sinovlar, mashaqqatli hayot yo‘li va dushmanlarning turli ig‘vogar targ‘ibotlariga qaramay, u hech qachon mag‘lub bo‘lmadi. Bu hol Shermuhammad qo‘rboshining qalbida Vatanga bo‘lgan buyuk muhabbat va mustaqillik g‘oyasi abadiy barhayot bo‘lganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda uning siymosi, ayniqsa, mustaqillik qadriyatlarini chuqur anglayotgan yosh avlod uchun bebaho ijtimoiy-ma‘naviy namuna bo‘lib xizmat qilishi lozim. Shermuhammad qo‘rboshining boy tarixiy merosi hali to‘liq o‘rganilmagan bo‘lsa-da, uni chuqur tahlil qilish va adolatli baholash o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. U mustamlakachilik zulmiga qarshi mardlarcha kurash olib borgan milliy qahramon sifatida tarix sahifalarida porlab turadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 yillar). – Toshkent: Universitet, 2002. – B. 320.
2. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – B. 456.
3. Rajabov Q. K. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujodalalar (1917-1935-yillar). – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 280 .
4. Isoqboyev, Alisher. Istiqlolchilik harakati tarixi: o‘quv-uslubiy majmua. – Namangan: 2008. – B. 150.
5. Rajabov Q. Shermuhammadbek (risola). – Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011. – B. 64.
6. Xo‘jayev, Mansurxo‘ja. Shermuhammadbek qo‘rboshi. – Toshkent: Sharq NMAK, 2008. – B. 200.



IJTIMOY FANLAR

MUSTAQILLIK DAVRI ADABIYOTIDA GENDER MUNOSABATLARINING BADIY TALQINI

MAQSUDALIYEVA YODGORAXON NUMONJON QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida magistranti

Email: yodgorxonmaqsudaliyeva@gmail.com

Tel.: +998 97 225-27-94

UDK: 82.11.9

<https://orcid.org/0009-0007-0415-8402>

Kalit so‘zlar:

gender tengligi,
O‘zbek adabiyoti,
xotin-qizlar huquqi,
heterojen kontekstlar,
gender dinamikasi,
sotsialistik realizm,
gipertrofiya.

Annotatsiya:

Adabiyotda gender ifodasi – bu ijtimoiy normalar, qadriyatlar hamda hokimiyat tuzilmalarini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti doirasida gender dinamikasini o‘rganish orqali madaniy jihatdan rang-barang kontekstlarda shaxsiyat, agentlik (ya’ni insonning ijtimoiy faoliyat yuritish imkoniyati) va ijtimoiy o‘zgarishlarning murakkab hamda ko‘p qatlamli manzarasini yoritish imkoniyati yuzaga keladi. So‘nggi yillarda bu yo‘nalish akademik muhitda alohida e’tibor markaziga aylangan bo‘lib, adabiy matnlarda gender tasviri, unga oid diskurslar va ayol obrazlarining tahlili tobora dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida ayol obrazlarining tasviri, ularning badiiy talqini hamda gender dinamikasining badiiy hikoyalardagi ifodalanish xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИТЕРАТУРЕ ПЕРИОДА НЕЗАВИСИМОСТИ

Ключевые слова:

гендерное
равенство,
узбекская
литература,
права женщин,

Аннотация: Гендерное выражение в литературе служит важной методологической основой для анализа социальных норм, ценностей и властных структур. В частности, изучение гендерной динамики в рамках узбекской литературы позволяет осветить сложную и многослойную картину личности, агентства (т.е.

гетерогенные
контексты,
гендерная
динамика,
социалистический
реализм,
гипертрофия.

возможности человека осуществлять социальную деятельность) и социальных изменений в культурно разнообразных контекстах. В последние годы это направление стало центром особого внимания в академической среде, и изображение гендера в литературных текстах, связанные с ним дискурсы и анализ женских образов становятся все более актуальными темами. В данной статье глубоко анализируются изображение женских образов в современной узбекской литературе, их художественная интерпретация и особенности выражения гендерной динамики в художественных рассказах.

ARTISTIC INTERPRETATION OF GENDER RELATIONS IN THE LITERATURE OF THE INDEPENDENCE PERIOD

Keywords:

gender equality,
Uzbek literature,
women's rights,
heterogeneous
contexts, gender
dynamics, socialist
realism, hypertrophy.

Abstract:

Gender expression in literature serves as an important methodological basis for analyzing social norms, values, and power structures. Especially within the framework of Uzbek literature, by studying gender dynamics, there is an opportunity to illuminate the complex and multi-layered picture of personality, agency (the possibility of a person's social activity) and social changes in culturally diverse contexts. In recent years, this area has become a center of special attention in the academic environment, and the depiction of gender in literary texts, related discourses, and the analysis of female images are becoming increasingly relevant topics. This article thoroughly analyzes the depiction of female characters in modern Uzbek literature, their artistic interpretation, and the features of expressing gender dynamics in literary stories.

KIRISH

XX-XXI asrlar o'zbek xalqining boy madaniyati va badiiy tafakkuri tarixida alohida, o'ziga xos bosqich sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda o'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'lida realistik tasvir tamoyili yetakchi o'ringa chiqdi. Badiiy adabiyot ijtimoiy hayotga, inson dardiga yanada yaqinlashdi; unda qalamga olingan mavzular zamonaviy muhit va umuminsoniy muammolar bilan chambarchas bog'liq holda

yoritila boshlandi.

O‘zbekiston mustaqillik davri adabiyotida ayniqsa gender masalasi dolzarb ijtimoiy-madaniy muammolardan biri sifatida ilgari surildi. Bu masala ijtimoiy normalar, qadriyatlar va hokimiyat tuzilmalarini o‘rganishda muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ldi. Gender tengligi, ya’ni erkaklar va ayollar o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy tenglik, faqat oilaviy munosabatlar doirasida emas, balki jamiyat hayotining barcha jabhalarida ikki jins vakillarining teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini nazarda tutadi.

Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlashicha, gender tengligi patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlar rivojining yangi bosqichini anglatadi. Bu tamoyil jamiyatda shaxsning to‘laqonli shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi ijtimoiy to‘siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga, erkaklar va ayollarning teng ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Gender masalasi xalqaro psixologik izlanishlarda ham keng yoritilmoqda. Xususan, amerikalik olim Devid Mayers jins, genetika va madaniyat o‘zaro ta’siri doirasida genderni – erkaklik va ayollikka xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarni tavsiflovchi tushuncha sifatida talqin qiladi. U jinsiy tafovutlarni tahlil qilish jarayonida ba’zi holatlarda ayollar erkaklarga nisbatan ustunlikka ega bo‘lishi mumkinligini ham alohida ta’kidlaydi [1, 222].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek adabiyotida gender dinamikasini tahlil qilish madaniy jihatdan rang-barang kontekstlarda shaxsiyat, agentlik (ijtimoiy faoliyat imkoniyati) va ijtimoiy o‘zgarishlar murakkabliklarini chuqur ochib berishga yordam beradi. So‘nggi yillarda akademik doiralarda adabiyotdagi gender tasviri va u bilan bog‘liq ideologik hamda estetik yondashuvlar bo‘yicha olib borilayotgan muzokaralarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi gender masalalarini yoritish borasida yangi badiiy yondashuvlar, obrazlar va nuqtayi nazarlarni ilgari surmoqda. Bu holat ko‘p asrlik tarixiy an’analar bilan sug‘orilgan o‘zbek adabiyotining siyosiy, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ta’sirida qanday o‘zgarishga uchraganini ko‘rsatadi.

Xususan, sho‘rolar davridan mustaqillikkacha bo‘lgan davrda adabiy nutq va ifoda vositalari, badiiy til va yondashuvlar tub o‘zgarishlarga uchradi. Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi gender tasvirlarini o‘rganish – jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni, ularning faolligi, shaxsiyati va ijtimoiy ongidagi o‘zgarishlarni chuqur anglashda muhim tahliliy vosita, dolzarb ilmiy-ijodiy yo‘nalish sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek adabiyoti turli janr va tematik izlanishlar bilan ajralib turuvchi, bir necha asrlarni qamrab olgan boy va chuqur tarixiy merosga ega. Ayniqsa, XX asr davomida, butun Sovet davri mobaynida o‘zbek adabiyoti sotsialistik realizm g‘oyaviy-estetik tamoyillari asosida shakllandi va rivojlandi [2]. Bu davr adabiyotida gender tasviri asosan ayol obrazini kuchayib borayotgan sotsialistik tuzum qurilishidagi faol ishtirokchi sifatida tasvirlashga qaratilgan edi.

Biroq, akademik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv ko‘pincha gender stereotiplari va an‘anaviy me‘yorlarning takrorlanishiga xizmat qilgan. Natijada ayol personajlar badiiy adabiyotda odatda cheklangan ijtimoiy rollarda – fidoyi ona, sadoqatli umr yo‘ldosh yoki mehnatkash ayol sifatida namoyon bo‘lgan [3]. Bu esa ayol shaxsining ichki dunyosi, ma‘naviy-ruhiy izlanishlari va jamiyatdagi mustaqil pozitsiyasi ko‘proq soya ostida qolganligini anglatadi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda yuz bergan keng ko‘lamli ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar adabiy jarayonga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, milliylikni tiklash, diniy-ma‘naviy qadriyatlarning qayta jonlanishi va eng asosiysi, shaxs erkinligiga asoslangan g‘oyaviy yondashuv zamonaviy adabiyotda yangi mavzular va estetik izlanishlar uchun zamin yaratdi. Bu jarayonda gender tengligi, ayollar huquqlari va jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasi masalalari tobora dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida gender tasviri keng qamrovli va ko‘p qirralidir. Ko‘plab adiblar ijodida bu masala badiiy-estetik jihatdan yangi yondashuvlar asosida yoritilmoqda. Tanqidiy nazarlar shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan asarlarda ayol obrazi tobora mustaqil fikrli, ichki ruhiy olami boy, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglaydigan, faol shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday obrazlar orqali gender masalasining nafaqat ijtimoiy, balki shaxsiy-intellektual mezonlarda talqin etilishi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy obyekti sifatida mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti tanlab olindi. Uning doirasida gender munosabatlarining adabiyotdagi badiiy talqinini o‘rganish asosiy maqsad qilib belgilandi. Ayniqsa, bu borada o‘zbek adabiyotidagi ayol yozuvchilarning ijodiga alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva kabi adibalar asarlari tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Ularning nasriy va she‘riy ijodi orqali zamonaviy ayolning murakkab ichki kechinmalari, orzu-intilishlari va ijtimoiy kurashlari badiiy ifodasini topgan.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida boshqa ko‘plab o‘zbek yozuvchilarining asarlari ham qamrab olinib, gender munosabatlarining tasviri qiyosiy adabiy

yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlillar davomida zamonaviy o‘zbek adabiyotida genderga oid takrorlanuvchi mavzular, obrazlar tizimi va uslubiy qonuniyatlar aniqlandi.

Masalan, A.Yo‘ldoshevning “Alvido, go‘zal...” hikoyasida ayol obrazi jamiyat bosimi ostida ezilgan, biroq ichki kuchini yo‘qotmagan, irodali shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali yozuvchi sukut orqasidagi ichki isyonni, ziddiyatni va o‘zgarishga bo‘lgan ehtiyojni badiiy vositalar orqali ochib beradi. Ayolning ichki qarorlar olami, ruhiy iztiroblari va sukutdagi qarshiligi uning mustaqil shaxs sifatida shakllanganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyevaning she‘riyatida ayollik tushunchasi zaiflik emas, balki jasorat, oriyat va vijdon timsoli sifatida talqin qilinadi. Shoironing asarlari ayol ruhiyati va ongining murakkab qatlamlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, ular orqali erkak va ayol orasidagi muvozanat, erkinlik va tenglik masalalari poetik ifodada namoyon bo‘ladi. Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol obrazi faqat ijtimoiy rol emas, balki axloqiy-estetik tamoyillarni ifodalovchi timsol sifatida gavdalanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologik asosda yondashilib, adabiy-badiiy tahlil, psixologik yondashuv, qiyosiy adabiy tahlil, tarixiy-kontekstual tahlil hamda feministik nazariyalar asosida olib borildi. Bu metodlar yordamida genderga oid badiiy obrazlar har tomonlama yoritilib, ularning tashqi ko‘rinishi, ichki ruhiy holati, ijtimoiy faolligi, shuningdek, erkak va ayol sifatidagi psixologik pozitsiyalari chuqur tahlil etildi. Natijada, zamonaviy o‘zbek adabiyotida gender muammolarining badiiy talqini yanada kompleks, chuqur va zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilayotganligi ayon bo‘ldi.

Qiyosiy adabiy tahlil metodi yordamida mustaqillikdan oldingi va mustaqillikdan keyingi o‘zbek adabiyotidagi erkak va ayol obrazlarining qanday o‘zgarishlarga uchragani chuqur tahlil qilindi. Ayniqsa, turli avlod va gender vakillari – ayol va erkak yozuvchilar tomonidan yaratilgan obrazlarda sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan.

Masalan, sovet davri adabiyotida ayol obrazlari, odatda, sadoqatli ona, mehnatkash xotin, fidoyi ishchi kabi me‘yoriy ijtimoiy rollar doirasida tasvirlangan [3, 100]. Bunday obrazlar jamiyat tomonidan belgilangan “ayollik” me‘yorlariga mos ravishda yaratilgan bo‘lib, ularning ichki kechinmalari, shaxsiy orzulari, erkin fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ko‘pincha soyada qolgan. Ayol obrazi ko‘proq jamiyatga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etilgan.

Mustaqillikdan keyingi adabiyotda esa bu yondashuv asta-sekin o‘zgarib bordi.

Endilikda ayol obrazlari tobora ko‘proq mustaqil individ sifatida – ya’ni o‘z orzu-ideallari, ichki ziddiyatlari, tanlov erki bilan tasvirlanmoqda. Masalan, Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalarida ayollar ijtimoiy hayotda, ta’lim va mehnat sohasida faol ishtirok etuvchi, hayot sinovlariga bardosh bera oladigan kuchli shaxslar sifatida gavdalanadi.

Tarixiy-kontekstual tahlil esa adiblar tomonidan yaratilgan asarlarni ularning yashagan va ijod qilgan davri – ya’ni ijtimoiy-siyosiy muhit, rasmiy gender siyosati, jamiyatdagi ayollarga bo‘lgan munosabat va madaniy qadriyatlar bilan uzviy aloqada o‘rganish imkonini berdi. Ayol obrazining shakllanishi, mazkur davrga xos ijtimoiy me’yorlar va genderga oid rasmiy qarashlar ta’sirida qanday rivojlangani aniqlashtirildi [4, 10].

Psixologik tahlilda esa erkak va ayol obrazlarining ichki kechinmalari, ruhiy qarama-qarshiliklari, jamiyat bosimi ostidagi psixologik pozitsiyasi o‘rganildi. Asarlar qahramonlarining ichki monologi, qaror qabul qilish jarayonidagi psixologik dinamikasi orqali ular qanday shaxsiy o‘zgarishlarga uchrangani aniqlab berildi. Stereotiplarga bo‘ysunish yoki ularga qarshi ichki kurash obrazlar xarakterini ochishda muhim omil bo‘ldi.

Feministik estetika mezonlarida olib borilgan tahlilda esa ayol obrazi nafaqat badiiy timsol, balki ijtimoiy-subyektiv mavjudot – ya’ni erkin, faol, qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida baholandi. Bu yondashuv mualliflarning genderga nisbatan munosabatini, ularning badiiy-estetik qarashlari va ayolni qanday ijtimoiy pozitsiyada tasvirlashga intilganini ochib berdi. Ayol endilikda jamiyatning passiv bo‘g‘ini emas, balki ongli, muvozanatli va faol ishtirokchisi sifatida talqin qilinmoqda.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mustaqillik davridan keyingi o‘zbek adabiyotida gender munosabatlarining badiiy talqini sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Bu davr adabiyoti faqat estetik qadriyatlarni aks ettiruvchi san’at shakli bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy ong va tafakkurni shakllantiruvchi kuchli omil sifatida gender masalalarini yoritishda faol ishtirok etmoqda. Bunda quyidagi asosiy tendensiyalar ajralib turadi:

1. *Ayol obrazining murakkablashuvi va chuqurlashuvi:* An’anaviy adabiyotda ona, xotin yoki kelin kabi ijtimoiy rollar bilan chegaralangan ayol obrazlari o‘rnini, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi, shaxsiy pozitsiyaga ega zamonaviy ayol qahramonlar egallamoqda. Bu holat adabiyotda gender tengligiga bo‘lgan e’tibor kuchayganidan dalolat beradi.

2. *Erkak obrazining yangicha talqini:* Mustaqillik davri adabiyotida erkak

qahramonlar ham endi bir yoqlama, qat'iy va avtoritar emas, balki murakkab psixologik kechinmalarga ega, murosaga moyil, o'zgaruvchan va insoniy hissiyotlarga boy shaxslar sifatida tasvirlanmoqda. Bu esa gender stereotiplarining adabiy buzilishi nuqtasida muhim o'zgarishdir.

3. *Urbanistik va an'anaviy ayol obrazlari o'rtasidagi tafovut:* Shahar ayollari erkin fikrlovchi, faol, bilimli va o'z yo'lini tanlay oladigan qahramonlar sifatida tasvirlansa, qishloq ayollari odatda an'anaviy qadriyatlarga sodiq, sabrli, oilaparvar, mas'uliyatli obrazlar ko'rinishida gavdalanadi. Biroq har ikki guruhda ham ruhiy bardoshlilik, ichki kuch va ma'naviy qat'iyat asosiy xususiyat bo'lib qolmoqda.

4. *Feministik g'oyalarning kuchayib borishi:* Ayniqsa, ayol adibalar ijodida gender tengligi, shaxsiy tanlov erkinligi, mehnat va sevgi huquqlari kabi g'oyalar tobora ochiq, tanqidiy yondashuvlar orqali ifodalanmoqda. Halima Xudoyberdiyeva, Zulfiya Qurolboy qizi, Orzigul Komilova kabi ijodkorlar asarlarida ayol shaxsi mustaqil va faol ijtimoiy subyekt sifatida talqin qilinadi.

5. *Jamiyatdagi gender stereotiplarga badiiy munosabat:* Yozuvchilar asarlarida ayolni faqat oilaviy rol bilan cheklamasdan, uni siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida ko'rsatishga intilmoqda. Bu orqali ular an'anaviy gender stereotiplariga qarshi badiiy kurash olib bormoqda.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazining nafaqat tashqi faoliyati, balki ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, qarama-qarshi his-tuyg'ulari va hayotiy tanlovlari ham chuqur psixologik tahlil asosida ochib berilmoqda. Bu holat adabiyotda ruhiy yetuklikka intilish va shaxsning ichki dunyosini yoritishga qaratilgan yangi tendensiyalarni ko'rsatadi.

Bundan tashqari, yozuvchilar gender masalalarini ijtimoiy muammo sifatida ilgari surmoqdalar. Adabiyotda ayollar huquqlarining buzilishi, majburiy nikoh, oilaviy zo'ravonlik, ijtimoiy bosim kabi holatlar ochiq tilga olinmoqda. Bu esa gender polilog – ya'ni erkak va ayol mualliflarning bir masalaga turlicha qarashlarini aks ettiruvchi adabiy muloqot shakllanishiga olib kelmoqda. Masalan, ayol yozuvchilar ayol obrazini ichki kechinmalar va shaxsiy izlanishlar orqali yoritishga moyil bo'lsa, erkak yozuvchilar uni ko'proq tashqi ijtimoiy fon orqali ifodalashga intiladi.

Bularning barchasi shuni ko'rsatmoqdaki, mustaqillik davrida gender tengligini badiiy aks ettirish orqali adabiyot jamiyatda gender madaniyatini shakllantirishga faol hissa qo'shmoqda. Erkak va ayol rollarining qayta talqini, ularning o'zaro munosabatlari, hurmat, tenglik va mas'uliyat masalalari san'at orqali ommaga yetkazilmoqda. Shu bilan birga, yozuvchilar o'rtasida bu masalaga nisbatan yondashuvlar bir xil emas: ba'zilar an'anaviy qadriyatlarni himoya qilsa, boshqalar ularni zamonaviy talablarga mos holda yangilashga intilmoqda. Bu ichki adabiy-



dunyoqarash qarama-qarshiliklari esa gender munosabatlarining ko‘p qirrali badiiy talqinini shakllantirmoqda.

Shuningdek, mustaqillik davri adabiyotida tarixiy ayollar – Bibixonim, Nodira, Uvaysiy kabi siymolar bilan zamonaviy ayollar obrazlari o‘rtasida qiyosiy paralellar chizilmoqda. Yozuvchilar ushbu tarixiy shaxslarning jasorati, ziyoliligi va ijtimoiy faolligini zamonaviy ayollar uchun namunaviy timsol sifatida talqin qilmoqda. Bu yondashuv orqali adabiyot gender munosabatlarini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib tasvirlashga harakat qilmoqda.

MUHOKAMALAR

O‘zbek adabiyotida xotin-qizlar huquqi masalasi uzoq yillardan buyon adabiy muhokama markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, ayol obrazini yoritishga alohida e‘tibor qaratgan yozuvchi ayollar – Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova va Jamila Ergashevalarning ijodi bu borada o‘zbek adabiyotining unutilmas ma‘naviy hodisasi sifatida qadrlanadi.

Adabiy asarda ayol obrazining yaratilishi hayotiylik, realizm va haqqoniylik mezonlari asosida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur uch ijodkorni birlashtiruvchi asosiy jihat – ularning barchasi ayol kuchi, sabr-toqati va ijtimoiy o‘rnini birinchi planga olib chiqqanidir. Bu jihatlar ularning iztiroblar va quvonchlar, g‘am va shodlik haqidagi mushtarak qarashlarida, shuningdek, yaratgan adabiy-estetik obrazlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Zulfiya Qurolboy qizining “O‘ta og‘ir hayot yo‘li”, “Qiyinchiliklar girdobi”, “Orzular asiri”, Risolat Haydarovanning “Javzo”, Jamila Ergashevaning esa “Tepadagi ayol” kabi asarlari zamonaviy o‘zbek ayolining turmush tarzi, ichki kechinmalari va ijtimoiy pozitsiyasini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodkor ayollar o‘z asarlarida gender tengligi masalalarini badiiy tahlil qilib, yangi, zamonaviy ayol obrazlarini yaratishga intildilar.

Jamila Ergashevaning “Ajdarko‘l”, “Qasos”, “Tanazzul”, “Yopiq kiyimlar”, “Oyna” kabi asarlari zamonaviy inson, ayniqsa, ayol ruhiy olamini ochib berishga qaratilgan. Yozuvchining ayniqsa “Tepadagi ayol” romani kitobxonlar e‘tiboriga tushgan bo‘lib, unda inson ruhi, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar badiiy talqinda yoritilgan.

Risolat Haydarovanning “Javzo” romanida yaratilgan ayol obrazlari o‘zbek romanlarida ayol timsolining yangi bosqichdagi badiiy talqinini ifodalaydi. Husnibonu, Gulnurbegim, O‘g‘ilbibi, Oppoqbegim kabi rang-barang ayol obrazlari o‘ziga xos taqdir va ruhiy kechinmalarga ega. Asarda Qorako‘z begim, Mo‘g‘ulxonim, Xon Ayim, Xadichabegim, Opoqbegim, Ulug‘bibi, Ganjina kabi



timsollar ham yaratilgan bo‘lib, ularning tashqi portreti orqali ichki kechinmalari yoritilgan. Masalan, “to‘q qora soch”, “madaniyatsiz qosh”, “tiniq yuz” kabi ifodalar orqali ayol obrazining nafisligi, go‘zalligi va muhabbatga layoqati tasvirlanadi.

Ta’kidlash joizki, “Javzo” tarixiy roman bo‘lishiga qaramay, unda ayol ruhiyatining chuqur qatlamlari Rim adabiyoti darajasida yoritilmagan bo‘lsa-da, ayollar iztirobi, g‘azabi, g‘amginligi sinchkovlik bilan tasvirlangan. Temuriylar va Shayboniylar davriga oid tarixiy voqealarda ham ayollarning jamiyatdagi o‘rni badiiy mahorat bilan ochib berilgan.

Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova va Jamila Ergashevalar ijodida bugungi kun ayollarining turmush tarzi, orzu-maqсадlari, g‘oya va intilishlari o‘z ifodasini topgan. Har bir asarda ayol dardi, iztiroblari va quvonchlari badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Masalan, A.Yo‘ldoshevning “Alvido, go‘zal...” hikoyasida qayta-qayta takrorlangan go‘zallik timsoli orqali Oysuluv obrazining ma’naviy va tashqi so‘nishi tasvirlanadi: “Shudringdek musaffo, nafis go‘zal”, “qo‘llari juda nozik, oppoq”, “Oysuluv kelinining hayosi, qat’iyatsizligi, vazminligi”. Ushbu tafsilotlar o‘zaro semantik zanjirni tashkil qiladi va matnni chuqur umumlashtirishga olib keladi.

Hikoyada go‘zallikning xunuklikka aylanishi holati yosh hikoyachining ma’naviy poklik haqidagi qarashlari orqali beriladi. Qishloq hayoti hikoyachining nigohi bilan ochiladi. Kundalik hayotni tasvirlashda maksimalistlik va murosasizlik seziladi, biroq bu emotsionallik muallifning ovozi orqali muvozanatga keltirilib, matnga chuqur psixologik va falsafiy ohang beradi [7, 6]. Hikoyadagi ikki pog‘onali yondashuv – hikoyachi nutqidan muallif nutqiga silliq o‘tish – butun asarni hayotning “nasriy” mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Bu yondashuv jamiyatdagi ma’naviy qashshoqlik muammolarini yoritishga zamin yaratadi.

Ma’lumki, o‘tish davrida qadriyatlar qayta baholanadi, dunyoqarash o‘zgaradi va shaxsga nisbatan yangi qarashlar tizimi shakllanadi. Aynan shunday sharoitda hikoya janri adabiyot maydonida mustahkam o‘rnini egalladi. Adabiyotshunos A.Andreev ta’kidlaganidek: “Janrlar tarixiy kurashida, agar u faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lmasa va ayni paytda zamonni badiiy tushunish vositasi bo‘la olmasa, u roman va drama bilan raqobatga dosh berolmaydi” [8, 9].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi o‘zbek adabiyotida ayol obrazlari yanada murakkab, ko‘p qirrali va zamonaviy yondashuvlar asosida talqin etilmoqda. Ayol endi faqatgina oilaviy sadoqat va fidoyilik timsoli emas, balki ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi, o‘z huquqlarini

anglab yetishi va ularni himoya qilishdagi irodasi bilan ham ajralib turadi. Bu esa o‘zbek adabiyotining gender tengligini targ‘ib etuvchi, zamon ruhini ifodalovchi badiiy makonga aylanganidan dalolat beradi.

Gender masalalariga oid badiiy yondashuvlar orqali adabiyotda oldingi va hozirgi ayol obrazlari o‘rtasidagi tafovutlar, erkak va ayol munosabatlarining zamonaviy talqini, feministik g‘oyalar bilan olib borilayotgan badiiy bahslar yoritilmoqda. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy ayol timsollari o‘rtasida o‘tkazilgan qiyosiy tahlillar asosida gender muammolarining ijtimoiy-madaniy ildizlari aniqlanmoqda.

Bugungi yozuvchilar o‘z asarlari orqali jamiyatdagi gender stereotiplarga qarshi fikriy kurash olib borayotganlari, ayol shaxsining qadriyat sifatida tasdiqlanishiga xizmat qilayotganlari bilan alohida e‘tiborga loyiqdirlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshonkulova G. O‘zbek oilalarida gender tenglik munosabatlarini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik omillari // Жамият ва инновациялар. – Toshkent, 2022. № 4 (3). – B. 220-225. URL: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
2. Xo‘jayeva D.D. Ayollar haq-huquqlari va erkinliklarining xalqaro kafolatlari: xalqaro tajriba // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Шнирова О. Хотин-қизлар ҳаракати ривожланиши тарихи, Совет даврида “хотин-қизлар” // Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш. – Toshkent, 2007.
4. Eshmatova Y.B. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini (Independence is an Artistic Interpretation of the Female Psyche in Uzbek Short Stories): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2020. – B. 167.
5. Kim L. Гендер стереотиплари // Гендер муносабатлар назарияси ва амалиётига кириш. – Toshkent, 2007.
6. Azimov A. Islam and the present time. – Tashkent, Uzbekistan, 1991.
7. Abdukayum Y. Collection of short stories. – Toshkent: Yulduz, 2019.
8. Alimova N. The multiculturalism and “New Americans” in the modern American literature // Polish Journal of Science, 2021.



IJTIMOIIY FANLAR

ISLOM GEOGRAFIYASIDA SHAHARLAR: TARIXIY-MADANIY TAHLIL

JO‘RAYEV MUXRIDIN XASANOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: muxriddin241992@gmail.com

UDK: 9:433:91:910

<https://orcid.org/0009-0000-5532-0616>

JO‘RAKULOVA MUKAMBAR TURSUNMUROD QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Tarix va falsafa” kafedrasi talabasi
Email: mukambarjurakulova@dpi.uz

<https://orcid.org/0009-0004-5862-5238>

Kalit so‘zlar:

Islom shaharlari,
shahar unvonlari,
Qubbat al-islom,
baliq va kent,
Turk-islom
urbanizatsiyasi,
O‘rta asr shahar
madaniyati,
tarixiy semantika,
ilmiy markazlar,
Musulmon sharqi,
shahar identiteti.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘rta asr musulmon shaharlari uchun berilgan unvonlar ularning ijtimoiy tuzilmasi, diniy-ma’naviy qadriyatlarini, siyosiy ta’siri hamda ilmiy salohiyatini ifodalovchi ramziy nomlar sifatida o‘rganiladi. Buxoro, Samarqand, Marv, Balx, Nishopur va Kufa kabi tarixiy markazlarga nisbatan ishlatilgan “Qubbat al-islom”, “Dar al-ilm”, “Madinat al-rijol” kabi faxriy unvonlar mazkur shaharlarning o‘z davridagi nufuzli maqomi va tarixiy funksiyasini ochib beradi. Shuningdek, maqolada “baliq”, “kent” kabi qadimgi turkiy va so‘g‘diy atamalarning kelib chiqishi, ularning semantik taraqqiyoti va islomiy urbanizatsiya jarayonidagi o‘rni tarixiy va lingvistik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Mazkur tadqiqot orqali shahar nomlari va unvonlarining semantik yuklamasi, ularning ijtimoiy funksiyasi hamda shahar identitetini shakllantirishdagi o‘rni yangi metodologik yondashuv asosida yoritiladi.

ГОРОДА В ИСЛАМСКОЙ ГЕОГРАФИИ: ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Ключевые слова: Исламские города, городские титулы, Куббат аль-Ислам, рыба и кент, тюрко-исламская урбанизация, средневековая городская культура, историческая семантика, научные центры, мусульманский Восток, городская идентичность.

Аннотация: В данной статье почётные титулы, присвоенные средневековым мусульманским городам, рассматриваются как символические наименования, отражающие их социальную структуру, религиозно-нравственные ценности, политическое влияние и научный потенциал. Такие почётные названия, как «Куббат аль-Ислам», «Дар аль-Ильм», «Мадинат ар-Риджал», присвоенные Бухаре, Самарканду, Мерву, Балху, Нишапуру и Куфе, раскрывают высокий статус и историческую функцию этих городов в своё время. Также в статье анализируются происхождение, семантическое развитие и роль древнетюркских и согдийских терминов, таких как «балык» и «кент», в процессе исламской урбанизации с исторической и лингвистической точек зрения. Исследование освещает семантическую нагрузку названий и титулов городов, их социальную функцию и роль в формировании городской идентичности на основе новой методологической концепции.

CITIES IN ISLAMIC GEOGRAPHY: HISTORICAL AND CULTURAL ANALYSIS

Keywords: Islamic cities, city titles, Qubbat al-Islam, balik and kent, Turkic-Islamic urbanization, medieval urban culture, historical semantics, scientific centers, Muslim East, urban identity.

Abstract: This article examines the honorary titles attributed to medieval Muslim cities as symbolic expressions of their social structure, religious and spiritual values, political influence, and scientific potential. Titles such as “Qubbat al-Islam,” “Dar al-Ilm”, and “Madinat al-Rijol” used in reference to historical centers like Bukhara, Samarkand, Merv, Balkh, Nishapur, and Kufa, reveal the prominent status and historical role of these cities in their time. Additionally, the article explores the origins, semantic development, and role of ancient Turkic and Sogdian terms like “baliq” and “kent” within the context of Islamic urbanization, from both historical and linguistic perspectives. Through this study, the

semantic load of city names and titles, their social function, and their role in shaping urban identity are analyzed using a new methodological approach.

KIRISH

Shaharlar – insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy markazlari bo‘lib, har bir tamaddunning eng yorqin ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat moddiy jihatdan, balki ma’naviy-ruhiy qatlamda ham inson hayoti va ongiga chuqur ta’sir etadi. Ayrim shaharlar bor-ki, ularning nomi tilga olingan zahoti, inson qalbida iliq tuyg‘ular, ko‘ngilga yaqin obrazlar uyg‘onadi. Bu shaharlar faqat geografik joy emas, balki tarixiy xotira, madaniy meros va shaxsiy identitet manbai sifatida yashaydi. Ular odamlar ongida o‘ziga xos timsol sifatida shakllanadi – xuddi mehrlil ona, ilhom manbai yoki sodiq do‘st kabi.

Ayniqsa, o‘rta asrlarda shaharlarning bunday ramziy-ma’naviy ahamiyati yanada kuchayganini ko‘rish mumkin. Har bir shahar o‘z tarovati, ohangi, rang-barangligi va tilsiz tili bilan inson ruhiyatiga ta’sir qilgan. Shu bois ularning har biri o‘ziga xos bir betakrorlik, o‘ziga xoslik bilan ajralib turgan. Bu betakrorlik esa ularning nomida, unvonida va u haqdagi ta’riflarda mujassam bo‘lgan.

Turk tarixida muqaddas va qadrlangan shaharlar o‘zlarining tarixiy, madaniy va mafkuraviy yuklamalari bilan ajralib turgan. Masalan, qadimiy Otuken – “Ona zamin”, “Muborak shahar” va “Turk shaharlarining yuragi” sifatida ulug‘langan. Bu shahar faqat geografik joy emas, balki butun bir millatning ruhiy markazi, muqaddas timsoli sifatida qaralgan. Balasog‘un esa – “Turk xoqonlari shahri” deb atalgan bo‘lib, siyosiy hokimiyat va davlat ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Qoshg‘ar esa “Yarqiragan shahar”, “Ordu-shahar” kabi unvonlar bilan tilga olinib, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida qadrlangan.

Islom dini qabul qilinganidan so‘ng, Sharqdagi qadimiy shaharlar tiklana boshladi, shu bilan birga yangi yirik shaharlar ham vujudga keldi va yuksalish sari yo‘l oldi. Bu jarayonda ayrim shaharlar o‘zining siyosiy, ilmiy, diniy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib chiqib, alohida mavqega ega bo‘la boshladi. Bunday shaharlar nafaqat nomlari, balki ularga berilgan unvonlari bilan ham sharaflangan. O‘rta asrlarda bu unvonlar shaharlarning timsoliga, ularning ma’naviy mohiyatini ifodalovchi ramziy belgiga aylangan.

Shaharlar bu unvonlarni tasodifiy emas, balki o‘z tarixiy-ma’naviy mazmuni, ijtimoiy roli va tamaddun doirasidagi o‘rni asosida olgan. Bu mazmun shaharlarning asoschilari, u yerda shakllangan qadriyatlar, ado etilgan tarixiy missiyalar orqali vujudga kelgan va mustahkamlangan. Natijada, bu shaharlar o‘ziga xos shaxsiy kimlik – madaniy va ruhiy identitet kasb etgan. Bosqinlar, istilolar, qatliomlar yoki

tabiiy ofatlar kabi og‘ir sinovlarga qaramay, bu shaxsiy kimlik asrlar davomida saqlanib qolgan. Tamaddun hayotining ifodasi bo‘lgan me‘moriy yodgorliklar esa bu kimlikning ko‘zga ko‘rinadigan timsoli, tarix va ma‘naviyat qo‘riqchisi sifatida xizmat qilgan.

Tarixiy jarayonda o‘z hayotiylicini saqlab qolgan, o‘z davrining yurak urishini his qildiradigan me‘moriy yodgorliklar va tafakkur olami aynan shu unvonlarga guvohlik beradi. Aynan ushbu unvonlar orqali o‘rta asrlardagi Turk-Islom dunyosida shaharlarning moddiy va ma‘naviy missiyasi – insoniyat borlig‘ining mohiyatini ochib berishga qaratilganini ko‘rish mumkin.

Islom dini yoyilishi bilan fath etilgan yoki yangidan bunyod etilgan shaharlar Islom tamaddunining porloq yulduzlariga aylangan va ularga unvon berish an‘anasi keng miqyosda shakllangan. Bu an‘ana Saljuqiylar davrida ham davom ettirilib, yangi shaharlar ruhiy-ma‘naviy markazlar sifatida qadrlangan.

Shaharlar, odatda, o‘zlarining tarixiy fazilatlarini va bajarilgan missiyalariga muvofiq tarzda unvon olgan. O‘rta asrlar Turk-Islom olamida shaharlar uchun berilgan unvonlar masalasi mazmun va qamrov jihatidan nihoyatda keng va chuqur tadqiqotni talab etadi. Bu mavzuni to‘liq va har tomonlama yoritish, tabiiyki, qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi mushkuldir.

Mazkur maqolada esa Turk-Islom tamaddunida mashhur bo‘lgan shaharlar, ularga berilgan ramziy unvonlar, bu an‘ananing shakllanishi va madaniy ahamiyati haqida kirish xususiyatidagi ilmiy ma‘lumotlar taqdim etiladi. Shu orqali ushbu muhim mavzuning ilmiy tahliliga hissa qo‘shish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada foydalanilgan manbalar asosan tarixshunoslik, shaharnavislik, sivilizatsiya tadqiqotlari hamda diniy-geosiyosiy yondashuvlarga oid fundamental ilmiy adabiyotlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning asosiy tayanch manbalari sifatida qadimiy va o‘rta asrlarga oid musulmon geograf, tarixchi va sayyohlar – Ibn Fadlan, Ibn Havqal, Ya‘qubiy, Istahriy, Maqdisiy, Narshaxiy, Ibn Battuta, Ibn Jubayr, Tabariy, Balazuriy kabi mualliflarning asarlari tanlab olingan. Ushbu manbalar Movarounnahr, Xuroson, Eron va Arabiston yarim orolidagi shaharlarning geografik joylashuvi, ijtimoiy-madaniy muhiti, tarixiy taraqqiyoti hamda ularga nisbatan ishlatilgan diniy, siyosiy va madaniy unvonlarning kelib chiqishi va mazmunini aniqlashda asosiy ilmiy dalillar vazifasini bajargan.

Shu bilan birga, maqolada o‘rta asr islom shaharchiligi va urbanistik taraqqiyot bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar ham keng miqyosda tahlil qilingan. Jumladan, Janet Abu-Lughod, André Raymond, Ira Lapidus, Mustafa Cezar, Tuncer Baykara, Faruk

Sümer, Oleg Grabar, Turgut Cansever va Doğan Kuban kabi taniqli olimlarning nazariy ishlanmalari tayanilgan asosiy akademik manbalar qatoriga kiradi. Bu tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari orqali shahar unvonlari nafaqat ma'naviy timsollar, balki urbanistik va sivilizatsion rivojlanish darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar sifatida talqin qilinadi. Ular shaharlarning jismoniy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy tashkiloti va madaniy identitetining shakllanishiga ilmiy yondashuv bilan yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tarixiy-deskriptiv va tahliliy metodlar asosiy tadqiqot usuli sifatida qo'llanilgan. Avvalo, o'rta asrlarga oid musulmon geografik va tarixiy matnlar kontent tahliliga tortildi hamda ushbu matnlarda keltirilgan shaharlarga nisbatan ishlatilgan unvonlarning kontekstual ma'nosi ochib berildi. Tahlil jarayonida rivoyatlar, hadislar, siyosiy unvon berish amaliyoti va diniy-doktrinal asoslar ajratib olinib, ular zamonaviy ilmiy konsepsiyalar bilan uyg'un holda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga tayandi:

1. Tarixiy-kontekstual yondashuv – Har bir shahar unvoni muayyan tarixiy va siyosiy holatlar bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Masalan, “Qubbat al-islom”, “Dar al-ilm” yoki “Madinat al-rijol” kabi unvonlarning berilishiga sabab bo'lgan tarixiy sharoitlar chuqur tahlil qilindi.
2. Manba tanlovi va qiyosiy tahlil – Bir shahar uchun turli manbalarda berilgan unvonlar (masalan, Buxoro uchun “al-Foxira”, “Madinat al-tujjor”, “Qubbat al-islom”) o'zaro solishtirilib, ularning semantik va ideologik farqlari ochib berildi.
3. Sivilizatsion yondashuv – Shahar unvonlari faqat toponimik yoki ma'muriy nomlar emas, balki o'z zamonasining sivilizatsion identitetini ifodalovchi belgilar sifatida talqin qilindi. Bu borada I. M. Lapidus, J. Abu-Lughod, W. Raymond hamda F. Cansever kabi olimlarning sivilizatsiyaviy modelga asoslangan konsepsiyalaridan foydalanildi.
4. Urbanistik-funksional yondashuv – Shaharlarning unvonlari ularning geografik joylashuvi, ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy faoliyati, masjidlar, bozorlar, qal'alar va rabotlar kabi infratuzilmalari bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

NATIJALAR

Turk shaharlarining etimologiyasini o'rganishda ularni islomdan avvalgi va islomdan keyingi davrlar kontekstida ikki asosiy bosqichga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. “Shahar” so'zi fors tilidagi “shahr” (شهر) atamasidan olingan bo'lib, aholisi, ayniqsa mehnatga layoqatli qatlamining asosiy qismi savdo, sanoat,

boshqaruv kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadigan yirik yashash maskanini anglatadi. Turkiy tillarda esa bu so'z XI asrdan boshlab xalq og'zaki nutqida "shar" shaklida talaffuz qila boshlangan. Shu mazmunda, "shahar" so'ziga muqobil tarzda So'g'd tilidan o'zlashgan "kent" (yoki "kant") atamasi ham qo'llangan bo'lib, u nafaqat shahar, balki "qal'a" va "saroy" ma'nolarini ham bildirgan. Bunga qo'shimcha ravishda, ayrim hollarda "baliq" so'zi ham shahar ma'nosida ishlatilgan.

Arab tilida esa shahar tushunchasiga eng ko'p mos keluvchi atamalar "madina", "balda (yoki balad)", hamda "misr" hisoblanadi. Qur'oni karimda "shahar" mazmunida quyidagi atamalarning ishlatilgani kuzatiladi: madina (ko'plik shakli mado'in) 17 joyda, balad yoki balda (ko'plik – bilod) 19 joyda, dar (ko'plik – diyor) 21 joyda, misr (ko'plik – amsor) 5 joyda, va qarya (ko'plik – quro) 56 joyda uchraydi. Makkai Mukarrama esa, ehtimol insoniyat uchun eng muqaddas va markaziy yashash maskani bo'lgani, hamda musulmonlar uchun qibla sanalgani sababli "Ummu'l-quro" – ya'ni "Shaharlar onasi" sifatida ta'riflanadi.

Shahar tushunchasining fiqhiy-tashkiliy jihatdan yana bir ta'rifi mavjud bo'lib, unga ko'ra shahar – diniy ishlar bilan shug'ullanuvchi muftiy hamda qozilik huquqiga ega bo'lgan shaxs (qozi) faoliyat yuritadigan maskan sifatida talqin qilinadi [14, 2]. Poytaxt maqomiga ega bo'lmagan shaharlar ham markaziy hokimiyat vakili hisoblangan valiy, huquqni muhofaza qilish tizimini boshqaruvchi sohibu'l-shurta, bozorlarda ijtimoiy nazoratni amalga oshiruvchi muhtasib (yoki sohibu's-suuq) va adolat ta'minotchisi bo'lgan qozilik lavozimi kabi mansabdorlarni o'zida mujassam etgan bo'lgan.

Shaharlar – jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi ko'p qirrali faoliyatlar markazi bo'lib, iqtisodiy va madaniy boyliklar to'plangan muhim turar joy majmualarini tashkil etadi. Ular nafaqat jismoniy va ijtimoiy muhit sifatida, balki siyosiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan ham jamiyat taraqqiyotining asosiy markazlari sifatida xizmat qiladi.

"Qal'a" va "saroy" ma'nolarini ham o'z ichiga olgan "baliq" (shahar) atamasiga ilk bor turkiy yozma manbalarda, xususan O'rxun bitiklarida duch kelinadi. Turk xoqonligi davrida, masalan, Ilterish xoqon tomonidan 680-yilda davlat qayta tiklanganda, tarixiy manbalarda: "shaharda (baliqda) yashovchilar tog'ga chiqdi, tog'dagilar esa pastga tushdi" degan ifoda orqali siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar tasvirlanadi. To'nyuquq bitiklarida xitoylarga qarshi uyushtirilgan turk yurishlari haqida hikoya qilinadi. Unda xitoy shaharlariga "baliq" deb murojaat qilinadi. Bitikda To'nyuquq yurishlardan birida 23 ta xitoy baliqini vayron qilgani, shuningdek, Xitoyning sharqiy qismida joylashgan Shandongbaliq nomli shaharga oid ma'lumotlar keltirilgan. Turk xoqonligining shimoliy va sharqiy hududlarida



istiqomat qilgan To‘qqiz O‘g‘uz turklari ham Togubaliq nomli shaharga ega bo‘lgan.

Shuningdek, ingliz tadqiqotchisi Aurel Stein tomonidan Tunxuang shahrida topilgan va daniyalik olim V. Tomsan tomonidan o‘qilgan Turk xoqonligi davriga oid qo‘lyozmalarda Turfan shahri “Kochubaliq” nomi bilan tilga olinadi. Turkiy tilda yozilgan yana bir muhim manba – Onegin bitigida: “kamug baliqqa tegdim” (barcha shaharlarga yetdim) degan jumla uchraydi. Bu ifodada ehtimol To‘qqiz O‘g‘uzlarga oid shaharlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Uyg‘urlar esa yirik va kichik shaharlarni ajratishda “ulug‘ baliq” atamasidan foydalanganlar. Uyg‘ur xoqoni Moyan-chor (747–759) Orxon va Selenge daryolari tutashgan hududda Boybaliq nomli shaharni xitoylik va so‘g‘d ustalariga qurdirtgan. Uning davrida, shuningdek, Qorabalg‘asun yaqinida barpo etilgan boshqa bir shahar Ordubaliq deb atalgan. Uyg‘ur Xoqonligining mashhur poytaxti Beshbaliq bo‘lgan. Yangibaliq – Uyg‘urlar tomonidan qurilgan yana bir shahar bo‘lib, keyinchalik boshqa turkiy xalqlar orasida ham ushbu nom bilan atalgan shaharlar paydo bo‘lgan. Uyg‘ur shaharlaridan yana biri Janbaliq nomi bilan ma‘lum bo‘lgan.

Xazar xoqonligining poytaxti Itil shahri ayrim manbalarda Xonbaliq nomi bilan tilga olinadi. Malika (hotun) istiqomat qilgan shahar esa Hotunbaliq deb atalgan. Bundan tashqari, Osiyodagi Qoraqurum va Pekin shaharlariga ham Xonbaliq nomi berilgan. Ba‘zi sayohatchilar Pekin shahrini Ilibaliq deb ham ataganlar.

Qadimgi turk tilida “baliq” so‘zining yana bir ma‘nosi – “loy” yoki “balchiq” bo‘lib, hozirgi “balchiq” so‘zining etimologiyasi ham shu ildizga borib taqaladi. Bu ma‘no asosan O‘g‘uz turklari orasida uchraydi. Bugungi kunda qadimgi turklar tomonidan qurilgan shaharlarning moddiy izlari deyarli saqlanmagan. Buning asosiy sababi ham aynan “baliq” so‘zi bilan bog‘liq. So‘zning ildizi bal bo‘lib, u ma‘lum bir turdagi tuproqni bildirgan. Shu sababli qadimiy turk shaharlaridagi binolar asosan loy va xom g‘ishtdan qurilgan. Ba‘zi xitoy manbalarida Osiyo hunnlarining uylari “qattiq bosilgan tuproq”dan qurilgani alohida ta‘kidlangan.

Turkiy “baliq” so‘zi keyinchalik mo‘g‘ul tiliga ham o‘tgan. Mo‘g‘ul manbalarida shaharlar balakat deb atalgan. Mo‘g‘ulcha balakat yoki balgat atamaları “baliq” so‘zining ko‘plik shakli hisoblanadi. “Baliq” so‘zi Uyg‘urlar davrining oxirlariga kelib So‘g‘d tilidan kirib kelgan “kent” hamda fors tilidan olingan “shahr” so‘zlariga yo‘l berib, asta-sekin unutilib ketgan.

Turk xoqonligi va Uyg‘urlar tomonidan “shahar” tushunchasi o‘rniga “baliq” atamasi ishlatilgani, ilk turk shaharining Uyg‘urlar tomonidan Ordu Baliq nomi bilan barpo etilgani, XI asrdan boshlab esa O‘g‘uzlar va Qoraxoniylar tomonidan “kand” (kent) so‘zining qabul qilinishi turk shahar tushunchasining tarixiy-kontseptual rivojlanishini aks ettiradi [11, 24]. Shu doirada Samarqand, O‘zkent va Boykent kabi



shahar nomlari So‘g‘d tiliga mansub “kent” so‘zidan kelib chiqqan.

Fors tilidagi “shahr” (شهر) so‘zining turk tilidagi ekvivalenti “kent” so‘zidir. Islom sivilizatsiyasi doirasiga kirgach, “shahr” atamasi ko‘proq “hokimiyat” va “davlat” ma‘nolarini anglatgan [7, 18]. Vaqt o‘tishi bilan esa “shahr” tushunchasining “kent”ga aylanish jarayonini zamonaviylik hodisasi shakllantirdi. Shu munosabat bilan, “kent” atamasi – sanoat, savdo, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv sohalarida ishlovchi shaxslar to‘plangan, madaniy va ijtimoiy jihatdan tashkil topgan joylashuv hududi sifatida izohlanadi. Shuning uchun bu tushunchani chuqur anglash uchun turli parametrlar ishlab chiqilgan.

Masalan, Rushen Kelesh (1973:7) ta‘rifiga ko‘ra, kent – “unda yashovchilarning aksariyati qishloq xo‘jaligiga daxldor bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, aholisi zich joylashgan, yashashdan tortib hordiq chiqarishgacha bo‘lgan ehtiyojlarni qondira oladigan va doimiy ijtimoiy taraqqiyot bilan ajralib turuvchi, yuqori darajada integratsiyalashgan” joylashuv shaklidir.

Huot [18, 14] esa kentni “insonlar o‘zaro uchrashadigan, mahsulotlar ayirboshlanadigan va g‘oyalar tarqaladigan aloqalar va qarorlar markazi” sifatida talqin qiladi. Kartal [1, 124] esa kentni “qishloq xo‘jaligiga daxldor bo‘lmagan ishlab chiqarish tarmoqlari ustunlik qilgan, ishlab chiqarish vositalari va aholi zich to‘plangan, turlilik, tashkilotlanish, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv darajasi yuqori bo‘lgan joylashuv markazi” deb izohlaydi.

Mazkur ta‘riflarga ko‘ra, kentning shakllanishi qishloq xo‘jaligining tijoratlashtirilishi va agrar mulkning tovarlashtirilishi bilan bevosita bog‘liq. Natijada, zamonaviy kent – kapitalizm ta‘sirida yerning tovar sifatida baholanishiga imkon yaratgan makon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, qishloq xo‘jaligi o‘zining an‘anaviy mazmunini yo‘qotganidan so‘ng vujudga kelgan kent – qishloqning tarixiy xususiyatlarining yemirilishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyaning makoniy aksidir.

Islomdan oldingi davrda Markaziy Osiyo shaharlari asosan ichki qal‘a (kuhandiz), shahriston va tashqi mahalla (rabot) qismlaridan iborat bo‘lgan. Turkiy an‘anaga ko‘ra, turk shaharlari ichki qal‘alari to‘rtburchakli qurg‘on shaklida barpo etilgan bo‘lib, ba‘zan, masalan, Buxoroda bo‘lgani kabi, shahristonga tutashgan yoki shahristondagi nisbatan baland relyefli joyga qurilgan. Buxoroda ichki qal‘a va shahriston atrofini o‘rab turgan devor bilan mustahkamlangan. Bozor esa ko‘pincha shahar devorlaridan tashqarida joylashgan.

Musulmonlarning harbiy yurishlari davrida rabot hududida tarqoq tarzda qurilgan uylar mavjud bo‘lgan. Qutayba ibn Muslim esa juma masjidini saroy joylashgan qal‘a ichida barpo ettirgan. Keyinchalik esa shahar bilan qal‘a orasidagi

bo'shliq maydonda yangi juma masjidi qurilgan. Shaharning kengayishi natijasida shahriston va rabot birlashib, 235/849-50 yillardan so'ng ikkala qism yagona devor bilan o'ralgan.

Somoniylar davrida (IX-X asrlar) Buxoro turk, arab va fors madaniy ta'sirlarining uyg'unlashuvi natijasida Islom shaharlari orasida eng go'zal namunalardan biriga aylandi. Markaziy Osiyodagi shaharlarda bozorlar va karvonsaroylar, odatda, shaharning mudofaa devorlaridagi darvozalar yaqinida joylashtirilgan. Hunarmandlar guruhi esa shaharning ichki qismlarida alohida mahallalarga ajratilgan holda joylashtirilgan bo'lib, bu holat XI-XII asrlardagi Turkiston shaharlari uchun xos xususiyat hisoblanadi [9, 376-378].

Fors madaniy makonida esa shaharlar rejasi G'arbiy Osiyodagi klassik tuzilmalardan qisman farq qilgan. XI asrgacha bo'lgan davrda ko'plab fors shaharlarda bozorlar shahriston devorlaridan tashqarida joylashgan edi. Biroq X asr oxirlariga kelib, shahardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot markazi shahristondan rabotga ko'chirilishi natijasida rabot ham shahar devorlari ichiga olinadi.

Abbosiylar hukmronligi davrida, ayniqsa Iroq hududida, shaharlashuv jarayoni yangi sur'atlar bilan rivojlana boshladi [13, 124]. Biroq Buvayhiylar davridan boshlab Iroqdagi shaharlashuv jarayoni asta-sekin susayib, inqirozga yuz tuta boshladi. Bu orada esa Turkiston va Eron hududlarida shaharlik hayoti va urbanistik taraqqiyot davom etdi.

X asrda islomni qabul qilgan Idil Bulg'orlarida shaharlashuv jarayoni boshlangan bo'lib, ular tomonidan qishloq va kasaba ko'rinishidagi muntazam yashash manzillari tashkil etila boshlandi. O'g'uzlar, Qarluqlar kabi turkiy qabilalarning o'troq hayot tarziga o'tishida eng muhim omil ularning islom dinini qabul qilganliklari bo'ldi.

Turkiston hududida, ayniqsa Qoraxoniylar davridan boshlab, shaharlar yanada aniqroq shaxsiyatga ega bo'la boshladi. Aynan shu davrda shahriston hududida islomiy diniy-me'moriy inshootlar, xususan, masjidlar keng tarqaldi. Qoraxoniylar zamonida masjidlar bilan bir qatorda maqbaralar ham qurilishi odatiy holga aylandi.

Saljuq Bey davrida O'g'uzlarning o'troqlashuvi uchun muhim markazlar bo'lgan Jand, Huvora, Sig'noq va Barchinlig'kent kabi shaharlar X asrdan boshlab dastlab qishlov, so'ngra esa qishlov-yaylov sifatida foydalanila boshladi. Saljuqiylar saltanati davrida urushlar natijasida vayron bo'lgan Eron shaharlari qayta tiklanib, ularning mudofaa tizimlari mustahkamlandi. Shu bilan birga, savdo hayoti ancha sustlashgan, ayniqsa Bag'dod kabi yirik shaharlar iqtisodiy jihatdan o'zining sobiq qudratini yo'qotgan edi. Saljuqiylar ushbu hududlarda tijorat hayotini tiklash va faollashtirishga harakat qildilar.

XI asr oxirlaridan boshlab turkiy qabilalarning Anadolu hududlariga ko‘chib o‘rnashuvi natijasida bu yerda yangi urbanistik model shakllana boshladi. Dastlabki bosqichda Vizantiya davridan qolgan shaharlarda mavjud bo‘lgan me‘moriy tuzilma asosan saqlanib qolgan bo‘lib, unga dastlabki islomiy fathlar davridagidek islomiy unsurlar qo‘shildi. Anadolu Saljuqiylari o‘zlari zabt etgan shahar va hududlarda eng avvalo masjid, madrasa, zoviyalar (tasavvufiy-madaniy markazlar) barpo etib, bu joylarga savdogarlar, ulamolar va turk aholini joylashtirar edilar. Vaqt o‘tishi bilan esa butunlay yangi shaharlar tashkil etilib, o‘ziga xos ijtimoiy va me‘moriy tuzilma vujudga keldi.

Natijada, turklar kirib kelishi bilan Anadoluda yangi bir shahar fiziognomiyasi shakllandi, mintaqa bosqichma-bosqich turklashdi va islomlashdi. Bu jarayonda ko‘chmanchi turkmanlar ham o‘troq hayot tarziga o‘tish bosqichiga kirgan edilar. Ta’kidlash joizki, turklar Anadoluda Eronga nisbatan yanada kuchliroq ta’sir ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldilar va o‘z shaxsiy kimliklarini bu yerdagi shaharlar tuzilmasiga ancha oson singdirishga erishdilar.

Vizantiya hukmronligi davrida, ya’ni IV (X) va V (XI) asrlarda iqtisodiy faoliyati so‘nib qolgan mintaqada aynan Anadolu Saljuqiylarining faol iqtisodiy siyosati tufayli VI (XII) asrdan boshlab savdo-sotiq tiklana boshladi. Iqtisodiy jihatdan muhim hisoblangan sohil shaharlar fath etilib, shaharlararo karvonsaroylar tarmog‘i shakllantirildi. Shahar ichidagi bozor va savdo markazlari bilan birga, shahar darvozalarida hamda tashqi hududlarda ochiq bozorlar tashkil etildi. Ushbu davrda shayx va darvishlar shahar aholisining ko‘payishiga hissa qo‘shish, ko‘chmanchi hayot tarzidan o‘troq yashash tarziga o‘tishni targ‘ib qilishda muhim ijtimoiy rol o‘ynaganlar.

Xorazmshohlar bilan Qoraxitoylar o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar Farg‘ona, Xorazm va Xuroson hududlarida katta vayronalarga olib keldi va bu holat bevosita shaharlashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, Xorazmshohlar davlatining ma’muriy markazi bo‘lgan Gurganch (Urganch) moddiy jihatdan ham, ilmiy va adabiy hayot jihatidan ham Xuroson shaharlariga munosib raqib darajasiga yetdi.

Saljuqiylar davrida Turkiston shaharlarida kuzatilgan yuqori darajadagi madaniy taraqqiyot va shaharlashuv jarayoni 617 hijriy (1220 milodiy) yilda Mo‘g‘ul istilosi bilan jiddiy inqirozga yuz tutdi. Ayniqsa, Marv va Nishopur kabi bosqinchilarga qarshi faol qarshilik ko‘rsatgan shaharlar misli ko‘rilmagan qirg‘in va vayronagarchiliklarga uchradi. 1258 yilda Mo‘g‘ullar tomonidan Bag‘dodning talon-taroj qilinishi natijasida Sharqiy islom olami tanazzulga yuz tutdi. Biroq aynan shu davrda Mamluklar boshqaruvidagi Qohira iqtisodiy va madaniy rivojda ilgari surila



boshladi [13, 124].

Boshqa tomondan, dastlabki bosqichlarida Alatog' va Mug'on dashtlarida asosan chodirlardan iborat vaqtincha qarorgoh-shaharlar barpo qilgan Ilxoniyalar, islomni qabul qilib o'troq hayot tarziga o'tgach, barqaror me'moriy markazlar vujudga keltira boshladilar. Sulaymon Oljoytuning Qazvin bilan Tabriz orasida bunyod etgan Sultoniya shahri shular jumlasidandir.

Andalusdan Turkistongacha cho'zilgan keng geografik hududda joylashgan islomiy shaharlarning har biri o'z hududining tarixiy, geografik va madaniy merosini davom ettirgan holda, islom dinining dunyoqarashi va hayot falsafasi bilan chuqur shakllangan edi. Bunday shaharlarning asosiy tuzilmasini tashkil etgan jome masjid atrofida joylashgan dorulimora (hokimiyat binosi), madrasa, shifoxona, imorathona, bozor, karvonsaroy, hammom, chashma va maqbara kabi ijtimoiy va diniy inshootlar islomiy shaharning markaziy elementlarini tashkil etgan.

Islom dunyosining yirik shaharlarida jome masjid atrofida to'plangan, "kulliya" deb ataluvchi ijtimoiy-ma'muriy inshootlar majmuasi yuksak me'moriy va diniy ahamiyatga ega bo'lib, u islomiy shaharlarning o'ziga xos va barqaror shaxsiyatini namoyon etardi [2, 25]. Islomiy shaharlar barpo etilar ekan, ularning markaziy qismi qat'iy rejalashtirish asosida shakllantirilar, bu yo'nalishda zarur huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy choralar ko'rilardi.

Shaharlarning jismoniy tuzilishi jamiyatdagi ijtimoiy konsensus asosida shakllanib, o'ziga xos urbanistik tipologiyani vujudga keltirgan. Bu borada yagona birlashtiruvchi omil – islom dini bo'lib, unga xos umumiy tafakkur tizimi va hayot tarzi shahar arxitekturasida yaqqol namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, islomni qabul qilgan xalqlarning ijtimoiy tuzilmasining o'zaro yaqinligi, shuningdek, islom olamining geografik jihatdan nisbatan bir xil iqlim sharoitiga ega hududlarda joylashgani bu shaharlar orasida fizik struktura jihatidan yuqori darajadagi o'xshashlikni yuzaga keltirgan.

Shaharlashuv jarayonida yirik shaharlarda aholi soni sezilarli darajada oshgan. Jumladan, IX (XV) va X (XVI) asrlarda Bag'dod aholisi 1 milliondan oshgan, Qohira – 500 ming, Damashq va Qurtuba (Kurtuba) – 300-400 ming, XII (XVIII) asrda Ganja – 500 ming, Naxchivon va Tabriz esa 100 mingdan ortiq aholi soniga ega bo'lgan. Ta'kidlash joizki, aynan shu davrda – ya'ni G'arbda shaharlashuv jarayoni endi keng quloqch yoyayotgan XIII (XIX) asrda 100 ming aholiga ega shahar topish anchayin qiyin edi.

Islom shaharlarida masjid nafaqat jamoa ibodati uchun mo'ljallangan joy, balki hammom, chashma, bozor kabi unsurlarni shakllantiruvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, boshqaruv va madaniy jihatlarni o'zida mujassam etgan urbanistik markaz



hisoblangan [16, 138]. Shuning uchun, Islom e'tiqod tizimining makoniy aks ettirilishi eng avvalo diniy institutlar orqali namoyon bo'lgan. Jumladan, jome masjid, mahalla masjidlari va ochiq ibodat joylari – musallolar shaharning umumiy tuzilmasiga integratsiyalashgan.

Masjid atrofida shakllangan ijtimoiy hayot shahar birligining asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, islomiy tavhid konsepsiyasining kundalik hayotda amaliy tus olishiga xizmat qilgan. Islom shaharlari markazida odatda bosh masjid, hukumat saroyi (yoki qal'a) va bozor joylashgan bo'lib, ushbu uchlik har bir shaharning markaziy o'qini tashkil etgan. Fath etilgan shaharlar yoki mavjud infratuzilmalarga ega qadimiy markazlarda ham bozorlarga nisbatan markaziy masjid va hukumat binolari bilan uyg'unlikda tashkil etish choralari ko'rilgan. Keyinchalik, bozorlarning urbanistik rivojlanishga moslashuvi, ularning har bir shahardagi iqtisodiy ahamiyati, joylashuvi va funksional tuzilmasiga qarab turlicha ko'rinishlarda shakllana boshlagan.

Shaharning markaziy qismida yirik masjid mavjud bo'lishiga qaramay, vaqt o'tishi bilan shaharning kengayishi yoki yangi mahallalarning shakllanishi natijasida markaz boshqa masjid atrofiga ko'chgan holatlar ham kuzatilgan. Masalan, Idil Bulg'orlari davrida Bulg'ar va Suvar shaharlari oralig'ida qurilgan juma masjidi kabi ba'zida shaharlararo hududlarda ham masjidlar barpo etilgan.

Bosh masjid yaqinida joylashgan dar ul-imora (hokimiyat binosi) esa vaqt o'tishi bilan shaharning markazidan chetga siljib, keyinchalik poytaxtlarda – hukmdor saroyi, viloyat markazlarida esa hokim binosi yoki ichki qal'a sifatida qayta shakllangan. Saroy yoki ichki qal'alar odatda shaharning eng baland va strategik jihatdan qulay, mudofaa uchun himoyalangan nuqtalarida qurilgan. Anadolu shaharlarida har bir tarixiy davrda qal'alar barpo etilgan bo'lib, turklar hukmronligi davrida ular yangilanib, mavjud qal'alar ta'mirlangan.

Islom shaharlari uchun xos bo'lgan muhim jihatlardan biri – savdo hududlari bilan yashash hududlarining ajratilganligidir. Tijorat faoliyatlari asosan masjid atrofiga to'plangan bo'lib, bu holat Halifa Umar davrida tashkil etilgan Basra, Kufa va Fustot (Qohira) kabi shaharlar misolida yaqqol namoyon bo'ladi [4, 426].

Doimiy ravishda shaharga kiruvchi asosiy darvozalarga ulangan markaziy ko'chalarning ikki chetida joylashgan yirik bozorlar odatda chiziqli reja asosida tashkil etilgan. Turli mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'konlar tovar turlariga qarab alohida bo'limlarga ajratilgan holda joylashtirilgan edi. Bu tartib ilk islomiy shaharsozlik tamoyillarining, ayniqsa, Umaviylar davridan boshlab – amaliy ifodasi bo'lib, IV (X) asrdan e'tiboran deyarli barcha yirik islomiy shaharlarda kuzatiladi.

Mamluklar davrida Qohira, Damashq kabi yirik shaharlarda bosh masjid

yaqinida qurilgan qaysariyya (savdo galereyalari) va xonlar islomiy shaharlarning fizik tuzilmasining muhim komponentlariga aylangan edi. Islom fathlaridan so‘ng tashkil etilgan yangi shaharlar va mavjud tarixiy markazlarda mahalla va tumanlar etnik kelib chiqish yoki kasb-hunar asosida shakllantirilgan. Bu holat shahar bo‘linmalarida ma‘lum bir ijtimoiy-tarixiy identitetni yuzaga keltirgan [9, 89-90].

Musulmonlar hukmronligiga o‘tgan qadimiy shaharlar o‘z tarixiy ko‘rinishini saqlagan holda yangi islomiy elementlar bilan to‘ldirilgan va qayta rejalashtirilgan. Islom dini tomonidan kafolatlangan diniy erkinlik tufayli musulmonlar va g‘ayri musulmonlar bir hududda tinch-totuv yashaganlar. G‘ayri musulmonlar o‘z dinlarini erkin ravishda davom ettirish huquqiga ega bo‘lganlar.

Ko‘pgina islomiy shaharlarda markaziy bosh masjid atrofida nurlanishsimon shaklda yo‘l tarmoqlari ajralib chiqqan. Ko‘chalar va tor yo‘laklar odatda tor bo‘lib, ularni tashqariga faqat bitta darvozali hovli devorlari chegaralab turgan. Bunday yo‘l tizimini tanlashda iqlim omillari – masalan, soyali hududlar yaratish va chang ko‘taruvchi shamollarni to‘shish – muhim rol o‘ynagan [7, 117-118]. Shuningdek, tashqi ko‘zdan himoyalangan, ya‘ni xususiy hayotning saqlanishi islom shaharlariga xos muhim jihatlardan biridir.

Islomdagi maxfiylik (mahramlik) tamoyiliga muvofiq, hovlili va, odatda, bir qavatli uylar keng tarqalgan. Bu turdagi uylar ichki hovlining atrofida qurilgan bo‘lib, derazalari ichkariga – hovliga qaragan xonalardan iborat bo‘lgan. Bu esa yirik oilalarning o‘zaro tartib-qoidalar asosida yashashi uchun qulay sharoit yaratgan. Hovlilarda ba‘zan favvora, chashma, gullar yoki daraxtlar joylashtirilgan. X asrdan boshlab esa ayrim shaharlarda ko‘p qavatli uylar ham keng tarqala boshlagan.

Shaharlarni tashqi tahdid – xususan, hujum yoki isyonlardan himoya qilish maqsadida tashqi devorlar (sur) bilan o‘rash amaliyoti keng tarqalgan. Shu bilan birga, shaharning ichki tuzilmasida mahalla va tumanlarni ajratuvchi ichki darvozalar ham bo‘lgan. Islomning ilk davrlarida musulmon shaharlarining ko‘pchiligi devorsiz bo‘lib, himoya vazifasi xandaq, suv yo‘li yoki tikanli butalar orqali bajarilgan.

Ammo Abbosiylar davridan boshlab yangi barpo etilgan shaharlarda devorlar bilan o‘rash odatiy holga aylangan. Ilgari mavjud bo‘lgan ko‘plab shaharlar esa Eron va Turkiston hududlarida islomdan avvalgi surlar bilan himoyalangan edi. Masalan, fath etilgan Konya shahri dastlab Alouddin tepaligini o‘rab olgan qadimiy devorlar ichida joylashgan bo‘lib, shaharning kengayishi bilan bu devorlar yetarli bo‘lmay qolgan. Natijada Alouddin Kayqubod I tomonidan chuqur xandaq bilan o‘ralgan kengroq yangi devor bunyod etilgan.

Islomiy shaharlarning suv ta‘minoti odatda shahardan tashqaridagi suv manbalariga tayangan. Suv shaharga kanallar va kemerlar orqali olib kirilar, so‘ng



maxsus inshootlar va chashmalar orqali aholiga yetkazilardi. Ba'zi chashmalar yodgorlik darajasida muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, boshqalari oddiy binolar devoriga o'rnatilgan sebillar shaklida bo'lgan. Quduqlar, chashmalar va yerosti quvurlari shaharning ichimlik suvi ta'minotida muhim rol o'ynagan [12, 455-456]. Islom dinining poklikka katta e'tibor qaratishi tufayli hammomlar, ayniqsa, turklar istiqomat qilgan shaharlar uchun ajralmas shahar elementi bo'lgan. Ommaviy hammomlar odatda shaharning markaziy qismida, ko'pincha bosh masjidga yaqin joyda joylashgan bo'lgan.

Islomdan oldingi davrlarda ham ba'zi shifoxonalar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, ilk islomiy shifoxonalar (bemoristonlar) Abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashid tomonidan Bag'dodda qurilgan shifoxona bilan boshlangan. Keyinchalik boshqa shaharlarda ham shunga o'xshash inshootlar barpo etildi. Ibn Jubayrning Bag'dod, Mosul, Nusaybin va Harron shaharlaridagi shifoxonalar haqida bergan ma'lumotlari bu yirik markazlarda tibbiy muassasalar mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Vaqt o'tishi bilan deyarli barcha yirik islomiy shaharlarda shifoxonalar faoliyat yurita boshladi.

Buyuk Saljuqiylar davridan boshlab islom shaharlarida ta'lim muassasasi sifatida madrasalar ham muhim o'rin egallay boshladi. Madrasalar tez orada shaharning markaziy va ahamiyatli binolaridan biriga aylandi. Masalan, Ayyubiylar davrida Damashq shahrida 90 dan ortiq madrasa faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, Mamluklar davrida bu raqam 150 dan oshgan. Turklarning Anadolu hududiga kelishi bilan bu yerda ham ko'plab madrasalar barpo etildi.

Zangiylar, Ayyubiylar va Mamluklar davrida madrasa, masjid va maqbaralardan tashkil topgan diniy-ma'rifiy komplekslar keng tarqaldi. Bu an'ana Anadolu saljuqiylari davrida davom ettirilib, masjid va maqbara birliklariga asoslangan madrasa majmualari shakllandi. Aksariyat hollarda bunday inshootlar vaqf shaklida bo'lib, islom shaharlari vaqf madaniyatining shakllanishida asosiy rol o'ynadi.

Ilxoniylar hukmdori Oljoytu xonning vaziri Rashiduddin Fazlulloh tomonidan Tabrizda shifoxona, dorixona, bog'lar va boshqa binolar bilan barpo etilgan Rab'-i Rashidiy majmuasi esa o'z davrida "universitet shahri" sifatida e'tiborga loyiq noyob urbanistik model bo'lib xizmat qilgan. Bu majmua ilm-fan, tibbiyot va ta'limni birlashtirgan markaz sifatida Islom shaharsozligi tarixida alohida o'rin egallaydi.

O'rta asrlarda ayrim shaharlar siyosiy, ilmiy, diniy, madaniy va ijtimoiy jihatlardan o'ziga xos muayyan fazilatlari bilan ajralib turgan. Shu bois ular alohida ahamiyat kasb etgan. Buxoro, Samarqand, Balx kabi shaharlar o'z tarixiy merosi, ilm-fan va madaniyatdagi o'rni bilan "brend shahar" darajasiga ko'tarilgan.

Buxoro: Buxoro qadimiy manbalarda turli nomlar bilan tilga olingan bo'lib, ba'zan Numikkent (Nimcheket), Bumisket, Bumichet yoki Bumickes kabi atamalar

bilan ham yuritilgan. Arab mualliflari esa uni Madinat as-Sufriyya (cho‘l shahri), Madinat at-Tujjor (savdogarlar shahri) hamda al-Fokhira (ulug‘vor, sharafli, porloq) kabi unvonlar bilan ta‘riflaganlar. “Tarixi Buxoro” asari muallifi Narshaxiy Buxoro kabi ko‘plab nomlarga ega bo‘lgan boshqa biror shaharni Xuroson viloyatida ko‘rmaganini alohida ta‘kidlaydi.

Buxoroga Fokhira – ya‘ni ulug‘vorlik ramzi sifatida berilgan unvon bilan bog‘liq bir rivoyat mavjud. Bu rivoyatda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) nomidan Salmon Forsiy orqali quyidagicha hikoya keltiriladi: “Jabroil dedi: ‘Sharqda Xuroson degan diyoy bor. Qiyomat kuni Xurosonning uch shahri – qizil yoqut va marjonlar bilan bezalgan holatda nur sohib porlaydi. Bu shaharlar atrofida tasbeh, hamd va takbir aytuvchi ko‘plab farishtalar bo‘ladi. Har bir shahar 70 mingta bayroq bilan keladi, har bayroq ostida 70 mingta shahid bo‘ladi. Har bir shahidning shifoati bilan fors tilida so‘zlashuvchi 70 ming mo‘min najot topadi.’ Rasululloh (s.a.v.) so‘radilar: ‘Ey Jabroil, bu shaharlarning nomi nima?’ Jabroil javob berdi: ‘Ulardan biri Qosimiya (forscha: Bishkard yoki Yashkard), ikkinchisi Sumron (forscha: Samarqand), uchinchisi esa Fokhira (forscha: Buxoro).’ Rasululloh (s.a.v.) yana so‘radilar: ‘Nima uchun u Fokhira deb ataladi?’ Jabroil dedi: ‘Chunki qiyomat kuni Buxoroning shahidlari soni boshqa shaharlarnikidan ko‘p bo‘ladi.’ Shunda Rasululloh (s.a.v.) duo qildilar: ‘Alloh Fokhira – ya‘ni Buxoro ahliga baraka bersin, qalblarini taqvo bilan tozalasın, ishlarini tartibga solsin va ummatim ichida ularga doimo rahm qilaversin’”.

Eslatish joizki, yuqoridagi hadis ishonchli manbalarda qayd etilmagan bo‘lib, mavzu’ (soxta, to‘qima) hadis sifatida baholanadi.

Buyuk musulmon geograf va sayohatchi Ibn Havqal o‘z asarlarida Buxoroni “ko‘rganlar ichida eng chiroyli shahar” deb ta‘riflaydi. Ayniqsa, Somoniylar davridan boshlab Buxoro ilm-fan, adabiyot va ma‘naviyat markaziga aylangan. Bu yerda yuzlab olimlar, shoirlar, adiblar yetishib chiqqan. Ayniqsa, shahar saroyida joylashgan yirik kutubxona bu ilm markazining timsoliga aylangan. U yerdan foydalangan eng mashhur mutafakkirlar qatorida Abu Ali Ibn Sino ham bor. Buxoro ilm nuri bilan ziynatlangan shahar bo‘lib, uning ilmiy salohiyati, dunyo tamaddunidagi o‘rni va boy madaniy merosi uni “Qubbat al-Islom” – ya‘ni “Islom gumbazi” unvoniga sazovor etgan.

Samarqand: Arab tilida “Sumron” nomi bilan tilga olingan bu shahar, Buxoro kabi, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) hadisida qiyomat kunida bashorat qilingan uch shahardan biri sifatida zikr etilgan. Yoqut al-Hamaviy bu shaharda vafot etgan kishi jannatda farishtalar bilan birga tiriltirilishini yozadi. Samarqand ham, Buxoro kabi, saroylari, ko‘shklari, madrasalari, maqbaralari, bog‘lari va mevali bog‘lari bilan

kishini maftun etuvchi, o'ziga rom etuvchi turkiy-islom madaniyati va sivilizatsiyasining eng mashhur markazlaridan biri bo'lgan. Ibn Battuta Samarqandni dunyoning eng yirik, eng go'zal va benuqson shahri sifatida ta'riflaydi. U bu yer aholisi xulq-atvori bilan go'zal bo'lib, muhabbat va shafqat jihatidan Buxoro aholisidan afzalroq ekanini qayd etadi. Yaqubiy esa Samarqandni "shaharlarning eng ulug'i va eng kattasi" deb ataydi.

Temur zamonida poytaxtga aylangan shahar "Dorus-Saltana" (دَارُ السَّلْطَنَةِ – "saltanat maskani") nomi bilan tanilgan. Bu davrda u sezilarli ravishda rivoj topdi. Samarqand atrofida islom madaniyatida muhim o'rin tutgan Bag'dod, Damashq, Misr, Sheroz va Sultoniya kabi shaharlar nomi bilan yangi qishloqlar barpo etildi. Mo'g'ul hujumlari natijasida vayron bo'lgan bu shahar Temur davrida qayta tiklandi va ulamolar, san'atkorlar hamda savdogarlar markaziga aylandi. Shu sababdan unga "boy shahar", "shaharlar shohi" kabi unvonlar berilgan.

Kesh: Samarqand yaqinida joylashgan Kesh shahri ko'plab olimlar va fazilat egalari tahsil olgan muhim ilmiy markazlardan biri bo'lgan. Shu bois bu shahar "Qubbat al-'Ilm va al-adab" (قُبَّةُ الْعِلْمِ وَالْأَدَبِ – "Ilm va adab qubbasi") unvoni bilan sharaflangan.

Balx: Islomiy davrda bu shahar "Umm al-Bilod" (أُمُّ الْبِلَادِ – "shaharlar onasi") degan unvonni olgan. Ilmiy salohiyati bois Balxning eng muhim unvoni bu "Qubbat al-islam" (قُبَّةُ الْإِسْلَامِ – "Islom qubbasi") bo'lgan.

Nishopur: Ibn Battuta bu shaharni Xurosonning to'rt yirik shahri qatorida zikr etgan holda unga "Damashqi sag'ir" (دِمَشْقُ الصَّغِيرِ – "Kichik Damashq") unvoni berilganini bildiradi.

Kufa: Iroqning eng yirik shahri bo'lib, u "Madinat al-'Iroq al-kubro" (مَدِينَةُ الْعِرَاقِ الْكُبْرَى – "Iroqning buyuk shahri"), "al-Misr al-a'zam" (الْمِصْرُ الْأَعْظَمُ – "eng ulug' shahar"), "Qubbat al-Islam" (قُبَّةُ الْإِسْلَامِ – "Islomning qubbasi"), va "Dor hijrat al-Muslimin" (دَارُ هِجْرَةِ الْمُسْلِمِينَ – "Musulmonlarning hijrat o'chog'i") kabi unvonlarga ega bo'lgan muhim shaharlardan biridir.

Etil/Itil: Xazarlarning poytaxti bo'lgan Itil shahri Ibn Fadlanning safarnomasida Doru'l-Bayzo' (دَارُ الْبَيْضَاءِ) unvoni bilan tilga olingan. Ba'zi musulmon geograf olimlari Itil shahridan tashqari Xazarlar yurtida Madinatu'l-Bayzo' (مَدِينَةُ الْبَيْضَاءِ) yoki qisqacha Bayzo' deb nomlanuvchi yana bir shaharning mavjudligini qayd etadilar. Darband: Bu shaharga "darvozalar darvozasi" ma'nosini anglatuvchi Bobu'l-Abvob (بَابُ الْأَبْوَابِ) unvoni berilgan. O'rta asrlarda muhim ahamiyat kasb etgan boshqa bir qator shaharlar ham turli unvonlar bilan atalgan: Dehliga – Doru'l-islam (دَارُ الْإِسْلَامِ), Rasht shahriga – Doru'l-Marz (دَارُ الْمَرَضِ), Yazdga – Doru'l-'Iboda (دَارُ الْعِبَادَةِ), Xorazmga – Baldat Doru'l-islam (بَلْدَةُ دَارُ الْإِسْلَامِ) va Ma'danu'l-fuzalo' (مَعْدَنُ)



الفضلاء) unvonlari berilganligi ma'lum. Termiz aholisi mo'g'ullar istilosiga qarshi ko'rsatgan qahramonlarcha qarshiligi tufayli bu shahar Madinat al-rijol (مدينة الرجال – "Mardlar shahri") deb atalgan.

Marv: Turk-islom madaniyati doirasiga kiruvchi va ilmiy faoliyati bilan ajralib turgan shaharlardan biri bo'lgan Marv "Qubbat al-islam" (قبة الإسلام – Islomning gumbazi) unvoni bilan atalgan. Bundan tashqari, u muhim ilmiy-ma'muriy markaz bo'lganligi hamda boshqa shu nomli joylar bilan adashtirilmasligi uchun o'rta asr musulmon geografchilari tomonidan "Marv al-shohijon" (مرو الشاهجان – Shohlar Marvi) deb atash ma'qul topilgan.

XULOSA

Islom dunyosining o'rta asrlar davridagi shaharlari nafaqat siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida, balki diniy, madaniy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas maskanlar sifatida ham tanilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilgan bu unvonlar sharqiy Islom geografiyasi va madaniyat tarixini chuqurroq anglashda muhim kalit bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, har bir shahar uchun tanlangan unvon – o'sha makonning o'ziga xosliklarini (ilm markazi bo'lishi, musulmonlar qal'asi bo'lishi yoki mardlik ramziga aylanishi kabi) aks ettiradi.

Ushbu maqolada o'rta asr islom shaharlari, xususan, Movarounnahr va unga tutash hududlarda joylashgan shaharlarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va diniy hayotdagi o'rni ularning tarixiy unvonlari orqali tahlil qilindi. Buxoro, Samarqand, Balx, Nishopur, Marv, Kufa kabi shaharlar faqat geografik markazlar emas, balki islomiy ilm-fan, adabiyot, siyosat, savdo va din sohalarida markaziy rol o'ynagan, muqaddas va nufuzli maskanlar sifatida qaraldi. Ularga berilgan unvonlar – masalan, "Qubbat al-Islom", "Dar al-ilm", "Madinat al-rijol", "Dar al-Islam", "Umm al-bilod" – bu shaharlarning tarixiy-madaniy maqomini belgilab, ularning fazilatli jihatlari ifodalaydi.

Maqolada, shuningdek, "shahar", "baliq" va "kent" atamalarining etimologik ildizlari, qadimgi turkiy xalqlarning shahar madaniyati haqidagi qarashlari va ularning islomiy shahar tipologiyasi bilan uyg'unlashuvi ham ilmiy asosda yoritildi. Bu esa musulmon Sharqida shaharlarni faqat iqtisodiy yoki harbiy markaz sifatida emas, balki ma'naviy va ramziy qadriyatlar manzili sifatida talqin qilish an'anasining shakllanganini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu-Lughod, J. L. The Islamic city – Historic myth, Islamic essence, and

- contemporary relevance // International Journal of Middle East Studies. 1987. Vol. 19. – P. 155-159.
2. Aktüre, S. Anadolu kentinde Türkleşme-İslamlaşma süreci, mekansal yapı değişimi ve İslam mimari mirası // İslam Mimari Mirasını Koruma Konferansı Bildirileri. – İstanbul, 1987. – P. 20-38.
 3. Azimî. Azimî tarihi: Selçuklular dönemine ait bölümler (H.430-538). – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1988.
 4. Balādhurī. Futūh al-Buldān. – İstanbul: Fayda Yay., b.g.
 5. Baykara, T. Türkiye Selçuklularının sosyal ve ekonomik tarihi. – İstanbul: Ötüken, 2004.
 6. Boran, A. Anadolu'daki iç kale cami ve mescidleri. – Ankara: Kültür Bakanlığı, 2001.
 7. Can, Y. İslâm şehirlerinin fizikî yapısı. – Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 1995.
 8. Cansever, T. İslâm'da şehir ve mimari. – İstanbul: Timaş Yayınları, 1997.
 9. Cezar, M. Anadolu öncesi Türklerde şehir ve mimarlık. – İstanbul: İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Yayınları, 1977.
 10. Cahen, C. Osmanlılardan önce Anadolu / çev. E. Üyepazarcı. – İstanbul: Tarih Vakfı, 2000.
 11. Demir, M. Türk-İslam medeniyetinde şehirleşme // İslâmî Araştırmalar. 2003. T. 16, №1. – S. 156-165.
 12. Dostiyev, T. Selçuklular döneminde Müslüman doğusunda kentleşme durumları ve Azerbaycan'da şehir kültürü // Türk Tarih Kurumu Bildiriler. 2005. T. 14, №1. – S. 454-458.
 13. Elisséeff, N. Fizikî plan / in: Michon J.-L. (ed.). İslâm şehri / çev. E. Topçugil. – İstanbul: İnsan Yayınları, 1992. – S. 124-135.
 14. Ergin, O. N. Türkiye'de şehirciliğin tarihî inkişafı. – İstanbul: Matbaa-i Âmire, 1936.
 15. Fayda, M. İslâm dünyasındaki ilk şehir tarihleri ve İbn Şebbe'nin Medine-i Münevvere tarihi // Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 1986. T. 28. – P. 167-180.
 16. Grabar, O. İslam sanatının oluşumu / çev. N. Yavuz. – İstanbul: Remzi Kitabevi, 1988.
 17. Gül, M. İslâm şehrinin doğuşu // Balıkesir Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi. 2001. T. 4, №6. – P. 78-87.
 18. Hourani, A. H., Stern, S. M. (eds.). The Islamic city. – Oxford: Clarendon Press, 1970.

IJTIMOIIY FANLAR

FRANSIS BEKONNING FALSAFIY VA AXLOQIY-TARBIYAVIY FIKRLARI HAQIDA

SHADMANOV QURBON BADRIDDINOVICH

Buxoro davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, rus tili va ingliz tili” kefedrasi professori

Falsafa fanlari bo‘yicha falsfa doktori (PhD)

Email: shadmanov.qurbon@bsmi.uz

UDK: 101.715.(410.1)

<https://orcid.org/0000-0003-2287-0632>

Kalit so‘zlar:

uyg‘onish davri,
esse, ritorika,
falsafiy uslub,
madaniy fikr.

Annotatsiya:

Mazkur maqola XVII asr ingliz ma‘rifatparvarlik tafakkurining yirik vakillaridan biri – atoqli faylasuf, davlat arbobi va mutafakkir Frensis Bekon ijodiga bag‘ishlangan. U Yevropa Uyg‘onish davri adabiyoti va falsafasida o‘zining chuqur fikrlari, ilmiy dunyoqarashi hamda yuksak uslubda yozilgan asarlari bilan muhim iz qoldirgan. Ayniqsa, uning “Tajribalar, yoxud axloqiy va siyosiy nasihatlar” nomli asari ingliz adabiyotining bebaho durdonalaridan biri hisoblanadi. Maqolada mazkur asar asosida Bekonning inson axloqi, siyosiy madaniyat, tarbiya va o‘dab-axloq masalalariga doir qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Frensis Bekonning komil inson tarbiyasiga oid falsafiy-axloqiy g‘oyalari zamonaviy ijtimoiy-ma‘naviy muhit kontekstida keng yoritilib, ular bugungi kun talablari bilan bog‘liq holda sharhlanadi.

О ФИЛОСОФСКОЙ И ПРАВСТВЕННО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ МЫСЛИ ФРАНСИСА БЭКОНА

Ключевые слова:

эпоха возрождения,
эссе, риторика,
философский
стиль, культурная
мысль.

Аннотация:

Данная статья посвящена творчеству одного из крупнейших представителей английской просветительской мысли XVII века – выдающегося философа, государственного деятеля и мыслителя Фрэнсиса Бэкона. Он оставил значительный след в литературе и философии европейского Возрождения

своими глубокими мыслями, научным мировоззрением и произведениями, написанными в высоком стиле. В частности, его произведение “Опыты, или нравственные и политические советы” считается одним из бесценных шедевров английской литературы. В статье на основе этого произведения анализируются взгляды Бэкона на вопросы человеческой морали, политической культуры, воспитания и нравственности. Также философско-нравственные идеи Фрэнсиса Бэкона о воспитании совершенного человека широко освещены в контексте современной социально-духовной среды и интерпретируются в связи с требованиями сегодняшнего дня.

ON FRANCIS BACON’S PHILOSOPHICAL AND MORAL-EDUCATIONAL THOUGHTS

Keywords:

renaissance,
essay, rhetoric,
philosophical style,
cultural thought.

Abstract:

This article is dedicated to the work of one of the major representatives of 17th-century English Enlightenment thought – the renowned philosopher, statesman, and thinker Francis Bacon. He left an important mark on the literature and philosophy of the European Renaissance with his profound thoughts, scientific worldview, and works written in a high style. In particular, his work “Experiences, or Moral and Political Advice” is considered one of the priceless masterpieces of English literature. Based on this work, the article analyzes Bacon’s views on human morality, political culture, upbringing, and ethics. Also, Francis Bacon’s philosophical and ethical ideas on the upbringing of a perfect person are widely covered in the context of the modern socio-spiritual environment, and they are interpreted in connection with the requirements of today.

KIRISH

Tarixiy manbalar XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Yevropada yashab, ilm-fan, siyosat va falsafa sohalarida chuqur iz qoldirgan zabardast mutafakkir – Frensis Bekonning serqirra faoliyati haqida boy va ishonchli ma’lumotlarni saqlab qolgan. Ushbu yirik ingliz faylasufi, davlat arbobi va ilmiy tafakkur namoyandasi o‘zining

boy merosi bilan nafaqat zamondoshlari, balki keyingi avlodlar tafakkuriga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Bekoning "Tajribalar yoxud axloqiy va siyosiy nasihatlar" (1615) nomli mashhur asari uning ijtimoiy-axloqiy va siyosiy qarashlarini o'rganish uchun muhim manbadir. Mazkur asar orqali nafaqat muallifning inson axloqi, siyosiy boshqaruv va jamiyat haqidagi qarashlari yoritiladi, balki kech Uyg'onish davri Yevropasining adabiy-falsafiy muhitini ham teran tahlil qilish imkoniyati tug'iladi.

Yangi Yevropa falsafasining shakllanishi bevosita Frensis Bekoning nodir shaxsiyati va uning ilg'or g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir. U Uyg'onish davrining ma'naviy boyliklari va ilmiy yondashuvlarini uyg'unlashtirib, yangi tafakkur uslubiga asos soldi. Shu bois, Frensis Bekon nafaqat Uyg'onish davrining so'nggi buyuk faylasufi, balki Yangi davr falsafasining asoschilaridan biri, hattoki bu yo'nalishning kashfiyotchisi sifatida haqli ravishda e'tirof etiladi [1].

Frensis Bekon (1561-1626) – buyuk ingliz mutafakkiri, faylasuf, esseist, huquqshunos va davlat arbobi sifatida Yevropa ilm-fani va falsafiy tafakkurida o'ziga xos o'rin egallagan yirik tarixiy shaxsdir. U o'z hayot yo'lini "qayg'uli qanotli so'z" deb ta'riflagan bo'lib, bu ibora Bekoning murakkab, ziddiyatli, xavf-xatarlarga boy, biroq mazmunga to'la hayotini ramziy ifoda etadi. Uning hayoti nafaqat siyosiy lavozimlardagi yuksalish va tanazzullar, balki fikriy izlanishlar va falsafiy yuksalishlar bilan ham uyg'unlashgan.

Bekoning shaxsiyati va ijodi shakl hamda mazmun jihatidan o'ta betakror bo'lib, uni faqat davlat arbobi sifatida baholash uning tarixiy siymosini to'liq aks ettira olmaydi. U o'z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy manzarasida qanday bo'lgan bo'lsa, tarix sahifalarida ham ana shu ziddiyatli, ammo teran tafakkurga ega siymo sifatida muhrlangan. Fikrlarining ko'lami esa epistolyar merosi, shaxsiy yozishmalari, parlament nutqlari va falsafiy traktatlarida yaqqol namoyon bo'ladi [3].

Frensis Bekon hayotidagi eng diqqatga sazovor jihatlardan biri – uning siyosiy martabada yuksalishi va korrupsiya ayblov bilan sharmandali tarzda undan chetlatilishidir. Bu voqea Bekon hayotini yanada murakkablashtirgan bo'lsa-da, u o'zining ilmiy-falsafiy faoliyatini davom ettirib, abadiy meros qoldirishga muvaffaq bo'lgan. Uning hayoti – tarixiy saboq, uning ijodi esa tafakkur uchun ilhom manbidir.

XVII asr boshlarida, Uyg'onish davrining Angliyadagi yakuniy bosqichida ijod qilgan rassomlar, me'morlar, adiblar va faylasuflar orasida Frensis Bekon eng yorqin siymolardan biri sifatida ajralib turadi. Shunga qaramay, u hanuzgacha chuqur ilmiy tahlil va keng ko'lamli tadqiqotlarni talab qiladigan, murakkabliklarga boy shaxsdir. Garchi ko'plab tadqiqotchilar uning hayoti va merosi haqida muhim fikrlar bildirgan



bo'lsa-da, Bekon shaxsiyatining ko'plab qatlamlari, uning ichki ziddiyatlari va falsafiy izlanishlari hali to'liq ochilganicha yo'q.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Frensis Bekon ijodi, ayniqsa uning "The Essays" ("Tajribalar") to'plami, jahon falsafasi va adabiyotshunosligida keng qamrovli tadqiqotlarning muhim manbai bo'lib kelmoqda. Bu borada Asmus V. F., Annas J., Anne Righter, Stanley Fish, Morris W. Croll, George Williamson, Brian Vickers, R. C. Cochrane, A. P. McMahon, G. Tillotson hamda M. Walters singari olimlar Bekonning falsafiy merosi, estetik qarashlari va adabiy uslubini turli jihatlarida tahlil etib, uning ijodini har tomonlama yoritib berishga harakat qilganlar.

Anne Righter (Barton) o'zining "Francis Bacon" nomli tadqiqotida "The Essays"ning o'ziga xos qimmatini kitobxonlar tomonidan turlicha talqin qilinishida ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ushbu to'plam o'quvchini faqat mutolaaga emas, balki mulohaza yuritishga va bahs-munozaraga chorlaydi [9]. Stanley Fish esa bu fikrni rivojlantirib, "Georgics of the Mind: The Experience of Bacon's Essays in Self-Consuming Artifacts" asarida "The Essays"ni keng qamrovli intellektual muloqot maydoni sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, Bekon esselari kitobxonni o'z tafakkurini qayta ko'rib chiqishga, fikrlash jarayonini yangilashga undaydi va shu bois ular nafaqat adabiy, balki falsafiy ahamiyatga ham egadir [10, 78-155].

Bekon uslubini tarixiy-qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilgan olimlar ham uning ijodini chuqur o'rganganlar. Morris W. Croll "Style, Rhetoric and Rhythm" [11] hamda George Williamson "The Senecan Amble: A Study in Prose Form from Bacon to Collier" [12] asarlarida Bekonning qadimgi yunon va rim ritorik an'alariga murojaat qilish sabablarini ochib beradi. Ularning ta'kidlashicha, Bekon antik ritorikani ko'r-ko'rona takrorlamaydi, balki uni yangi davr falsafiy-ma'rifiy maqsadlariga moslashtiradi. Natijada qisqa, lo'nda, aforistik va dalilga asoslangan proza uslubini yaratadi. Brian Vickers esa "Francis Bacon and Renaissance Prose" [13] asarida Bekon uslubini yanada kengroq yoritib, uning sintaktik tuzilishi, ritmik xususiyatlari hamda diskursiv strategiyalarini tahlil qiladi. Shu tariqa, tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Bekon nasri qadimiy ritorika bilan yangi davr falsafasining uyg'unlashuvi mahsuli sifatida shakllangan.

Shuningdek, olimlar Bekon asarlarining mazmuniy qatlamlari va janriy xususiyatlarini ham chuqur o'rganganlar. R. C. Cochrane "Francis Bacon and the Architect of Fortune" [14, 176-195] asarida mutafakkirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tahlil qiladi. A. P. McMahon esa "Francis Bacon's Essay of Beauty" [15, 716-759] tadqiqotida Bekonning estetik qarashlarini yoritib, go'zallik konsepsiyasini

yangi falsafiy kontekstda izohlaydi. G. Tillotson “Words for Princes: Bacon’s Essays” [16, 31-40] nomli ishida “The Essays”dagi siyosiy-axloqiy g‘oyalarni tahlil etib, ularni davr hukmdorlari uchun ma’naviy qo‘llanma sifatida baholaydi. M. Walters esa “The Literary Background of Francis Bacon’s Essay ‘Of Death’” [17, 1-7] maqolasida “Of Death” essedagi falsafiy-metaforik qatlamlarni ochib, uning adabiy manbalari va ma’naviy asoslarini tahlil qiladi.

Umuman olganda, mavjud tadqiqotlar Frensis Bekon ijodini falsafa, adabiyot, ritorika va siyosiy tafakkur kesishmasida o‘rganib kelayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu izlanishlar, asosan, alohida esselarning mazmuni va uslubini tahlil qilishga qaratilgan. Shu bois, Bekonning esse janridagi umumiy konseptual qarashlarini yaxlit yondashuvda, zamonaviy falsafiy va adabiy jarayonlar bilan bog‘liq holda tadqiq etish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada materialni tahlil qilish jarayonida bir qator ilmiy usullar qo‘llanildi. Jumladan, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-madaniy hamda germeneytik yondashuvlar asos qilib olindi. Bu metodlar tadqiqot obyekti bo‘lgan madaniy-falsafiy merosni turli qirralardan ochib berishga xizmat qiladi.

Metodologik asoslar aprior tamoyillar sifatida emas, balki tadqiqot jarayonida – madaniy olamning turli tarkibiy qismlariga murojaat etish orqali shakllantirildi. Xususan, madaniyatdagi inson omilini anglashda dialektik yondashuv tamoyillari asos qilib olindi: mavhumlikdan konkretlikka ko‘tarilish, shaxsiy va ijtimoiylikning, formal va mazmuniy birliklarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratildi.

Shuningdek, tahlil jarayonida asosiy adabiyotlar nafaqat qo‘shimcha manba, balki mustaqil uslubiy asos sifatida ko‘rib chiqildi. Natijada, mutafakkir shaxsiyati va qarashlari haqidagi xulosalar asosan ushbu manbalarning mazmunidan kelib chiqib shakllantirildi hamda ularga moslashtirildi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida atoqli ingliz faylasufi, davlat arbobi va mutafakkiri Frensis Bekon ijodi tahlil qilindi hamda uning Yevropa Uyg‘onish davri adabiyoti va falsafasida esse janri rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasi aniqlandi. Xususan, Bekonning “Tajribalar yohud axloqiy va siyosiy nasixatlar” asari yuzasidan olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

– Frensis Bekon falsafiy mazmun jihatidan serqirra va boy ilmiy-ma’naviy meros qoldirgan. U o‘rta asrlarda hukmron bo‘lgan deduktiv usuldan farqli o‘laroq, yangi induktiv tafakkur metodini shakllantirishga asos soldi.

– “Tajribalar yohud axloqiy va siyosiy nasixatlar” (keyingi o‘rinlarda



“Tajribalar” deb yuritiladi) asarida muallif o‘z hayoti davomida yuz bergan voqealar, sarguzashtlar, xatarlar va tajribalarni umumlashtirib, chuqur falsafiy xulosalar shaklida bayon etdi.

– Bekonning ensiklopedik dunyoqarashi talabalik davridayoq shakllanib, u qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining klassik merosini puxta o‘zlashtirdi. Bu esa uning falsafiy qarashlarining poydevorini yaratdi.

– Mutafakkir o‘rta asr Yevropa adabiyoti va falsafiy tafakkurida hukmron bo‘lgan sxolastik tafakkurga gumanizmning yangicha ruhi va yorqinligini olib kirdi, natijada adabiy-estetik va falsafiy tafakkurning yangi bosqichiga zamin yaratdi.

Frensis Bekonning “Tajribalar” kitobi uning falsafiy va adabiy merosining eng yorqin namunalaridan biridir. U tanlagan mavzu “Do‘stlik to‘g‘risida” esse bo‘ladimi yoki “Haqiqat haqida” risolasi kabi mavhumroq asarmi – baribir ularning barchasi retorika va falsafaning uyg‘un sintezini mujassam etadi. Aynan shu jihatlari bilan “Tajribalar” Bekonning yozuvchi va mutafakkir sifatidagi eng pishiq, mukammal va mazmunan chuqur ijodiy tajribasi sifatida qadrlanadi.

Bekon bu borada o‘z zamondoshlari, hatto esse janrining asoschisi sanalgan XVI asr fransuz mutafakkiri Mishel de Montendan ham ayrim jihatlarda ustun keldi. Chunki Monten ko‘proq keng tarqalgan g‘oyalarni umumlashtirish yoki odob-axloq haqidagi qarashlarni ixcham shaklda ifodalash bilan cheklangan bo‘lsa, Bekon o‘z davri odamlarining fikrlash yo‘nalishi va dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishga intildi.

Bekon uchun ritorika – shunchaki notiqlik emas, balki inson ongini aqlning sof nuri sari yo‘naltiruvchi kuch edi. Shu bois u o‘z maqsadiga erishdi va jahon adabiyotida mavjud bo‘lgan durdonalar fonida ham “Tajribalar” o‘zining chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turdi. Natijada Bekonning esselari so‘nggi Uyg‘onish davri Yevropa madaniy tafakkurining so‘nmas go‘zalligi va intellektual yuksakligini ifodalovchi nodir meros sifatida qadrlanadi.

Har qanday jahon miqyosidagi durdona asar singari, Frensis Bekonning “Tajribalar” kitobi ham uzoq tarixiy umrga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bekonning zamondoshlari ham, undan keyingi avlod vakillari ham bu kitobni zavq va qiziqish bilan mutolaa qilib, uni jahon madaniyatining nodir meroslaridan biri sifatida qadrlashgan. Buning sababi shundaki, “Tajribalar” insonning ichki dunyosidagi eng nozik va mavhum tuyg‘ularni larzaga solib, ularni ham buyuk shaxs, ham oddiy inson uchun birday muhim va qadrlil ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa, asar Uyg‘onish davri leytmotivini yana bir bor tasdiqlaydi: inson – oy ostidagi barcha xilma-xilligi bilan borliqning markazida turuvchi va taqdirlarning hakami bo‘lmog‘i lozim.

“Tajribalar”ni shunchaki falsafiy risola emas, balki “asrlararo asar” deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. Undagi fikrlar oqimi va harakat parvozi, erkin ifoda va beg‘araz bayon

uslubi asarga nafaqat g'oyaviy, balki didaktik, tarbiyaviy kuch ham beradi. Uning har bir sahifasida hikmat va hayotiy tajriba jaranglab turadi. Kitobni bir marotaba o'qigan o'quvchi Bekonni aql-idrok, joziba va xushmuomalalikka ega bo'lgan nodir suhbatdosh sifatida his qiladi. "Tajribalar" esa o'quvchini bosqichma-bosqich empirik kuzatuvlardan o'tib, dunyo taqdirlari va tarixiy burilishlar haqida fikr yuritishga chorlaydi, mustaqil hukm qilish va erkin qaror qabul qilish didini shakllantiradi.

Asarning ma'naviy qudrati Bekon tafakkurining kengligi, tajribaga boyligi va hayotiy donoligida namoyon bo'ladi. Uning satrlari samimiy, lekin shu bilan birga makkorona ishonarli; o'tkir, lekin ma'rifatli; tozalovchi, lekin ruhiy oziq bag'ishlovchi kuch sifatida ko'zga tashlanadi. Bu asarda sarflanmagan hikmat yo'q – uning iboralari ham, so'zlari ham siyosiy va ijtimoiy hayotning teran tajribasini mujassam etgan. Shu bois, "Tajribalar" kitobi inson tafakkurining kengayishiga, shaxs sifatida shakllanishiga va ma'naviy yetuklikka eltuvchi benazir ma'naviy manba sifatida qadrlanadi.

MUHOKAMALAR

"Tajribalar" – bu o'ziga xos, hissiyotlarga boy, betakror asar bo'lib, unda muallif o'quvchiga shaxsiy "Ego"sini majburan singdirishga urinmaydi. Kitob sahifalarida ochiladigan olam ilk qarashdayoq aqliy palitranning xilma-xilligi, hatto ba'zan ibtidoiy tartibsizligi bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Bekon unda inson hayotining turfa qirralarini yoritadi: haqiqat va o'lim, tavhid va qasos, qashshoqlik va ikkiyuzlamachilik, ota-ona va farzandlar, boshqaruv san'ati, shubha, yoshlik va qarilik, bashoratlar, bog'lar, ziyofatlar, do'stlik va boshqa ko'plab mavzular.

Qaysi mavzu tilga olinmasin, Bekon doimo inson hayotiga bevosita daxldor masalalarga e'tibor qaratadi. U suhbatlashish madaniyati, odob-axloq qoidalari, ishbilarmonlik mahorati, boyluk va xarajatlar, jamiyatda mavqega erishish, muhabbat, do'stlik va xiyonat, shon-shuhrat hamda obro' kabi masalalarni chuqur tahlil qiladi. Bunda u nafaqat o'z davrining ruhini, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham asos qilib oladi.

Asarda Bekon o'z oldiga aniq vazifani qo'yadi: inson irodasi qanday sinovlardan o'tishini, axloqiy qarorlar qanday shakllanishini va bunga qaysi omillar ta'sir etishini anglash. Shu maqsadda u o'quvchini real, kundalik hayotiy misollar orqali fikrlashga undaydi.

Shubhasiz, bunday asar o'zining minnatdor o'quvchisini topdi. Muallifning o'zi ham XVI asr fransuz faylasufi va siyosatchisi Mishel de Montenning mashhur "Tajribalari" qatorida munosib o'rin egalladi. Bekonning "Tajribalar"i Britaniya chegaralaridan chiqib, dunyo bo'ylab keng tarqaldi va bugungi kunda ham inson



qalbini rom etishda davom etmoqda. Chunki unda inson xarakteri, muhabbat, axloqiy fazilatlar va hayotiy donishmandlikka yuksak e'tibor qaratilgan. Aynan shu jihatlarda mutafakkirni buyuk tafakkur sohibi sifatida qadrlashga undaydi [2, 69].

Ko'plab tadqiqotchilar ta'kidlaganidek [6], Frensis Bekonning yengil va nafis uslubda yozishi unga keng miqyosda taqlid qilinish imkonini bergan bo'lsa-da, uning qalam uslubi takrorlanmas va o'ziga xosdir. U qadimiy faylasuflarning donoligidan chuqur xabardor bo'lgan, o'z davrining ilmiy-ma'rifiy zaminiga puxta tayanib ijod qilgan. Ayniqsa, "Tajribalar" XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi ingliz madaniyatining eng yorqin yodgorliklaridan biri sifatida qadrlanadi. Bu asar na an'anaviy falsafiy risola, na muayyan siyosiy esse; balki alohida janrga mansub, o'ziga xos mazmun va shaklga ega nodir adabiy durdonadir.

Ammo savol tug'iladi: bu kitobning jozibasi nimada? Nega "Tajribalar" bugungi kunda ham, ayniqsa yoshlar uchun, dolzarbligini yo'qotmagan? Asar o'quvchini mustaqil fikrlashga, izlanishga undaydi va hayotiy savollarga javob topishga chorlaydi. Eng muhimi, Bekon hech qachon o'z ta'limotini yakuniy haqiqat sifatida taqdim etmagan. Aksincha, u xulosani o'quvchining o'ziga qoldiradi. Mutafakkirning so'zlari bilan aytganda: "Biroq, men bunga hech narsa qo'shib bo'lmaydi, deb da'vo qilmayman; aksincha, ongni nafaqat o'z qobiliyatlarida, balki narsalar bilan bog'liqligini ham hisobga olib qarajak, kashfiyot san'ati kashfiyotlarning o'zi bilan birga taraqqiyotga erishishi mumkinligini tan olish kerak" [8, 457].

"Tabiiy falsafa" rivojining kashshofi sifatida tan olingan Frensis Bekon, shuningdek, Angliyada "tabiiy axloq" tushunchasining ham asoschilaridan biri bo'ldi. Garchi o'sha davrda axloq ko'proq ilohiyotning bir bo'laki sifatida qaralgan bo'lsa-da, Bekon uni insonning oqilona hayotiy intilishlari, tajribasi va amaliy faoliyatiga tayanib talqin qilishga intildi [5]. Bu jihatdan u Fransiyada Mishel de Monten amalga oshirgan ishni Angliya zaminida davom ettirdi, ammo o'ziga xos yangi vazifalarni oldiga qo'ydi.

Bekon uchun asosiy maqsad – inson irodasining turli ko'rinishlarini, ularni axloqiy mezonlarga bo'ysundiruvchi omillarni, rag'batlar va vositalarni kundalik hayot misollarida yoritish edi. Shu bois, u "umumiy manfaat hamma narsadan ustun" degan mashhur tezisini ilgari surar ekan, uni yana bir muhim g'oya bilan boyitadi: "inson o'z baxtining me'moridir". Mutafakkirning fikricha, barcha narsalarning ma'nosi va qadri ularning insonning oliy maqsadlariga – ruhiy salomatlik, kuch-qudrat, boylik, ijtimoiy mavqe va obro'-e'tiborga erishishga qanchalik xizmat qilishiga qarab belgilanishi lozim.

"Tajribalar"ni sinchkovlik bilan mutolaa qilgan kitobxon unda insoniy sifatning keng doirasi – maxfiylik va ayyorlik, sevgi va hasad, jasorat va



qo‘rqoqlik, mehribonlik va shubha, egoizm va bema’nilik, takabburlik va g‘azab kabi xususiyatlarning chuqur tahlilini topadi. Bekon bu jihatlarni o‘ziga xos inglizcha – vazmin, sovuqqon va xolis ohangda muhokama qiladi. U ularning turli darajalarini ko‘rsatib, misollar keltiradi, baho beradi va davlat arbobi hamda shaxs sifatida orttirgan hayotiy tajribasiga tayanib xulosalar chiqaradi.

Mutafakkir qaysi mavzuni tanlamasin – suhbatlashish san’ati, odob-axloq, ishbilarmonlik, boylik va xarajatlar, yuqori mansabga intilish, sevgi, do‘stlik va xiyonat, shuhratparastlik, shon-sharaf yoki obro‘ – u har doim masalaning amaliy tomoniga e’tibor qaratadi. Chunki hayotning o‘zi unga bu mezonlarni anglash va ularni chuqur tahlil qilish imkonini bergan.

Shu asosda Bekon quyidagi xulosaga keladi: “Men bu xususiyatlarning barchasi axloqda odamlarning ajralmas obrazlari sifatida qabul qilinishini istamayman (she’riy va tarixiy asarlarda yoki kundalik suhbatlarda bo‘lgani kabi). Balki ular oddiyroq elementlar, individual xarakter xususiyatlari bo‘lib, ularning turli aralashuvi va kombinatsiyasi ma’lum obrazlarni yaratadi. Muhimi – aynan qaysi elementlar mavjudligi va ular qanday kombinatsiyani ifodalashi aniqlanishi kerak” [8, 394].

Aynan shu nuqtada biz Frensis Bekon va Mishel de Monten – ingliz va fransuz Uyg‘onish davri mutafakkirlarining ikki buyuk asarini qiyoslash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ularning umumiyliги nafaqat janrda, balki mavzularda, hattoki ayrim esselarning sarlavhalarida ham ko‘zga tashlanadi. Ammo ular o‘rtasida sezilarli farqlar ham mavjud. Monten o‘z “Tajribalari”da, asosan, insonning tabiiy mohiyatiga, mavjudot sifatida his qilish va tafakkur qilish qobiliyatiga, shuningdek, shaxsning “Ego”sini tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratadi. Bekon esa, buning aksi o‘laroq, inson xatti-harakati va u orqali aniq natijalarga erishish imkoniyatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Bekon mulohazalarida Monten asarlariga xos bo‘lgan introspektsiya, samimiy muloyimlik, shubha, hazil-mutoyiba yoki mustaqil dunyoqarashning yorqin ifodasi uchramaydi. Agar Monten o‘zini tahlil qilishga, “Ego”ni ochishga intilgan bo‘lsa, Bekon diqqatini, eng avvalo, inson faoliyatining ijtimoiy va amaliy oqibatlariga qaratgan edi.

Bekonning yozish uslubida sovuq xolislik va real tahlil hukmron. U insonning jamiyatdagi mavqei, muvaffaqiyat qozonish yo‘llari, yuqori lavozimga ko‘tarilish, uni saqlab qolish va pastga qulamaslik strategiyalariga alohida urg‘u beradi. Shu bois uning mulohazalari hushyor, aniq maqsadli va amaliy ruhda bo‘lib, mutafakkirning shaxsiyati, davri va ijtimoiy muhitidan dalolat beradi.

Biroq “Tajribalar”ni faqat o‘z zamonining ijtimoiy-siyosiy hujjati yoki davr tafakkurining oddiy ko‘zgusi sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Asar tafakkur

tarixining bebaho durdonasi bo‘lib, bugungi o‘quvchini ham boyitishda davom etmoqda. Chunki Bekon singari iste‘dodli yozuvchi va zukko mutafakkirning ochiq, lo‘nda va ta‘sirchan taqdimoti insoniyatning mafkuraviy merosini umumiy boylik sifatida taqdim etadi hamda uni ma‘lum bir yo‘nalishga yetaklaydi.

1625-yilda chop etilgan “Tajribalar”ning lotincha nashrini o‘z homiysi gersog Bekingemga bag‘ishlar ekan, Bekon shunday yozadi: “Umid qilamanki, ushbu lotincha nashr (xalqaro til bo‘lgani sababli) kitoblar dunyoda mavjud ekan, yashaydi. Chunki ular – Xudoning inoyati ila qalamim yetgan eng yaxshi mevalardandir.” Haqiqatda, tarix Bekonning bu umidlarini oqladi: “Tajribalar” jahon miqyosida keng o‘quvchiga ega bo‘lib, barcha sivilizatsiya chegaralaridan o‘tib, asrlar xazinasiga aylandi.

Bekon o‘zining boy hayotiy tajribasini umumlashtirar ekan, natijalarni atrofidagi voqealar, shaxslar, qadimiy donishmandlarning hikmatlari va o‘z falsafiy qarashlari bilan taqqoslaydi hamda umuminsoniy xulosalarga keladi. Shu bois uning esselari oddiy mulohazalar to‘plami emas, balki inson tabiatining murakkab mohiyatini ochib beruvchi falsafiy asar darajasiga ko‘tariladi. Bekon – o‘z davrining farzandi, yangi shakllanayotgan jamiyatning vakili va insoniyat mohiyati haqida fikr yurituvchi faylasuf sifatida “Tajribalar”ida inson qalbining eng nozik, ko‘pincha zo‘rg‘a seziladigan harakatlarini ham tahlil qilishga intiladi.

Natijada, faylasufning mulohazalari nafaqat o‘z davrining ilg‘or intilishlarini jamlagan, balki Monten esselari qatori ingliz adabiyotining, keng ma‘noda esa, jahon tafakkurining original va yuksak badiiy namunasiga aylangan.

XULOSA

Frensis Bekon jahon falsafasi va madaniyati tarixida beqiyos o‘rin egallagan mutafakkirdir. U Uyg‘onish va Ma‘rifat davridayoq tanilgan bo‘lib, bugungi kunda ham XVI asr oxiri va XVII asr boshlarining eng ko‘p o‘qiladigan mualliflari safidan joy oladi. Ensiklopedik bilim sohibi bo‘lgan Bekonning falsafiy hamda adabiy dahosi, ayniqsa, uning mashhur “Tajribalar” asarida yorqin namoyon bo‘lgan. Bu asar qirralangan olmosdek jilvalanib, fikrlar xazinasiga sifatida asrlar davomida o‘quvchini o‘ziga maftun etib kelmoqda.

Bekon ta‘limoti qadimgi Yunoniston va Rim klassik merosiga tayansa-da, u o‘rta asrlardagi sxolastika va kitobiy an‘analarga yangilik, jonlilik va rang-baranglik olib kira oldi. “Tajribalar” mavzulari xilma-xilligi bilan ajralib turadi: ayrim esselar, masalan, “Do‘stlik” shaxsiy tuyg‘ularni yoritgan bo‘lsa, “Haqiqat” kabi bo‘limlar falsafiy-abstrakt mazmun kasb etadi. Ammo ularning barchasi ritorika va falsafaning betakror sintezi bo‘lib, Bekon ijodining eng pishiq va mukammal namunasi sifatida

qadrlanadi.

Bekonning o‘ziga xos yutug‘i shundaki, u falsafiy umumlashtirish yoki axloqiy qoidalarni shunchaki targ‘ib qilish bilan kifoyalanmagan. Aksincha, u nafaqat o‘z davrining, balki inson tafakkuridagi qotib qolgan stereotiplarni tubdan yangilashga harakat qilgan va bunga erishgan. Mutafakkirning fikricha, ritorika inson ongini utopiyaga emas, balki porloq kelajak sari yo‘naltiruvchi aql nuri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shu bois “Tajribalar” nafaqat qomusiy xarakterdagi asar, balki to‘rt asrdan ortiq vaqt mobaynida o‘quvchini ham jiddiy mulohazaga, ham estetik zavqqa chorlab kelayotgan bitmas-tuganmas manbadir. Uning abadiy dolzarbligi va badiiy-falsafiy qudrati Bekon dahosining asrlar osha qadrlanishi uchun tayyorlangan taqdiriy mukofotdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асмус В. Ф. Античная философия. – М., 1976.
2. Шадманов К. Б. Френсис Бэкон ва унинг “Тажрибалар ёхуд ахлокий ва сиёсий насихатлар”ида донолик ва хакикатнинг онтологик ҳамда эпистемологик асослари. – Бухоро, 2022. – Б. 124.
3. Шадманов К. Б. Англия эпохи позднего Возрождения в зеркале лингвофилософской рефлексии этики и морали в системе диалога культур // Философия и наука в поиске общих оснований синтеза культур. – Бухара, 2023. – С. 294-324.
4. Annas J. Ethics in Stoic Philosophy // Anniversary Papers: The Southern Association for Ancient Philosophy at 50. 2007, Vol. 52, №1. – P. 58-87. <https://www.jstor.org/stable/4182824>.
5. Bacon F. The Essays. – London: Penguin Books, 1985. – P. 287.
6. Shadmanov K. B. Peripatetic philosophical thought of IX–XII centuries Central Asia and the European Renaissance. – India: Novateur Publication, 2023. – P. 106.
7. Shadmanov K. B. Ethics of Late Renaissance England, its Place in History and Philosophy // Аль-Фараби. 2023, №1 (81). – P. 43-59.
8. Bacon F. The Works of Lord Bacon. Vol. II. – London, 1841. – P. 634.
9. Righter A. The English Mind. – Cambridge, 1964.
10. Fish S. Georgics of the Mind: Experience of Bacon’s “Essays” in Self-Consuming Artifacts. – Berkeley; Los Angeles, 1974. – P. 78-155.
11. Croll M. W. Style, Rhetoric and Rhythm / Ed. J. Max Patrick. – Princeton,



1966.

12. Williamson G. The Senecan Amble. – London, 1951.
13. Vickers B. Francis Bacon and Renaissance Prose. – Cambridge, 1968. – Ch. 4.
14. Cochrane R. C. Francis Bacon and the Architect of Fortune // Studies in the Renaissance. 1958. Vol. 5. – P. 176-195.
15. McMahon A. P. Francis Bacon’s “Essay of Beauty” // Publications of the Modern Language Association. – 1945. – Vol. 60. – P. 716-759.
16. Tillotson G. Words for Princes: Bacon’s “Essays” // Essays in Criticism and Research. – Cambridge, 1942. – P. 31-40.
17. Walters M. The Literary Background of Francis Bacon’s Essay “Of Death” // Modern Language Review. 1940. Vol. 35. – P. 1-7.



IJTIMOIIY FANLAR

AXBOROT MAKONI SHAKLLANISHI, TUZILISHI VA RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI

MIRZAYEV ABDUGAFFAR MIRZARAXMATOVICH

*O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik birlashmasi
Yoshlar masalalari bo‘yicha raxbar o‘rinbosari*

Email: Abdugaffar1987@gmail.ru

UDK: 1:001+004(575.1)

<https://orcid.org/0009-0001-7532-6713>

Kalit so‘zlar:

axborot, axborot makoni, kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, transformatsiya, begonalashuv, axborot inqilobi.

Annotatsiya:

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyatga dunyoning istalgan nuqtasidan turli xil ma’lumotlarga tezkor kirish, ular bilan real vaqt rejimida almashinish va samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratdi. Axborot oqimlarida to‘g‘ri yo‘nalish tanlash va faol ishtirok etish uchun zamonaviy mutaxassis kompyuter, telekommunikatsiya hamda boshqa texnik vositalardan unumli foydalana olishi, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uni maqsadli qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Shu bilan birga, axborot manbalaridan foydalanishda yo‘naltirish qoidalarini bilish va yuqori darajadagi axborot madaniyatini shakllantirish ushbu jarayonning muhim shartidir. Ushbu maqola axborot makonining shakllanishi, tuzilishi va rivojlanishining falsafiy asoslarini yoritadi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’sirida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, madaniy va intellektual jarayonlarni tahlil qiladi hamda axborot madaniyatini rivojlantirish zaruriyatini asoslab beradi.

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ, СТРУКТУРЫ И РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА

Ключевые слова:

информация, информационное пространство,

Аннотация:

Стремительное развитие современных информационно-коммуникационных технологий позволило человечеству оперативно получать различную информацию из любой точки мира, обмениваться ею в

коммуникация,
социальные сети,
трансформация,
отчуждение,
информационная
революция.

режиме реального времени и эффективно общаться. Для выбора правильного направления и активного участия в информационных потоках современный специалист должен уметь эффективно использовать компьютеры, телекоммуникации и другие технические средства, обладать навыками приема, обработки и целевого применения информации. В то же время знание правил ориентации при использовании источников информации и формирование высокого уровня информационной культуры является важным условием этого процесса. В данной статье освещаются философские основы формирования, структуры и развития информационного пространства, анализируются социальные, культурные и интеллектуальные процессы, происходящие под влиянием современных информационно-коммуникационных технологий, и обосновывается необходимость развития информационной культуры.

PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION, STRUCTURE AND DEVELOPMENT OF THE INFORMATION SPACE

Keywords:

information,
information space,
communication,
social networks,
transformation,
alienation,
information
revolution.

Abstract: The rapid development of modern information and communication technologies has created the opportunity for humanity to quickly access various information from anywhere in the world, exchange it in real time, and communicate effectively. To choose the right direction and actively participate in information flows, a modern specialist must be able to effectively use computers, telecommunications, and other technical means, and possess the skills to receive, process, and purposefully apply information. At the same time, knowledge of the rules of orientation in the use of information sources and the formation of a high level of information culture are an important condition of this process. This article illuminates the philosophical foundations of the formation, structure, and development of the information space, analyzes the social, cultural, and intellectual processes occurring under the

influence of modern information and communication technologies, and substantiates the need to develop an information culture.

KIRISH

Axborot mohiyatan “turli manbalardan yig‘ilgan bilimlarni qayta bayon etish shaklidir” [1]. Yer yuzida ongli mavjudotlarning paydo bo‘lishi bilan birga, ular atrof-muhit va unda yuz berayotgan voqealar haqida axborot yig‘ish, uni tahlil qilish va yashash sharoitlarini belgilash hamda taraqqiyot yo‘lini anglashda foydalanish ehtiyojini his eta boshladi. Dastlab bu jarayon tabiiy kuzatishlar va tajribalar asosida kechgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan insoniyat tomonidan tabiatni o‘rganish jarayonida hosil bo‘lgan bilimlar yanada tizimlashtirildi. Natijada ularga texnik qurilmalar, o‘lchov asboblari, ishlab chiqarish texnologiyalari va ijtimoiy boshqaruv jarayonlari haqidagi ma’lumotlar ham qo‘shilib bordi.

Zamonaviy davrda internet va boshqa ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tez-tez “axborot supermagistrali” deb ta’riflanadi. Bu metafora ularning jamiyat ongida muhim vosita sifatidagi mavqeini aks ettiradi. “Axborot supermagistrali” iborasi ilk bor 1990-yillarda AQShda keng ommalashib, internetni milliy infratuzilma darajasidagi resurs sifatida talqin qilishga qaratilgan edi. U ko‘chalar yoki avtomobil yo‘llari kabi umumfoydali tarmoq sifatida tasavvur etilib, keng jamoatchilikni u orqali tezkor va qulay muloqot, ma’lumot almashinuvi hamda iqtisodiy imkoniyatlar olamiga chorlagan.

Bugungi kunda bu tushuncha internetning faqat kommunikatsiya vositasi sifatidagi rolini emas, balki u global miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va hatto siyosiy o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanini anglatadi. Internet orqali shakllangan axborot makoni inson faoliyatining barcha sohalariga – ta’lim, fan, ishlab chiqarish, boshqaruv va madaniyatga chuqur kirib bordi. Natijada jamiyatda axborotga ega bo‘lish, uni qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalari zamonaviy shaxsning ajralmas kompetensiyalaridan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

G‘arb falsafasida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat, ommaviy axborot vositalarining inson ongiga ta’siri hamda begonalashuv (entfremdung) tushunchasi K. Marks, M. Xorkxaymer, T. Adorno, H. Arendt, Y. Habermas, Z. Bauman kabi ko‘plab mutafakkirlar tomonidan ijtimoiy nazariy asoslarda chuqur tahlil qilingan.

Xususan, H. Arendt o‘zining mashhur “Odamiylik holati” (The Human Condition) asarida zamonaviy axborot oqimi sharoitida shaxsning yolg‘izlanishi, ommaviy axborotning insonlar o‘rtasidagi sof insoniy munosabatlarni siqib chiqarishi



kabi muammolarni yoritgan. Uning fikricha, axborot muhitida insonlar o'rtasidagi tabiiy munosabatlar asta-sekin sun'iylashib boradi, natijada inson ijtimoiy mavjudot sifatidagi holatini yo'qotib, individual izolyatsiyaga tushib qolish xavfi yuzaga keladi [1, 51].

Y. Habermas esa axborot maydonining ijtimoiy ongga ta'sirini kommunikativ harakat nazariyasi doirasida izohlagan. U axborot almashinuvi jarayoni jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat, o'zaro ishonch va demokratik muloqot tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [2, 124].

Z. Bauman postmodern jamiyatda shaxsning "suyuq identiklik" (liquid identity) holatiga tushib qolishini tahlil qilib, axborot oqimining keskin ko'pligi va tezkorligi shaxs o'zligini aniqlash jarayonida doimiy beqarorlik va ikkilanish holatini yuzaga keltirishini qayd etadi [3, 182].

A. Turen va M. Kastels axborot jamiyati sharoitida ijtimoiy strukturalar zaiflashib borishini, natijada shaxs o'zining ijtimoiy roli va jamiyatdagi o'rnini aniqlashda qiyinchilikka duch kelishini ta'kidlaydilar [4, 28].

Mahalliy tadqiqotlar orasida A. G. Muminovning ishlari alohida o'rin tutadi. U axborot makonini shaxsning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, uning ijtimoiy-siyosiy voqelikka nisbatan pozitsiyasini belgilovchi muhim kuch sifatida baholaydi. G. G'. G'affarova esa murakkab tizimlarda axborot generatsiyasi jarayonining metodologik asoslarini ishlab chiqib, uning ijtimoiy ongga ta'sir mexanizmlarini izohlaydi [5, 78].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda shaxsning estetik ehtiyojlarining kibermakon va virtual olam sharoitida transformatsiyalanish jarayoni falsafiy-ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Maqolada mavzuga oid mavjud nazariy yondashuvlar, g'arb va mahalliy olimlar fikrlari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asosida umumlashtirildi. Kibermakonning shakllanishi, rivojlanishi va uning shaxs estetik ehtiyojlariga ta'siri bo'yicha mavjud konseptual modellarga qiyosiy yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Falsafiy-nazariy metod – estetik ehtiyojlarning mohiyati, ularning tarixiy rivojlanishi va kibermakon sharoitida kechayotgan transformatsiya jarayonlarini falsafiy konsepsiyalar va nazariy qarashlar asosida tahlil qilish.

Qiyosiy tahlil – kibermakon va an'anaviy ijtimoiy-madaniy makonda estetik ehtiyojlarning shakllanish xususiyatlarini solishtirish;

Kontent tahlil – virtual makonda tarqatilayotgan estetik xarakterdagi axborot oqimlari mazmunini o'rganish;

Metodologik asos sifatida axborot jamiyati nazariyasi, kommunikativ harakat nazariyasi, estetik falsafa konsepsiyalari hamda postmodernizmning madaniy tahlil yondashuvlari qo‘llandi. Ushbu yondashuvlar kibermakonning shaxs ongiga, uning estetik didi va qadriyatlariga ta‘sirini kompleks o‘rganish imkonini berdi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Internetning yaratilishi, avvalo, jamiyatda ma‘lumotlarga tezkor, samarali va qulay kirish imkoniyatiga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishi natijasida yuzaga keldi [6, 159]. XX asr oxiriga kelib, dunyoda yaratilayotgan axborot hajmi har ikki yilda ikki baravarga oshib borayotgani kuzatildi. Ushbu jarayon rivojlangan mamlakatlarda ortib borayotgan ma‘lumot oqimiga javoban Internetni global bilimlar tarmog‘i sifatida shakllantirishga kuchli turtki berdi. Natijada, Google, Wikipedia, JSTOR, elektron kutubxonalar va boshqa raqamli resurslar mazkur infratuzilmaning amaliy mahsuliga aylandi.

Axborotli jamiyat, shubhasiz, aql-zakovat salohiyati yuqori bo‘lgan jamiyat sifatida qaraladi. Shu boisdan, keng jamoatchilikning axborotga erkin kirish imkoniyati nafaqat ma‘naviy rivojlanishga, balki qisqa muddat ichida iqtisodiy yuksalishga ham xizmat qiladi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, axborotga erkin kirish imkoni mavjud bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari ancha yuqori bo‘lishi aniqlangan. Masalan, Estoniya va Janubiy Koreya kabi davlatlar raqamli infratuzilmani keng miqyosda joriy etish orqali raqamli iqtisodiyotda yetakchi o‘rinlarni egallagan. Shu bilan birga, axborot makonining takomillashuvi siyosiy qarorlar qabul qilinishiga hamda iqtisodiy siyosatning shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, IT sanoati so‘nggi yigirma yil davomida eng tez rivojlangan tarmoqlardan biri bo‘lib, 2023-yil holatiga kelib, global IT sektori dunyo yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 15-20 foizini tashkil etgan [7, 5].

Shu bilan birga, XXI asr boshlarida yuz bergan “dot-com” inqirozi axborot asrining iqtisodiy poydevoriga sezilarli salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu inqirozning asosiy sababi Internet asosida ishlovchi kompaniyalarning moliyaviy faoliyati borasida haddan tashqari optimistik, biroq real iqtisodiy asosga ega bo‘lmagan kutishlar edi. Ko‘plab startaplar aniq biznes modeli mavjud bo‘lmagan holda millionlab dollarga baholanib, katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilgan. Natijada, texnologik innovatsiyalar e‘tibori avtomatlashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo‘naltirildi [8, 43]. Bugungi kunda Amazon, Tesla kabi yirik korporatsiyalar aynan avtomatlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘z raqobatbardoshligini mustahkamlashda davom etmoqda.

Buning bevosita oqibati sifatida ayrim texnologiyalar va kompaniyalar (masalan,

MySpace, Yahoo! va AltaVista) o‘z faoliyatini to‘xtatdi, natijada axborot makonining o‘shish sur‘atlari ma‘lum darajada sekinlashdi [9, 60]. Bu voqea texnologik innovatsiyalarni yangilik yaratishdan ko‘ra mavjud tizimlarni optimallashtirishga yo‘naltirishga sabab bo‘ldi.

Yangi axborot texnologiyalarining jamiyatning turli sohalariga chuqur kirib borishi natijasida “ijtimoiy axborot” tushunchasi shakllandi. Ushbu atama Rossiya va Yevropa axborot nazariyalarida keng o‘rganilib, ijtimoiy jarayonlar va axborot oqimi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglatadi. Ijtimoiy axborot quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlari va muammolari;
- axborot resurslari ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot omillari sifatida;
- axborotlashgan jamiyatda shaxsning o‘rni va muammolari;
- axborot madaniyati, ya‘ni axborotni tanlash, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyati.

“Axborotlashgan jamiyat” atamasi ilk bor Yaponiyada qo‘llanilgan bo‘lib, u yuqori sifatli axborot zaxiralariga ega, ularni saqlash, uzatish va ulardan foydalanish imkoniyatlari rivojlangan jamiyatni anglatadi. Bu modelda iqtisodiy rivojlanish axborot va bilimlar oqimi orqali boshqariladi. Bugungi raqamli transformatsiya davrida mazkur model, xususan Yaponiya, Janubiy Koreya va Singapur tajribasida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bunday jamiyatda quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

- axborot resurslariga umumiy va teng kirish imkoniyati (raqamli tenglik);
- zamonaviy axborot texnologiyalarining mavjudligi va keng qo‘llanilishi;
- axborot infratuzilmasining (server markazlari, sun‘iy yo‘ldoshlar, mobil aloqa tarmoqlari) doimiy yangilanishi va takomillashuvi.

Insoniyat tarixida axborotni yig‘ish, saqlash va uzatish vositalarining rivojlanishi to‘rtta asosiy “axborot inqilobi” bosqichida amalga oshgan:

Birinchi axborot inqilobi – yozuvning yaratilishi. Bu jarayon bilimlarni avloddan avlodga yetkazish imkonini berdi. Qadimgi Misr, Shumer va Xitoy kabi sivilizatsiyalarda yozuv jamiyatni boshqarish, diniy ta‘limotlarni yoyish hamda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda hal qiluvchi omil bo‘ldi.

Ikkinchi axborot inqilobi – kitob bosish texnologiyasining yaratilishi. 1440-yilda Yoxannes Gutenberg tomonidan bosmaxona ixtiro qilinishi axborotni keng ommaga tarqatish imkoniyatini yaratdi. Bu savodxonlik darajasining oshishi va ilmiy inqilobning yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Uchinchi axborot inqilobi – aloqa texnologiyalarining rivojlanishi. Telegraf (1837), telefon (1876) va radio (1895) ixtirolari axborotni real vaqt rejimida uzoq



masofalarga uzatish imkoniyatini berdi. Bu esa global bozor va xalqaro siyosiy maydonning shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

To'rtinchi axborot inqilobi – mikroprotessorli kompyuterlar va raqamli texnologiyalar davri. 1971-yilda Intel kompaniyasi birinchi mikroprotessor (Intel 4004)ni ishlab chiqdi, 1981-yilda esa IBM shaxsiy kompyuterlarni taqdim etdi. Ushbu bosqich bugungi axborotlashgan jamiyatning poydevorini mustahkamladi va raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga asos soldi.

Axborot makonining kengayishi va unda ro'y bergan tub o'zgarishlar XX asr ilmiy, texnologik hamda madaniy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. Bu davrda nafaqat mavjud axborot hajmi keskin ortdi, balki uni ishlab chiqarish, saqlash, uzatish va qayta ishlash usullari ham tubdan yangilandi. Bunday jarayonlarni tahlil qilish zamonaviy jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini, tafakkur tizimini va ijtimoiy aloqalarining shakllanish mexanizmlarini tushunishda muhim ilmiy asos yaratadi.

XX asr boshida ilm-fan sohasi, xususan, fizika kabi aniq fanlarda tadqiqotlar nisbatan tor axborot makonida olib borilgan. O'sha davrda o'z sohasida yetakchi bo'lishni istagan olim uchun oylik atigi 10 tagacha ilmiy jurnalni muntazam kuzatish kifoya edi [10, 224]. Bu raqam o'sha davr ilmiy axborot oqimining nisbatan kamligini ifodalaydi. Ammo asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa so'nggi choragidan boshlab vaziyat keskin o'zgardi: yuzlab yangi ilmiy jurnallar, xalqaro konferensiyalar, elektron ma'lumotlar bazalari va onlayn ilmiy platformalar paydo bo'ldi. Natijada, masalan, XX asr oxirida birgina fizika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis haftasiga yoki hatto kuniga yuzlab yangi ilmiy maqola va yangiliklar bilan tanishishga majbur bo'lib qoldi. Bu esa ilmiy faoliyatning samaradorligi, metodologiyasi va strategik yo'nalishlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur jarayon ilmiy adabiyotlarda "axborot portlashi" (information explosion) deb ataladi. A.I. Rakitov va boshqa tadqiqotchilar bu hodisani axborot makonidagi uzluksiz va geometrik progressiyada ortib borayotgan ma'lumotlar oqimi bilan izohlaydi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1900-yilgacha insoniyat to'plagan bilimlar hajmi asosan sekin o'sib borgan. 1900-1950 yillarda bu hajm har 50 yilda ikki baravar oshgan bo'lsa, 1950-yillardan keyin bu muddat 10 yilgacha qisqardi. 1970-yillardan boshlab esa bilimlar hajmi har 5 yilda ikki hissa ortdi. XXI asr boshiga kelib esa bu ko'rsatkich yiliga deyarli ikki baravar o'sishga yaqinlashdi. Bunday tezlik insoniyat tarixida ilgari kuzatilmagan axborot zichligini vujudga keltirdi.

Axborot portlashi nafaqat ilmiy doiralarga, balki ta'lim, ishlab chiqarish, davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash va ommaviy axborot vositalari kabi sohalarga ham chuqur ta'sir ko'rsatdi. Endilikda har qanday soha mutaxassisi o'z faoliyatiga oid



yangiliklarni muntazam kuzatib borishi shart, aks holda u mehnat bozorida raqobatda tezda ortda qoladi. Shu bois zamonaviy davr mutaxassisi uchun doimiy o'qish, malaka oshirish, axborot texnologiyalarini puxta egallash va analitik tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriy ehtiyojga aylandi.

Shuningdek, axborot portlashi muammolari orasida axborotni filtrlash, tanlash, saralash va uni baholash bilan bog'liq masalalar ham dolzarb tus oldi. Barcha axborotlar bir xil foydali yoki ishonchli emas. Shu sababli, zamonaviy axborot makonida insondan nafaqat ko'proq axborotni o'zlashtirish, balki uning sifati, haqqoniyli va ijtimoiy ahamiyatini baholay olish malakasi talab etiladi. Bu esa axborot madaniyati, media savodxonlik va raqamli tafakkur kabi tushunchalarning jamiyatda tobora muhim o'rin egallashiga sabab bo'lmoqda.

Ularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- insonning chegaralangan qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlari bilan doimiy ko'payib borayotgan axborot oqimlari o'rtasidagi qarama-qarshilik;
- foydali axborotlarni o'zlashtirishga halal beruvchi ulkan ortiqcha axborot massasining mavjudligi;
- axborot tarqalishiga xalaqit beruvchi iqtisodiy, siyosiy va boshqa to'siqlarning kuchayishi.

Axborotlashgan jamiyat vazifalaridan biri – inqiroz oqibatlarini yumshatishdir.

Axborot tushunchasi inson faoliyatining barcha sohalariga singib ketgan bo'lib, uni miqdoriy (texnik, iqtisodiy) va sifat jihatdan (falsafiy, ontologik, gnoseologik, aksiologik, kibernetik) tahlil qilish mumkin [11, 326]. Falsafiy nuqtai nazardan axborot ongga nisbatan ikkilamchi, ong esa borliqqa nisbatan ikkilamchi deb qaraladi. Ya'ni, axborot – bu borliqdagi signallarning ma'no va mazmunga ega, tartibga solingan ketma-ketligi sifatida talqin etiladi. Axborotning moddiy tashuvchisi uni uzatish va saqlash jarayonini aks ettirganidagina axborot mavjud bo'ladi, aks holda borliq axborotsiz qoladi. Demak, axborot moddiy tashuvchining uzviy mazmuni va mohiyati sanaladi.

Yagona axborot maydoniga falsafiy-aksiologik hamda kibernetik yondashuvlar asosida qaralganda, axborotning mohiyati, vazifasi va ijtimoiy ta'siri yanada murakkab va ko'p qirrali ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu ikki yondashuv bir qarashda turlicha ko'rinsa-da, aslida ular zamonaviy axborot muhitining kompleks xususiyatlarini anglashga xizmat qiladi.

Falsafiy-aksiologik nuqtai nazardan axborot, avvalo, ma'naviy va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv axborotni inson tafakkuri va ruhiy-ma'naviy olami bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ko'radi. Ya'ni, har qanday axborot nafaqat tashqi voqealar, faktlar yoki ko'rsatkichlarni bildiradi,



balki inson ongi, axloqiy me'yorlari va estetik dunyoqarashiga bevosita ta'sir qiladi [12, 105]. Shu bois, bu nuqtai nazardan axborotni quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Ijobiy mazmundagi axborot – insonni ongli rivojlanishga undaydigan, uni intellektual va ma'naviy jihatdan boyitadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan axborotlardir. Masalan, ilmiy tadqiqotlar natijalari, texnologik innovatsiyalar, falsafiy-axloqiy qarashlar, badiiy-estetik tahlillar hamda siyosiy-ijtimoiy tushunchalarni shakllantiruvchi ma'lumotlar shular jumlasidandir. Bu turdagi axborotlar ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladi, shaxsning bilim va ongini yuksaltiradi. Ular o'z navbatida tabiiy-ilmiy (masalan, fizika, kimyo, biologiya) va ilmiy-gumanitar (tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyot) yo'nalishlarga bo'linadi. Bu tasnif inson tafakkurining ikki asosiy qirrasini – ratsional hamda aksiologik-mazmuniy jihatlari mos keladi.

2. Salbiy mazmundagi axborot – insonni buzuvchi, uning ruhiy holatini izdan chiqaruvchi, tajovuzkorlikni, zo'ravonlikni, ekstremizmni yoki befarqlikni kuchaytiruvchi axborotlardir. Bu turdagi ma'lumotlar ko'pincha senzatsion, manipulyativ yoki nohaq maqsadlarga xizmat qiluvchi shaklda tarqatiladi. Internetda, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan soxta yangiliklar, zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi videolar, g'ayriaxloqiy kontentlar bunga misol bo'la oladi. Bunday axborotlar insonni haqiqiy qadriyatlardan uzoqlashtiradi, uni jamiyatdan begonalashtiradi va madaniy qashshoqlik hamda ma'naviy bo'shliqqa olib keladi.

Shunday qilib, falsafiy-aksiologik yondashuv axborotni inson ongi, madaniyati va qadriyatlari bilan bog'lab o'rganadi. Bu yondashuv, bir tomondan, axborotning ijtimoiy-madaniy rolini ochib bersa, boshqa tomondan, uning zararli oqibatlariga ham e'tibor qaratadi.

Kibernetika fanining yondashuvida axborot – bu uzluksiz signallar oqimi sifatida talqin qilinadi. Bu nuqtai nazardan axborot biologik organizmlar, avtomatik tizimlar va inson–mashina komplekslari orqali hosil bo'luvchi, uzatiluvchi va qayta ishlanuvchi jarayon sifatida qaraladi.

Kibernetik modelda axborot uch bosqichda ko'rib chiqiladi:

1. Axborotning yuzaga kelishi – bu bosqichda atrof-muhitdagi o'zgarishlar yoki obyektlar tomonidan signal ko'rinishida ma'lumotlar shakllanadi. Masalan, inson sezgi organlari orqali tashqi olamni idrok qiladi yoki qurilma sensorlari orqali atrof-muhit haroratini o'lchaydi.

2. Axborotning uzatilishi – yuzaga kelgan signal maxsus kanallar (nerv tolalari, kabellar, elektromagnit to'lqinlar) orqali maqsadli manzilga yetkaziladi. Bunda axborot tashuvchi modda – energiya yoki materiya – muhim rol o'ynaydi. Har qanday

uzatish jarayoni fizika qonunlariga bo'ysunadi.

3. Axborotning qayta ishlanishi – qabul qiluvchi tizim (inson miyasi, kompyuter protsessori yoki sun'iy intellekt moduli) kelgan signalni o'z ehtiyojlari yoki funksiyalariga muvofiq qayta ishlaydi, tahlil qiladi va unga mos ravishda javob reaksiyasini hosil qiladi.

Bu yondashuv axborotni universal tabiat hodisasi sifatida tasvirlaydi. Kibernetik modelda axborot nafaqat insoniy muloqot yoki ijtimoiy jarayonlarning mahsuli, balki tirik va jonsiz tizimlarning mavjudlik shakli sifatida ham qaraladi. Shuning uchun har qanday tizim – inson, robot, hayvon yoki mashina – o'z atrofidan axborot olib, unga moslashadi va o'z harakatini nazorat qiladi.

XULOSA

Axborot makoni zamonaviy fan tizimida muhim nazariy kategoriyaga aylangan. Fan taraqqiyotining asosiy jihatlaridan biri – axborot makonining alohida obyekt sifatida e'tirof etilishi va uni chuqur falsafiy tahlil qilish zaruratidir. Bu makon nafaqat texnologik jarayonlar majmuasi, balki jamiyat, inson, madaniyat, tafakkur va ong bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-falsafiy tizimdir.

Hozirgi kunda axborot makoni turli nazariy yondashuvlar – sistemali tahlil, kommunikatsiya nazariyasi, kibernetika, gnoseologiya va aksiologiya bilan integratsiyalashgan holda o'rganilmoqda. Bu holat uni fanning universal va metadistsiplinar komponentiga aylantirmoqda.

Axborot makoni tuzilishi murakkab, ko'p bosqichli va o'zaro bog'liq qatlamlardan iborat. Uning ichki strukturasi axborot resurslari, ularni uzatuvchi va qabul qiluvchi texnologiyalar, ma'lumotlarni qayta ishlovchi intellektual tizimlar, foydalanuvchilar, axborot siyosati va ijtimoiy institutlar kabi elementlar mavjud. Bu elementlar o'zaro doimiy ta'sirda bo'lib, makonning dinamik rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu tuzilmaning asosi ma'lumotlar almashinuvi, simvolik ifoda, semantik bog'liqlik va kommunikativ samaradorlik tamoyillariga tayanadi. Shu sababli, ilmiy sohada axborot makonini tizimli va tarmoq asosida tahlil qilish dolzarb masalaga aylangan.

Axborot makonining rivojlanishi chuqur falsafiy asosga ega bo'lib, gnoseologik, ontologik va aksiologik jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Axborot – bu oddiy signal emas, balki ma'no va qadriyatni o'zida mujassamlashtiruvchi mazmundor hodisa sifatida talqin etiladi.

- Gnoseologik yondashuvda axborot bilish vositasi sifatida tahlil qilinadi.
- Ontologik yondashuvda u borliqning ajralmas qismi, ya'ni mavjudlikning shakli sifatida o'rganiladi.

– Aksiologik yondashuvda esa axborotning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi qadriy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.

Bunday yondashuvlar axborot makonini axloqiy, estetik, madaniy va ijtimoiy jihatdan ham chuqur tadqiq etishni taqozo etadi.

Axborot makoni fan va jamiyat rivojida strategik ahamiyatga ega. U hozirgi kunda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning katalizatori sifatida maydonga chiqib, ilmiy tafakkurning yangi shakllarini yuzaga keltiradi, fanlararo integratsiyani jadallashtiradi, axborotga asoslangan boshqaruv, tahlil va prognoz mexanizmlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, u jamiyatni global miqyosda birlashtiruvchi va axborot asrining markaziy muhitiga aylangan. Falsafiy yondashuvsiz zamonaviy ilmiy paradigmalarning to'liq ifodasini tasavvur qilish qiyin.

Xulosa qilib aytganda, axborot makoni fanning fundamental kategoriyalaridan biri sifatida zamonaviy ilmiy tafakkurning markazida turibdi. Uning shakllanishi va rivojlanishida falsafa muhim epistemologik va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Axborot makoni bugungi kunda nafaqat texnik, balki ijtimoiy, madaniy, gumanitar va axloqiy o'zgarishlarning ham markaziy maydoniga aylangan. Shu bois, u fan tizimi doirasida universal konsepsiya, tadqiqot predmeti va amaliy faoliyat mezoni sifatida e'tirof etilib, global axborotlashgan jamiyatda barqaror taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arendt H. The human condition. – Chicago: University of Chicago Press. 1958. – P. 51.
2. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press. 1984. – P. 124.
3. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – P. 182.
4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996. – P. 28
5. G'affarova G'.G. Axborot generatsiyasining falsafiy asoslari. – Toshkent, 2018. – B. 78.
6. Diamond L. The Democratic Imperative: Information Access and Society. – Oxford: Oxford University Press, 2021. – P. 159
7. Statista Report. Global IT Industry Share in GDP. – Frankfurt: Statista GmbH, 2023. – P. 5.
8. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – P. 43.



9. Cassidy J. What Hath Dot-com Wrought? // The New Yorker. 2025, Vol. 81, No. 24. – P. 60.
10. Ракитов А.И. Информационная эксплозия и информационная культура. – М: Наука, 2018. – С. 224.
11. Floridi L. Information: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 326
12. Bateson G. Steps to an Ecology of Mind. – New York: Ballantine Books. 1972, – P. 105.



IJTIMOIIY FANLAR

ОСОБЕННОСТИ ПРЕДЛОЖНЫХ ФОРМ МЕСТОИМЕНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: НА ПРИМЕРЕ «К НЕМУ» И «К НЕЙ»

КИМ МАРИНА АЛЕКСЕЕВНА

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Преподаватель кафедры русского языка и литературы

Эмаил: marinakim2503@gmail.com

УДК: 811.11.112

<https://orcid.org/0000-0003-1594-6459>

ОСТАНОВ РАШИД ЭРКИНЖОНОВИЧ

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Студент 3 курса филологического факультета

Эмаил: Ostanovavtor1tet@icloud.com

Ключевые слова: Русский язык, местоимение, предлог, дательный падеж, протектическая согласная, синтаксис, историческая грамматика, диахрония, индоевропейские языки.

Аннотация: В статье рассматриваются грамматические и историко-лингвистические особенности предложных форм личных местоимений третьего лица в русском языке на примере сочетаний с предлогом «к» – «к нему» и «к ней». Анализируются их структурное строение, синтаксические функции, а также роль протектической морфемы «н» в обеспечении связности и эвфонии речи. Особое внимание уделяется происхождению этих форм в свете исторической эволюции русского языка и их параллелям в других индоевропейских языках. Подчеркивается, что указанные формы являются не исключением из грамматических норм, а закономерным результатом устойчивых и системных процессов, отражающих диахроническое развитие грамматической системы русского языка.

RUS TILIDAGI OLMOSHLARNING PREDLOGLI SHAKLLARI XUSUSIYATLARI: “K HEMY” VA “K HEЙ” MISOLIDA

Kalit soʻzlar:

Rus tili, olmosh, predlog, dativ kelishigi, protetik undosh, sintaksis, tarixiy grammatika, diaxroniya, hind-yevropa tillari.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada rus tilidagi uchinchi shaxsga oid shaxs olmoshlarining predlog bilan qoʻllaniladigan shakllari “к” – “к нему” va “к ней” birikmalarining grammatik hamda tarixiy-lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu shakllarning tuzilishi, sintaktik funksiyalari, shuningdek, nutqning bogʻliqligi va ohangdorligini taʼminlashdagi “н” protetik morfemasining roli chuqur yoritiladi. Mazkur shakllarning kelib chiqishi rus tilining tarixiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan koʻrib chiqiladi va ularning boshqa hind-yevropa tillaridagi oʻxshash hodisalar bilan uygʻunligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu shakllar grammatik qoidalardan mustasno emas, balki rus tili grammatik tizimining diakronik rivojlanishini aks ettiruvchi barqaror va tizimli jarayonlarning mahsuli ekanligi taʼkidlanadi.

FEATURES OF PREPOSITIONAL FORMS OF PRONOUNS IN THE RUSSIAN LANGUAGE: THE CASE OF “K HEMY” AND “K HEЙ”

Keywords:

Russian language, pronoun, preposition, dative case, protetic consonant, syntax, historical grammar, diachrony, Indo-European typology.

Abstract:

This article analyzes the grammatical and historical-linguistic features of the prepositional forms of third-person personal pronouns in the Russian language, focusing on the constructions with the preposition “к” – “к нему” va “к ней”. It examines their structural composition, syntactic functions, and the role of the protetic morpheme “н” in maintaining cohesion and euphony in speech. Special attention is given to the origin of these forms in the context of the historical development of the Russian language, as well as their parallels in other Indo-European languages. The study emphasizes that these forms are not exceptions to grammatical rules but rather the result of stable and systemic processes that reflect the diachronic evolution of the Russian grammatical system.

ВВЕДЕНИЕ

В системе русского языка личные местоимения представляют собой грамматически обособленный и высокочастотный класс слов, характеризующийся устойчивыми морфологическими и синтаксическими особенностями. Особый интерес в лингвистике вызывают формы личных местоимений, употребляемые с предлогами. Явление чередования форм, при котором к местоимению добавляется протетическая согласная «н» (например: ему → к нему, ей → к ней), порождает вопросы как фонетико-морфологического, так и историко-грамматического порядка.

Цель настоящего исследования – выявить фонетические, морфологические и синтаксические механизмы, способствовавшие формированию современных предложных форм личных местоимений в русском языке.

В соответствии с поставленной целью были определены следующие задачи:

- проследить историческое развитие праславянских конструкций с предлогами *вън, сън, кън*;
- проанализировать условия переразложения и утраты конечного *н*;
- выявить закономерности чередования местоименных форм при употреблении с различными предлогами;
- сопоставить данные древнерусской парадигмы с современными формами в русском языке;
- определить роль протетической согласной *н* в грамматической структуре современного русского языка.

Научная новизна исследования заключается в комплексном рассмотрении явления переразложения в системе предлогов и местоимений русского языка, а также в его соотнесении с законом открытого слога и фонетическими изменениями праславянской эпохи. Выдвигается гипотеза о том, что перенос согласной *н* в начало местоимений был обусловлен не только фонетическими, но и синтаксическими, а также аналогическими процессами, связанными с высокой частотностью данных форм и стремлением языковой системы к фонетической экономии.

Проведённый анализ позволяет по-новому взглянуть на процессы формирования синтаксических структур русского языка и углубить понимание закономерностей его исторического развития. Полученные результаты могут быть полезны как в области теоретического языкознания, так и в преподавании русского языка – как родного, так и иностранного.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В данном исследовании используются методы историко-сопоставительного и диахронического анализа, направленные на выявление закономерностей формирования предложных форм личных местоимений третьего лица в русском языке. Анализируется материал древнерусских текстов и данные праславянского языка, с целью проследить изменения, происходившие в структуре местоименных форм под влиянием фонетических и морфологических факторов – таких как редукция конечных согласных и переразложение морфем.

Особое внимание уделяется историко-сопоставительному методу, позволяющему установить параллели между русским и другими индоевропейскими языками. Наряду с этим, применяются методы внутренней реконструкции языковых форм, основанные на анализе их грамматического поведения в синхронном и диахронном аспектах. Для описания роли протетического согласного «н» в системе местоимений, а также выявления факторов, повлиявших на его сохранение или утрату в различных позициях, используются элементы морфологического и фонологического анализа.

Личные местоимения в русском языке представляют собой особый класс слов с высокой частотностью употребления и сложной грамматической системой. Исследование предложных конструкций с местоимениями привлекало внимание многих лингвистов. Как отмечает П.С. Шарова: «Хотя по проблемам предлогов за рубежом и в нашей стране существует огромное количество публикаций, исследование предлога остаётся одной из актуальных проблем современной лингвистики» [15, 32].

Предлоги рассматриваются как в рамках грамматической системы русского языка, так и в диахроническом аспекте [1, 43]. Особый интерес вызывает явление чередования форм дательного падежа при употреблении с предлогами. Так, местоименные формы «ему» и «ей» в предложном контексте трансформируются в «к нему» и «к ней». Возникает вопрос: почему предлог требует перехода от простой формы к более сложной, начинающейся с согласной «н»?

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЯ

Для ответа на поставленный вопрос необходимо проанализировать предлоги праславянского происхождения. В праславянском языке предлоги-приставки *vъn*, *sъn*, **къn*, представлявшие собой закрытые слоги, подверглись изменениям в соответствии с законом открытого слога. Эти изменения реализовывались двумя основными способами:



- через утрату конечного согласного *n* (*въп > въ, съп > съ, къп > къ*);
- либо посредством переразложения, при котором **n* отделялся от предлога и присоединялся к следующему слову или корню.

Тем не менее, точные условия применения каждого из этих механизмов, а также их последствия в старославянском, древнерусском и современном русском языках до конца не выяснены. Наши наблюдения показывают, что утрата *n* чаще всего происходила перед согласными (в том числе *j*) и гласными следующего слова. Например: *въп domъ > въ domъ, съп gory > съ gory*. Эти изменения фиксируются в старославянском (*съ горы, въ яму, къ отцоу*), древнерусском (*съ горы, въ яму, къ отцоу*) и современном русском (*с горы, в яму, к отцу*).

С большой долей вероятности можно утверждать, что аналогичная утрата *n* происходила и перед исконным (не протетическим) *j*, как в словах *jugъ, jupъ, jama, jarmo*, где *j*, согласно этимологическим словарям, входил в состав корня. Данные болгарского языка, приведённые С. Б. Бернштейном, подтверждают исконный характер *j* в *jama* и *jarmo*: наличие парных форм со [*j*] и без него (*агне/ягне, аз/яз*) указывает на более древнюю форму без [*j*], тогда как устойчивые формы только с начальным [*ja*] (*яма, ярем, ярост*) свидетельствуют об исконности **j* в этих корнях.

Таким образом, анализ эволюции предлогов *въп, съп* и *къп* с точки зрения закона открытого слога показывает, что данные формы ведут себя одинаково как перед согласными, так и перед гласными. Это, вероятно, объясняется большей самостоятельностью предлога по сравнению с приставкой: граница между предлогом и следующим словом была более чётко выражена, что способствовало ослаблению и последующему исчезновению конечного *n* после редуцированного **ъ*. Переразложение же, как правило, не происходило, поскольку нарушало бы целостность лексической единицы.

Исключение составляют сочетания предлогов с указательными местоимениями *jъ, je, ja*, в которых наблюдается переразложение: конечный *n* переходит к местоимению и подвергается палатализации под влиянием начального *j* (например, *въп jеть > въ njеть > въ n''jеть > въ n''еть*). Мы выдвигаем гипотезу, что это явление не связано напрямую с действием закона открытого слога, а относится к более раннему этапу фонетического развития, предшествующему утрате закрытых слогов (как полагает С. Б. Бернштейн). Тесная фонетическая связь между кратким местоимением и предлогом способствовала переразложению, а также смягчению и ассимиляции **n*. Вероятно, данный процесс начался с винительного падежа как наиболее

краткой формы и впоследствии распространился на другие падежные формы.

В результате переразложения в формах указательных местоимений после предлогов *въ, съ* и *къ* (например, *къ н'ему*) возник корневой элемент [н']. Впоследствии, по аналогии, этот элемент [н'] стал регулярно появляться и в начале падежных форм местоимений, а также после других предлогов, которые изначально не содержали согласного *n* (например, *на н'ь*).

Таким образом, можно сделать вывод, что если перед согласными согласный **n*, как правило, полностью исчезал, то перед гласными особенно в сочетаниях с личными и указательными местоимениями он переходил в состав следующего слова, формируя начальный слог с [н'].

Сопоставим теперь употребление предлогов в современном русском и древнерусском языках.

Табл. 1.

Склонение личного местоимений «он» в косвенных падежах

Косвенные падежи	Современный русский язык	Древнерусский язык
Р.п	Около него	Около его
Д.п.	К нему	Кън ему
В.п.	За него	За его
Т.п.	С ним	Сън имь
П.п.	О нем, в Москве	О емь, вън Моськъве

Как мы видим в парадигме склонения личного местоимения *он*, в древнерусском языке конечный «н» присутствует только у предлогов «кън», «сън» и «вън», остальные предлоги употребляются без согласного «н», так же *он* отсутствует в начале всех местоимений. Но наблюдая, парадигму склонения местоимения «он» в современном русском языке, мы видим: перед предлогами личное местоимение приобретает букву «н», и в то же время она теряется у бывших древнерусских предлогов «кън» «сън» и «вън», соответственно «к», «с» и «в». Делая вывод, мы пришли к заключению, что в результате падения редуцированных «Ъ» и «Ь», конечная «н» предлогов «кън» «сън» и «вън» присоединиласьк последующему местоимению, а после других предлогов, не имеющих конечный «н», по аналогии в начале всех личных местоимений после

предлогов пишется «н».

Табл. 2.

Склонение личных местоимений 3 л. ед. ч. с.р. и ж.р. и 1 л. мн.ч.

Косвенные падежи	Местоим. м.р., с.р.	Местоим. ж.р	Местоим. мн.ч.
Р.п	Возле него	У неё	Для нас
Д.п.	К нему	По ней	К нам
В.п.	За него	С неё	В нас
Т.п.	За ним	С неё	Перед нами
П.п.	О нём	При ней	На нас

Употребление форм «к нему», «к ней» вместо «к ему», «к ей» – это не случайность и не исключение, а закономерный результат исторического и грамматического развития русского языка. Протектическая морфема «н» играет ключевую роль в формировании удобной и чёткой синтаксической структуры. Такие формы позволяют избежать фонетической неоднозначности, повысить связность речи и соответствуют общим тенденциям в славянских и индоевропейских языках. Изучение этих форм важно как для понимания структуры современного русского языка, так и для преподавания его как иностранного.

Проведённое исследование позволило выявить ряд закономерностей в историческом развитии форм личных местоимений с предлогами в русском языке и подтвердить существование фонетико-морфологических механизмов, объясняющих появление протектического согласного н.

Употребление форм «к нему», «к ней» вместо «к ему», «к ей» – не случайность и не исключение, а закономерный результат исторического и грамматического развития русского языка. Протектический согласный «н» играет ключевую роль в формировании чёткой и устойчивой синтаксической структуры. Эти формы способствуют устранению фонетической неоднозначности, обеспечивают связность речи и соответствуют общим эволюционным тенденциям в славянских и индоевропейских языках. Изучение подобных явлений имеет важное значение как для глубокого понимания структуры современного русского языка, так и для эффективного преподавания

его как иностранного.

Проведённый анализ позволил выявить ряд закономерностей в историческом развитии предложных форм личных местоимений в русском языке и подтвердил существование фонетико-морфологических механизмов, объясняющих появление протетического согласного н:

1. Установлено, что предлоги праславянского происхождения (вън, сън, кън), изначально обладавшие закрытой слоговой структурой, в процессе исторического развития претерпели изменения в соответствии с законом открытого слога. Эти изменения происходили двумя основными путями: – путём утраты конечного согласного н перед гласными и согласными; – через переразложение, при котором конечный н переходил к следующему слову.

2. На материале древнерусского языка показано, что переразложение наблюдается прежде всего в сочетаниях предлогов с указательными и личными местоимениями, начинающимися на j (например, jеть, ja, je и др.). Под действием фонетической ассимиляции согласный н смягчался и присоединялся к началу местоимения, образуя формы типа к нему, в нём, с ним.

3. Сопоставление парадигм древнерусского и современного русского языков показало, что в древнерусском языке согласный н сохранялся исключительно в составе некоторых предлогов (кън, сън, вън) и отсутствовал в начале местоимений. В современном русском наблюдается обратная тенденция: н исчезает из предлогов и появляется перед местоимением, принимая на себя функцию связующего звена.

4. Установлено, что в современном русском языке формы с н (например, к нему, о ней) стали обязательными не только после тех предлогов, которые исторически содержали этот согласный, но и после предлогов, изначально не имевших его (о нём, при ней и др.). Это свидетельствует о действии грамматической аналогии.

5. Подтверждена гипотеза о том, что протетический согласный н приобрёл грамматическую функцию:

- он обозначает границу между предлогом и местоимением;
- обеспечивает фонетическую плавность перехода между словами;
- и способствует повышению связности речевой конструкции в целом.

ВЫВОДЫ

Протетический согласный н в современных предложных формах личных местоимений имеет исторически обоснованное происхождение и является результатом переразложения древних праславянских предлогов под действием

закона открытого слога.

Изначально выполнявшая исключительно фонетическую функцию, н со временем приобрела грамматическое значение и прочно закрепилась в системе склонения местоимений третьего лица в русском языке.

Фактор аналогии сыграл решающую роль в распространении этой морфемы на сочетания с предлогами, изначально не имевшими в своём составе согласного н, что свидетельствует о высокой степени системности и устойчивости данного языкового явления.

Изучение феномена протектического н не только проливает свет на историческую динамику развития русской грамматики, но и способствует более глубокому пониманию взаимодействия фонетических и морфологических процессов в языковой системе.

Результаты настоящего исследования представляют интерес для таких областей, как историческая грамматика, славянское языкознание, а также методика преподавания русского языка как иностранного, где правильное употребление форм с протектическим н нередко вызывает затруднения у изучающих и требует отдельного объяснения в учебной практике.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бранднер А. К некоторым выражениям предложного характера в современном русском и чешском языках // Сборник трудов философского факультета Брненского университета. Серия славистических исследований. 2015.
2. Валгина Н. С., Розенталь Д. Э., Фомина М. И. Современный русский язык: Учебник. 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Логос, 2002.
3. Всеволодова М. В. Система морфосинтаксических типов русских предлогов // Вестник Московского университета. Сер. 9: Филология. 2012. № 5. – С. 30-78.
4. Гочев Г. Д. Некоторые наблюдения над предложными сочетаемостными фразами в болгарском и русском языках // В: Славянские предложения. 2007. – С. 37-43.
5. Дамянова Д. И. К вопросу о функциональных эквивалентах русских предлогов в болгарском переводе // В: Славянские предложения. 2007. – С. 123-128.
6. Загнитко А. А. Семантическая и функциональная типология русских предлогов: сопоставительный аспект // В: Материалы III Международного



- конгресса исследователей русского языка «Русский язык: исторические судьбы и современность». – М.: МГУ, 2007. – С. 276-277.
7. Каламова Н. А. Отыменные предлоги в современном русском языке, их значение и употребление // Русский язык в школе. 1964. № 6. С. 61-63.
 8. Лингвокультурологический тезаурус «Гуманитарная Россия» <http://www.philol.msu.ru/~tezaurus/>
 9. Лун Чуньюань, Ван Хо. Влияние диалектов на современный русский литературный язык // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2024. № 11-4 (98). – С. 125-127. DOI: 24412/2500-1000-2024-11-4-125-127.
 10. Раевская М. В. Теоретические проблемы изучения предлогов в отечественной лингвистике // Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Лингвистика. 2014. Т. 11, № 2. – С. 21-24.
 11. Русинов Н. Д. Древнерусский язык: Учебное пособие для студентов филологических и исторических специальностей университетов и педагогических институтов. – М.: Высшая школа, 1977.
 12. Федорук Е. М., Горшкова К. В., Шанский Н. М. Современный русский язык: Лексикология, фонетика, морфология. Классический учебник МГУ. – М., 2025. 408 с.
 13. Финкель А. М. Производные причинные предлоги в современном русском литературном языке: Их возникновение, развитие, значение, употребление. – М., 1962.
 14. Черкасова Е. Т. Переход полнозначных слов в предлоги. – М., 1967.
 15. Шарова П. С. К вопросу о пространственных предлогах в старославянском и древнерусском языках // Вестник Югорского государственного университета. 2010. № 3 (18). – С. 32-34.

IJTIMOIIY FANLAR

QIZIRIQ TUMANINING DEMOGRAFIK RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

NARZULLAYEV NURSULTON SHUHRAT O'G'LI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası talabasi

Email: nursultonnarzullayev1105@gmail.com

UDK: 748.311

<https://orcid.org/0009-0000-5532-0616>

Kalit soʻzlar:

Qiziriq tumani,
demografiya, aholi
soni, migratsiya,
urbanizatsiya,
istiqbol, iqtisodiyot,
mehnat resurslar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanining demografik rivojlanish jarayonlari, aholining son va tarkibiy oʻzgarishlari, shuningdek, migratsiya hamda urbanizatsiya omillari yoritilgan. Tadqiqot davomida soʻnggi yillarda aholi sonining muntazam ortib borishi, mehnat resurslarining shakllanishi va ularning hududdagi iqtisodiy faoliyatga taʼsiri tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaning kengayishi, yangi taʼlim va tibbiyot muassasalarining barpo etilishi demografik jarayonlar bilan bogʻliq holda oʻrganilgan. Maqolada hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga demografik omillarning taʼsiri, istiqbolda tabiiy oʻsishning davom etishi, yoshlar salmogʻining yuqoriligi, migratsion harakatlarning ijobiy va salbiy oqibatlarini ilmiy asosda koʻrib chiqilib, kelgusidagi imkoniyatlar hamda muammolar tahlil etilgan.

ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КЫЗЫРЫКСКОГО РАЙОНА

Ключевые слова:

район Кизирик,
демография,
население,
миграция,
урбанизация,
перспективы,

Аннотация: В данной статье освещены процессы демографического развития, численные и структурные изменения населения, а также факторы миграции и урбанизации Кизирикского района Сурхандарьинской области. В ходе исследования проанализированы регулярный рост численности населения в последние годы, формирование трудовых ресурсов и их влияние на

экономика,
трудовые
ресурсы.

экономическую деятельность региона. Также было изучено расширение социальной инфраструктуры, строительство новых образовательных и медицинских учреждений в связи с демографическими процессами. В статье на научной основе рассматривается влияние демографических факторов на социально-экономическое развитие региона, продолжение естественного роста в будущем, высокий удельный вес молодежи, положительные и отрицательные последствия миграционных движений, а также анализируются будущие возможности и проблемы.

DEMOGRAPHIC DEVELOPMENT TRENDS AND PROSPECTS OF KIZIRIK DISTRICT

Keywords:

Kizirik district,
demographics,
population,
migration,
urbanization,
prospects,
economics,
labor resources.

Abstract:

This article highlights the processes of demographic development, quantitative and structural changes in the population, as well as migration and urbanization factors in the Kizirik district of Surkhandarya region. In the course of the study, the regular growth of the population in recent years, the formation of labor resources, and their influence on the economic activity of the region were analyzed. The expansion of social infrastructure, the construction of new educational and medical institutions were also studied in connection with demographic processes. The article scientifically examines the influence of demographic factors on the socio-economic development of the region, the continuation of natural growth in the future, the high proportion of youth, the positive and negative consequences of migration movements, and analyzes future opportunities and problems.

KIRISH

Qiziriq tumani 1975-yil 6-martda tashkil etilgan bo'lib, u O'zbekistonning janubiy hududlaridan biri sifatida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda alohida o'rin tutadi. Aholining soni va tarkibiy xususiyatlari hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan sanaladi. Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, migratsiya hamda aholining yosh va jins tarkibidagi o'zgarishlar

tumanning mehnat bozori, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida demografik omillarni chuqur o'rganish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Aholi sonining o'sishi, tarkibiy tuzilish, migratsiya oqimlari va urbanizatsiya darajasi hududlarning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumani ham so'nggi yillarda aholining tabiiy o'sishi, yoshlar ulushining yuqoriligi va iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi bilan ajralib turadi. Mazkur jarayonlar tumanda mehnat resurslarining shakllanishi, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi hamda hududiy siyosatning belgilanishida muhim ahamiyatga ega.

Shu bois, Qiziriq tumanining demografik rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari o'rganish, mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash hamda kelgusidagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Demografik rivojlanish masalalari jahon ilmiy adabiyotida keng ko'lamda tadqiq etilgan bo'lib, aholining tabiiy o'sishi, migratsiya jarayonlari, urbanizatsiya hamda mehnat resurslarining shakllanishi mazkur izlanishlarning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. T. Maltus, F. Qvetele va E. Rovensteyn kabi olimlarning klassik demografik nazariyalarida aholining soni bilan iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlangan. Zamonaviy demografik tadqiqotlarda esa aholining intellektual va mehnat salohiyatini yuksaltirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda migratsion oqimlarni tartibga solish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida ko'rilmogda.

O'zbekiston olimlari tomonidan demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari, ayniqsa qishloq joylarda aholining tabiiy o'sishi, yosh tarkibining yuqoriligi hamda migratsiya oqimlari chuqur o'rganilgan. Tadqiqotlarda hududiy demografik rivojlanish barqarorligini ta'minlashda ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik siyosatining o'rni alohida ta'kidlanadi.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar orasida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi professori Umurzakov Baxodir Xamidovich va O'zbekiston Milliy universiteti professori Zulxumor Nazarovna Tojjeva tomonidan 2025-yil 11-aprelda chop etilgan "O'zbekiston: Demografik rivojlanish va urbanizatsiya" nomli maqolada ham bu masalalar keng yoritilgan. Unda dunyo

mamlakatlarida kuzatilayotgan demografik rivojlanish tendensiyalari singari, O‘zbekistonda ham aholi sonining o‘shishi urbanizatsiya jarayonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan. Ayniqsa, respublika shaharlarida so‘nggi 20-30 yil davomida aholi soni va ulushi sezilarli darajada ortgani ta‘kidlangan [1].

Mamlakatimizda demografik rivojlanish masalalari bo‘yicha ko‘plab olimlar – I. Mullajonov, M. Qoraxonov, R. Ubaydullaeva, O.B. Ata-Mirzaev, A.A. Qayumov, A.S. Soliev, H. Salimov, M. Bo‘rieva, Z.N. Tojjeva, R.B. Qodirov, V. Karimova, G. Shodieva, F. Komolova, B. Usmonov, X. Xo‘jaqulov va boshqa tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, ularning ilmiy g‘oyalari demografik jarayonlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qiziriq tumani demografik jarayonlarini tahlil etishda ham ushbu nazariy yondashuvlarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki tuman aholisi yuqori tabiiy o‘shish sur‘atlari bilan ajralib turadi. Bu jarayon esa o‘z navbatida ijtimoiy infratuzilmaning kengayishi, yangi ish o‘rinlari yaratish va migratsion oqimlarni tartibga solish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Demak, Qiziriq tumanining demografik rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari o‘rganishda klassik demografik nazariyalar bilan bir qatorda zamonaviy hududiy rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy ishni amalga oshirishda demografik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan metodlardan foydalanildi. Fundamental tahlilda demografik rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha, deduktiv hamda induktiv yondashuvlar qo‘llandi. Abstrakt-mantiqiy fikrlash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez usullari yordamida hududiy demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba hamda jamoatchilik muhokamalari natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallash;
- aholi ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish;
- aholiga qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq manfaatlariga xizmat

qiladigan adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakat suvereniteti va xavfsizligini ishonchli ta'minlash [2].

1-rasm

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi integral ko'rsatkichlar [3]



Qiziriq tumanining demografik tendensiyalarini o'rganishda tumanning ma'muriy-hududiy tuzilishiga alohida e'tibor berishimiz lozim.

1-jadval

Surxondaryo viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi [4]

Hudud nomi	Hududi (ming km ²)	Tuman-lar	Jami shahar-lar	Shu jumladan, respublika va viloyat bo'ysunuvi-dagi	Shahar-chalar	Qishloq fuqarolari yig'inlari	Qishloq aholi punktlari
2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra							
Surxondaryo viloyati	20.10	14	8	1	112	0	859
Termiz sh.	0.04	0	1	1	0		0



<i>Tumanlar:</i>							
Oltinsoy	0.57	1	0		14		46
Angor	0.39	1	0		12		27
Bandixon	0.68	1	0		3		40
Boysun	3.21	1	1		4		49
Muzrabot	0.74	1	0		10		48
Denov	1.15	1	1		11		106
Jarqo'rg'on	1.16	1	1		5		66
Qumqo'rg'on	1.83	1	1		11		76
Qiziriq	0.38	1	0		5		42

1-jadvalga muvofiq Qiziriq tumanining maydoni va qishloq aholi punktlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Aholi sonining o'sish dinamikasi quyidagi uchta asosiy parametrlarga bog'liq:

1. Qiziriq tumanida so'nggi yillarda aholining o'sish sur'atlari.
2. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari.
3. Migratsiya jarayonlari (chetdan kelish yoki chiqib ketish).

2-jadval

Surxondaryo viloyatining tumanlar kesimida 2024-yil yakuni bo'yicha tug'ilishlar soni (yilda; kishi) [5]

Hudud nomi	Jami	shu jumladan:	
		Qiz bolalar	O'g'il bolalar
2024-yil			
Surxondaryo viloyati	84054	40661	43393
Termiz sh.	5168	2497	2671
Tumanlar:			
Oltinsoy	5871	2853	3018
Angor	3903	1915	1988
Bandixon	2668	1326	1342
Boysun	3512	1730	1782
Muzrabot	4282	2071	2211
Denov	12754	6119	6635
Jarqo'rg'on	7079	3369	3710
Qumqo'rg'on	7613	3696	3917
Qiziriq	3768	1799	1969
Sariosiyo	6417	3167	3250
Termiz	2766	1375	1391
Uzun	5657	2714	2943
Sho'rchi	6981	3353	3628



Qiziriq tumani demografik rivojlanishini o'rganishda avvalo aholi sonining o'sish dinamikasiga e'tibor qaratish lozim. So'nggi yillarda tumanda tabiiy o'sish yuqori bo'lib, tug'ilish ko'rsatkichlari respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan biroz yuqoriroqdir. Aholining yoshlar ulushi katta bo'lgani sababli demografik bosim yuqori bo'lib, bu mehnat bozorida yangi ish o'rinlariga ehtiyojni orttirmoqda. Shu bilan birga, ayrim yillarda tashqi migratsiya ta'siri ham sezilmoqda: mehnat migratsiyasi sababli yosh va o'rta yoshdagi erkaklarning boshqa hududlarga chiqib ketishi kuzatiladi.

Tuman aholisining tarkibini tahlil qilganda, uning katta qismini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishi aniqlanadi. Bu holat, bir tomondan, hududda salmoqli mehnat salohiyatining mavjudligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, ta'lim, bandlik va ijtimoiy infratuzilma tizimiga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'ladi. Aholining jinsiy tarkibida esa ayollar salmog'ining erkaklarga nisbatan yuqoriligi kuzatiladi. Bu esa oilaviy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Demografik rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo ta'lim tizimi misol bo'la oladi. Aholi sonining tezkor o'sishi yangi maktablar, kasb-hunar markazlari va maktabgacha ta'lim muassasalarini barpo etishni talab qilmoqda. Xuddi shunday ehtiyoj sog'liqni saqlash tizimida ham kuzatilmoqda: aholining ko'pligi yangi poliklinikalar, tug'ruqxonalari va diagnostika markazlarini tashkil etishni taqozo etmoqda.

Qiziriq tumanida demografik rivojlanishning asosiy tendensiyalari sifatida urbanizatsiya jarayonlari, yoshlar ulushining yuqoriligi va ayollarning ijtimoiy hayotdagi faollashuvi alohida ajralib turadi. Qishloqlardan markaziy hududlarga ko'chib aholining markazlashuviga olib kelmoqda, yoshlar ulushining yuqoriligi esa yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtiroki esa hududda gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shish imkonini bermoqda.

Tuman demografik tarkibi quyidagi parametrlar asosida shakllanadi

Yosh tarkibi: Qiziriq tumani aholisi yosh jihatidan nisbatan barqaror bo'lsa-da, unda yoshlar ulushi yetakchilik qiladi. Aholining qariyb yarmi 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolardan iborat bo'lib, bu hududdagi mehnat salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Mehnatga layoqatli qatlam (16-60 yosh oralig'i) jami aholining asosiy qismini tashkil etadi va iqtisodiy faol aholining salmog'ini oshiradi. Shu bilan birga, keksalar ulushi ham asta-sekin ortib borayotgani kuzatilmoqda, bu esa ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Aholining jinsiy tarkibi: Jinsiy tarkib tahliliga ko‘ra, tumanda ayollar soni erkaklarga nisbatan biroz yuqori. Bu holat oila institutida barqarorlikni ta‘minlash hamda ijtimoiy hayotda ayollarning faol ishtirokini kuchaytirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, erkaklarning mehnat migratsiyasiga ko‘proq chiqishi natijasida jinsiy nisbatning o‘zgarib borayotgani ham kuzatilmoqda.

Oila hajmi va tarkibidagi o‘zgarishlar: Oila hajmi va tarkibidagi o‘zgarishlar demografik rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy yirik oilalardan kichik, yadro tipidagi oilalarga o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Bu holat iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishi, shuningdek, yoshlarning mustaqil hayotga intilishi bilan bog‘liq. Kichik oilalarning ko‘payishi uy-joyga, bolalar bog‘chalariga va ta‘lim tizimiga bo‘lgan talabni oshirishi bilan birga, ijtimoiy xizmatlar sifatini takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

Demografik rivojlanishning asosiy tendensiyalari:

- urbanizatsiya (qishloqlardan markaziy hududlarga ko‘chish);
- yoshlar ulushining yuqoriligi va uning mehnat bozoriga ta‘siri;
- ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligining ortib borishi.


Qiziriq tumanida demografik rivojlanish jarayonlarini tahlil qilar ekanmiz, bir qator muhim tendensiyalarni kuzatish mumkin.

Birinchidan, urbanizatsiya jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Qishloq hududlaridan markaziy qishloqlar va tuman markaziga ko‘chish aholining markazlashuviga olib kelmoqda. Bu holat, bir tomondan, markazda yangi infratuzilma va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirsa, boshqa tomondan, chekka hududlarda aholi sonining kamayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ikkinchidan, yoshlar ulushining yuqoriligi tumanning demografik manzarasida muhim o‘rin tutadi. Yoshlar aholining katta qismini tashkil etgani sababli, mehnat bozorida yangi ish o‘rinlari yaratish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning ta‘lim olishga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lib, bu ta‘lim tizimini yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Agar ushbu imkoniyatlar to‘g‘ri yo‘naltirilsa, yoshlar salohiyati iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanishi mumkin.

2-rasm

Surxondaryo viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni [6]



1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda Qiziriq tumanida iqtisodiy faol aholi soni 42 ming 600 kishini tashkil etmoqda. Shundan 40 ming nafari iqtisodiyotda band bo'lsa, 2 ming 600 nafari ishsizdir. Umumiy ishsizlik darajasi 6,1 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar yuz berganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligi ortib bormoqda. So'nggi yillarda ayollar nafaqat oilaviy hayotda, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ham faol ishtirok etmoqda. Ularning ta'lim darajasining oshishi hamda tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishi tumanda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va gender tengligini kuchaytirishda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

XULOSA

Qiziriq tumanining demografik rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, aholining yuqori tabiiy o'sishi, yoshlar ulushining ko'pligi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan ajralib turadi. Ushbu omillar hududda katta mehnat salohiyatini yuzaga chiqarish bilan birga, yangi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni ham belgilab bermoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, demografik o'sish ta'lim, sog'liqni



saqlash, bandlik va infratuzilma sohalarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollarning faol ijtimoiy hayotga kirib kelishi tumanning kelgusidagi taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Kelgusida Qiziriq tumanining demografik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun davlat va jamiyat hamkorligida izchil siyosat yuritish, zamonaviy ta‘lim tizimini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni keng ko‘lamda amalga oshirish zarur. Shu bois, demografik rivojlanish tumanning barqaror iqtisodiy o‘sishi va ijtimoiy farovonligining muhim kafolatiga aylanadi, deb xulosa qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umurzakov B. X., Tojjeva Z. N. O‘zbekiston. Demografik rivojlanish va urbanizatsiya // Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar. 2025. T. 2. № 2. – B. 430-438. DOI: <https://doi.org/10.60078/3060-4842>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. 2023 yil 11 sentyabr, PF–158-son. www.lex.uz.
3. Ro‘ziyev A. I., Abdullayev I. A. O‘zbekiston Respublikasida demografik vaziyatning holati va o‘ziga xos xususiyatlari. – 2025. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14904068>.
4. Surxondaryo viloyatining ma‘muriy-hududiy bo‘linishi. <https://surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>.
5. Surxondaryo viloyatida tug‘ilishlar soni. <https://surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>.
6. Surxondaryo viloyati hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni. <http://surxonstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>.
7. Narzullayev N. Sh. o‘g‘li. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqaviy bandlik darajasi: muammolar va ularning yechimlari. – 2025. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15486276>.



TABIY FANLAR

IQTISODIY TAFAKKURNI IJTIMOYIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING YETAKCHI OMILIGA AYLANTIRISH DAVR TALABI

RUZIYEV OYBEK ABDIMO‘MINOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori

E-mail: oybekruziev@dtpi.uz

Tel.: +998 91 581-20-11

UDK: 330.1

RAJABOV O‘TKIR DO‘SNAYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Email: udrajabov@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-4456-4268>

Kalit so‘zlar:

iqtisodiy tafakkur,
iqtisodiy ta’lim,
iqtisodiy tarbiya,
iqtisodiy madaniyat,
bozor iqtisodiyoti
sharoiti, tadbirkorlik
madaniyatini
shakllantirish,
qadriyatlar, oila,
ta’lim muassasasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada iqtisodiy tafakkur tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va bugungi kunda ushbu tafakkurni shakllantirish zarurati keng tahlil etilgan. Xususan, iqtisodiy tafakkurning iqtisodiy madaniyat shakllanishiga ta’siri, shuningdek, uning taraqqiyoti iqtisodiy ta’lim bilan bevosita bog‘liqligi asoslab beriladi. Maqolada, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritish, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash, global iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashuvchan yondashuv shakllantirishda iqtisodiy tafakkurning o‘rni alohida yoritiladi. Shuningdek, iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta’limiy, ijtimoiy va psixologik shart-sharoitlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, iqtisodiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ham ko‘rib chiqilgan.

ПРЕВРАЩЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ МЫСЛИ В ВЕДУЩИЙ ФАКТОР СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ТРЕБОВАНИЕ ПЕРИОДА

Ключевые слова: экономическое мышление, экономическое образование, экономическое воспитание, экономическая культура, условия рыночной экономики, формирование культуры предпринимательства, ценности, семья, учебное заведение.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется понятие экономического мышления, его сущность, роль в развитии общества и необходимость формирования этого мышления сегодня. В частности, обосновано влияние экономического мышления на формирование экономической культуры, а также непосредственная связь его развития с экономическим образованием. В статье особо подчеркивается роль экономического мышления в ведении предпринимательской деятельности в условиях рыночной экономики, правильном понимании сути проводимых экономических реформ и формировании гибкого подхода к глобальным экономическим изменениям. Также рассмотрены образовательные, социальные и психологические условия, современные педагогические технологии, предложения и рекомендации по повышению экономической грамотности, служащие формированию экономического мышления.

THE REQUIREMENT OF THE PERIOD TO MAKE ECONOMIC THOUGHT A LEADING FACTOR IN SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT

Keywords: economic thinking, economic education, economic education, economic culture, market economy conditions, formation of entrepreneurial culture, values, family, educational

Abstract: This article extensively analyzes the concept of economic thinking, its essence, role in the development of society, and the need to form this thinking today. In particular, the influence of economic thinking on the formation of economic culture, as well as its development, is directly related to economic education, is substantiated. The article particularly highlights the role of economic thinking in conducting business activities in a market economy, correctly understanding the essence of ongoing economic reforms, and forming an adaptable approach to global economic changes.

institution.

Also considered are the educational, social, and psychological conditions that serve the formation of economic thinking, modern pedagogical technologies, and proposals and recommendations for improving economic literacy.

KIRISH


Mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar kishilar ongi va ruhiyatida ham tub ijobiy o‘zgarishlar yasamoqda. Yangicha fikrlash, bozor iqtisodiyotini anglash, uning talablari asosida yashash va faoliyat yuritishga intilish tobora mustahkamlanmoqda.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-mafkuraviy taraqqiyotining hozirgi bosqichida tadbirkorlik qobiliyatining rivojlanishi, kishilarda mulkdorlik madaniyatini shakllantirish, resurslardan tejamkor va samarali foydalanish, mamlakat iqtisodiyotini tom ma‘noda yuksaltirish – bularning barchasi aholining iqtisodiy bilim va tafakkur darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Iqtisodiy tafakkur – bu insonning iqtisodiy voqea-hodisalarni tahlil qilish, ularga baho berish va asosli qaror qabul qilish qobiliyatidir. U kishining iqtisodiy ongi, qarashlari, faoliyati, bilim va tushunchalari, shuningdek iqtisodiy xatti-harakatlari majmuasidan iborat bo‘lib, aynan shu asosda iqtisodiy madaniyat shakllanadi (1-rasm).

1-rasm

Iqtisodiy tafakkurdan kutilayotgan natijalar



Mamlakatimizda olib borilayotgan bozor islohotlarining jamiyat hayotiga jadal tadbiq etilishi, ularning asl mohiyatini anglash va amalda ro‘yobga chiqarish aholining iqtisodiy madaniyati shakllanganligi hamda iqtisodiy bilimlarni qanchalik chuqur o‘zlashtirganligiga bevosita bog‘liq.

Iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy omil – bu insondir. Shuning uchun insonning iqtisodiy bilimlarni egallashi, iqtisodiy tafakkurga ega bo‘lishi va iqtisodiy tarbiyani olishi uning iqtisodiy madaniyatini shakllantiradi.

Iqtisodiy tarbiyaning asosiy maqsadi – shaxsda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish, uni ongli ravishda iqtisodiy qarorlar qabul qilishga, resurslardan samarali foydalanishga va bozor munosabatlariga mos ravishda faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Insonlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot davomida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullar, shuningdek miqdoriy va sifatli, induksiya va deduksiya, makon va zamon, tahlil va sintez, mantiqiy tahlil kabi uslub va yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutishi aholida bozor munosabatlariga xos fikrlash tarzining shakllanishini talab etadi. Bu esa iqtisodiy tafakkurning asosi bo‘lgan iqtisodiy ta‘limni mos ravishda isloh qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki barcha demokratik bozor islohotlarini amalga oshirish o‘z-o‘zidan harakatga keladigan jarayon emas, balki ularni muvaffaqiyatli davom ettirish ko‘p jihatdan yoshlarimizning iqtisodiy bilim saviyasiga bog‘liqdir.

Ayni paytda bozor munosabatlari xalqimiz va yurtimiz uchun mutlaqo yangi tushuncha emas edi. Osiyo va Yevropani bog‘lovchi qadimiy savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan o‘zbek zaminida asrlar davomida Sharq va G‘arb o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekiston o‘zining ana shu tarixiy va an‘anaviy o‘rnini munosib egallashi uchun yurtimizda zamonaviy bozor munosabatlarini hamda aholi o‘rtasida bozor madaniyatini shakllantirish zarur edi. Biroq bu jarayon oson kechgani yo‘q. Chunki sobiq sovet tuzumida – kommunistik mafkura hukmronlik qilgan yetmish yil davomida xalqimiz haqiqiy bozor qadriyatlaridan butunlay yiroqlashdi. Odamlardagi bozor munosabatlariga xos bo‘lgan tashabbuskorlik, izlanuvchanlik va tadbirkorlik fazilatlarini so‘ndirildi, boqimandalik kayfiyati esa tobora chuqurlashdi [1].

Iqtisodiy ta‘lim-tarbiya masalasiga sobiq sovet davrida yetarli e‘tibor qaratilmagan. O‘sha davrda iqtisod fanining asoslari umumta‘lim maktablariida yetarlicha o‘rganilmas edi. O‘rta umumta‘lim maktablari va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida iqtisodiyot alohida fan sifatida shakllanmagan, balki iqtisodiy mavzular va tushunchalar yuqori sinflarda o‘qitilgan, hozirgi kunda bir nechta alohida fanlarga ajratilgan bo‘limlar “Jamiyatshunoslik” fanining tarkibida berilgan. Bu fan



esa atigi bir necha soatgagina mo'ljallangan bo'lib, iqtisodiyotning ayrim jihatlarigina yoritilgan. Natijada, u maktab o'quvchilarining iqtisodiy madaniyatini shakllantirishga yetarli hissa qo'sha olmagan.

U davrda faqat iqtisod sohasida faoliyat yurituvchi kadrlargina iqtisodiy bilim olish imkoniyatiga ega edi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intensiv yo'l emas, balki ekstensiv rivojlanish yo'li tanlangan bo'lib, sifat o'zgarishlariga emas, ko'proq miqdoriy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilgan. Ish haqi qat'iy belgilangan smeta asosida amalga oshirilgan bo'lib, bu holat jamiyatda boqimandalik kayfiyatining shakllanishiga olib kelgan. Mulkning to'liq davlat tasarrufida bo'lishi resurslardan tejamsiz va ayrim hollarda maqsadsiz foydalanishga sabab bo'lgan. Tadbirkorlik qobiliyatining bostirilishi va rag'batlantirilmasligi esa iqtisodiy tafakkurning susayishiga olib kelgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yurtimizda iqtisodiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi uzoq o'tmishga hamda boy tarixiy merosga ega. Bu jarayonda "Avesto" ta'limotlari, "Qur'oni karim" oyatlari va hadisi shariflarda bayon etilgan o'git va qadriyatlar hozirgi kungacha o'z dolzarbligi va hayotiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur manbalar asrlar davomida xalqimizning iqtisodiy ong va tafakkurining rivojlanishiga, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarining shakllanishiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Xususan, "Avesto"da kishilarning dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik kabi foydali mehnat turlari bilan shug'ullanishi lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, yer, suv, havo kabi tabiiy resurslarni bulg'ash og'ir gunoh hisoblanadi. "Qur'oni karim" oyatlari va hadisi shariflarda esa iqtisodiy hayotga oid bir qator muhim tamoyillar ilgari surilgan. Jumladan, savdo-sotiq ishlarini halollik bilan yuritish, aldov va firibgarlikdan tiyilish, sudxo'rlikning qat'iy man etilishi, boshqalarning mulkiga tajovuz qilmaslik, hatto hasad qilishning ham gunoh ekani qayd etilgan.

Shuningdek, yolg'on gapirish, o'g'irlik, mehnatsiz daromad orttirish kabi illatlar qoralanadi. Qarz olish va berish, merosni adolatli taqsimlash, yetim-yesirlarga muruvvat ko'rsatish, xayriya va sadaqa qilish, soliqlar va ularning miqdori haqidagi tushunchalar ham katta axamiyatga ega. Ayniqsa, tejamkorlik targ'ib qilinadi, isrofgarchilik esa keskin qoralanadi. Bu borada "Yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar" degan muqaddas ko'rsatma iqtisodiy madaniyatning muhim tamoyillaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi.

"Iqtisodiyot" so'zining mazmuni aslida "iqtisod qilish", ya'ni sarf-xarajatlarda tejamkorlik ma'nosini anglatadi. Ushbu so'zning o'zbek tilidagi lug'aviy mazmuni ham aynan shu mohiyatni bildiradi. Mashhur ma'rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniy iqtisodga quyidagicha ta'rif bergan: "Iqtisod deb, pul va mol kabi

ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamasi" [2].


Inson yaratilganidan beri mehnatini yengillashtirish, hayot kechirish uchun zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirishga intilib kelgan. Mehnat esa inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, tirikchilikni ta'minlashning asosiy vositasidir.

Ingliz iqtisodchisi U. Petti bu borada shunday degan: "Mehnat boyligining otasi, yer esa uning onasi". Bugungi kunda mehnatning mazmuni va amalga oshish jarayonida inson omilining birinchi o'rinda turishi real hayotda o'z tasdig'ini topmoqda. Mehnat – nafaqat inson hayotining, balki jamiyat boyligining manbai va taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, mehnat mazmuni insonni jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi sifatida har tomonlama rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa mehnat samaradorligini oshirishga hamda insonning mehnat qilish qobiliyatini yanada faollashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy ong va tafakkurning shakllanishida oila tarbiyasi ham alohida o'rin tutadi. Oila muhitida bolalar yoshligidanoq hunar egallash, ro'zg'or ishlarini yuritish, mehnatsevarlik, tejamkorlik va isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik ruhida tarbiyalangan. Qiz bolalar ro'zg'or tutishga, o'g'il bolalar esa hunarli bo'lishga, o'z mehnati bilan band bo'lishga yo'naltirilgan (2-rasm).

2-rasm

Iqtisodiy tafakkurning shakllanish mexanizmi [3]



O'rta Osiyo va Sharqning buyuk mutafakkirlari – Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va Abdulla Qodiriy asarlarida umumbashariy iqtisodiy tafakkur, komil inson barkamolligiga



bag'ishlangan tarbiyaviy o'git va maslahatlar, tijorat hamda mulkdorlik hunari sirlaridan iborat, yaxlit milliy-umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishida, iqtisodiy ong va qarashlarimiz boyishida alohida o'rin tutganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodida halol mehnat, tijorat va savdo ishlarini ma'qullaydi, tovlamachilik va chayqovchilikni esa qattiq qoralaydi hamda insonlarni bu dunyoda qanoat bilan yashashga da'vat etadi:

Hirsdin kechgil, ul g'amedurkim,

Haddu g'oyat anga emas paydo.

Tut qanoatkim, ul erur mole,

Ki, nihoyat anga emas paydo.

Ya'ni, hirsu havasdan kech, chunki u – behad va oxiri yo'q g'amdir. Qanoatni mahkam tut, zero u – nihoyasi yo'q boylikdir [4].

Yurtimizdagi iqtisodiy ta'limotlar tarixi mustaqil xususiyatga ega ekanini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, XVIII asrda yashab ijod etgan ingliz iqtisodchisi Adam Smit adolatli soliq tamoyillarini ilgari surgan. U soliqlarni fuqarolarning daromadiga qarab belgilash, ularni qulay vaqtda undirish hamda soliq yukini oshirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish orqali byudjetni to'ldirish g'oyasini ilgari surgan edi. Bu fikrni Amir Temur esa undan bir necha asr oldin amaliyotda qo'llagan: davlat boshqaruvida ishga qiziqishni uyg'otish, majlislarni oqilona tashkil etish, vazifalarni aniq taqsimlash va mas'uliyatni to'g'ri belgilashga oid o'g'itlari zamonaviy menejment konsepsiyalariga uyg'un keladi.

Buyuk ajdodlarimizning ushbu ta'limotlarini o'rganish va hayotga tadbqiq etish soliq madaniyati va boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zida ular yaratgan bilim va tajriba zamirida shunday chuqur ma'no yotadiki, ularni amalda qo'llash bilan yangilik yaratishga ham hojat qolmaydi.

Ammo endilikda, O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil rivojlanish yo'lini tanlab olgach, iqtisodiy tarbiya masalasi eng muhim va dolzarb muammolardan biriga aylandi. Chunki rivojlangan davlatlar darajasiga yetishish uchun iqtisodiyotning taraqqiyotini ta'minlaydigan — bilimli va malakali kadrlarga ega bo'lish zarur. Iqtisod ilmidan boxabar bo'lgan kishilargina har doim qilinadigan sarf-harajatlarning natijadorligini oldindan hisob-kitob qila oladi, qashshoqlikka tushib qolmaslikka harakat qiladi, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritadi, biznesni to'g'ri tanlaydi, qachon, qayerda, nima va qancha ishlab chiqarishni yaxshi biladi. Natijada esa jamiyat barqarorligi, oila farovonligi va kelajak taraqqiyoti ta'minlanadi.

Biroq har qanday inson ham birdaniga iqtisodiy fikrlovchi, ishbilarmon yoki tadbirkor bo'lib qolmaydi. Inson farovon hayot kechirishi uchun jamiyat tomonidan tan olingan mehnatni bajarishi, cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni, topgan

daromadini to‘g‘ri taqsimlay olishni bilishi lozim.

Yoshlarda bozor iqtisodiyotiga xos bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish esa, shubhasiz, iqtisodiy ta‘lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi. Bu faoliyat bozor iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Masalan, AQShda bo‘lajak biznesmenlar uchun turli maxsus mashg‘ulotlar mavjud. Maktab yoshidagi bolalar uchun amaliy iqtisod va biznes bo‘yicha eng mashhur dasturlardan birini “Junior Achievement” korporatsiyasi ishlab chiqqan. Bu dasturlar o‘z ichiga kompyuter o‘yinlari, darsliklar va amaliy mashg‘ulotlarni qamrab olgan.

Ayniqsa, maktab o‘quvchilarining o‘zlari haqiqiy kompaniyalar tuzib, real biznes bilan shug‘ullanishi juda qiziqarli tajriba hisoblanadi. Dastur asosiy maqsadi – yoshlarda nafaqat iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish yoki tadbirkorlikka qiziqish uyg‘otish, balki biznesga alohida, mas’uliyatli munosabatni shakllantirishdir. Bu munosabatning o‘zagi – halollik va sofdillik, ya’ni nafaqat o‘z manfaatini o‘ylash, balki boshqalarning ham manfaatini inobatga olish tamoyiliga asoslanadi [5].

Iqtisodiy tarbiya – yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularni mustaqil, ongli va iqtisodiy jihatdan savodli inson sifatida shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish orqali yoshlarni ongli, faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababli ta‘lim tizimida iqtisodiy tarbiyaga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda.

Biroq iqtisodiy ta‘lim va tarbiya – bu uzluksiz jarayondir. Muqaddas kitoblarda va hadisi shariflarda bejizga “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, deyilmagan. Shu bois iqtisodiy rivojlanish sari dadil odimlayotgan navqiron mamlakatimizda yosh avlodga iqtisodiy ta‘lim-tarbiya berish masalasini tizimli asosda yo‘lga qo‘yish zarur. Bu borada quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

– *Iqtisodiy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlash*: iqtisodiy fikrlash, asosiy tushunchalar va iqtisodiy his-tuyg‘ularni shakllantirish oiladan boshlanib, eng sodda malakalar orqali bolalikdan boshlab berilishi, so‘ngra bu jarayon bog‘cha, maktab va oliy ta‘lim bosqichlarida davom ettirilishi zarur;

– *Mahallalarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish*: mahalla fuqarolar yig‘inlari orqali har bir oilaga kirib borish, iqtisodiy madaniyatni targ‘ib qiluvchi suhbatlar o‘tkazish, shiorlar va tashabbuslarni ilgari surish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish;

– *Iqtisodiy va huquqiy ta’limni kuchaytirish*: maktab va o‘rta-maxsus ta‘lim muassasalarida yoshlarni iqtisodiy madaniyatga jalb etish, iqtisodiy bilimlarni mustahkamlovchi to‘garaklar, musobaqalar, tanlovlar tashkil etish;

– *“Iqtisodiy bilim asoslari” fanini boyitish*: maktab, akademik litsey, kollej va

texnikumlarda o‘tiladigan mazkur fanga “xonadon moliyasi”ga oid mavzularni kiritish;

– *Davriy nashrlarda targ‘ibot ishlarini kuchaytirish*: iqtisodiy madaniyatni ommalashtiruvchi maxsus ruknlar tashkil etish, eng yaxshi maqola va asar mualliflari uchun tanlovlar o‘tkazish, ommaviy axborot vositalarida maxsus ko‘rsatuvlar tayyorlab, keng ommaga yetkazish;

– *Darslik va adabiyotlar yaratishni rag‘batlantirish*: iqtisodiy savodxonlikni oshiruvchi darslik, o‘quv qo‘llanma va risolalar yaratish, ularning ta’sirchanligini oshirish;

– *Iqtisodiy savodxonlikni ta’minlovchi omillarni qo‘llash*: ta’lim jarayonida motivatsion, aqliy, irodaviy, hissiy va amaliy omillarni tizimli qo‘llashni yo‘lga qo‘yish zarur.

XULOSA

XXI asr intellektual asri deb e’tirof etilishi ta’limda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bu o‘z navbatida iqtisodiy sohadagi bilimlarni berishda har tomonlama chuqur mushohada qilish va takomillashtirishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Bozor munosabatlari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda, bozor iqtisodiyotiga xos turmush tarzini yaratishimiz, cheklangan resurslardan tejimli va unumli foydalanishimizda yangicha zamonaviy iqtisodiy fikrlashga o‘rganishimiz foydadan holi emas.

Bugungi kunda iqtisodiy qonunlar o‘zining yangi talablarini shu jamiyatda yashayotgan har bir inson oldiga qo‘ymoqda. Shuning uchun ham iqtisodiy ta’lim va iqtisodiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish, ularni uyg‘unlashtirishga hamda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyat va an’analarimiz bilan boyitish bilan birga, zamonaviy cho‘qillarni ham zabt etishimiz lozim.

Mamlakatimiz yoshlarining yuqori saviyadagi komil inson bo‘lib yetishishlarida iqtisodiy, huquqiy va siyosiy bilimlarni egallashlari behad muhimdir va bu hol shakshubhasiz buyuk kelajagimiz ravnaqiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning rivojlanishi va tom ma’noda targ‘ib qilinishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga, jamiyat farovonligining ta’minlanishiga olib keladi. Iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning pirovard natijalari bugungi kundagi iqtisodiyot yangi tarmoqlarining rivojlanishi va an’anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlarning besamara ketmasligiga imkon beradi.

Iqtisodiy tarbiya va iqtisodiy tafakkur - nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunki iqtisodiy



taraqqiyot faqat noz-ne'matlarni ishlab chiqarish bilan emas, balki ularning iste'moli bilan ham uzviy bog'liq. Yuksak iqtisodiy ong va tafakkur vositasida iste'mol jarayonida tejalgan noz-ne'mat, o'z mohiyatiga ko'ra ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo'shimcha mahsulot hajmini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. To'xliyev N. O'zbek modeli taraqqiyotning tamoyillari. – Toshkent.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2014. – B. 8.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent.: “Yoshlar nashriyoti uyi”. 2018. – B. 97.
3. Rajabov O'. D. Inson kapitali ishlab chiqarishning muhim omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – Toshkent. 2012 №1. – B. 47.
4. A.Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilavov, I.Saydullayev. – Toshkent.: “Sano - standart”, 2016. – B. 92.
5. Fayzullayev A. Inson, siyosat, boshqaruv. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 1995. – B. 139.

TABIY FANLAR

MASHINASOZLIKNING KUCHLANISH-DEFORMATSIYALANISH OBYEKTLARINING FUNKSIONAL HOLATINI OSHKOR BO‘LMAGAN FUNKSIYALARDAN FOYDALANIB MATEMATIK MODELLASHTIRISH

YAKUBOV SABIR XALMURADOVICH

O‘zbekistan Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti

“Umumtexnika fanlari” kafedrasini mudiri

Texnika fanlari nomzodi (DSc), professor

Email: sabiryakubov@mail.ru

UDK 62.5

<https://orcid.org/0000-0002-3607-4568>

JOMURODOVA ZARNIGOR UBAYDULLAYEVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrasini doktoranti

Email: zarnigorjomurodova57@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-0715-6763>

RAJABOV TURAQUL JURAQULOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o‘qituvchisi

Email: rajabov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0003-8524-250X>

Kalit so‘zlar:

mashinasozlik,
matematik
modellashtirish,
kuchlanish-
deformatsiya,
oshkor bo‘lmagan
funktsiyalar, sonli
metodlar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mashinasozlik obyektlarining kuchlanish-deformatsiyalanish holatini matematik modellashtirish masalalari yoritilgan. An’anaviy hisoblash usullari, xususan, chekli elementlar (ChEU) va chekli farqlar (ChFU) usullari muhandislikda keng qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ularning aniqligi va samaradorligi murakkab holatlarda cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish dolzarb yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Maqolada neyron tarmoqlar, mashina o‘rganish, genetik algoritmlar va mustahkam o‘rganish kabi ilg‘or yondashuvlarning modellashtirish jarayonidagi o‘rni tahlil qilingan. Jumladan, neyron tarmoqlar materiallarning mustahkamlik va charchoq

chegaralarini prognoz qilishda, genetik algoritmlar esa optimal konstruktsiyalarni loyihalashda qoʻllaniladi. Mustahkam oʻrganish esa real vaqt rejimida deformatsiya jarayonlarini boshqarish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlarning anʼanaviy usullar bilan taqqosiy tahlili, ularning afzallik va cheklovlari, shuningdek mashinasozlikda amaliy qoʻllanilish imkoniyatlari koʻrib chiqilgan. SI asosidagi modellashtirish texnologiyalari hisoblash jarayonini tezlashtirish, natijalar aniqligini oshirish va tajriba xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Kelgusida ushbu metodlarni yanada takomillashtirish va murakkab tizimlar uchun aqlli boshqaruv modellarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННЫХ ОБЪЕКТОВ МАШИНОСТРОЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НЕРАСКРЫТЫХ ФУНКЦИЙ

Ключевые слова: машиностроение, математическое моделирование, напряжение-деформация, нераскрытые функции, численные методы.

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи математического моделирования напряжённо-деформированного состояния объектов машиностроения. Несмотря на широкое применение традиционных численных методов, таких как метод конечных элементов (МКЭ) и метод конечных разностей (МКР), их точность и эффективность в сложных условиях могут быть ограниченными. В связи с этим всё более актуальным становится использование технологий искусственного интеллекта (ИИ). В статье проведён анализ современных подходов, включая нейронные сети, алгоритмы машинного обучения, генетические алгоритмы и алгоритмы устойчивого обучения. В частности, нейронные сети используются для прогнозирования прочностных характеристик и пределов усталости материалов, генетические алгоритмы – для оптимального проектирования конструкций и выбора параметров материалов, а устойчивое обучение – для управления процессами деформации в реальном времени. Проведено



сравнительное исследование этих подходов с традиционными методами, рассмотрены их преимущества, ограничения и практическое применение в машиностроении. Использование ИИ позволяет ускорить процессы моделирования, повысить точность анализа и снизить затраты на проведение экспериментов. В перспективе важной задачей остаётся дальнейшее развитие ИИ-методов моделирования и внедрение интеллектуальных систем управления для сложных конструкций в режиме реального времени.

MATHEMATICAL MODELING OF THE FUNCTIONAL STATE OF MECHANICAL ENGINEERING STRESS-STRAIN OBJECTS USING UNDISCLOSED FUNCTIONS

Keywords:

mechanical engineering, mathematical modeling, stress-strain, undisclosed functions, numerical methods.

Abstract:

This article addresses the mathematical modeling of the stress-strain state of mechanical engineering objects. Although traditional numerical methods, such as the Finite Element Method (FEM) and Finite Difference Method (FDM), are widely used in engineering practice, their accuracy and efficiency can be limited in complex situations. Therefore, the application of Artificial Intelligence (AI) technologies is becoming an increasingly important direction. The paper analyzes advanced approaches including neural networks, machine learning algorithms, genetic algorithms, and reinforcement learning. Neural networks are used to predict material strength and fatigue limits, while genetic algorithms assist in optimal design and material parameter selection. Reinforcement learning is considered effective for real-time control of deformation processes. A comparative analysis of these AI-based methods with traditional approaches is presented, highlighting their advantages, limitations, and practical applications in the field of mechanical engineering. The integration of AI can accelerate the modeling process, improve the accuracy of analysis, and reduce the cost of physical experimentation. Future work should focus on further development of AI-driven modeling techniques and the

implementation of intelligent control systems for complex structures in real-time environments.

KIRISH

Zamonaviy mashinasozlik sanoatida konstruktiv elementlarning mustahkamligi, ishonchliligi va ekspluatatsion bardoshliligini ta'minlash eng muhim va dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Detallar va butlovchi qismlarning turli yuklanish sharoitlarida xavfsiz va samarali ishlashi ko'p jihatdan ularning kuchlanish-deformatsiyalanish holatini aniq va ishonchli modellashtirishga bog'liqdir. Bunday modellashtirish esa muhandislik dizayni, material tanlash va ishga tushirish oldi sinovlari bosqichlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

An'anaviy hisoblash usullari – chekli elementlar usuli (ChEU) va chekli farqlar usuli (ChFU) – ko'p yillik amaliyotda o'z samarasini ko'rsatgan bo'lib, turli konstruksiyalarning mexanik xususiyatlarini tahlil qilishda keng qo'llanilib kelinmoqda. Biroq so'nggi yillarda konstruksiyalarning murakkablashib borishi, aniqlik va tezlikka bo'lgan talablarning ortishi natijasida mazkur usullarning ayrim cheklovlari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, hisoblash jarayonining murakkabligi, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashdagi resurs talabchanligi, shuningdek, optimallashtirish imkoniyatlarining cheklangani kabi muammolar an'anaviy yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi bu yo'nalishda yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Mashina o'rganish algoritmlari, chuqur neyron tarmoqlar, genetik algoritmlar va mustahkam o'rganish kabi ilg'or metodlar yordamida murakkab fizik-mexanik jarayonlarni modellashtirish, prognozlash hamda optimallashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, neyron tarmoqlar eksperimental va simulyatsion ma'lumotlar asosida o'rganib, materiallarning kuchlanish-deformatsiyalanish holatini yuqori aniqlikda bashoratlay oladi. Genetik algoritmlar esa optimal konstruktiv yechimlarni tanlashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur maqolada mashinasozlik obyektlarining kuchlanish-deformatsiyalanish holatini modellashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni, ularning an'anaviy usullar bilan taqqosiy tahlili, amaliy qo'llanishi hamda istiqbollari tahlil etiladi. Shuningdek, SI yondashuvlari yordamida modellashtirish jarayonini avtomatlashtirish, hisoblash samaradorligini oshirish va tajriba xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari keng muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mashinasozlikda kuchlanish-deformatsiyalanish (KDU) holatini modellashtirish

sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishda sonli metodlar, xususan, Chekli elementlar usuli (ChEU) eng ko'p qo'llaniladigan va amaliy jihatdan o'zini oqlagan yondashuvlardan biridir. Zienkiewicz va Taylor tomonidan ishlab chiqilgan fundamental tadqiqotlar ChEU nazariyasining ilmiy asoslarini yaratdi hamda turli murakkab geometrik shakllarga ega konstruksiyalarning elastik va plastik xatti-harakatlarini tahlil qilishda mustahkam nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda [1]. Mazkur asarlar nafaqat hisoblash mexanikasi, balki muhandislik dizaynida ham ChEU yondashuvining ustunliklarini ko'rsatgan.

So'nggi yillarda hisoblash texnologiyalarining rivojlanishi, xususan sun'iy intellekt (SI) metodlarining mashinasozlikka jadal kirib kelishi, KDU modellashtirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Goodfellow, Bengio va Courville (2016) tomonidan taqdim etilgan "Deep Learning" asari SI, ayniqsa chuqur neyron tarmoqlarning (CNN, RNN va boshqa arxitekturalar) fizikaviy tizimlarni modellashtirishdagi imkoniyatlarini atroflicha ochib beradi [2]. Bu texnologiyalar katta hajmdagi eksperimental yoki simulyatsion ma'lumotlar asosida murakkab nolinear bog'lanishlarni aniqlash, bashorat qilish hamda real vaqt rejimida analiz qilish imkonini beradi.

Deo va Kumar o'z izlanishlarida mashina o'rganish algoritmlarining (ayniqsa, Random Forest, Support Vector Machines va Deep Neural Networks) materiallarning charchoq (fatigue) holatini prognozlashdagi samaradorligini tahlil qilib, bu usullar an'anaviy statistik modellarga qaraganda yuqori aniqlikka ega ekanligini amaliy misollar orqali isbotlab berdilar [3]. Bu esa mashinasozlikda ish faoliyatidagi ishonchlilikni baholash, xizmat muddati prognozi va nosozliklarni oldindan aniqlashda katta afzalliklar yaratmoqda.

Optimallashtirish vazifalarida esa genetik algoritmlar (GA) alohida e'tiborga loyiq. Holland tomonidan taklif etilgan ushbu yondashuv biologik evolyutsiya prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mashinasozlikda optimal konstruktiv shakllarni topish, parametrlarni sozlash va ko'p maqsadli optimallashtirish muammolarini hal qilishda samarali natijalar bermoqda [4]. Genetik algoritmlar klassik matematik optimallashtirish usullariga nisbatan ko'proq erkinlik va yechimlar fazosini kengroq qamrab olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, mustahkam o'rganish (Reinforcement Learning) metodlari ham hisoblash mexanikasi sohasida dolzarb yo'nalish bo'lib bormoqda. Sutton va Barto (2018) o'zlarining fundamental ishlarida bu yondashuvning dinamik tizimlarni boshqarish, o'zgaruvchan yuklanish sharoitida tizimning holatini moslashtirish va real vaqt rejimida qarorlar qabul qilishdagi imkoniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishgan [5]. Bu yondashuv mashinasozlik tizimlarining o'zgaruvchan ish

sharoitlariga moslasha olish qobiliyatini oshirishda, ayniqsa kiber-fizik tizimlar va aqlli ishlab chiqarish texnologiyalarida keng qo'llanilishi mumkin.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar sun'iy intellekt texnologiyalarining mashinasozlikdagi KDU modellashtirishida an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega ekanligini ko'rsatadi. SI metodlari modellashtirish aniqligini oshirish, hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish, resurs sarfini kamaytirish va ekspluatatsion xatarlarni oldindan aniqlashda katta salohiyatga ega. Biroq bu yondashuvlar hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ularni sanoat miqyosida keng joriy etish uchun barqarorlik, talqinlilik va verifikatsiya kabi masalalarda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mashinasozlik obyektlarining kuchlanish-deformatsiyalanish (KDU) holatini aniqlik bilan modellashtirishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining samaradorligini baholashga qaratildi. Maqsadga erishish uchun tadqiqotda nazariy, qiyosiy, eksperimental hamda kompyuterli modellashtirish yondashuvlarining kompleks majmuasidan foydalanildi. Har bir metodologik bosqich quyidagicha amalga oshirildi:

1. Nazariy-tahliliy yondashuv: Tadqiqotning dastlabki bosqichida KDU jarayonlarini modellashtirishga oid mavjud ilmiy-nazariy manbalar chuqur o'rganildi. Jumladan:

- Chekli elementlar usuli (ChEU),
- Chekli farqlar usuli (ChFU),
- Elastiklik va plastiklik nazariyalari,
- Materiallarning fizik-mexanik xossalari

asosida an'anaviy modellashtirish yondashuvlari tahlil qilindi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektga asoslangan metodlar – chuqur neyron tarmoqlar (DNN), genetik algoritmlar (GA), mustahkam o'rganish (RL) texnologiyalari hamda ularning murakkab muhandislik tizimlaridagi qo'llanilish imkoniyatlari o'rganildi. Natijada an'anaviy va innovatsion metodlarning afzalliklari hamda cheklovlari aniqlanib, ular o'rtasidagi asosiy farqlar belgilab olindi.

2. Qiyosiy modellashtirish va tahlil: Tadqiqotning ikkinchi bosqichida ChEU va ChFU kabi klassik sonli metodlar bilan, SI asosidagi modellar (DNN, GA, RL) asosida qurilgan yondashuvlar o'zaro qiyoslandi. Har bir metod quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- Modellashtirish aniqligi,
- Hisoblash tezligi,

- Hisoblash resurslariga bo‘lgan talab,
- Yuklanish va tashqi omillarga moslashuvchanlik.

Model yaratish va tahlil jarayonida Python dasturlash tili asosiy vosita sifatida tanlandi. Mashina o‘rganish va neyron tarmoq modellarini qurishda TensorFlow, Keras, Scikit-learn, NumPy kabi kutubxonalar qo‘llanildi. Genetik algoritmlar bo‘yicha optimallashtirish ishlari MATLAB muhitida Genetic Algorithm Toolbox yordamida amalga oshirildi.

3. *Eksperimental simulyatsiya va verifikatsiya:* Tadqiqotning amaliy bosqichida turli geometriyali konstruksiyalarning kuchlanish-deformatsiyalanish holatlari modellashtirildi va sinovdan o‘tkazildi. Simulyatsiyalar quyidagi dasturiy platformalarda bajarildi:

- MATLAB – matematik modellashtirish va grafik vizualizatsiya uchun,
- ANSYS – aniq sonli hisob-kitoblar va CAE simulyatsiyalar uchun,
- Python – SI modellarini sinovdan o‘tkazish va prognozlarni tahlil qilish uchun.
- Eksperimental simulyatsiyalar davomida quyidagi parametrlar kuzatildi:
- Berilgan yuklanish ostida deformatsiyalarning taqsimlanishi,
- Materialdagi maksimal kuchlanish zonalari,
- Harorat, bosim va tashqi ta’sir omillariga nisbatan strukturaviy javob.

SI asosidagi modellar orqali olingan natijalar real tizimlarning eksperimental ma’lumotlari bilan taqqoslanib, ularning bashorat aniqligi va ishonchliligi baholandi. Natijada modellar verifikatsiya qilinib, SI yondashuvlarining amaliy qo‘llanishga yaroqliligi isbotlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ushbu tadqiqot davomida mashinasozlik ob’ektlarining kuchlanish-deformatsiyalanish (KDU) holatini modellashtirishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining samaradorligi chuqur tahlil qilindi. An’anaviy sonli usullar, xususan, Chekli elementlar usuli (ChEU) bilan taqqoslanib, SI asosidagi yondashuvlarning modellashtirish aniqligi, hisoblash samaradorligi va real vaqtli boshqaruv imkoniyatlari atroflicha o‘rganildi. Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtiriladi:

1. *Sun’iy intellekt metodlarining modellashtirish aniqligiga ta’siri:* Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, chuqur o‘rganishga asoslangan neyron tarmoqlar (Deep Neural Networks) kuchlanish-deformatsiyalanish holatini aniqlashda an’anaviy ChEUga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega. Simulyatsion va eksperimental ma’lumotlar asosida o‘qitilgan neyron modellar, ayniqsa, noan’anaviy geometrik shaklga ega, heterogen tarkibli materiallar uchun mustahkamlik chegaralarini prognoz qilishda 8–

15% yuqori aniqlik ko'rsatdi. Bu esa strukturaviy barqarorlikni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, neyron tarmoqlar murakkab bo'shliqli, ko'p qatlamli va noaniqlik elementlarini o'z ichiga olgan tizimlar uchun ham ishonchli natijalarni taqdim etdi.

2. *Genetik algoritmlarning optimallashtirishdagi afzalliklari:* Ko'p parametrlil optimallashtirish muammolarida genetik algoritmlar (GA) yuqori darajadagi samaradorlik namoyon etdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, GA yordamida murakkab dizaynli detallar uchun eng maqbul geometrik va fizik parametrlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Ayniqsa, Chekli elementlar usuli bilan integratsiyalashgan holda qo'llanganda, umumiy hisoblash jarayoni 20-25% ga tezlashgani kuzatildi. Bu esa muhandislik jarayonlarining samaradorligini oshirish, hisoblash xarajatlarini kamaytirish va dizayn bosqichini qisqartirish imkonini berdi. Bundan tashqari, GA asosida bajarilgan optimallashtirish real hayotdagi dizayn cheklovlariga (masshtab, material sifati, ishlab chiqarish texnologiyasi) mos echimlar ishlab chiqishga xizmat qildi.

3. *Mustahkam o'rganish yordamida real vaqtli boshqaruv imkoniyatlari:* Mustahkam o'rganish (Reinforcement Learning – RL) algoritmlari yordamida deformatsion holatlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va moslashtirilgan boshqaruvni amalga oshirish mumkinligi isbotlandi. RL yondashuvi ish sharoitida yuzaga keladigan o'zgaruvchan yuklanishlarga moslashuvchan javob qaytarish imkonini berdi. Model agentlari dinamik yuklanishlarga moslab tizim holatini optimallashtirishni o'rganib, turli bosim, harorat va deformatsion kuchlar ta'sirida tizimni barqaror ishlashini ta'minladi. Bu esa, ayniqsa, aqlli ishlab chiqarish (smart manufacturing) va raqamli egizak (digital twin) texnologiyalarini joriy etish jarayonlarida muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

1-Jadval

An'anaviy usullar bilan taqqosiy tahlil

Yondashuv	Aniqlik (%)	Hisoblash vaqti	Moslashuvchanlik	Resurs talabi
ChEU (FEM)	80-90	Yuqori	O'rtacha	Yuqori
Neyron tarmoqlar	90-95	Past-o'rta	Yuqori	O'rta
Genetik algoritmlar	85-92	O'rta	Yuqori	O'rta



Mustahkam o‘rganish	88-93	O‘rta	Juda yuqori	Yuqori
----------------------------	-------	-------	-------------	--------

Amaliy qo‘llanilish imkoniyatlari:

- Neyron tarmoqlar – mahsulot dizaynini tekshirish va sinov xarajatlarini kamaytirishda.
- Genetik algoritmlar – parametr tanlash va modellashtirishda optimallikni ta’minlashda.
- Mustahkam o‘rganish – ishlab chiqarish liniyalarida adaptiv boshqaruv tizimlarini yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Mashinasozlik obyektlarining kuchlanish-deformatsiyalanish (KDU) holatini yuqori aniqlikda modellashtirish texnika fanlari va sanoat amaliyoti uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. An’anaviy sonli metodlar, xususan, chekli elementlar (FEM) va chekli farqlar (FDM) usullari mashinasozlikda keng qo‘llanilib kelayotgan bo‘lsa-da, zamonaviy texnologik jarayonlarning murakkablashuvi ularni yangicha yondashuvlar bilan boyitishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining bu sohadagi integratsiyasi modellashtirish imkoniyatlarini tubdan kengaytiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida KDU jarayonlarini aniqlashda ilg‘or raqamli yondashuvlarning – jumladan, chuqur o‘rganish (Deep Learning), genetik algoritmlar (GA) va mustahkam o‘rganish (Reinforcement Learning) kabi SI metodlarining nazariy asoslari, texnik afzalliklari va amaliy tatbiqlari chuqur tahlil qilindi. Ushbu metodlar yordamida hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish, modellashtirish aniqligini oshirish, hisoblash vaqtini qisqartirish hamda tizimlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar nafaqat an’anaviy usullar bilan raqobatlasha oladi, balki murakkab konstruksion holatlarni bashoratlashda ularni samarali to‘ldiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Kelgusida SI modellarini kiber-fizik tizimlarga integratsiyalash, ularning sanoat miqyosida joriy etilishi hamda moslashuvchan boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish yo‘nalishida olib boriladigan izlanishlar dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zienkiewicz O. C., Taylor R. L. The Finite Element Method for Solid and Structural Mechanics. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – P. 736.
2. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. – Cambridge: MIT Press, 2016. – P. 775.
3. Sutton R. S., Barto A. G. Reinforcement Learning: An Introduction. 2nd ed. – Cambridge: MIT Press, 2018. – P. 552.
4. Holland J. H. Adaptation in Natural and Artificial Systems. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1975. – P. 211.
5. Bathe K. J. Finite Element Procedures. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2006. – P. 1037.
6. Deo R. C., Kumar N. M. Fatigue Life Prediction Using Machine Learning Techniques // Materials & Design. 2019. Vol. 175. – P. 107798.
7. Rajasekaran S., Vijayalakshmi Pai G. A. Neural Networks, Fuzzy Logic and Genetic Algorithms: Synthesis and Applications. – New Delhi: PHI Learning, 2017. – P. 454.
8. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep Learning // Nature. 2015, Vol. 521, No. 7553. – P. 436-444.
9. Kalogirou S. A. Artificial Intelligence for the Modeling and Control of Combustion Systems: A Review // Progress in Energy and Combustion Science. 2003, Vol. 29, No. 6. – P. 515-566.
10. Timoshenko S. P., Goodier J. N. Theory of Elasticity. 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 1970. – P. 567.
11. Yakubov S. X., Jo'murodova Z. U. Mashinasozlikda sonli modellashtirishning zamonaviy tendensiyalari // Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali. 2024, №2. – B. 55-62.

TABIY FANLAR

FIZIKADAN NAMOYISH TAJRIBALARNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ERGONOMIK TAMOYILLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK AHAMIYATI

KURBANOV MIRZAAXMAD XXX

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

“Umumiy fizika” kafedrasi professori

Email: kurbanov1949@bk.ru

UDK: 372.853

<https://orcid.org/0009-0000-0638-0364>

OMONQULOVA UMIDA HUSAN QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasi o‘qituvchisi

Email: u.omonqulova@dtpi.uz

<https://orcid.org/0009-0009-8345-2275>

Kalit so‘zlar:

fizika ta’limi,
namoyish tajribalar,
didaktik funksiyalar,
ergonomika,
psixologik-
pedagogik
omillar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fizika ta’limida namoyish tajribalarini o‘qitish jarayonida ergonomik tamoyillarni qo‘llashning psixologik-pedagogik ahamiyati tahlil etiladi. Ergonomik yondashuv namoyish tajribalarining asosiy didaktik funksiyalari (axborot berish, motivatsiya uyg‘otish, nazorat qilish va rivojlantirish) samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot jarayonida psixologik omillar (diqqat, xotira, qiziqish) hamda pedagogik omillar (mavzuni tushuntirish uslubi, interaktivlik darajasi, ta’lim materiallarini moslashtirish) o‘zaro uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Amaliy tavsiyalar ergonomik dizayn, vizual materiallar va interaktiv metodlarni uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ular namoyish tajribalarining o‘quv jarayonidagi ta’sirchanligini kuchaytirishga qaratilgan. Mazkur yondashuv nafaqat namoyish tajribalarining o‘quv jarayonidagi ta’sirini kuchaytiradi, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, analitik yondashuv va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭРГОНОМИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИДАКТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ ДЕМОНСТРАЦИОННЫХ ЭКСПЕРИМЕНТОВ ПО ФИЗИКЕ

Ключевые слова: физическое образование, демонстрационные эксперименты, дидактические функции, эргономика, психолого-педагогические факторы.

Аннотация: В данной статье анализируется психолого-педагогическое значение применения эргономических принципов в процессе обучения демонстрационным экспериментам в физическом образовании. Эргономический подход интерпретируется как важный фактор повышения эффективности основных дидактических функций демонстрационных опытов (информирование, мотивация, контроль и развитие). В процессе исследования психологические факторы (внимание, память, интерес) и педагогические факторы (метод объяснения темы, уровень интерактивности, адаптация учебных материалов) рассматриваются во взаимосвязи. Практические рекомендации разработаны на основе сочетания эргономического дизайна, визуальных материалов и интерактивных методов, направленных на повышение эффективности демонстрационных экспериментов в учебном процессе. Данный подход не только усиливает влияние демонстрационных опытов в учебном процессе, но и играет важную роль в формировании у учащихся самостоятельного мышления, аналитического подхода и научного мировоззрения.

THE PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF ERGONOMIC PRINCIPLES IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THE DIDACTIC FUNCTIONS OF DEMONSTRATIONAL EXPERIMENTS IN PHYSICS

Keywords: physics education, demonstration experiments, didactic functions,

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical significance of applying ergonomic principles in the process of teaching demonstration experiments in physics education. The ergonomic approach is interpreted as an important factor in increasing the effectiveness of the main

ergonomics, psychological and pedagogical factors.

didactic functions of demonstration experiments (informing, motivating, controlling, and developing). In the research process, psychological factors (attention, memory, interest) and pedagogical factors (method of explaining the topic, level of interactivity, adaptation of educational materials) are considered in close connection with each other. Practical recommendations were developed based on the combination of ergonomic design, visual materials, and interactive methods, aimed at increasing the effectiveness of demonstration experiments in the educational process. This approach not only strengthens the influence of demonstration experiences in the educational process, but also plays an important role in the formation of independent thinking, an analytical approach, and a scientific worldview in students.

KIRISH

Umuman olganda, fan, ayniqsa fizika, insoniyat madaniyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonni analitik hamda kombinatorik fikrlashga yo'naltirish qobiliyatiga ega. Fizikaning o'ziga xos jihati shundaki, u olamdagi obyektlar, ularning xatti-harakatlari va xususiyatlarini izchil hamda ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi [1]. Shu bois, fizika ta'limining samaradorligi nafaqat bilimlarni yetkazishda, balki o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar natijalari namoyish tajribalarining fizika ta'limida alohida pedagogik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, faqat nazariyaga asoslangan darslarga nisbatan namoyish tajribalarni o'qitish jarayoniga kiritish bilimlarni samaraliroq uzatish, shuningdek, fizikaning murakkab va mavhum tushunchalari, hodisalari va qonunlarini chuqurroq anglashga sezilarli darajada yordam beradi [2]. Shu sababli, eksperimental yondashuv fizik tushunchalarni o'zlashtirish nuqtayi nazaridan o'quv jarayonining eng asosiy vositalaridan biri sifatida qaraladi. Bu holat fizika ta'limiga oid o'quv-uslubiy materiallarda ham alohida ta'kidlangan [3].

Xususan, fizika ta'limi bo'yicha olib borilgan izlanishlar o'quvchilarning eksperimental jarayonlardan oladigan eng katta foydasi ilmiy metodni o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [4]. Ilmiy metodni o'rganish esa o'quvchilarning fikrlash uslubi, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini, shuningdek, "qanday o'rganishni o'rganish" ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Tajriba asosida o'rgatilgan ilmiy metod bosqichlarini

maqsadli tarzda o'quv jarayoniga kiritish orqali o'quvchilarda nafaqat ilmiy tajribalarni tushunish va o'zlashtirish, balki tanqidiy-mantiqiy fikrlash, lingvistik ifodalash va konseptual tahlil kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish mumkin. Mazkur ko'nikmalar o'quvchilarning maktab davridan boshlab, kelajakdagi kasbiy faoliyatlarigacha bo'lgan ta'lim bosqichlarida zarur va ajralmas tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi [5].

Biroq namoyish tajribalarining ta'limiy samaradorligi, avvalo, ularning didaktik funksiyalari (axborot berish, motivatsiya uyg'otish, nazorat qilish va rivojlantirish) qanday tashkil etilishiga bevosita bog'liqdir. Bu jarayonda ergonomik tamoyillar (qulaylikni ta'minlash, vizual idrokni yengillashtirish, axborot yukini optimallashtirish) hamda kognitiv tamoyillar (idrok, xotira, tafakkur va tushunishni faollashtirish) o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mayerning "Multimedia Learning" prinsiplari [6] va Swellerning "Cognitive Load Theory" [7] shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallarining dizayni va taqdim etish usuli o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Namoyish tajribalar fizika ta'limining ajralmas elementi bo'lib, o'quvchilarda ilmiy tushunchalarni shakllantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash va fanga qiziqishni oshirishda katta rol o'ynaydi. Ularning samaradorligi ko'p jihatdan didaktik funksiyalarni to'g'ri tashkil etish hamda zamonaviy ta'lim talablari asosida ergonomik yondashuvni joriy etishga bog'liqdir. Ergonomik tamoyillar ya'ni insonning psixofiziologik xususiyatlari, qulay va samarali idrok etish imkoniyatlarini hisobga olish namoyish tajribalarining ta'sir kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Xorijiy tajribalar ham bu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, AQSHdagi PhET Interactive Simulations, Germaniyadagi Lehr-Lern-Labor Physik hamda Yaponiyadagi interaktiv fan muzeylarida ergonomika va kognitiv yondashuv uyg'un qo'llanilib, o'quvchilarning diqqat, xotira va tushunish darajasi samarali ravishda oshirilmoqda.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u fizikadan namoyish tajribalarini ergonomik va kognitiv asoslarda loyihalash hamda ularni o'quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlariga moslashtirish orqali didaktik samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fizika ta'limini o'rganish tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, oddiy va kundalik materiallardan foydalanib o'tkazilgan real namoyish tajribalar ko'plab afzalliklarga ega. Ularning eng muhimlaridan biri ularning arzonligi va qimmatbaho laboratoriya uskunalarni to'liq yoki qisman almashtirish imkoniyatidir [8]. Bunday yondashuv,

ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilar uchun samarali bo'lib, ular kundalik hayotda uchraydigan buyumlar bilan ko'proq tanish bo'lishadi. Bu esa ularning mavjud tajriba va bilimlarini yangi ilmiy tushunchalar bilan bog'lashini osonlashtiradi [9]. Shu tariqa, nazariyani amaliyot va kundalik hayot bilan bog'lash hamda qimmat yoki murakkab uskunalarsiz ham tajribalar o'tkazish mumkinligini ko'rsatish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Oddiy materiallar bilan o'tkaziladigan namoyish tajribalar o'quvchilarning tajriba o'tkazishga bo'lgan ishonchini oshiradi va eksperimental amaliyotni oson, qiziqarli hamda kashfiyot zavqini beradigan faoliyat sifatida qabul qilishlariga yordam beradi. Fizika ta'limini o'rganish natijalariga ko'ra, bu yondashuv hatto tayyorgarligi past o'quvchilarda ham kognitiv ko'nikmalarni, hamkorlik madaniyatini [10], shuningdek, motivatsiya va ijodkorlikni oshiradi. Natijada o'quvchilar fizik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtiradilar [11]. Motivatsiya bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarning ta'limga yondashuvi, o'qituvchi bilan munosabati va darsga ajratgan vaqti hamda faol ishtirok darajasini belgilaydi [12].

Bunday tajribalar nafaqat qiziqarli va ishtirokni oshiruvchi jarayon, balki ekologik jihatdan xavfsizligi bilan ham ahamiyatlidir. Oddiy materiallardan foydalanish murakkab yoki xavfli uskunalar bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik va xavfsizlik xatarlarini kamaytiradi [13]. Shu bois, bunday yondashuv tajribalar sonini oshirish va ularning pedagogik qiymatidan kengroq foydalanish imkonini beradi. Muhimi, tajribaning asosiy maqsadi – hodisani tushuntirish bo'lishi kerak; murakkab uskunada ishlash jarayonini ko'rsatish esa bu maqsadni ikkinchi darajaga tushirmasligi lozim [14].

O'quvchilar o'zlari yasagan yoki qisman modifikatsiya qilgan tajriba qurilmalari orqali dars jarayonida faolroq qatnashadilar, ijodkorlik va tashabbuskorliklari rivojlanadi. Bu jarayon ularda tasavvur, topqirlik va yangilikka intilish sifatlarini mustahkamlaydi. Guruh bo'lib ishlash davomida esa o'zaro hamkorlik, muloqot va tajriba almashish madaniyati shakllanadi [15]. Shu sababli, mustaqil yaratilgan eksperimental qurilmalar "multimodal o'qitish"ning samarali vositasi sifatida qaraladi [16]. Ushbu usul o'quvchilarni dars jarayoniga faol integratsiya qiladi, ilmiy tushunchalarni eslab qolishni osonlashtiradi [17] hamda barcha sezgilarni jalb etgan holda ularda qoniqish va yutuq hissini shakllantiradi.

Bunday tajribalar orqali "fizika faqat murakkab va qimmatbaho uskunalar yordamida o'rganiladi" degan tasavvur yo'qoladi. E'tibor hodisani tushunishga qaratilgani sababli o'quvchilar ilmiy metodika bosqichlarini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar, fanga ijobiy munosabat shakllantiradilar va ijodkorlik salohiyatlarini namoyon etadilar. Fizika ta'limi bo'yicha kuzatuvlarga ko'ra, o'zlari yasagan

qurilmalar bilan ishlagan o‘quvchilar o‘z-o‘zini baholash darajasida yuqori natijalarga ega bo‘lib, eksperimental jarayonlarni mustaqil boshqarishda ham samaraliroq bo‘ladilar [9]. Bu jarayon o‘quvchini passiv kuzatuvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi [16].

Ergonomika – inson faoliyati samaradorligini oshirish uchun ish muhiti va vositalarni insonning psixofiziologik imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan fandır [18]. Ta’lim jarayonida ergonomik tamoyillarni qo‘llash darsning vizual va jismoniy jihatdan qulay bo‘lishini, o‘quvchilar diqqatini asosiy maqsadga jamlashini ta’minlaydi [19]. Wickens “Kognitiv ergonomika” konsepsiyasida axborot taqdimoti, ko‘rish burchagi, rang kontrasti, yorug‘lik va ish joyining ergonomik joylashuvi o‘quvchi idrokiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi [20]. Tadqiqotchilar o‘z izlanishlarida namoyish tajribalarda quyidagi ergonomik tamoyillarni belgilab qo‘yganlar:

1-rasm


Namoyish tajribalarda ergonomik tamoyillar



Professor Mirzaaxmad Kurbanov “Uzluksiz ta’limda fizik eksperimentlarning didaktik funksiyalari samaradorligini oshirish” nomli dissertatsiyasida “Ergonomik tadqiqotlarning asosiy masalasi o’qituvchi va talabani aqliy mehnat faoliyatining samaradorligini oshirish hisoblanadi. Fizikadan ko’pgina namoyish eksperimentlarning samaradorligi pastligi, ta’lim oluvchilarning psixo-fiziologik qabul qilishlari hisobga olinmaganidadir. Asosiy bo’g’inni ko’rsatlayotgan namoyish eksperiment qurilmalari hamma talablariga, ya’ni ergotizimda ko’rsatlayotgan ergonomik tamoyillarga javob berishi lozim” deb ta’kidlagan [21]. Hamda ergonomik tamoyillarni quyidagicha sinflaganlar:

2-rasm

Ergonomik tamoyillarning turlari



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umumta’lim va oliy ta’lim muassasalarida fizikadan namoyish tajribalarini tashkil etish jarayonida ularning ergonomik tamoyillarga muvofiqqligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv namoyish tajribalarining didaktik funksiyalarini yanada samarali amalga oshirishga, shuningdek, o’quvchilarning idrok jarayoni, motivatsiyasi, kognitiv yuklamasi va o’quv faoliyati samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shu bois tadqiqotimizda fizika darslarida namoyish tajribalarini ergonomik tamoyillar asosida tashkil etishning psixologik-pedagogik ta’sirini chuqur o’rganishni maqsad qilib oldik.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar ishlab chiqildi:

- Fizikadan namoyish tajribalarining asosiy didaktik funksiyalarini aniqlash va

ilmiy tahlil qilish;

- Ergonomik tamoyillarning ta'lim jarayonidagi psixologik hamda pedagogik asoslarini ochib berish;
- Namoyish tajribasi qurilmalarini ergonomik talablar asosida loyihalash mezonlarini ishlab chiqish;
- O'quvchilarning psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tajriba dizaynini moslashtirish;
- Pedagogik tajriba-sinov asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tekshirish va ilmiy asoslash.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi fizikadan namoyish tajribalarining didaktik funksiyalarini oshirishda ergonomik tamoyillarning psixologik-pedagogik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1-bosqich. Ergonomik tamoyillarni aniqlash va ularning ilmiy asoslarini o'rganish. Mazkur bosqichda Wickens (2004) tomonidan ilgari surilgan kognitiv ergonomika konsepsiyasi hamda Norman (2013) tomonidan tavsiflangan inson-texnika tizimlarida qulaylikni ta'minlash tamoyillari tahlil qilindi. Ayniqsa, axborot taqdimoti sifati (ko'rish burchagi, rang kontrasti, yorug'lik darajasi, elementlarning joylashuvi) hamda fizik o'lchamlarning mosligi (tugmalar, ko'rsatkichlar, tutqichlar hajmi) kabi omillarga alohida e'tibor qaratildi. Ergonomik me'yorlar o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, charchashni kamaytirish va o'rganilayotgan hodisani tez hamda aniq anglash imkonini berishi ta'kidlandi.

2-bosqich. Maktab sharoitida qo'llaniladigan namoyish tajriba qurilmalarini tahlil qilish. Respublika miqyosida foydalanilayotgan 7-11-sinflar fizika darslaridagi standart laboratoriya va namoyish qurilmalari o'rganildi. Qurilmalarning o'lchamlari, og'irligi, ranglari, ishlash prinsipi, ko'rinish burchagi va boshqaruv elementlarining joylashuvi tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, qurilmalardan o'qituvchilarning foydalanish qulayligi hamda o'quvchilar uchun vizual tushunarlilik bo'yicha ekspert xulosalari yig'ildi.

3-bosqich. O'quvchilarning diqqat, idrok va psixomotor ko'nikmalarini baholash. Maxsus ishlab chiqilgan anketa-so'rovnomalar yordamida o'quvchilarning tajriba jarayonida diqqatni jamlash, vizual idrok etish va qo'l-harakat muvofiqlashtirish darajalari o'lchandi. Psixomotor ko'nikmalarni baholash uchun reaksiya va koordinatsiya testlari o'tkazildi. Olingan natijalar Likert shkalasi asosida baholandi (1 – juda past, 5 – juda yuqori).

4-bosqich. Tajriba-sinov jarayonida ergonomik jihatdan optimallashtirilgan qurilmalarning samaradorligini an'anaviy qurilmalar bilan taqqoslash. Mazkur bosqichda tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyatining Sho'rchi, Denov va Oltinsoy

tumanlaridagi 3 ta umumta'lim maktabining 7-9-sinflarida o'tkazildi. Tadqiqotda jami $n = 124$ nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular tasodifiy tanlov asosida ikki guruhga ajratildi:

Nazorat guruhi – 62 nafar o'quvchi, an'anaviy qurilmalardan foydalanib mashg'ulotlar olib bordi;

Tajriba guruhi – 62 nafar o'quvchi, ergonomik tamoyillar asosida optimallashtirilgan qurilmalardan foydalandi.

Har ikki guruh uchun bir xil fizika mavzulari bo'yicha dars mashg'ulotlari o'tkazildi. Mashg'ulotlar yakunida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish darajasi diagnostik testlar yordamida baholandi va natijalar statistik jihatdan taqqoslab chiqildi.

NATIJALAR

Birinchi bosqichda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Wickens (2004) tomonidan ilgari surilgan kognitiv ergonomika konsepsiyasi hamda Norman (2013) ning inson-texnika tizimlarida qulaylikni ta'minlash tamoyillari fizikadan namoyish tajribalarini loyihalashda samarali qo'llanishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'rish burchagi 30° - 60° oralig'ida bo'lganda, rang kontrasti 70% dan yuqori darajada ta'minlanganda va yorug'lik miqdori 300-500 lx diapazonida bo'lganda o'quvchilarning idrok tezligi 18-22% ga ortishi kuzatildi. Shuningdek, qurilma tugmalari, ko'rsatkichlari va tutqichlarining o'quvchi qo'lga mos hajmda bo'lishi boshqaruv jarayonini 12-15% ga tezlashtirgan.

Elementlarning joylashuvi, ya'ni boshqaruv va ko'rsatkich qismlarining mantiqiy guruhlanishi esa namoyish jarayonidagi tushunarsizliklarni 25% ga kamaytirdi. Ergonomik me'yorlarga mos ishlab chiqilgan qurilmalar o'quvchilarning diqqatini o'rtacha 7 daqiqadan 11 daqiqagacha uzaytirishga yordam berdi. Natijada, o'quvchilar hodisalarni tezroq anglab, mantiqiy bog'lanishlarni aniqroq o'rnatdi hamda tajriba natijalarini izohlashda ravshanroq ifodalar qo'llay boshladi.

Ikkinchi bosqichda olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, maktab sharoitida 7-11-sinflar uchun mo'ljallangan standart laboratoriya va namoyish qurilmalarini o'rganish natijasida bir qator muhim kamchiliklar aniqlandi. Avvalo, aksariyat qurilmalarda modulli variantlarning deyarli mavjud emasligi dars jarayonida moslashuvchanlikni sezilarli darajada pasaytiradi. Qurilmalarning rang kontrasti ko'pincha 40-50% atrofida bo'lib, bu orqa qatorda o'tirgan o'quvchilar uchun elementlarni farqlashni qiyinlashtiradi.

Qurilmalarning ishlash prinsipi odatda tushunarli bo'lsa-da, ayrim mexanizmlar, xususan elektr va optika bo'yicha qurilmalarda yopiq konstruksiyalardan

foydalanilgani sababli ichki jarayonlar ko‘rinmay qoladi. Ko‘rinish burchagi ham odatda 30°-35° oralig‘ida bo‘lib, optimal daraja (45°-60°) ga yetmaydi. Natijada, orqa qatorda o‘tirgan o‘quvchilar tajribani to‘liq kuzata olmaydi.

Shuningdek, ko‘plab qurilmalarda tugma va regulyatorlar asosan o‘qituvchi tomonga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarni jarayonni bevosita boshqarish imkoniyatidan cheklaydi. Ba‘zi qurilmalarda boshqaruv elementlari juda kichik yoki belgilsiz bo‘lgani sababli tezkor va aniq ishlash ham qiyinlashadi.

Uchinchi bosqich natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Diqqat va idrok baholash natijalari (o‘rtacha ballar)

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy qurilmalar	Ergonomik qurilmalar
Diqqatni jamlash	3,1	4,4
Vizual tushunarlilik	3,3	4,6
Psixomotor muvofiqlashuv	3,0	4,2

Uchinchi bosqich natijalari shuni ko‘rsatadiki, ergonomik tamoyillarga asoslanib ishlab chiqilgan qurilmalar o‘quvchilarning diqqat va idrok faoliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. 1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, an’anaviy qurilmalardan foydalanilganda o‘quvchilarning diqqatni jamlash ko‘rsatkichi o‘rtacha 3,1 ballni tashkil etgan bo‘lsa, ergonomik qurilmalarda bu ko‘rsatkich 4,4 ballga yetgan. Bu farq o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga chuqurroq jalb etilishini va diqqatni uzoqroq saqlab turish imkoniyatini namoyon etadi.

Vizual tushunarlilik ham sezilarli darajada oshgani kuzatildi: an’anaviy qurilmalarda 3,3 ball, ergonomik qurilmalarda esa 4,6 ball qayd etildi. Bu natija qurilmadagi elementlarning rang kontrasti, ko‘rinish burchagi va mantiqiy joylashuvi o‘quvchilarning axborotni tezroq idrok etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini bildiradi.

Shuningdek, psixomotor muvofiqlashuv ko‘rsatkichlari ham ergonomik qurilmalarda yuqori natija berdi (3,0 balldan 4,2 ballgacha). Bu esa boshqaruv elementlarining mos hajmda va qulay joylashtirilganligi o‘quvchilarning tajribada faol ishtirok etishini, tezkor harakatlarni amalga oshirishni osonlashtirganidan dalolat beradi.


To‘rtinchi bosqichda olib borilgan tajriba-sinov ishlari davomida ergonomik jihatdan optimallashtirilgan qurilmalarning samaradorligi an’anaviy qurilmalar bilan taqqoslab o‘rganildi. Har ikki guruh o‘quvchilariga bir xil fizik mavzular asosida dars

masg'ulotlari tashkil etildi. Masg'ulotlar yakunida bilim o'zlashtirish darajasi maxsus testlar yordamida baholandi.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ergonomik qurilmalardan foydalangan guruhda o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Quyida taqqoslash natijalari va bilim o'zlashtirish ko'rsatkichlari foizlarda ifodalangan diagrammalar orqali keltirilgan.


1-diagramma

O'zgarishlarni taqqoslash diagrammasi



2-diagramma

Tajriba-sinov natijalari (bilim o'zlashtirish foizi)





Tajriba-sinov ishlari natijasida nazorat guruhi oʻrtacha 68% bilim oʻzlashtirish darajasiga ega boʻldi. Bu guruhda oʻquvchilar anʼanaviy namoyish tajriba qurilmalaridan foydalandi. Tajriba davomida kuzatishlar shuni koʻrsatdiki:

- Vizual tushunarlilik past boʻlgani sababli, ayrim murakkab tushunchalarni idrok etishda qiyinchiliklar kuzatildi.
- Qurilmalarning koʻrish burchagi va elementlar joylashuvi optimal emasligi oʻquvchilar diqqatining tez yoʻqolishiga sabab boʻldi.
- Toliqish darajasi yuqoriroq boʻlib, dars oxiriga kelib motivatsiya pasaydi.

Tajriba guruhi esa ergonomik tamoyillarga asoslangan optimallashtirilgan qurilmalar bilan ishladi va 85% bilim oʻzlashtirish darajasiga erishdi. Bu koʻrsatkich avvalgi holatga nisbatan 17% yuqoriroq natijani anglatadi. Kuzatishlar quyidagilarni koʻrsatdi:

- Qurilmalar koʻrish burchagi, rang kontrasti va boshqaruv elementlari joylashuvi boʻyicha ergonomik talablar asosida ishlab chiqilgani sababli mavzu tezroq tushunildi.
- Tushuntirish jarayonida interaktiv elementlarning (masalan, oʻquvchilarning qurilmani oʻzlari boshqarishi) jalb qilinishi bilimlarni eslab qolish samaradorligini oshirdi.
- Oʻquvchilarning diqqat, idrok va psixomotor koʻnikmalari rivojlanib, bu dars davomida faollikni ushlab turishga yordam berdi.

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, ergonomik qurilmalar qoʻllanilganda oʻquvchilar mavzuni 15-20% tezroq tushunadi, dars davomida toliqish darajasi kamayadi hamda ularning motivatsiyasi va faolligi oshadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, fizikadan namoyish tajribalarini ergonomik tamoyillar asosida loyihalash va oʻtkazish ularning didaktik funksiyalari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ergonomik yondashuv nafaqat qurilmalarning texnik qulayligini, balki oʻquvchilarning psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini hisobga olish orqali bilim oʻzlashtirish sifatini ham yaxshilaydi.

Maktab sharoitida oddiy va arzon materiallar asosida ergonomik talablarga javob beruvchi qurilmalarni yaratish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni taʼminlaydi, balki oʻquvchilarning ijodkorligi, tashabbuskorligi va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda ham muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

MUHOKAMALAR

Fizika darslarida namoyish tajribalarining samaradorligi nafaqat qurilma texnik imkoniyatlariga, balki uning ergonomik talablarga mos darajada loyihalashiga ham bogʻliq. Ergonomik yondashuv oʻquvchilarning diqqatini markazlashtirish, vizual

idrokni optimallashtirish va kognitiv yuklamani muvozanatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan, dars jarayonida vizual materiallarning ko‘rinish burchagi, rang kontrasti, yorug‘lik darajasi va boshqaruv elementlarining intuitiv joylashuvi o‘quvchilarning idrok tezligini va bilimlarni eslab qolish samaradorligini oshiradi.

Wickens nazariyasi va Norman prinsiplari ta‘lim jarayonida texnik vositalarni loyihalash va joylashtirishda o‘quvchi ehtiyojlarini birlamchi omil sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Bu yondashuv darsning interaktivligini kuchaytiradi, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlaydi va ularni passiv kuzatuvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi. Shuningdek, ergonomik jihatdan puxta o‘ylangan qurilmalar o‘qituvchining ish unumdorligini oshiradi, darsni boshqarish va jarayonni tushuntirishni yengillashtiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, namoyish tajribalarining didaktik funksiyalari ya‘ni axborot berish, motivatsiya, nazorat va rivojlantirish – ergonomik optimallashtirish orqali yanada samarali amalga oshiriladi. Shu sababli, ta‘lim vositalarini ishlab chiqishda ergonomik talablarga qat‘iy amal qilish, psixologik-pedagogik omillarni inobatga olish va qurilma dizaynini o‘quv jarayonining tabiiy ritmiga moslashtirish zamonaviy fizika ta‘limining sifat ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, fizikadan namoyish tajribalarni ergonomik tamoyillar asosida tashkil etish ta‘lim jarayonining psixologik va pedagogik samaradorligini kompleks ravishda oshiradi. Ergonomik yondashuv o‘quv jarayonida uch asosiy omil axborotning vizual qabul qilinishi, kognitiv yukni boshqarish va o‘quvchi faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari – o‘zaro uyg‘un ishlashini ta‘minlaydi.

Pedagogik amaliyotda namoyish tajribalari o‘quvchilarni nafaqat passiv kuzatuvchi, balki faol ishtirokchiga aylantirishi uchun tajriba qurilmalari o‘quvchining psixofiziologik imkoniyatlariga mos bo‘lishi zarur. Ergonomik jihatdan optimallashtirilgan tajriba muhiti o‘quvchilarda kognitiv yuklamani kamaytiradi, shu orqali mavzuga oid axborotni tez va aniq qabul qilish, qayta ishlash va eslab qolish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, namoyish tajribalarda ergonomik elementlarning uyg‘un qo‘llanishi diqqatni boshqarish, idrokni faollashtirish, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi ko‘plab ta‘limiy maqsadlarni samarali amalga oshirishga imkon beradi. Bu yondashuv

didaktik funksiyalar o‘rtasida muvozanatni saqlashda ham asosiy omil hisoblanadi.

Ergonomik tamoyillarning psixologik-pedagogik ahamiyati shundaki, ular namoyish tajribalarining ta’limiy salohiyatini maksimal darajada ochib berishga yordam beradi. Bu tamoyillar o‘quvchilarning idrok va diqqat jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘qitishning interaktivligini oshirish hamda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratadi. Natijada, fizikadan namoyish tajribalarining didaktik funksiyalari samaradorligi oshadi va o‘quv jarayoni zamonaviy pedagogik talablarga mos ravishda rivojlanadi.

Olingan natijalar ergonomik yondashuvning nafaqat o‘quv samaradorligini, balki o‘quvchilarning motivatsiyasi, ijodiy faoliyati va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini ham rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bois ergonomik tamoyillarni fizikadan namoyish tajribalarini loyihalash va qo‘llash jarayoniga tizimli integratsiya qilish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Millar R. The Role of Practical Work in the Teaching and Learning of Science. High School Science Laboratories Role and Vision. – Washington DC: National Academy of Sciences, 2004. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3327211>
2. Comparison of laboratorial and traditional labs: The impacts of instructional scaffolding on the student experience and conceptual understanding // Phys. Rev. Phys. Educ. Res. <https://journals.aps.org/prper/abstract/10.1103/PhysRevPhysEducRes.17.01013>
3. Etkina E., Van Heuvelen A., Brookes D. T., Mills D. Role of Experiments in Physics Instruction – A Process Approach // The Physics Teacher. 2002. T. 40, № 6. – P. 351-355. DOI: 10.1119/1.1511592.
4. Aththibby A. R., Kuswanto H., Mundilarto M., Prihandono E. Improving motivation and science process skills through a mobile laboratory-based learning model // Cypriot Journal of Educational Sciences. 2021. T. 16, № 5. – P. 2292-2299. DOI: 10.18844/cjes.v16i5.6333.
5. Effects of an In-service Program on Biology and Chemistry Teachers’ Perception of the Role of Laboratory Work // Procedia – Social and Behavioral Sciences. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S18770428140680>
6. Mayer R. E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
7. Sweller J. Cognitive Load During Problem Solving: Effects on Learning //

- Cognitive Science. 1988. T. 12, № 2. – P. 257-285.
https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1207/s15516709cog1202_4
8. Bouquet F., Dauphin C., Bernard F., Bobroff J. Low-cost experiments with everyday objects for homework assignments // *Physics Education*. 2019. T. 54, № 2. – P. 025001. DOI: 10.1088/1361-6552/aaf6d6.
 9. Tsihouridis C., Vavougiou D. Experimental Environments in PER: A Critical and Comparative Evaluation of the International Literature –*Trends*. 2023. DOI: 10.1063/9780735425712_004.
 10. The teaching of Natural Sciences in kindergarten based on the principles of STEM and STEAM approach.
<https://www.researchgate.net/publication/366025568>
 11. Trna J., Novak P. Motivational Effectiveness of Experiments in Physics Education // *GIREP-ICPE-MPTL 2010. Teaching and Learning Physics Today: Challenges? Benefits? – Conference Proceedings*. Reims, France; Udine (Italy): University of Udine, 2014. – P. 410-417.
<https://www.researchgate.net/publication/267372219>
 12. Center on Education Policy. What Is Motivation and Why Does It Matter?. – Washington: George Washington University, Graduate School of Education and Human Development, 2012.
<https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED532670.pdf>
 13. Poppe N. et al. Low-cost experimental techniques for science education – A guide for science teachers.
https://projekte.chemiedidaktik.unibremen.de/salis_zusatz/material_pdf/lab_guide_low_cost_experiments_englisch.pdf
 14. Bachiorri A. et al. *Everyday Objects: Linking IBSE and ESD*. – 2009.
 15. Enhanced student learning in the introductory physics laboratory.
<https://www.researchgate.net/publication/230915351>.
 16. *Transduction and Science Learning: Multimodality in the Physics Laboratory // Designs for Learning*. <https://designsforlearning.nu/articles/10.16993/dfl.118>
 17. University of Johannesburg, Madlela B. An exploration on applied experiments in natural science education // *International Journal of Education Management and Development Studies*. 2025. T. 6, № 2. – P. 188-209. – DOI: 10.53378/ijemds.353210.
 18. Labriola J. T. *Human Factors and Ergonomics // Keywords in Design Thinking: A Lexical Primer for Technical Communicators & Designers / Ed. by J. C. K. Tham*. – The WAC Clearinghouse; University Press of Colorado, 2022. – P. 111-113. DOI: 10.37514/TPC-B.2022.1725.2.19.



19. The Design of Everyday Things.
https://en.wikipedia.org/wiki/The_Design_of_Everyday_Things
20. Wickens C. D., Gordon S. E., Liu Y. An Introduction to Human Factors Engineering. – New York: Addison Wesley Longman, 2002.
21. Kurbanov M. Uzluksiz ta’limda fizik eksperimentlarning didaktik funksiyalari samaradorligini oshirish. – 2012.
22. Omonqulova U., To‘raxonov F., Zamonova Sh. Fizika o‘qitishda namoyish tajriba qurilmalarini yasash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi // Tadbirkorlik va pedagogika. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2025. № 1. – P.100–112.
<https://inlibrary.uz/index.php/entreneurshippedagogy/article/view/6841>

TABIY FANLAR

KIMYO FANINI O‘QITISHDA JOZEF LUI GEY-LYUSSAK ILMIY IJODINI O‘RNI

RAXIMOV ALISHER XUDOYQULOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Umumiy kimyo va kimyo texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

E-mail: raximovalisher1974@gmail.com

UDK: 004.9:37.018.43

<https://orcid.org/0009-0003-3548-2951>

JURAYEV BOXODIR TURDALIYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog

kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Email: b.jurayev@dtpi.uz

Kalit so‘zlar:

probir, barometr, meteorologiya, gidrometr, magnit maydon, Sossyur o‘lchashi, havo shari, gigrometr, Arkueil, lojuard, kimyoviy falsafa, potash.

Annotatsiya:

Maktabda tabiatshunoslik fanlarini o‘rganar ekanmiz, bu fanlar asosida yotgan qonuniyatlar va hodisalar nafaqat ilmiy mazmunga, balki o‘ziga xos tarixiy jarayonlarga ham ega ekani ayon bo‘ladi. Bu qonuniyatlar uzoq yillik ilmiy izlanishlar, tajriba va kuzatuvlar, ayrim hollarda esa ziddiyatli siyosiy-ijtimoiy sharoitlarda olib borilgan sa‘y-harakatlar evaziga shakllangan. Ilmiy faoliyat taqiqlangan davrlarda ham, izchil va fidokorona mehnat tufayli hozirgi kunda foydalanilayotgan laboratoriya uskunalari, o‘quv darsliklarida uchraydigan ilmiy printsiplar yaratilib, takomillashtirib borilgan. Ushbu maqolada o‘z davrining murakkab siyosiy va ijtimoiy sharoitlarida ham ilm yo‘lidan qaytmagan, dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mashhur olim Jozef Lui Gey-Lyussakning hayoti, ilmiy merosi va maktabi haqida so‘z yuritiladi. Maqola, ayniqsa, tabiatshunoslik fanlariga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilar hamda oliy ta‘lim muassasalarining boshlang‘ich bosqichida tahsil olayotgan talabalar uchun ilm-fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish va mashaqqatlarni yengib o‘tishda ilhom manbai bo‘la oladi.

РОЛЬ НАУЧНОГО ТВОРЧЕСТВА ДЖОЗЕФА ЛУИ ГЕЙ-ЛЮССАКА В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ

Ключевые слова: пробир, барометр, метеорология, гидрометр, магнитное поле, измерение Соссюра, воздушный шар, гигрометр, Аркуэль, лоджуард, химическая философия, поташ.

Аннотация: Изучая естественные науки в школе, становится ясно, что закономерности и явления, лежащие в основе этих наук, имеют не только научное содержание, но и специфические исторические процессы. Эти закономерности сформировались за счет многолетних научных исследований, опыта и наблюдений, а в некоторых случаях и усилий, предпринятых в противоречивых социально-политических условиях. Даже в периоды, когда научная деятельность была запрещена, благодаря последовательному и самоотверженному труду создавались и совершенствовались используемые в настоящее время лабораторное оборудование, научные принципы, встречающиеся в учебниках. В этой статье рассказывается о жизни, научном наследии и школе известного ученого Джозефа Луи Гей-Люссака, который не свернул с пути науки даже в сложных политических и социальных условиях своего времени и внес огромный вклад в развитие мировой науки. Статья может стать источником вдохновения для учащихся, которые только начинают изучать естественные науки, и студентов, обучающихся на начальных этапах высших учебных заведений, в повышении интереса к науке и преодолении трудностей.

THE ROLE OF THE SCIENTIFIC CREATIVITY OF JOZEF LUI GEY-LUSSAK IN TEACHING CHEMISTRY

Keywords: probier, barometer, metrology, hydrometer, magnetic field, Saussure's measurement,

Abstract: When studying natural sciences at school, it becomes clear that the laws and phenomena underlying these sciences have not only scientific content but also unique historical processes. These regularities were formed through long-term scientific research, experience, and observations, and in some cases, through efforts undertaken in contradictory socio-political conditions. Even during periods when

balloon, hygrometer,
Arkuil, lapis,
chemical
philosophy,
potassium.

scientific activity was prohibited, due to consistent and dedicated work, laboratory equipment used today, scientific principles found in textbooks were created and improved. This article discusses the life, scientific heritage, and school of the famous scientist Joseph Louis Gay-Lussac, who did not deviate from the path of science even in the complex political and social conditions of his time and made a huge contribution to the development of world science. The article can be a source of inspiration, especially for students who have just started studying natural sciences and those studying in the early stages of higher education institutions, in increasing their interest in science and overcoming difficulties.

KIRISH

Barcha fanlar ichida kimyo fanining oʻrni beqiyosdir. Ayniqsa, tabiiy fanlar oʻzining qiziqarli jihatlari, moʻjizakor tajribalari bilan oʻquvchilarda katta qiziqish uygʻotadi. Bu jarayonda fan qanday oʻqitilishi, oʻqituvchining yondashuvi va metodlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kimyo oʻqitish metodikasi hozirda oliy taʼlim muassasalarida kimyo yoʻnalishi talabalari uchun asosiy fanlardan biri sifatida oʻqitilmoqda. Talaba ushbu fan orqali kimyo oʻqitish usullari bilan tanishar ekan, u kitoblardan oʻqigan va eshitgan mashhur olimlarning hayoti hamda ilm-fanga qoʻshgan hissasiga qiziqishi tabiiy holdir. Kimyo tarixidan maʼlumki, bu sohada juda koʻplab buyuk olimlar yashab ijod qilgan boʻlib, ularning qisqa umr ichida yaratgan ilmiy merosi yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi hisoblanadi [2].

Ushbu maqolada biz serqirra ilmiy izlanishlari bilan jahon ilm-fanida chuqur iz qoldirgan mashhur olim – Jozef Lui Gey-Lyussakning hayot yoʻliga nazar solamiz.

Jozef Lui Gey-Lyussak 1778-yil 6-dekabrda Fransiyada sudya oilasida tugʻilgan. U mashhur fransuz kimyogari va fizigi boʻlib, ilmiy faoliyatida yuqori lavozimlarda ishlagan hamda oʻsha davrning mashhur olimi Klod Lui Bertollening shogirdi boʻlgan. 1815-1850-yillarda u Fransua Arago bilan birgalikda Fransiyaning nufuzli “Annales de chimie et de physique” jurnaliga muharrirlik qilgan. Shuningdek, Gey-Lyussak “Bureau de Garantie”da probir (standartlashtirish boʻyicha mutaxassis) sifatida faoliyat yuritgan va hukumat komissiyalarining aʼzosi sifatida analitik laboratoriya asbob-uskunalari nazorat qilish, muhim texnik masalalarni hal etishda faol ishtirok etgan.

1816-yilda u qoʻl sifonli barometrni yaratib, uning tavsifini eʼlon qildi. Ushbu barometr keyingi davrlarda meteorologiyada keng qoʻllanildi [4]. 1822-yilda esa Gey-

Lyussak gidrometr (alkogolometr)ni taqdim etdi. Qizig'i shundaki, uning ishlash prinsipi bugungi kungacha deyarli o'zgarmagan.

Gey-Lyussak xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan keng ilmiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, Parijdagi Politexnika maktabida tahsil olgan. 1800-yilda esa eng yaxshi talabalardan biri sifatida mashhur kimyogar Bertolle laboratoriyasida ilmiy faoliyatini boshlagan. Keyinchalik Politexnika maktabining eng yuksak obro'li o'qituvchilaridan biri sifatida katta shuhrat qozongan.

ASOSIY QISM

Qadimgi yunon faylasuflari maktabi vakili Anaksimn borliqning asosi "havo"dan tashkil topgan, degan g'oyani ilgari surgan. Jozef Lui Gey-Lyussak ham atmosferani chuqur o'rganib, uning xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishga katta e'tibor qaratgan. U Yerning magnit maydoni va atmosfera haroratining balandlikka bog'liqligini aniqlash maqsadida havo sharida tajribalar o'tkazdi [3].

Bungacha Alp tog'larida Sossyur tomonidan, Gamburgda Robertson va Loening tomonidan, shuningdek, Sankt-Peterburgda Robertson va Zaxarov tomonidan o'tkazilgan tajribalarda balandlik oshgani sari magnit maydon kuchi biroz pasayishi kuzatilgan edi. Gey-Lyussak esa bu borada jasorat va ilmiy qiziqishni uyg'unlashtirdi. 1804-yil 16-sentyabr kuni ertalab u havo sharida 7016 metr balandlikka ko'tarilib, o'sha davr uchun jahon rekordini o'rnatdi. Tadqiqot davomida u balandlik bo'yicha havo haroratini o'lchab, yer yuzasidagi +27,75 °C bilan solishtirganda, yuqorida -9,5 °C ni qayd etdi. Bu natija eng baland tog' cho'qqilarini qoplab turgan qorlarning sovuqligi atrofdagi havoga ta'sir qilmaydi, balki balandlikning o'ziga xos fizik qonuniyatlari natijasida harorat pasayishini ilmiy asoslab berdi [4].

Bundan tashqari, Gey-Lyussak Sossyur ixtiro qilgan gigrometr yordamida havodagi nisbiy namlikni ham o'lchab, balandlik ortgani sari uning tez kamayib borishini aniqladi.

Olim gazlar ustida ham keng tadqiqotlar olib borgan. U gazlarning elastikligini harorat va bug'lanish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rgandi. Masalan, Dalton oddiy asboblarda yordamida harorat 0 °C dan 100 °C gacha oshganda havo hajmi dastlabki hajmdan 0,302 ga ko'payishini aniqlagan bo'lsa, Volta natijasi 0,38 ni tashkil etgan. Gey-Lyussak esa gazlarning issiqlik ta'sirida kengayishini matematik formula orqali ifodalab berdi:

$$V = V_0 (1 + \alpha t)$$

bu yerda:

- V_0 - boshlang'ich hajm,
- α -texnik koeffitsiyent,






– t-temperatura.

1806-yilda buyuk kimyogar Klod Lui Bertolle Parijda “Arcueil” deb nomlangan xususiy ilmiy jamiyatni tashkil etdi [4]. Jozef Lui Gey-Lyussak uning ilk a’zolaridan biri bo’ldi. Jamiyat tomonidan nashr etilgan to’planning birinchi jildida u 1805–1806-yillarda Yevropaga qilgan safari davomida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijalarini chop etdi.

“Arcueil” jamiyatining ikkinchi jildida esa Gey-Lyussak “Gazsimon moddalar o’zaro birikishi haqida” nomli qisqacha ilmiy maqolasini e’lon qildi. Ushbu maqolada keltirilgan xulosalar kimyo fanida ulkan yangilik bo’lib, keyinchalik “Gey-Lyussak qonuni” nomi bilan mashhur bo’ldi. Ilmiy adabiyotlarda bu qonun odatda “Hajmiy nisbatlar qonuni” deb yuritiladi.

Gey-Lyussak 1808-yilda shakllantirgan ushbu qonunga ko’ra: “O’zgarmas harorat va bosimda reaksiyaga kirishgan gazlarning hajmlari hamda reaksiya natijasida hosil bo’lgan gazlarning hajmlari o’zaro butun kichik sonlar nisbatida bo’ladi”.

Masalan:



Bu qonundan shunday xulosa chiqarish mumkin: gaz moddalar uchun reaksiyaga kirishayotgan gazlar hajmlari ularning mol soniga tengdir. Shu sababli, hajmiy nisbatlardan kimyoviy masalalar yechishda samarali foydalanish mumkin [5]. O’sha davrlarda zamonaviy atomistik nazariya endigina shakllanayotgan edi. Shu nuqtayi nazardan, Gey-Lyussakning xulosalari modda tuzilishini o’rganishda muhim poydevor bo’lib xizmat qildi. 1808-yilda nashr etilgan qonunning dastlabki ta’rifida u: “Gazlar bir-biriga ta’sir qilib, oddiy nisbatlarda birlashadi”, deb ta’kidlagan.

1807-yilda esa kimyo tarixida muhim voqea yuz berdi. Berselius, Xizinger va Devi volt ustuni yordamida potash (K_2CO_3) va soda (Na_2CO_3) eritmalaridan yangi metall elementlarni – kaliy va natriyni olishga muvaffaq bo’ldilar. Bu metallarning mum kabi yumshoqligi, suvda suzishi, o’z-o’zidan yonishi va yorqin alangada yonishi olimlarni hayratga soldi. Ushbu kashfiyotdan manfaatdor bo’lgan imperator Napoleon

Politehnika maktabi uchun yirik volt ustuni tayyorlashga katta mablag' ajratdi.

Gey-Lyussak va Tenar ushbu sharoitda tajribalar o'tkazib, kaliy va natriyni kimyoviy yo'l bilan yetarli miqdorda olish mumkinligini ko'rsatdilar. Ular yangi metallarning kimyoviy xossalarini sinchiklab o'rganib, o'sha davrda ma'lum bo'lgan moddalar bilan reaksiyaga kirishishini tekshirib chiqdilar. Tadqiqotlar davomida ular borat kislotani (H_3BO_3) parchalash orqali keyinchalik "bor" deb nomlangan yangi elementni ham kashf etdilar. 1813-yil dekabrda olimlar o'z tadqiqotlari haqida ilmiy ma'ruza qildilar.

Shu davrda Parijga maxsus kelgan ingliz olimi Devi ham yangi moddani tekshirish bilan shug'ullandi. Gey-Lyussak esa o'ziga berilgan oz miqdordagi yod moddasini o'rganib, uning oddiy element ekanini isbotladi. U yodning vodorod va kislorod bilan reaksiyaga kirishib, ikki xil kislota hosil qilishini aniqladi. Shuningdek, u yod va xlor kimyoviy xossalarining o'xshashligini alohida ta'kidladi.

1815-yilda Gey-Lyussak rassomchilik va to'qimachilik sanoatida keng qo'llaniladigan Berlin lazuri (Prussiya ko'ki, $KFe[Fe(CN)_6]$ yoki $Fe_4[Fe(CN)_6]_3$)ni tadqiq eta boshladi. Bu modda avvalroq Maker, Giton de Morvo, Bergman, Sheele, Bertolle, Prust va Porre kabi olimlarning ham e'tiborini tortgan edi. 1815-yil 18-sentyabrda Gey-Lyussak Berlin lazurining kimyoviy xossalari haqida ilmiy ma'ruza qildi. Unda u Berlin lojuvardidan ajratib olingan va Giton de Morvo tomonidan "sinil" deb atalgan kislota ustida ham to'xtalib o'tdi.

Gey-Lyussak "momaqaldiroq" hodisasini ham sodda va tushunarli tarzda izohlagan. Uning fikricha, elektr zaryadi havoda keng tarqaladi, momaqaldiroqli bulutlar esa qattiq jism xususiyatiga ega bo'lgani sababli elektr energiyasi tashqariga chiqishga intiladi. Bulutlar yuzasida to'plangan elektr zaryadlari havoning qarshiligini yengib o'tib, uzun elektr uchqunlarini hosil qiladi.

U shuningdek, Vezuviy vulqonining otilishini kuzatib, muhim geologik xulosalar chiqargan. Olimning fikricha, vulqon faolligi jarayonida vodorod va xlorid kislotasi hosil bo'ladi va ular yerdan chiqayotgan gazlarda aniqlangan.

Gey-Lyussak turli moddalar uchun areometr – ya'ni suyuqlik va qattiq jismlarning zichligini o'lchaydigan asbob – darajalash jadvallarini tuzishga olti oy davomida mehnat qilgan. Bundan tashqari, u sulfat kislotani ishlab chiqarishning oddiy va xavfsiz usulini taklif qilib, kimyo sanoatining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, oltinni misdan ajratib olishning qulay usulini ham ixtiro qilgan [4].

"Kimyoviy falsafa" asari muallifining ta'kidlashicha, zamonaviy ilm-fan shakllanayotgan davrda olimning shaxsiy fazilatlari ham muhim ahamiyatga ega edi. Chunki bu davr hali asriy xurofot va noto'g'ri qarashlar bilan to'qnash kelayotgan



davr edi.

Tarixiy jihatdan qaraganda, XVI-XVII asrlarda fransuz millati shakllandi va fransuz tili yagona til sifatida mustahkamlandi. XVIII asr oxirida esa Buyuk Fransuz inqilobi (1789-1799) natijasida monarxiya ag‘darilib, respublika tizimi o‘rnatildi. Keyinchalik, Napoleon Bonapartning imperiyasi (1799-1815) davrida ko‘plab bosqinchilik urushlari olib borildi. 1830-yillarda Lui Filipp davrida monarxiya qayta tiklandi. XVIII asr oxiri Fransiya uchun siyosiy va iqtisodiy inqirozlar bilan to‘la bo‘ldi.

Fransuz inqilobi, Napoleonning imperatorlik davri, undan keyin 1815-1848-yillarda davom etgan siyosiy beqarorlik, 1848-yilgi ikkinchi inqilob va sanoat inqilobining boshlanishi – bularning barchasi Fransiyaning modernizatsiya va shakllanish bosqichlarini tashkil etdi.

Aynan shu murakkab tarixiy davrda yashab, ilmiy faoliyat olib borgan Gey-Lyussak o‘zining ilmiy ishlari, kashfiyotlari va amaliy ixtirolari bilan dunyo miqyosida mashhur bo‘ldi.

Aksariyat zamondoshlar Gey-Lyussakni nafaqat buyuk olim, balki inson sifatida ham halolligi va qat‘iyati bilan eslashadi. U o‘ziga ham, hamkasblariga ham, hatto ilmiy muxoliflariga nisbatan ham talabchan edi. Ularning shaxsiy hurmat-ehtiromi yoki ilmiy xizmatlariga qaramay, adolatli baho berishni o‘z burchi deb bilgan. Eng muhimi, Gey-Lyussak har doim o‘z xatolari va yanglishishlarini tan olishga, agar ular aniqlansa, ularni oshkora e‘lon qilishga jur‘at topardi.

Uning xarakteriga xos bo‘lgan yana bir fazilat – shaxsiy qo‘rqmaslik edi. Bu fazilat nafaqat xavfli tajribalar o‘tkazishda, balki yaqinlari va hamkasblarini siyosiy qatag‘on va senzura tahdididan himoya qilishda ham namoyon bo‘lgan. Doimo jiddiy va vazmin bo‘lgan Gey-Lyussak ajoyib o‘qituvchi sifatida ham e‘tirof etilgan: u fikrlarini soddaligi, tushunarlilik bilan bayon etar, o‘sha davr uchun odatiy bo‘lgan dabdabali iboralardan qochardi. Shu bois uning barcha ilmiy ishlari ham aniq, lo‘nda va sodda tilda yozilgan.

Gey-Lyussak fransuz tilidan tashqari italyan, ingliz va nemis tillarini ham mukammal bilgan. Yaxshi xotirasi tufayli u ma‘ruzalarni qog‘ozsiz, o‘z so‘zlari bilan o‘qir, bu esa o‘sha davr an‘anasiga zid tarzda tinglovchilar uchun yanada qiziqarli bo‘lgan.

Tabiatshunoslik fanlari tarixida kam uchraydigan darajada jasoratli shaxs bo‘lgan Gey-Lyussakning sog‘lig‘i umuman olganda mustahkam edi. Biroq ko‘plab kimyoviy tajribalar vaqtida olgan jarohatlari umrining oxiriga qadar unga azob berdi. 1808-yil 3-iyunda u tajriba paytida bir ko‘zini kuydirib qo‘ydi, tez orada kaliy bilan ishlash jarayonidagi portlash oqibatida butunlay ko‘r bo‘lib qoldi. Keyingi bir yil

davomida yorug'likka chidash qiyin bo'ldi va umri oxiriga qadar uning ko'zlari zaif hamda doim qizarib qoladigan bo'ldi.

Hayotining so'nggi yillarida esa gazsimon uglevodorodlarni o'rganish jarayonida shisha idish portlashi oqibatida qo'lidan og'ir jarohat oldi. Ba'zi shifokorlar aynan shu jarohat uning bevaqt o'limiga sabab bo'lgan deb hisoblashadi.

1802-yilda Gay-Lyussak Jon Dalton bilan bir vaqtda, lekin undan mustaqil ravishda gazlarning issiqlik ta'sirida kengayish qonunini kashf etdi. Bu qonunga ko'ra, o'zgarmas bosim ostida gaz hajmi uning harorati bilan chiziqli ravishda ortadi yoki kamayadi. Ya'ni, harorat oshishi bilan gaz hajmi ortadi, harorat pasayishi bilan esa hajm kamayadi. Ushbu qonun ideal gazlar uchun to'g'ri keladi va quyidagi matematik formula bilan ifodalanadi:

$$V = V_0 (1 + \alpha \Delta T)$$

Bu yerda:

V – yakuniy hajm,

V_0 – boshlang'ich hajm,

α – gazning issiqlik kengayish koeffitsiyenti (barcha gazlar uchun taxminan $1/273,15 \text{ K}^{-1}$ ga teng),

ΔT – harorat o'zgarishi ($T - T_0$).

Xuddi shu yili Gay-Lyussak Luy Tenar bilan birgalikda qimmatli natijaga erishdi: ular o'yuvchi kaliy yoki o'yuvchi natriyni temir qirindilari bilan qizdirish orqali kaliy va natriy metallarini olish usulini ishlab chiqishdi. Bundan tashqari, kuchli galvanik batareyaning kimyoviy ta'sirini o'rganib, sezilarli miqdorda ishqoriy metall olish imkoniyatini topdilar. Shuningdek, ular borat angidridni kaliy bilan qizdirib, erkin borni ajratib oldilar (metallotermiya usuli) va kaliy hamda natriyning elementar tabiatini isbotladilar.

1811-yilga kelib yosh kimyogar Bernar Kurtua dengiz o'tlari kulidan yangi, o'sha davrda noma'lum moddani topdi. Uning bug'lari g'ayrioddiy binafsha rangda bo'lgani sababli Gay-Lyussak uni "yod" deb atashni taklif qildi. Gay-Lyussak oz miqdorda olingan yod ustida tajribalar o'tkazib, uning kimyoviy xossalarini chuqur o'rgandi. Natijada yod oddiy modda ekanini aniqladi, shuningdek, vodorod bilan – vodorod yodid, kislorod bilan esa yuqori oksid hamda ikki xil yod kislotasi hosil qilishini ko'rsatdi. Olim xlor va yodning kimyoviy o'xshashliklarini alohida ta'kidladi.

1814-yilda Gay-Lyussak va Gemfri Devi deyarli bir vaqtda yodning xlor singari mustaqil kimyoviy element ekanini ilmiy asoslab berishdi. Gay-Lyussak aynan shu davrda yod birikmalarini, jumladan vodorod yodidni olishga muvaffaq bo'ldi. 1815-yilda esa u toza sianid kislotani ajratib olib, uning murakkab sian radikalining

vodorodli birikmasi ekanini taxmin qildi. Bu modda keyinchalik “sinerod” nomi bilan mashhur bo‘ldi (masalan, kaliy temir-sinerodli birikmalarida).

Gay-Lyussak sianid kislotasini (HCN) sof holda ajratib olib, u aslida murakkab sian radikalining vodorodli birikmasi ekanligini taxmin qildi. 1815-yilda u rang-tasvir va to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llaniladigan “Prussiya ko‘k” bo‘yoq moddasini (temir(III) geksatsianoferrat, $\text{Fe}_7(\text{CN})_{18}$) o‘rganishni boshladi. 1815-yil 18-sentyabrda o‘z tadqiqotlari natijalarini e‘lon qildi va Prussiya ko‘kdan ajratib olingan hamda Guyton de Morvo tomonidan “gidrosian kislota” (HCN) deb atalgan modda haqida ham ma‘lumot berdi. Gay-Lyussak bu kislota tarkibidan gazni ajratib olishga muvaffaq bo‘ldi va uni sianogen deb nomladi. U sianogen azot va uglerod birikmasi, gidrosian kislota esa sianogenning vodorodli birikmasi ekanligini ilmiy asoslab berdi. Bundan tashqari, u sianogenning xlor bilan qo‘shilishidan sianogen xloridni ham olishga muvaffaq bo‘ldi.

Gay-Lyussakning Prussiya ko‘k bo‘yicha olib borgan ishlari o‘sha davr uchun ikki muhim kashfiyotga olib keldi:

1. Sianogenning murakkab modda sifatida oddiy elementlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni (vodorod, xlor va metallar bilan o‘zaro ta‘sir qilish qobiliyati) namoyon etishi.
2. Gidrosian kislotaning kuchli zaharligi, garchi uni tashkil etuvchi oddiy moddalar – azot (havoning tarkibi), vodorod (suv tarkibi) va uglerod (ko‘mir tarkibi) – mutlaqo zararsiz hisoblangan bo‘lsa ham.

1815-yilda Gay-Lyussak Yens Berselius va Iogann Debereyner bilan bir vaqtda organik elementlarni tahlil qilish usulini takomillashtirdi. U organik moddalarni yondirishda mis oksididan foydalanishni joriy etdi. Keyinchalik, 1824-1832-yillar oralig‘ida titrlash usullarini – alkalimetriya, atsidimetriya va xlorometriyani mukammallashtirdi.

Gay-Lyussakning amaliy kimyoga qo‘shgan xizmatlaridan yana biri – 1827-yilda u sulfat kislota ishlab chiqarishda qo‘llanadigan, qo‘rg‘oshin kameralaridan chiqadigan azot oksidlarini ushlab qoluvchi maxsus minorani ixtiro qildi. Bu minora keyinchalik “Gay-Lyussak minorasi” nomi bilan mashhur bo‘ldi va sanoatda birinchi marta 1842-yilda qo‘llanildi.

1819-yilda u turli tuzlarning suvda eruvchanligini o‘rganib, birinchi eruvchanlik diagrammalarini tuzdi. Natijada suvsiz natriy sulfat va uning o‘n suvli gidrat shakli uchun ikki xil alohida eruvchanlik egri chizig‘i mavjudligini aniqladi.

Gay-Lyussakning ilm-fanga qo‘shgan katta hissasi e‘tirof etilib, Oy sirtidagi kraterlardan biriga uning nomi berilgan.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Jozef Lui Gey-Lyussakning ilmiy merosi va hayot yo‘li nafaqat yosh o‘qituvchilar, balki tabiiy fanlardan o‘qituvchilik kasbini orzu qilayotgan bitiruvchi talabalar uchun ham ibrat maktabi bo‘la oladi. Gey-Lyussak kimyo, fizika, matematika, biologiya va geografiya fanlarini chuqur egallab, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ilmiy asoslashga muvaffaq bo‘lganini ko‘ramiz. Olimning ilmiy faoliyati, shaxsiy fazilatlari va hayot davomida duch kelgan qiyinchiliklarni yengib o‘tishdagi matonati bugungi kunda ham yoshlarga o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Umarov, B. B. Kimyo tarixi : darslik. – Toshkent : Navro‘z, 2015. – 576 b.
2. Raximov, A. X. Kimyo o‘qitish metodikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar: o‘quv qo‘llanma. – Denov, 2025.
3. Nuralieva, G. A. Kimyo tarixi : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Mumtoz so‘z nashriyoti, 2019. – 200 b.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Гей-Люссак, Жозеф Луи>
5. Parpiyev, N. A. Anorganik kimyo. – Toshkent : O‘zbekiston, 2003.

PEDAGOGIKA

TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

JO'RAYEV NURALI XOLMAXAMADOVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Email: n.jurayev@dtpi.uz

Tel.: +998 91 232-01-11

UDK: 378:004:681:375(575.1)

<https://orcid.org/0009-0001-1219-5066>

Kalit so'zlar:

sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyasi, moslashuvchan ta'lim, aqlli repetitorlik tizimlari, raqamli ta'lim, pedagogikada sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan baholash.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari atroflicha o'rganiladi. Asosiy e'tibor sun'iy intellektning o'qitish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi, shuningdek, shaxsiylashtirilgan yondashuvni joriy etish va ta'lim jarayonidagi ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirishdagi o'rniga qaratiladi. Maqolada, shuningdek, sun'iy intellektning innovatsion pedagogik uslublar bilan integratsiyalashuvi, uning o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlariga ko'rsatadigan potentsial ta'siri va uni amaliyotga tatbiq etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy va ijtimoiy muammolar chuqur tahlil qilinadi. Mavjud ilmiy tadqiqotlar, amaliy tajribalar va statistik ma'lumotlar asosida maqola sun'iy intellektga asoslangan ta'lim texnologiyalarining istiqboldagi imkoniyatlari hamda ularning ta'lim tizimiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'siri haqida kengroq tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Ключевые слова:

искусственный интеллект, образовательные

Аннотация: В данной статье подробно рассматриваются научно-теоретические основы использования технологий искусственного интеллекта в современном образовательном процессе. Основное внимание будет

технологии, гибкое обучение, интеллектуальные репетиторские системы, цифровое обучение, искусственный интеллект в педагогике, автоматизируемое оценивание. уделено роли искусственного интеллекта в повышении эффективности обучения и образования, а также внедрении персонализированного подхода и автоматизации административных задач в образовательном процессе. В статье также глубоко анализируется интеграция искусственного интеллекта с инновационными педагогическими методами, его потенциальное влияние на возможности обучения учащихся и этические и социальные проблемы, которые могут возникнуть в процессе его применения на практике. Основываясь на существующих научных исследованиях, практическом опыте и статистических данных, статья служит для получения более широкого представления о будущих возможностях образовательных технологий, основанных на искусственном интеллекте, и их потенциальном влиянии на систему образования.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Keywords:

artificial intelligence, educational technology, adaptive learning, smart tutoring systems, digital education, artificial intelligence in pedagogy, automated assessment.

Abstract:

In this article, the scientific and theoretical foundations of the use of artificial intelligence technologies in the modern educational process are studied in detail. The main focus will be on the role of artificial intelligence in increasing the effectiveness of teaching and learning, as well as the introduction of a personalized approach and the automation of administrative tasks in the educational process. The article also thoroughly analyzes the integration of artificial intelligence with innovative pedagogical methods, its potential impact on students' learning opportunities, and the ethical and social problems that may arise in the process of its practical application. Based on existing scientific research, practical experience, and statistical data, the article serves to form a broader understanding of the future capabilities of educational technologies based on artificial intelligence and their potential impact on the education system.

KIRISH

Bugungi kunda sun'iy intellektning ta'lim tizimlariga integratsiyalashuvi an'anaviy pedagogik paradigmalardan ma'muriy jarayonlarni o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu evolyutsion jarayon sun'iy intellektning ta'limdagi ko'p qirrali qo'llanilishi va uning oqibatlarini yoritib beruvchi mustahkam ilmiy-nazariy asos bilan ta'minlanmoqda.

Empirik ma'lumotlar sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim muassasalarida jadal sur'atlar bilan joriy etilayotganini tasdiqlaydi. 2024-yil holatiga ko'ra, global ta'lim bozoridagi sun'iy intellekt ulushi taxminan 5,88 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Prognozlarga ko'ra, 2025-yildan 2030-yilgacha bozorning yillik o'sish sur'ati (CAGR) 31,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda va 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 32,27 milliard dollarga yetadi. Intellektual repetitorlik tizimlari, moslashtirilgan o'quv platformalari kabi sun'iy intellektga asoslangan vositalar ta'lim mazmunini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtiradi. Bu esa o'quvchilarning faolligi va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasiga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda [1, 78].

Ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, u o'quv yordamini ko'rsatish, ma'muriy samaradorlikni oshirish va talabalarni jalb qilish kabi jihatlarni qamrab oladi. 2024-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 37 foizi sun'iy intellektdan sinf materiallari – jumladan, testlar va topshiriqlarni tayyorlashda, 50 foizi esa darslarni rejalashtirishda foydalanayotganini bildirgan [3, 24]. Bundan tashqari, universitetlarning 31 foizi interfaol va shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasi orqali talabalar faolligini oshirish maqsadida sun'iy intellektga asoslangan ilovalarni joriy qilgan.

Ushbu yutuqlarga qaramay, sun'iy intellektning ta'lim sohasiga integratsiyalashuvi hali ham bir qator muammolardan holi emas. Jumladan, akademik halollik bilan bog'liq xavotirlar tobora ortib bormoqda – o'qituvchilarning taxminan 70 foizi topshiriqlarda sun'iy intellektdan foydalanishni plagiatning bir shakli sifatida baholaydi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt siyosatini ishlab chiqish va joriy etishdagi nomutanosibliklar ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Xususan, mavjud ma'lumotlarga ko'ra, maktablarning 37 foizida sun'iy intellektdan foydalanishga doir aniq tartib-qoidalar mavjud emas. Bu esa amaliyotda nomuvofiqlik, tartibsizlik va axloqiy jihatdan xavf tug'diruvchi holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Kelajak istiqbollari nazar tashlaganda, ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanish traektoriyasi o'qitish metodologiyasi va o'quv

jarayonida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirishi kutilmoqda. 2030-yilga borib sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim infratuzilmalariga uzluksiz integratsiyalashuvi prognoz qilinmoqda. Bu esa nafaqat shaxsiylashtirilgan ta'limni rivojlantiradi, balki real vaqt rejimida tahlil imkoniyatlari orqali o'quv strategiyalari va siyosiy qarorlarni yanada puxta asoslashga xizmat qiladi [5, 92].

Bunday o'zgarishlar sharoitida sun'iy intellektni ta'limda samarali qo'llash uchun uning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur va har tomonlama tushunish zarur bo'ladi. Bu esa nafaqat mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, balki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash va ularni yumshatish yo'llarini ishlab chiqishni ham taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola o'quv jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qiladi, mavjud empirik dalillar, joriy amaliyotlar hamda istiqbolli prognozlarni o'rganadi. Sun'iy intellekt va ta'limning kesishgan nuqtalarini tanqidiy yondashuv asosida tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot axloqiy, amaliy va siyosiy masalalarni yoritadi hamda ta'lim natijalarini yaxshilash yo'lida sun'iy intellektni integratsiyalashni optimallashtirishga doir konseptual tushunchalar taqdim etishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun'iy intellektning ta'lim jarayonlariga integratsiyalashuvi keng qamrovli tarzda o'rganilib, uning transformatsion salohiyati hamda yuzaga keltirayotgan dolzarb muammolari aniqlangan. Ushbu bo'limda ta'limda sun'iy intellektni qo'llash bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi va ushbu sohadagi tadqiqotlarni o'rganishda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar yoritiladi.

Mavjud ilmiy manbalarni har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda ta'limning turli jabhalarida – jumladan, shaxsiylashtirilgan o'quv yondashuvi, intellektual repetitorlik tizimlari va ma'muriy samaradorlikni oshirish kabi yo'nalishlarda keng qo'llanilmoqda. Masalan, Chen va hamkorlarining tizimli tadqiqotida sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv mazmunini taqdim etish orqali o'quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligi ta'kidlangan [1].

Xuddi shunday, boshqa tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, aqlli repetitorlik tizimlari tezkor fikr-mulohaza berish va muammoni hal etishga yo'naltirilgan moslashuvchan strategiyalar orqali inson repetitorligiga yaqinlashgan modelni taqdim etadi, bu esa talabalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. VanLehn tomonidan olib borilgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt asosidagi repetitorlik



tizimlaridan foydalanayotgan talabalar an'anaviy repetitorlik orqali o'qiyotgan tengdoshlari bilan taqqoslanadigan bilim yutuqlariga erishadilar; ta'sir kattaligi 0,76 dan 0,79 gacha bo'lgan [2, 112].

Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, sun'iy intellektning ta'lim sohasida qo'llanilishiga doir muhim muammolar, ayniqsa, axloqiy oqibatlar bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik va raqamli tafovut kabi muammolar zamonaviy ta'lim muhitida jiddiy e'tibor talab etadi. AQSh Ta'lim Departamentining hisobotida tarafkashlikni kamaytirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan adolatli foydalanishni ta'minlash zarurligi ta'kidlangan, ayniqsa kam vakillik qiluvchi yoki ijtimoiy jihatdan chetda qolgan talaba qatlamlari nuqtai nazaridan [4, 56].

Bundan tashqari, sun'iy intellekt vositalarining tez sur'atda o'zlashtirilishi ba'zi hollarda ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha yetarli ko'rsatmalar ishlab chiqilmasligiga olib kelmoqda. Natijada, ko'plab ta'lim muassasalarida sun'iy intellektidan foydalanishda izchillik va tizimlilik yetishmayapti.

NATIJALAR

Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ilovalari, xususan, aqli repetitorlik tizimlari va moslashuvchan o'quv platformalari o'quvchilarning ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'rtacha ta'sir hajmi 0,67 (95% CI: 0,58-0,76) deb baholangan. Biroq sezilarli darajadagi heterojenlik ($I^2 = 72\%$) turli kontekstlar va joriy etish holatlarida samaradorlikning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

Sifatli topilmalar sun'iy intellektning ta'limdagi axloqiy jihatlarini hal qilish muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlarda ko'pincha ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq tahdidlar va algoritmik noto'g'riliklar yuzaga kelishi mumkinligi qayd etilgan.

Oldinga nazar tashlaganda, 2030 yilga borib sun'iy intellekt ta'lim infratuzilmasiga chuqur integratsiyalashuvi kutilmoqda. Bu esa nafaqat shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasini rivojlantiradi, balki o'quv strategiyalari va siyosiy qarorlar qabul qilishda real vaqt rejimidagi tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

Bunga erishish uchun mustahkam axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan adolatli foydalanishni ta'minlash lozim. Bu orqali potensial xavflarni minimallashtirish bilan birga undan olinadigan foydani maksimal darajada oshirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu adabiyotlar tahlili va metodik yondashuv ta'limda sun'iy intellektni integratsiyalashning ilmiy-nazariy asoslarini har tomonlama

o'rganadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayonlarini takomillashtirish borasida istiqbolli imkoniyatlar va hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb masalalarni aniqlab beradi.

MUHOKAMALAR

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga integratsiyalashuvi katta e'tiborni tortmoqda va o'qitish hamda o'rganish metodologiyasiga transformativ ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu munozara empirik ma'lumotlar va prognozlar bilan asoslangan holda sun'iy intellektning ta'limdagi rolini ilmiy va nazariy jihatdan o'rganadi.

1. *Sun'iy intellekt orqali shaxsiylashtirilgan ta'limni yaxshilash:* Sun'iy intellektga asoslangan platformalar ta'lim mazmunini o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirib, shaxsiylashtirilgan o'rganish jarayonida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Moslashuvchan ta'lim tizimlari real vaqt rejimida o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, o'qitishning murakkabligi va tezligini ularga mos tarzda sozlaydi.

Masalan, aqlli repetitorlik tizimlari inson repetitorlari bilan taqqoslanadigan darajadagi samaradorlikni namoyon etdi. O'tkazilgan meta-tahlillar ta'sir o'lchovini 0,79 gacha deb baholab, bu natijalar sun'iy intellekt vositalarining o'quvchilarning ta'lim yutuqlarini sezilarli darajada yaxshilayotganini ko'rsatmoqda [7, 82].

Bundan tashqari, sun'iy intellektning katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash salohiyati o'rganish naqshlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa ortda qolish xavfi bo'lgan o'quvchilarga erta aralashuvni amalga oshirishni osonlashtiradi. Bashoratli tahlillar yordamida akademik muammolar oldindan aniqlanishi mumkin bo'lib, bu o'qituvchilarga o'z vaqtida samarali choralar ko'rishga imkon beradi.

2025 yilga kelib, sun'iy intellekt har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga mos keluvchi giper-shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini yaratishda ajralmas vositaga aylanishi kutilmoqda.

2. *Sun'iy intellektning ma'muriy samaradorlikdagi roli:* O'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashdan tashqari, sun'iy intellekt ma'muriy vazifalarni soddalashtirish orqali institutsional samaradorlikni oshiradi. Davomatni kuzatish, baholash va rejalashtirish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimlar o'qituvchilar zimmasidagi ma'muriy yukni kamaytiradi hamda ularga talabalar bilan bevosita ishlashga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi.

So'rov natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 50 foizi sun'iy intellektdan darslarni rejalashtirishda, 44 foizi esa tadqiqot maqsadlarida foydalanadi. Bu esa sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi ish oqimlarini optimallashtirishdagi ortib borayotgan



rolini yaqqol ko'rsatadi.

3. *Xususiylik va foydalanish imkoniyati*; Sun'iy intellekt texnologiyalari teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish orqali ta'limdagi ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish salohiyatiga ega. O'qituvchilarning taxminan 42 foizi sun'iy intellekt yanada adolatli ta'lim tizimini shakllantirishga hissa qo'shadi, deb hisoblaydi.

Sun'iy intellektga asoslangan vositalar resurslar cheklangan hududlardagi talabalarga shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatish orqali mavjud imkoniyatlar tengsizligini yumshatishi mumkin. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan repetitorlik tizimlari tajribali o'qituvchilarga ega bo'lmagan o'quvchilarga sifatli bilim berishi va shu orqali o'rganish imkoniyatlarini demokratlashtirishi mumkin.

4. *Qiyinchiliklar va axloqiy mulohazalar*: Afzalliklariga qaramay, sun'iy intellektni ta'limga integratsiyalash, ayniqsa axloqiy oqibatlar va ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Davlat maktablarida faoliyat yuritayotgan K-12 darajasidagi o'qituvchilarning to'rtidan bir qismi sun'iy intellekt vositalarining ta'limda foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkinligidan xavotir bildirgan.

Algoritmik noto'g'riliklar, ma'lumotlar xavfsizligi va sun'iy intellektning mavjud ijtimoiy tengsizliklarni bilvosita kuchaytirishi kabi masalalar diqqat bilan ko'rib chiqilishi lozim. Shuning uchun sun'iy intellekt ilovalari shaffof, adolatli va hisobdor bo'lishi; o'quvchilarning shaxsiy daxlsizligini hurmat qilishni ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. *Kelajak prognozlari*: Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarining istiqboli uning qo'llanilishini yanada chuqurlashtirish va kengaytirishni taqozo etadi. 2022-yilda global ta'lim bozorida sun'iy intellekt texnologiyalari 2,5 milliard dollarga baholangan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Yillik o'sish sur'ati (CAGR) 43 foizdan oshib borayotgani ta'lim tizimida sun'iy intellektning salohiyatiga bo'lgan ishonch ortayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, sun'iy intellekt baholash metodologiyalarini tubdan o'zgartirishi kutilmoqda. An'anaviy standartlashtirilgan testlar real vaqt rejimida fikr-mulohazalar taqdim etuvchi va o'quvchining individual rivojlanishiga moslasha oladigan sun'iy intellekt asosidagi baholash tizimlariga yo'l ochadi. Ushbu siljish talabalarning kompetensiyalarini yanada aniq, shaxsiylashtirilgan va ko'p qirrali tarzda baholash imkonini beradi.

XULOSA

Ta'limdagi sun'iy intellektning ilmiy va nazariy asoslari uning o'quv tajribasini



o'zgartirish, ma'muriy samaradorlikni oshirish hamda ta'limdagi tenglikni ta'minlashdagi salohiyatini ochib bermoqda. Biroq, bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun axloqiy jihatlariga e'tibor qaratish, ma'lumotlar maxfiylikini ta'minlash hamda o'qituvchilar, siyosatchilar va texnologlar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Sun'iy intellekt izchil rivojlanar ekan, uning ta'lim tizimiga puxta o'ylangan va bosqichma-bosqich integratsiyasi ta'lim kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasini oshirishda, shuningdek, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynamoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi repetitorlik tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash vositalari va shaxsiylashtirilgan o'quv platformalari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt vositalari o'qituvchilarning ma'muriy yukini kamaytirishi va dars jarayonlarini optimallashtirishi aniqlangan.

Biroq, sun'iy intellektdan foydalanishda axloqiy muammolar, ma'lumotlar xavfsizligi va algoritmik noto'g'rilik kabi xavotirlar mavjudligi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Shu bois, ushbu texnologiyalarning joriy etilishi va ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosati va ta'lim muassasalari tomonidan qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga yanada chuqurroq integratsiyalashuvi kutilmoqda. Shuning uchun sun'iy intellekt asosida ta'lim metodologiyalarini yangilash, o'quv dasturlariga mos algoritmlar ishlab chiqish hamda o'qituvchilarni ushbu texnologiyalar bilan samarali ishlashga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt ta'lim tizimining kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, uning to'g'ri va samarali qo'llanilishi ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chen X. Artificial Intelligence in Education: A Review of Current Research // Educational Technology Research and Development. 2021, T. 69, № 3. – P. 112-145.
2. VanLehn K. The Relative Effectiveness of Human Tutoring, Intelligent Tutoring Systems, and Other Tutoring Systems // Educational Psychologist. – 2011, T. 46, № 4. – P. 197-221.
3. Bakiyeva I., Iskandarova D. Employment of Graduates of Higher Education Institutions: Problems, Factors, and Opportunities // Obshchestvo i innovatsii. – 2024, T. 5, № 1. – P. 47-58. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp47-58.
4. Lapteva A., Efimov V. New Generation of Universities: University 4.0 // Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences. 2016, T. 9, № 11. – P. 2681-2696. – DOI: 10.17516/1997-1370-2016-9-11-2681-2696.
5. Eshmurodova Sh. Innovatsion yangi metodlar. 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-yangi-metodlar>.
6. Rajabboyev J.J.O. Innovatsion rivojlanish va yoshlar: Mavjud vaziyat va istiqbollari. 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-rivojlanish-va-yoshlar-mavjud-vaziyat-va-istiqbollari>.
7. Saidova Z.R. Innovatsion ta'lim sharoitida zamonaviy pedagog imiji. 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsion-ta-lim-sharoitida-zamonaviy-pedagog-imiji>.
8. Rajabov A. Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish. 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimida-innovatsion-texnologiyalardan-dars-jarayonida-foydalanish>.
9. Xikmatov X., Sulaymonova N. Ta'lim va amaliyotda innovatsion g'oya elementlarini shakllantirish uslublari. 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-va-amaliyotda-innovatsion-g-oya-elementlarni-shakllantirish-uslublari>.



PEDAGOGIKA

O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

DJUMAYEVA ZOVIDAXON MUHAMMADJONOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini o‘qituvchisi

Email: zdjumayeva@dtpi.uz

Tel: +998 88 803-40-08

UDK: 37.035:1(575)

Kalit so‘zlar:

ijtimoiy fikrlash,
mutafakkirlar,
allomalar, axloqiy
fazilatlar, odob-axloq,
jamiyat, ma‘naviy-
axloqiy, o‘quvchilar,
takomillashtirish,
rivojlantirish.

Annotatsiya:

Ushbu ilmiy maqolada O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari – Al-Farobiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalarning ijtimoiy, axloqiy va ilmiy merosini umumta‘lim jarayonida samarali qo‘llash yo‘llari o‘rganiladi. Asosiy e‘tibor o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ong va axloqiy fazilatlarni shakllantirishda bu allomalar asarlaridagi g‘oyaviy-ma‘naviy mazmuni ta‘limga integratsiya qilish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda ta‘lim jarayonida tarixiy manbalar va badiiy matnlar asosida ijtimoiy fikrni rivojlantirishga doir innovatsion yondashuvlar, darslarda interfaol usullardan foydalanish, shuningdek o‘quvchilarning ijtimoiy ongini tarbiyalashdagi samarali metodlar tahlil qilinadi. Natijada, O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosi asosida ijtimoiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan didaktik tavsiyalar ishlab chiqiladi va metodik asoslar taklif etiladi. Mazkur ilmiy ish umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari, metodistlar hamda pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ МЫСЛИТЕЛЕЙ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Ключевые слова: общественное мышление, мыслители, ученые, нравственные качества, этика, общество, духовно-нравственные, учащиеся, совершенствование, развитие.

Аннотация: В данной научной работе изучаются пути эффективного применения в общеобразовательном процессе социального, нравственного и научного наследия великих мыслителей Средней Азии - Аль-Фараби, Аль-Бухари, Беруни, Ибн Сины, Алишера Навои. Основное внимание уделяется совершенствованию методики интеграции идейно-духовного содержания произведений этих ученых в образование при формировании у учащихся критического мышления, общественного сознания и нравственных качеств. В исследовании анализируются инновационные подходы к развитию общественного мнения на основе исторических источников и художественных текстов в образовательном процессе, использование интерактивных методов на уроках, а также эффективные методы воспитания общественного сознания учащихся. В результате будут разработаны дидактические рекомендации и предложены методические основы, направленные на развитие социального мышления на основе наследия мыслителей Средней Азии. Данная научная работа имеет практическое значение для учителей общеобразовательных школ, методистов и исследователей в области педагогики.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING THE HERITAGE OF CENTRAL ASIAN PHILOSOPHERS IN THE FORMATION OF SOCIAL THINKING IN STUDENTS

Keywords: social thinking, philosophers, scholars, moral qualities, ethics,

Abstract: In this scientific work, the ways of effectively applying the social, moral, and scientific heritage of the great thinkers of Central Asia – Al-Farabi, Al-Bukhari, Beruni, Ibn Sina, Alisher Navoi – in the process of general education are studied. The main focus is on improving the methodology of

society, spiritual and moral, students, improvement, development.

integrating the ideological and spiritual content of the works of these scholars into education in the formation of critical thinking, social consciousness, and moral qualities in students. The study analyzes innovative approaches to the development of social thought in the educational process based on historical sources and literary texts, the use of interactive methods in lessons, as well as effective methods for educating students' social consciousness. As a result, didactic recommendations aimed at the development of social thinking based on the heritage of Central Asian thinkers will be developed and methodological foundations will be proposed. This scientific work has practical significance for teachers of general education schools, methodologists, and researchers in the field of pedagogy.

KIRISH

Bugungi kunda o'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirish, ularning yuksak ma'naviy-axloqiy va fuqarolik ongini rivojlantirish, jamiyatda faol, mas'uliyatli va mustaqil fikrlovchi talabalarni tarbiyalash ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy fikrlashning asosiy jihati – rivojlanayotgan jamiyatda o'z o'rnini topish, ijtimoiy muammolarga yechim izlash va jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan to'g'ri qarashlarni shakllantirishdan iboratdir.

O'rta Osiyo mutafakkirlari, ularning asarlari va fikrlari nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom at-Termiziy, Imom Buxoriy, Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek va boshqa buyuk shaxslarning ilmiy va ijtimoiy g'oyalari o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni, axloqiy mas'uliyatni va ijtimoiy ongni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois, ushbu mutafakkirlar merosidan ta'lim jarayonida maqsadli va tizimli foydalanish metodikasini takomillashtirish – o'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rta Osiyo mutafakkirlari o'z asarlarida ijtimoiy mas'uliyat, jamiyatni rivojlantirish va inson huquqlari masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Alisher Navoiy – o'zbek adabiyoti va madaniyatining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida o'z asarlari orqali ijtimoiy fikrlashni rivojlantirishda beqiyos o'rin tutgan.



Uning ijodida adolat, insonparvarlik, ilm-ma'rifat, jamiyatdagi tenglik va axloqiy yuksaklik kabi mavzular asosiy o'rin egallagan.

Alisher Navoiy insonning shaxsiy qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va vatanparvarlik g'oyalarini ulug'lagan. U ilm egalari va ulamolarni doimo e'zozlagan, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma'rifatni ko'rsatgan. "Mahbub ul-qulub" asarida ilmli insonlar haqidagi mulohazalari o'quvchilarda ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, "Xamsa" turkumidagi asarlarda jamiyat tahlili, ijtimoiy munosabatlar va adolatli ijtimoiy tizim barpo etish g'oyalari ifodalangan.

Navoiy asarlarida axloqiy me'yorlar – halollik, vijdon, sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar keng targ'ib etiladi. Bunday qadriyatlar jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Lison ut-Tayr" asarida inson hayoti, ma'naviy kamolot va ruhiy poklanish bilan bog'liq chuqur falsafiy fikrlar ilgari surilgan bo'lib, ular jamiyatni yanada insoniyroq va tolerantroq qilishga undaydi [3, 46].

Alisher Navoiy o'zining badiiy va falsafiy asarlari orqali o'z davrida ijtimoiy fikrni shakllantirish, xalqni ma'naviy uyg'otish, ijtimoiy adolat va ilm-ma'rifat g'oyalarini targ'ib etishda muhim rol o'ynagan. Uning asarlari bugungi kunda ham ijtimoiy tafakkur tarbiyasida muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi [7, 29].

Al-Farobiy (870-950) – o'rta asr Sharq falsafasining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lib, o'z asarlarida jamiyat, shaxs, axloq va hokimiyatga oid chuqur falsafiy qarashlarni ilgari surgan. U ijtimoiy fikr rivojiga nazariy asos yaratgan mutafakkir sifatida tanilgan. Farobiyning "Fozil shahar ahli" haqidagi g'oyalari ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ta'kidlashicha, fozil jamiyatda adolat, ilm va axloqiylik ustuvor bo'lishi zarur; bunday jamiyatni donishmand, oqil va adolatli rahbar boshqarishi kerak.

Farobiy fikricha, jamiyat a'zolarining hamjihatligi, o'zaro hurmat va umumiy maqsad sari intilishi saodat (baxt)ga erishishning asosi hisoblanadi. Inson va jamiyatning oliy maqsadi – saodatga erishish bo'lib, bu bilim va axloq orqali amalga oshadi. U jamiyat yuksalishini har bir shaxsning axloqiy va intellektual kamolotiga bog'liq holda talqin qiladi. Shuningdek, Farobiy odamlar orasida hamfikrlik, hamkorlik, o'zaro hurmat va rostgo'ylik bo'lishini zarur deb biladi [4, 163].

Abu Rayhon Beruniy esa o'zining ilmiy merosi, xususan "Qadimgi xalqlarning tarixi" asarida jamiyatlarni tarixiy tahlil qilish orqali madaniyat va ijtimoiy o'zgarishlarni chuqur anglashga xizmat qilgan. U jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarning ilmiy asoslari va ularning insoniyat taraqqiyotiga ta'siri haqida muhim nazariy mulohazalarni ilgari surgan. Beruniyning ilmiy yondashuvi ijtimoiy

tafakkurni rivojlantirishda, tarixiy va madaniy ongini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi [5, 30].

Imom Buxoriy – islom olamining eng ulug‘ muhaddislaridan biri bo‘lib, u nafaqat diniy ilmlar, balki ijtimoiy axloq va tafakkur madaniyatining shakllanishida ham muhim o‘rin egallaydi. U ijtimoiy adolat, insonlarning diniy va axloqiy majburiyatlari haqida chuqur ta‘limotlar bergan. Uning merosi o‘quvchilarda adolat, haqqoniylik va o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Imom Buxoriyning eng mashhur asari “Al-Jome‘ as-Sahih” Qur‘ondan keyingi eng ishonchli manba sifatida e‘tirof etiladi [6:42]. Ushbu to‘plamda ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq, jamiyatdagi mas‘uliyat va ma‘naviyatga oid ko‘plab sahih hadislar jamlangan. Imom Buxoriy hadislar orqali musulmonlar orasida axloqiy poklik, samimiyat, halollik, sabr-toqat, rostgo‘ylik kabi yuksak fazilatlarni targ‘ib etadi. Uning hadislarida salomlashish madaniyati, gapirish va sukut qilish odobi, majlis (yig‘ilish) odobi, qariyalar va bolalarga bo‘lgan munosabat kabi kundalik hayotga taalluqli ijtimoiy odoblar keng yoritilgan. Bu esa jamiyatda axloqiy madaniyat va odob-axloq tizimini shakllantirishga xizmat qilgan.

Imom al-Buxoriy “Al-Jome‘ as-Sahih” asari orqali nafaqat diniy bilimlarni, balki jamiyat hayotining muhim jihatlari – axloq, odob, o‘zaro hurmat, adolat, birdamlik va mas‘uliyatni ham keng yoritgan. U hadislar orqali:

- insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solgan;
- jamiyatdagi axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlagan;
- ilm-fanga bo‘lgan munosabatni yuksak darajaga ko‘targan;
- halollik, adolat va rahm-shafqat asosida yashashni targ‘ib qilgan.

Shunday qilib, Imom al-Buxoriy asarlari islom axloqshunosligi va ijtimoiy tafakkurning shakllanishida asosiy manbalardan biri bo‘lib, musulmon jamiyatining ma‘naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.

USULLAR

O‘quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni ularning asarlarini zamonaviy pedagogik metodlar bilan integratsiya qilish orqali amalga oshirish mumkin. Shu maqsadda quyidagi metodik yondashuvlarni taklif etish mumkin:

Asarlarni tahlil qilish va muhokama etish: O‘quvchilarga Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlarning asarlarini o‘qitish va ular asosida dars mashg‘ulotlari tashkil etish. Dars jarayonida o‘quvchilar ushbu asarlarda ilgari surilgan ijtimoiy, axloqiy va madaniy g‘oyalarni tahlil qilib, ularning zamonaviy

jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritishlari lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy fikrlashini rivojlantirishda boshlang‘ich sinf darslikda berilgan esse metodi juda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy mavzular haqida mulohaza yuritishda Esse yozish jarayonida o‘quvchilar o‘z hayoti, oilasi, maktabi, jamiyatdagi hodisalar haqida fikr yuritishga undaydi. Bu orqali ular ijtimoiy muammolarni tushunish va ularga munosabat bildirishga o‘rganadi.

Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirish orqali Esse yozish bolani fikrini tartib bilan ifodalashga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga o‘rgatadi. Bu esa tanqidiy fikrlashning asosidir.

Empatiya va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish ijtimoiy mavzudagi esse topshiriqlari orqali o‘quvchilar boshqalarning holatiga tushunish, mehr-oqibat, adolat kabi qadriyatlarni anglab yetishga harakat qiladi.

Nutq va yozma savodxonlikni rivojlantirish esse yozish orqali o‘quvchi o‘z fikrlarini mantiqan ifodalash, bog‘lovchi vositalardan foydalanish va mavzuga oid fikrlar ishlab chiqishni o‘rganadi. Mustaqil fikr yuritishga undaydi. Darslikdagi esse topshiriqlari ko‘pincha ochiq savollar asosida beriladi, bu esa har bir o‘quvchining mustaqil yondashuvini talab qiladi. Darslikda berilgan esse metodi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nafaqat til va savodxonlik bo‘yicha rivojlanadi, balki ular ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy axloqiy fazilatlarini shakllantirishga erishiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari esse topshiriqlariga buyuk allomalarimizning ibratli va hikmatli fikrlariga shaxsiy munosabat bildiruvchi topshiriqlar ahamiyatli. Allomalar fikrida doimo mehnat, halollik, bilim olish, odob-axloq kabi insoniy fazilatlar ulug‘lanadi. Ularni tahlil qilish orqali o‘quvchilar ichki madaniyat va axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lib boradi. Hayotiy misollar bilan bog‘lab tahlil qilish orqali o‘quvchi chuqur fikrlashga, o‘rganilgan g‘oyani tahlil qilishga o‘rganadi.

Buyuk allomalar fikrlariga munosabat bildirishga qaratilgan esse topshiriqlari o‘quvchilarda bilimga qiziqish, axloqiy ong, milliy g‘urur, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu turdagi esse topshiriqlari orqali o‘quvchi buyuk insonlarning fikrlarini hayot bilan bog‘lab, o‘z qarashlarini bildiradi. Bu esa shaxsiy dunyoqarash va ichki ishonchni shakllantiradi va ularning ijtimoiy ongini va ma‘naviy dunyosini boyitadi.

NATIJALAR

O‘quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish metodikasi ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvni taklif etadi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metod va usullar orqali o‘quvchilarning

ijtimoiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

O'quvchilarning ijtimoiy tafakkurini rivojlantirish: O'rta Osiyo mutafakkirlarining g'oyalari o'quvchilarga jamiyatdagi o'zgarishlarni tahlil qilish va ijtimoiy muammolarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam berdi. O'quvchilar ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va falsafiy masalalar bo'yicha murakkab fikrlarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'lishdi.

Tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish: Mutafakkirlar merosini o'rgatish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyatni anglash qobiliyatlari rivojlandi. Ular jamiyatdagi o'zgarishlarga faol yondashish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda ijodiy va mulohazali fikrlarni ilgari surishga o'rgatildi.

Interaktiv usullarni qo'llash samaradorligi: Guruhli muhokamalar, muammoli vaziyatlarni hal etish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali o'zaro aloqalar orqali o'quvchilarda fikr almashish, hamkorlik qilish va o'z fikrlarini ravon ifodalash ko'nikmalari rivojlandi.

Ijtimoiy fikrlashning shakllanishi: Tadqiqot jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy fikrlash O'rta Osiyo mutafakkirlarining asosiy g'oyalariga tayangan holda shakllantirildi. Ular ijtimoiy masalalar yuzasidan chuqur mulohaza yuritish, turli ijtimoiy vaziyatlarni anglash va tahlil qilish qobiliyatini egallashdi. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy kabi mutafakkirlarning asarlarida aks etgan axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g'oyalar o'quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirishda muhim omil bo'ldi.

O'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi: Mutafakkirlar g'oyalariga bo'lgan qiziqish va ularning hayotiy tajribasidan ilhom olish o'quvchilarda ta'limga nisbatan ijobiy munosabat va ichki motivatsiyani kuchaytirdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mutafakkirlarning asarlarini o'qish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha olib borilgan faoliyatlar o'quvchilarda bilimga chanqoqlik va mustaqil fikr bildirish istagini uyg'otdi.

Pedagogik yondashuvlarning samaradorligi: Metodika asosida o'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda turli pedagogik yondashuvlar, jumladan interaktiv ta'lim, o'z fikrini bildirishga rag'batlantirish hamda mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi usullar yuqori samara berdi. O'qituvchilar O'rta Osiyo mutafakkirlarining g'oyalari va ularning ta'limiy merosidan dars jarayonida samarali foydalanish bo'yicha boy tajriba to'plashdi.

MUHOKAMALAR

O'quvchilarning ijtimoiy fikrlashini shakllantirishda O'rta Osiyo mutafakkirlari

merosidan foydalanish, ularning insonparvarlik g'oyalari va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish orqali o'quvchilarda ijtimoiy masalalarga ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, AL-Buxoriy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy g'oyalar – insonning kamoloti, jamiyat taraqqiyotida bilim va ma'rifatning o'rni, adolat, bag'rikenglik, halollik, mehnatsevarlik, va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlar zamonaviy ta'lim jarayonida ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'quvchilarning ijtimoiy fikrlashini shakllantirishda Sharq mutafakkirlarining asarlari va hikmatlaridan foydalanish orqali olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. Tajriba-sinov darslarida Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Imom al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlarning fikr-mulohazalari asosida tashkil etilgan topshiriq, suhbat, esse va muhokama usullari orqali o'quvchilarda ijtimoiy fikrlash ko'nikmalari shakllana boshladi.

2. Eksperimental (tajriba) sinflar va nazorat sinflarida o'quvchilar bilimlari, tahliliy fikrlashi, axloqiy qadriyatlarga munosabati va mustaqil fikr yuritish darajasi qiyoslandi. Eksperimental sinf o'quvchilarining o'z fikrini asoslab ayta olish, ijtimoiy holatlarga munosabat bildirishi, bahs-munozaralarda ishtirok etish qobiliyatlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

3. Dastlabki va yakuniy diagnostika natijalariga ko'ra:

Tajriba guruhi o'quvchilarining ijtimoiy fikrlash ko'rsatkichlari 32% dan 78% ga oshgan.

Nazorat guruhi o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 34% dan 50% ga oshgan xolos.

Bu esa mutafakkirlar merosi asosida yaratilgan metodikaning samaradorligini amaliy jihatdan isbotlaydi.

4. O'quvchilarda fikr yuritish, ijtimoiy hodisalarni baholash, shaxsiy hayotga tadbiq etish, xalqona donishmandlikdan saboq olish, vatanparvarlik va axloqiy qarashlarni sifatlari kabi ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. O'quvchilarning ijtimoiy fikrlashini rivojlantirishda ularni tarixiy va madaniy merosimizga tayantirish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarga mutafakkirlarimizning hayoti va faoliyatini o'rgatish orqali ularni jamiyatdagi muammolarni anglashga va hal etishga faol ishtirokchi bo'lib yetishishga yo'naltirish mumkin. Masalan, Forobiyning "Faxrli shahar" g'oyasi jamiyatdagi barcha a'zolarining o'z o'rnini bilishi va jamoat manfaatini ustun qo'yish g'oyasiga asoslanadi. Beruniyning ilm-fanga bo'lgan hurmati, Ibn Sinoning tibbiyot va axloq-odob masalalaridagi qarashlari, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviyning

insonparvarlik va ma'rifatparvarlik qarashlari o'quvchilarning ijtimoiy ongini boyitish uchun muhim manba hisoblanadi.

Demak, o'quvchilarning ijtimoiy fikrlashini shakllantirishda o'rta asrlar mutafakkirlarining asarlariga tayanish, ularning jamiyat taraqqiyotiga doir qarashlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish, yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodni ijtimoiy faollik va ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxslar sifatida shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo mutafakkirlarining merosidan foydalanish o'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda samarali metodik vosita hisoblanadi. Ular o'quvchilarga ilmiy tafakkurga, balki axloqiy qadriyatlarni anglashda yordam beradi. Shuningdek, bu metodika o'quvchilarda mustaqil fikr va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga, jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida hissa qo'shadigan komil inson bo'lishga undaydi. Ijtimoiy muammolarni yechish uchun zarur bo'lgan fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va falsafiy masalalar bo'yicha murakkab fikrlarni o'zlashtirishda erishadi. Mutafakkirlarning ta'lim tizimiga integratsiyasi: Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Farobiy, Al-Buxoriy kabi mutafakkirlarning asarlaridan foydalanish, o'quvchilarning tafakkurini va dunyoqarashini kengaytirishga imkon berdi. Ularning g'oyalari o'quvchilarda adolat, ma'naviyat, bilim va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy va ijtimoiy g'oyalari o'quvchilarda ijtimoiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu metodikaning asosiy maqsadi, o'quvchilarni faqat o'quv materiallarini o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri tushunishga va ijtimoiy muammolarni tahlil qilishda mustaqil fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Takliflar va tavsiyalar:

O'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish: O'qituvchilarni O'rta Osiyo mutafakkirlarining merosini o'rganish, ularning pedagogik usullaridan foydalanish uchun doimiy ravishda malakasini oshirish zarur. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

O'quv dasturlarini takomillashtirish: O'quv dasturlariga O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarini kiritish, ularning ijtimoiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini yanada oshirish kerak. Bu dasturlar o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin



ifodalash, jamiyatdagi o'zgarishlarga ijtimoiy va ma'naviy nuqtai nazardan yondashishga imkon beradi.

Innovatsion metodlardan foydalanish: O'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy metodlar, masalan, onlayn platformalar, guruhli muhokamalar, o'quvchilarni ijodiy izlanishga undovchi amaliy mashg'ulotlar va shaxsiy izlanishlarni qo'llash kerak. Bu metodlar o'quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari: Asarlar to'plami. 4-jild. – Toshkent, 2020.
2. Mirziyoyev Sh. M. “Arda Xiva” xalqaro turizm markazining ochilish marosimi. 2024-yil 2-may. // O'ZBEKJOURNAL.UZ. URL: <https://uzbekjournal.uz>
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. Farobiy A. Fozil odamlar shahri (Al-Madina al-Fozila). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Sulton I. Abu Rayhon Beruniy: Roman. – Toshkent, 2023.
6. Imom Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih. 4 jildlik to'plam. – Toshkent, 2023.
Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021

PEDAGOGIKA

TALABALARDA IJTIMOIIY-AXLOQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI, SHAKLLARI VA USULLARI

TO‘RAQULOV AKBAR RUSTAM O‘G‘LI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Email: akbartoraqulov7@gmail.com

UDK: 37.013.42

<https://orcid.org/0009-0007-2314-8170>

Kalit so‘zlar:

ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar, talaba shaxsiyati, ta’lim texnologiyalari, kooperativ ta’lim, interfaol metodlar, axloqiy tarbiya, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik yondashuvlar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, pedagogik shakllari hamda samarali usullari tahlil qilingan. Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar – bu talabalar tomonidan jamiyatdagi axloqiy me’yor va qadriyatlarga rioya qilish, ijtimoiy muloqotga kirishish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, axloqiy tafakkur va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishni anglatadi. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, kooperativ o‘qitish usullari hamda YUNESKO tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar tahlil qilingan bo‘lib, ushbu tahlillar asosida natijalar bayon etilgan. Tahlil va natijalarga asoslanib, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar keltirilgan.

СОДЕРЖАНИЕ, ФОРМЫ И МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Ключевые слова:

социально- нравственные компетенции, личность студента, образовательные технологии, кооперативное

Аннотация:

В данной статье проанализированы содержание, педагогические формы и эффективные методы формирования и развития социально- нравственных компетенций у студентов. Социально- нравственные компетенции - это соблюдение студентами нравственных норм и ценностей в обществе, вступление в социальное общение, принятие ответственных решений, формирование нравственного мышления и личной

обучение,
интерактивные
методы,
нравственное
воспитание,
профессиональные
компетенции,
педагогические
ПОДХОДЫ.

позиции. В статье анализируются современные образовательные технологии, интерактивные методы, методы кооперативного обучения и подходы, разработанные на основе рекомендаций ЮНЕСКО. На основе анализа и результатов представлены практические рекомендации, служащие развитию социально-нравственных компетенций.

CONTENT, FORMS, AND METHODS OF DEVELOPING SOCIAL AND MORAL COMPETENCIES IN STUDENTS

Keywords:

social and moral competencies, student personality, educational technologies, cooperative learning, interactive methods, moral education, professional competencies, pedagogical approaches.

Abstract:

This article analyzes the content, pedagogical forms, and effective methods of forming and developing socio-moral competencies in students. Socio-moral competencies mean the observance by students of moral norms and values in society, entering into social communication, making responsible decisions, forming moral thinking and a personal position. The article analyzes modern educational technologies, interactive methods, cooperative teaching methods, and approaches developed based on UNESCO recommendations, and based on these analyses, the results are presented. Based on the analysis and results, practical recommendations for the development of socio-moral competencies are presented.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri – talabalarning nafaqat akademik bilimlarini oshirish, balki ularning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. XXI asr globallashuv sharoitida yosh avlodning ijtimoiy muhitga moslashuvi, axloqiy me'yor va qadriyatlarga rioya qilishi, shaxs sifatida komillikka intilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi internet makonida talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa – talabalarning faqat bilim olishigina emas, balki ularning ijtimoiy ongi, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy

barkamollikka yo‘naltirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar – bu shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi faolligi, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri anglab yetishi, axloqiy me‘yorlarga amal qilishi va madaniy qadriyatlarni hurmat qilishga oid ko‘nikmalardir. Ushbu kompetensiyalar yoshlarning hayotga tayyorgarligini oshiradi hamda ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim metodlarining mazmuni, samaradorligi va amaliy qo‘llanilishi pedagogika hamda psixologiya sohasidagi dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni, uning mazmuni, asosiy shakllari va usullari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning axloqiy ongi shakllanishiga xizmat qiluvchi ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va falsafa fanlari doirasida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu bo‘limda mavzu bo‘yicha yetakchi olimlarning qarashlari hamda ularning tadqiqot natijalari tahlil qilinadi.

Lev Vygotskiy o‘zining “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes” asarida insonning ijtimoiy kompetensiyalari tashqi muhit va ijtimoiy muloqot orqali shakllanishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, shaxsning axloqiy ongini shakllantirishda interaktiv o‘qitish muhim rol o‘ynaydi [8].

Jon Dewey ta‘lim jarayonida tajribaviy yondashuv muhimligini ilgari surib, ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda amaliy faoliyat va muammoli ta‘lim usullaridan foydalanish zarurligini ta‘kidlaydi [4].

Jürgen Habermas kommunikativ harakat nazariyasi orqali ijtimoiy muloqot va o‘zaro tushunish jarayonining axloqiy kompetensiyalar rivojlanishiga ta‘sirini tadqiq etgan. Uning fikricha, talabalar axloqiy qarorlarni qabul qilishda o‘zaro muloqot va munozaralar orqali zarur ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar [7].

David A. Kolb tajribaviy ta‘lim modeli orqali talabalarning axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda faol tajriba, kuzatish va refleksiya muhim rol o‘ynashini asoslaydi. Uning ta‘kidlashicha, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ulardan saboq olish shaxsning axloqiy kompetensiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi [4].

Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali shaxsda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda namuna ko'rsatish, kuzatish va tahlil qilish jarayonlarining muhimligini yoritib bergan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talabalarning axloqiy qadriyatlarini o'qituvchilar va atrof-muhit ta'siri ostida shakllanadi [3].

Henri Tajfel va Jon Tyorner ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga asoslanib, shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglash va axloqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish jarayonini tahlil qilgan [5]. Ularning fikriga ko'ra, talabalarning ijtimoiy guruhlariga mansubligi axloqiy ongning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

YUNESKO tomonidan e'lon qilingan ta'lim standartlari esa ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarb jihatlariga e'tibor qaratgan. Ular orasida madaniyatlararo muloqot, empatiya va ijtimoiy javobgarlik kabi ko'nikmalar alohida ta'kidlangan [9].

Ushbu adabiyotlar sharhi talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha turli ilmiy yondashuvlar va nazariyalarni qamrab oladi. Mazkur qarashlar asosida maqolaning keyingi bo'limlarida kompetensiyalarni shakllantirish usullari va amaliyotdagi natijalar tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni, shakllari va usullarini o'rganish nazariy tahlil usuli asosida amalga oshiriladi. Nazariy tahlil – ilmiy adabiyotlar, ilg'or pedagogik tajribalar, normativ hujjatlar hamda xalqaro tajribalarni o'rganish orqali masalaning mohiyatini aniqlash va asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida quyidagi asosiy nazariy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, talabalarning ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishga oid ilmiy nazariyalar, pedagogik kontsepsiyalar va zamonaviy tadqiqotlar o'rganildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1], Davlat ta'lim standartlari [2] hamda xalqaro tashkilotlar, xususan YUNESKO [9] tomonidan tavsiya etilgan kompetensiyaviy yondashuv asoslari tahlil qilindi.

Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalar nazariyasiga oid – Albert Bandura [3], Jürgen Habermas [7], David Kolb [4], Henri Tajfel va Jon Turner [5] tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotga oid tadqiqotlar tahlil etildi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar – kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tajribaviy o'rganish modelining ahamiyati va ularning ta'lim

jarayoniga integratsiyalashuvi tahlil qilindi.

Nazariy tahlil asosida mavjud ilmiy yondashuvlarning ustun va zaif tomonlari aniqlanib, talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali shakl va usullarni tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish murakkab, bosqichma-bosqich va o'zaro bog'liq pedagogik-psixologik jarayon ekanligini ko'rsatdi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirishda, birinchi navbatda, ta'lim muhitining sifati, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot darajasi, shuningdek, o'quv rejaları va mashg'ulotlarda axloqiy qadriyatlarining integratsiyalashuvi muhim rol o'ynaydi.

Dastlabki kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, talabalarning ijtimoiy-axloqiy ongini shakllantirishda interfaol uslublar, xususan rolli o'yinlar, ijtimoiy dramalar, keis-stadi (hayotiy holatlarni tahlil qilish), aks ettiruvchi yozuvlar va bahs-munozaralar eng samarali yondashuvlar sirasiga kiradi. Ushbu usullar yordamida talabalar o'z hayotiy tajribasini tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini egallaydilar.

Loyiha asosida o'qitish metodikasi esa talabalarda jamoaviy fikrlash, mas'uliyat hissi, shaxslararo muloqot va etika me'yorlarini anglash, shuningdek, real ijtimoiy muammolarga yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Talabalar ishtirokida tashkil etilgan amaliy loyihalar, masalan, "Axloqiy qadriyatlar haftaligi", "Axloqiy tanlovlar klubi" yoki "Etik kodeks muhokamasi" kabi tashabbuslar ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni faollashtirishga xizmat qiladi.

YUNESKO tavsiyalariga asoslangan kompetensiyalar – empatiya, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy javobgarlik – milliy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirilganda yanada boy pedagogik tajriba yuzaga keladi. Masalan, o'zbek xalq maqollari, milliy qadriyatlar va buyuk ajdodlar hayot yo'li asosida tashkil etilgan axloqiy munozaralar talabaning o'zligini anglashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namunasi, etik muomalasi va muammoli vaziyatlarga yondashuvi axloqiy iqlimga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Talabalar o'rtasidagi ijtimoiy muloqot, do'stona muhit va qo'llab-quvvatlash madaniyati shakllanishida pedagogning liderlik qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, zamonaviy yoshlar axloqiy qadriyatlarga nisbatan sezgir, biroq ularni ongli ravishda tanlab, o'zlashtirishda ko'makka muhtojdirlar. Shu bois o'quv mashg'ulotlariga psixologik treninglar, axloqiy tanlov

topshiriqlari, vizual vositalar (videoroliklar, plakatlar), aks ettiruvchi kundaliklar kiritilishi ijobiy natijalar beradi. Tadqiqot davomida talabalar fikriga asoslanib shuni aniqladikki, bunday yondashuvlar ularning ishtirokchanligini oshiradi, shaxsiy pozitsiyalarini ifodalash va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda nafaqat bilim, balki hissiy-ta’sirchan yondashuv, muloqot, tajriba, refleksiya, hamkorlik va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan o‘qitish usullari zarurdir. Bu esa ijtimoiy-axloqiy tarbiya jarayonini holatga asoslangan, amaliy va shaxsga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismidir. Bu jarayon nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar, tajribaviy faoliyat va refleksiya orqali boyitilishi zarur.

2. Kompetensiyaviy yondashuv, tajribaviy o‘rganish modeli hamda interaktiv metodlar talabalarining axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali ekani tasdiqlandi.

3. Pedagogik innovatsiyalar, xususan, loyihaviy faoliyat, muammoli ta’lim va kooperativ o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro tajriba hamda milliy ta’lim tizimi imkoniyatlarining integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ta’lim dasturlarini takomillashtirish – Ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy mashg‘ulotlar va loyihaviy ta’lim elementlarini o‘quv jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish lozim.

2. O‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish – Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini kengaytirish maqsadida o‘qituvchilar uchun maxsus o‘quv kurslari tashkil etilishi zarur.

3. Talabalar bilan ijtimoiy-axloqiy mavzularda treninglar o‘tkazish – Axloqiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, shaxsiy pozitsiyani ifodalash va asoslashni rivojlantirish uchun talabalar o‘rtasida seminar va psixologik treninglar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

Ushbu xulosa va takliflar talabalarda ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishda metodik asos sifatida



foydalanilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni "Ta'lim to'g'risida" // Qonunchilik palatasi. 2020-yil 7-avgust. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida". 2001-yil 16-avgust. <https://lex.uz/docs/-361387>
3. Bandura A. Social learning theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – P. 617
4. Kolb D.A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1984.
5. Tajfel H., Turner J. Social identity theory of intergroup behavior. – Chicago: 1986.
6. Dewey J. Democracy and education. – New York: Macmillan, 1916.
7. Habermas J. The theory of communicative action. – Boston: Beacon Press, 1984.
8. Vygotskiy L. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard Univ. Press, 1978.
9. UNESCO Institute for Statistics. International standard classification of education (ISCED 2011). – Montréal: UNESCO Institute for Statistics, 2012.



PEDAGOGIKA

HAYOT DAVOMIDA O‘RGANISH (LLL) KONTEKSTIDA MUSTAQIL TA‘LIM KO‘NIKMASINING RIVOJLANISHI

DUSYOROVA LAYLO SHONIYOZ QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti

Email: laylodosyorova@gmail.com

Tel.: +998 94 468-00-93

UDK: 378.147

<https://orcid.org/0009-0003-2902-433X>

Kalit so‘zlar:

Life Long Learning, mustaqil ta‘lim olish, hayot davomida ta‘lim, mustaqil o‘rganish, umr bo‘yi ta‘lim, o‘z-o‘zini rivojlantirish.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy ta‘lim tizimida hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) konsepsiyasi asosida talabalarda mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritiladi. Mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalari – shaxsning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rejalashtirish, tashkil etish, baholash va rivojlantirish jarayonidagi asosiy kompetensiyalardan biri sifatida talqin etiladi. Maqolada umr bo‘yi ta‘lim oluvchi shaxs modelini shakllantirish jarayonida mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarining o‘rni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali metodlar va vositalar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, hayot davomida o‘rganish tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tarixiy bosqichlari, qonunchilikdagi o‘ziga xos jihatlari hamda zamonaviy ta‘lim jarayonidagi o‘rni, oliy ta‘lim tizimida mustaqil ta‘limni tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari va xorijiy tajriba misolida tahlil qilinadi.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В КОНТЕКСТЕ ОБУЧЕНИЯ НА ПРОТЯЖЕНИИ ВСЕЙ ЖИЗНИ (LLL)

Ключевые слова:

Life Long Learning, самостоятельное

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические основы и практические аспекты развития навыков самостоятельного обучения у студентов на основе

обучение,
непрерывное
образование,
самообразование,
обучение на
протяжении всей
жизни,
саморазвитие.

концепции обучения на протяжении всей жизни (Life Long Learning) в современной системе образования. Навыки самостоятельного обучения интерпретируются как одна из основных компетенций в процессе самостоятельного планирования, организации, оценки и развития знаний личности. В статье рассматривается роль навыков самостоятельного обучения в процессе формирования модели личности обучающегося на протяжении всей жизни, этапы их развития, а также эффективные методы и инструменты, используемые в образовательном процессе. Также анализируется понятие обучения на протяжении всей жизни, его сущность, исторические этапы, особенности в законодательстве и его место в современном образовательном процессе, современные тенденции организации самостоятельного обучения в системе высшего образования и зарубежный опыт.

DEVELOPMENT OF SELF-DIRECTED LEARNING SKILLS IN THE CONTEXT OF LIFELONG LEARNING (LLL)

Keywords:

Life Long Learning,
independent learning,
continuous education,
self-education,
lifelong education,
self-development.

Abstract:

This article highlights the theoretical foundations and practical aspects of developing students' independent learning skills based on the concept of lifelong learning in the modern education system. Independent learning skills are interpreted as one of the main competencies of a person in the process of independently planning, organizing, evaluating, and developing their knowledge. The article discusses the role of independent learning skills in the formation of a lifelong learning personality model, the stages of their development, and the effective methods and tools used in the educational process. Also, the concept of lifelong learning, its essence, historical stages, specific aspects in legislation and its place in the modern educational process, modern trends in the organization of independent education in the higher education system and foreign experience are analyzed.

KIRISH

Hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning – LLL) bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan davrda ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tez sur‘atlarda o‘zgarib borayotgan texnologiyalar, mehnat bozoridagi yangi talablar hamda insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanish ehtiyojlari doimiy ravishda o‘qish, izlanish va o‘zini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Ushbu yondashuv insonning nafaqat professional faoliyatida, balki kundalik hayotida ham muvaffaqiyatli va moslashuvchan bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlar o‘z ta‘lim tizimlarini mazkur konsepsiyaga moslashtirish, fuqarolar uchun qulay va uzluksiz o‘qish imkoniyatlarini yaratishga intilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ham bu borada muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, qarorlar va strategik dasturlar umr bo‘yi ta‘limni rivojlantirish hamda aholining barcha qatlamlariga ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta‘lim tizimi “yagona va uzluksiz” ekani belgilab qo‘yilgan [1, 6].

“Hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) – insonning butun umri davomida bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, u nafaqat rasmiy ta‘lim muassasalarida, balki turli ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy holatlarda ham amalga oshiriladi” [2]. Ya‘ni, hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) faqat maktab, professional yoki oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olish bilan cheklanmaydi. Bu – o‘zini rivojlantirish, yangi kasb egallash, mavjud kasbiy bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali noformal shakllarda ham yangi bilimlarga ega bo‘lish yoki ularni chuqurlashtirish imkonini beradigan uzluksiz ta‘lim shaklidir. Demak, inson hayot davomida nafaqat rasmiy ta‘lim jarayonida, balki o‘zini rivojlantirish maqsadida ham yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib borishi muhimdir.

“...Ushbu tushuncha (Life Long Learning) zamonaviy jamiyatdagi tez o‘zgaruvchan iqtisodiy va texnologik muhitda insonning uzluksiz rivojlanishi va moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi” [3]. “Hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) – zamonaviy texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida shunchaki ommabop ibora emas, balki jiddiy zaruratdir. Bu holat barcha yosh toifalariga taalluqlidir. XXI asrga qadam qo‘ygan yoshi ulug‘ insonlar ham zamon talablari va hayot sifati bevosita yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan tayyorgarlik darajasiga bog‘liqligini anglab yetishlari lozim” [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) tushunchasi ilk bor XX asrning

1920-1930-yillarida pedagogika va ta'lim nazariyalarida muhokama qilingan. Biroq bu atama kengroq mazmunda XX asrning o'rtalarida shakllanib, 1970-yillardan boshlab UNESCO va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan rasmiy hujjatlarda qo'llana boshladi.

Xususan, UNESCOning 1972-yilda e'lon qilingan, Edgar Faure rahbarligidagi xalqaro komissiya tomonidan tayyorlangan "Learning to Be: The World of Education Today and Tomorrow" nomli hisobotida hayot davomida o'rganish konsepsiyasi asosiy ta'limiy tamoyillardan biri sifatida ilgari surildi.

Ushbu konsepsiyaning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ta'lim jarayoni faqat maktab yoki universitet bilan cheklanmasligi, balki butun umr davomida turli shakllarda davom ettirilishi lozim [5]. Bu g'oyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa, avvalo, yosh avlodda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasining shakllangan bo'lishini talab etadi.

O'zbekiston ilmiy maydonida "hayot davomida o'rganish" (Life Long Learning) atamasi ilk bor 2018-yillardan boshlab ilmiy adabiyotlarda qo'llanila boshlagan [6]. Shundan so'ng mazkur mavzuga oid ilmiy izlanishlar faollashib, turli maqolalar, monografiyalar va ilmiy nashrlar shaklida chop etilmoqda. Xususan, N.I. Taylakov va muallifdoshlari [7, 1194-1196] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy hayotga moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil ekani alohida ta'kidlangan.

T.A. Yuldasheva [8, 42-45] esa aralash ta'lim modeli asosida Life Long Learning tamoyillarini amalga oshirish va talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

F. Xusainova [4] tadqiqotida esa Life Long Learning konsepsiyasi inson hayotining uchinchi bosqichi – keksalik davrida ham shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi muhim resurs sifatida talqin etilgan.

Hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) g'oyasini ilgari surayotgan xalqaro tashkilotlar, xususan UNESCO va Yevropa Ittifoqining ta'lim bo'yicha muassasalari, mazkur konsepsiyani barqaror jamiyat qurish, fuqarolik faolligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etmoqda [9].

Shu bois, hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) konsepsiyasi bugungi kunda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u har bir fuqaroning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi, ijtimoiy tenglikni ta'minlashi va kasbiy rivojlanishga erishishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Mustaqil o'rganish (self-directed learning) – bu ta'lim oluvchining o'z o'rganish jarayonini boshqarish, maqsadlarni belgilash, resurslarni tanlash va natijalarni



baholash qobiliyatidir [10]. Har bir shaxs yangi narsalarni o‘rganishga intilar ekan, u, albatta, o‘z imkoniyatlarini hisobga olgan holda harakat qiladi. “Mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi hayot davomida o‘rganishning markaziy elementlaridan biri bo‘lib, insonga o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilash va kengaytirish imkonini beradi” [3].

Mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi – bu insonning o‘z bilimi va tajribasini mustaqil ravishda oshirishga, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirishga tayyorligi, shuningdek, buning uchun zarur bo‘lgan uslublarni bilishiga asoslanadi. Bugungi tezkor axborot oqimi va doimiy o‘zgarib borayotgan hayot sharoitida inson o‘z sohasidagi yangiliklarni o‘z vaqtida bilib olish, yangi bilimlarni egallash va kasbiy malakasini doimiy ravishda oshirib borishga ehtiyoj sezadi. Shu sababli, mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmasi nafaqat ta‘lim jarayonida, balki butun hayot davomida o‘z-o‘zini rivojlantirish va raqobatbardosh bo‘lish uchun ham zarur sanaladi.

Shuningdek, muvaffaqiyatli mustaqil o‘rganish uchun o‘rganuvchida o‘zini boshqarish (self-regulation), maqsadga yo‘naltirilganlik va o‘z-o‘zini motivatsiyalash kabi psixologik omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi [11, 64]. Zamonaviy pedagogikada ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun turli metodlar, jumladan muammoli o‘rganish, loyiha (proyekt) usuli hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilmoqda [12].

Hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) pedagogik jarayonda “ta‘limning innovatsion tamoyillariga asoslanib, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv” sifatida qaraladi [5]. Ta‘lim jarayonida innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan mustaqil o‘rganish – bu talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda, ularning bilim va malakasini mustaqil ravishda rivojlantirib borishini ta‘minlaydigan tizimdir.

Bunda o‘quv jarayoni faqat an‘anaviy darslar bilan cheklanmay, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, interaktiv usullar va ochiq ta‘lim resurslaridan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Kompleks yondashuv esa talabaning nafaqat bilim, balki tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammo yechish va axborotni mustaqil izlash kabi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) konsepsiyasining mustaqil ta‘lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlash hamda uning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, andragogik hamda metakognitiv

nazariyalar asosida metodologik asoslar belgilab olindi.

Hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'lim tizimidagi o'rni aniqlash maqsadida pedagogik va psixologik adabiyotlar, xalqaro ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda xorijiy tajribalar chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, talabalar o'rtasida mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining rivojlanish darajasini o'rganish hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida maxsus so'rovnomalar va diagnostik testlar ishlab chiqildi.

Tajribali pedagoglar, psixologlar va ta'lim metodistlari bilan suhbatlar tashkil etilib, hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) jarayonida mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga doir samarali usullar va amaliy takliflar olindi. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati va ta'lim jarayonidagi faolligi kuzatilib, hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) konsepsiyasining ta'sirchan jihatlari chuqur tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari turli darajada shakllangan bo'lib, bu holat ularning hayot davomida o'rganishga (Life Long Learning) tayyorlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Suhbatlar va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, talabalarning hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) konsepsiyasiga bo'lgan munosabati hamda mustaqil ta'limga bo'lgan qiziqishi quyidagi omillar ta'sirida shakllanmoqda:

- ta'lim muassasasida mustaqil ta'lim uchun yaratilgan shart-sharoitlar;
- o'qituvchilarning mustaqil ta'limni rag'batlantirishdagi faolligi;
- talabaning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoji va motivatsiyasi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, talabalarning hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) konsepsiyasi haqida yetarli bilim va tasavvurga ega bo'lishi ularning mustaqil o'qish, ma'lumot izlash va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) tushunchasi va uning ahamiyati haqida maxsus trening hamda seminar mashg'ulotlari orqali berilgan ma'lumotlar natijasida talabalar orasida mustaqil ta'limga nisbatan ijobiy munosabat shakllanib, o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishning ortgani qayd etildi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili asosida (xususan, OECD hisobotlari [13] hamda UNESCO hujjatlari [14]) hayot davomida o'rganish (Life Long Learning) tizimini oliy ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqildi. Jumladan:

- raqamli ta'lim platformalaridan muntazam va maqsadli foydalanish;



- talabalarning mustaqil o‘qish va tadqiqot olib borish faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- Life Long Learning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish.

Tadqiqot natijalari asosida, talabalarda mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirishda hayot davomida o‘rganish (Life Long Learning) konsepsiyasining o‘rni va ta‘sirchan jihatlari ilmiy asosda aniqlab berildi hamda bu yo‘nalishdagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Life Long Learning”ning pedagogik jihatdan rivojlanishida o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning individual ta‘lim yo‘nalishini aniqlash, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish hamda ularning mustaqillik darajasini baholash muhim omillardan biri hisoblanadi [15]. Bu jarayonda ta‘limning interaktiv shakllari – xususan, guruhli muhokamalar, refleksiya mashg‘ulotlari, hamkorlikda o‘qitish kabi metodlar talabalarning bilim olishda faol ishtirokini ta‘minlaydi va ularni o‘z fikrlarini mustaqil ifoda etishga undaydi.

Bundan tashqari, hayot davomida o‘rganish madaniyatini shakllantirishda nafaqat ta‘lim muassasalari, balki ota-onalar va keng jamoatchilikning ham faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Bu esa ta‘limdagi umumiy mas‘uliyat hissini oshirish, doimiy o‘rganishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratadi [9].

Talabalarni mustaqil ta‘limga yo‘naltirishda esa mentorlik tizimini joriy etish, malakali ustozlar rahbarligida tajriba almashish seminar va treninglarini tashkil etish, hamda muvofiqlashtirilgan metodik yondashuvlarni qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Jahon tajribasi, xususan, Finlandiya [16] va Janubiy Koreya [17] ta‘lim tizimlarida shaxsiy ta‘lim rejasi (Individual Learning Plan) asosida o‘quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘qitish yo‘li bilan yuqori natijalarga erishilmoqda.

Shuningdek, talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini uyg‘otish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularni real hayotiy vazifalar bilan bog‘lash maqsadida raqamli ta‘lim platformalari, masofaviy kurslar va ochiq ta‘lim resurslaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Life Long Learning konsepsiyasi asosida tashkil etilgan ta‘lim muhiti nafaqat talabalar, balki keng jamoatchilikning ham ta‘lim jarayoniga nisbatan mas‘uliyatli munosabatini shakllantiradi, shuningdek, inson kapitalining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida maydonga chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Life Long Learning (hayot davomida o‘rganish) – bu insonning bolalik davridan boshlab butun umr davomida o‘z bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini izchil ravishda rivojlantirib borishini ta‘minlaydigan uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u nafaqat rasmiy ta‘lim muassasalarida, balki norasmiy va informal o‘rganish shakllarida ham amalga oshiriladi.

2. Mazkur jarayon insonning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etilib, uning zamonaviy hayotga moslashuvi hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

3. Globallashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida Life Long Learning jarayonini samarali tashkil etish – eng avvalo, ta‘lim oluvchilarda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni uzluksiz rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1) Ta‘lim muassasalarida mustaqil ta‘lim ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar, seminar va treninglar tashkil etish, ularning mazmunini Life Long Learning kompetensiyalariga moslashtirish.

2) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, jumladan, ochiq onlayn kurslar va raqamli ta‘lim platformalarini rivojlantirish orqali talabalarga mustaqil ta‘lim olish uchun keng imkoniyatlar yaratish.

3) Talabalarning mustaqil o‘rganishdagi faolligini oshirish maqsadida loyihaviy va muammoli ta‘lim usullarini keng joriy etish, shuningdek, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish.

4) Ota-onalar, mahalla va jamoatchilikni hayot davomida o‘rganish jarayoniga faol jalb etish, hamda ular orasida Life Long Learning tamoyillarini targ‘ib qilish orqali ta‘limda umumiy mas‘uliyat muhitini shakllantirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta‘lim to‘g‘risida Qonun. № O‘RQ-637, 23 sentabr 2020, Modda 6.
2. UNESCO. Recommendation on Adult Learning and Education. Paris, UNESCO Publishing, 2015.
3. Candy P. C. Self-Direction for Lifelong Learning. – San Francisco, Jossey-Bass, 1991.
4. Khusainova F. Lifelong Learning as a Resource Third Age Development.



- Society and Innovations, 2022.
5. Merriam S. B., Bierema L. L. *Adult Learning: Linking Theory and Practice*. – San Francisco, Jossey-Bass, 2013.
 6. Raxmanqulova N., Yuldashev M., Vaxramov A., Ahmedov M., Raimov T., Ametov A. *Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash*. – Tashkent.: Lesson Press, 2018, – B. 160.
 7. Тайлаков Н. И., Эштемиров С., Аминов И. Б., О с непре-рйвного образования в Узбекистане. *Молодой учёный*, №9 (89), 2015. – П. 1194-1196
 8. Yuldasheva, T. A. *Blended Learning in the Education System of Uzbekistan // Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 2021.
 9. European Commission. *Making a European Area of Lifelong Learning a Reality*. – Brussels, European Commission, 2001.
 10. Knowles M. S. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers*. Cambridge Book Company, 1975.
 11. Guglielmino L. M. *Self-Directed Learning: A Key Competency for the 21st Century // International Journal of Self-Directed Learning*, 2008, vol. 5, no. 2, – P. 28-35.
 12. Prince M. *Does Active Learning Work? A Review of the Research // Journal of Engineering Education*, 2004, vol. 93, no. 3, – P. 223-231.
 13. OECD. *Education at a Glance: OECD Indicators*. OECD Publishing, 2020.
 14. UNESCO. *Futures of Education: A New Social Contract for Education*. UNESCO Publishing, 2021.
 15. Knowles M. S. *Andragogy in Action: Applying Modern Principles of Adult Learning*. Jossey-Bass, 1984.
 16. OECD. *Continuous Learning in Working Life in Finland*. OECD, 2020.
 17. National Institute for Lifelong Education (NILE). *Lifelong Education Act of the Republic of Korea*. Seoul: Ministry of Education, Republic of Korea, 2008.



PEDAGOGIKA

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA SO'FI OLLOYOR ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK TIZIMI

G'ULOMOVA NAZIRA RUSTAMJON QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası tayanch doktoranti

Email: gulomovanazira424@gmail.com

Tel.: +998 94 259-00-96

UDK: 37.013.42(575.1)

<https://orcid.org/0009-0008-7307-6758>

Kalit soʻzlar:

sabr, tavoze,
halollik, dunyo,
zamonaviy
pedagogika,
oʻquv-tarbiya,
sabr-u qanoat,
oʻz nafsini poklash,
maʼnaviy
yetuklikka erishish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Soʻfi Olloyorning “Sabotul ojizin” asarida ifoda etilgan maʼnaviy-axloqiy gʻoyalari tahlil qilinib, ularning zamonaviy yoshlar tarbiyasiga taʼsiri, pedagogik ahamiyati va tarbiyaviy imkoniyatlari chuqur oʻrganiladi. Asarda ilgari surilgan sabr, tavoze, halollik, qanoat, dunyo va oxirat haqidagi tasavvufiy qarashlar bugungi kun tarbiyaviy faoliyatida qanday tatbiq etilishi mumkinligi zamonaviy pedagogika yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Sabotul ojizin” asarining oʻquv-tarbiyaviy jarayonga integratsiyalashuvi, undan yoshlar maʼnaviyatini shakllantirishda samarali tarbiyaviy vosita sifatida foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi. Asarda ilgari surilgan asosiy tasavvufiy, axloqiy va ruhiy gʻoyalarning zamonaviy oʻquvchilarda ijobiy xarakter fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, asarning pedagogik salohiyati, oʻquv-tarbiyaviy faoliyatda qoʻllanishi mumkin boʻlgan didaktik yondashuvlari, metodik imkoniyatlari va u orqali shakllantiriladigan axloqiy kompetensiyalar keng koʻlamda tahlil qilinadi.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ СУФИ АЛЛАЯРА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ

Ключевые слова: терпение, смирение, честность, мир, современная педагогика, образование, терпение и довольство, самоочищение, достижение духовной зрелости.

Аннотация: В данной статье анализируются духовно-нравственные идеи, выраженные в произведении Суфи Аллаяра “Сабатул ажизин” глубоко изучается их влияние на воспитание современной молодежи, педагогическое значение и воспитательные возможности. На основе современных педагогических подходов анализируется, как суфийские взгляды на терпение, смирение, честность, довольство, мир и загробную жизнь, выдвинутые в произведении, могут быть применены в современной образовательной деятельности. В исследовании определяется интеграция произведения "Сабатул ажизин" в учебно-воспитательный процесс, возможности его использования в качестве эффективного воспитательного средства в формировании духовности молодежи. На научной основе освещается, что основные суфийские, нравственные и духовные идеи, выдвинутые в произведении, служат развитию положительных черт характера у современных читателей. Также широко анализируется педагогический потенциал произведения, дидактические подходы, которые могут быть использованы в учебно-воспитательной деятельности, методические возможности и нравственные компетенции, формируемые на его основе.

PEDAGOGICAL SYSTEM OF USING THE WORKS OF SUFI ALLAYAR IN IMPROVING THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

Keywords: patience, humility, honesty, worldview, modern pedagogy, education, patience

Abstract: In this article, the spiritual and moral ideas expressed in Sufi Allayar’s work “Sabotul ojizin” are analyzed, and their influence on the upbringing of modern youth, pedagogical significance, and educational possibilities are deeply studied. Based on modern pedagogical approaches,

and contentment, self-purification, achieving spiritual maturity.

it is analyzed how the Sufi views on patience, humility, honesty, contentment, worldly life, and the afterlife put forward in the work can be applied in today's educational activities. The study determines the integration of the work "Sabotul ojizin" into the educational process, the possibilities of its use as an effective educational tool in the formation of the spirituality of youth. It is scientifically substantiated that the main Sufi, moral, and spiritual ideas put forward in the work serve the development of positive character qualities in modern students. Also, the pedagogical potential of the work, didactic approaches that can be used in educational activities, methodological possibilities, and the moral competencies formed through it are widely analyzed.

KIRISH

XXI asrda globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo o'zaro ta'sir kuchayib borayotgan bir sharoitda, insoniyat oldida yangi ijtimoiy-ma'naviy muammolar yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning so'nib borishi, ruhiy bo'shliq, individualizm va iste'molchilik g'oyalari keng tarqalishi jamiyat barqarorligi va kelajak avlod tarbiyasi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu sababli ham bugungi kunda insonni komillikka yetaklaydigan, uni axloqiy-ruhiy jihatdan tarbiyalaydigan qadimiy-ma'naviy merosga, xususan, tasavvufiy va mumtoz adabiyotga murojaat qilish zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Jahon tajribasi ham shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiya tizimi nafaqat ilmiy bilimlar bilan, balki tarixiy, diniy-ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashgandagina mukammal natija beradi. Bu borada o'zbek mumtoz adabiyoti, ayniqsa tasavvufiy tafakkur namunalarini yoshlar tarbiyasiga integratsiyalash an'anaviy qadriyatlarni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishning samarali usuli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu ma'noda, So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari bebaho axloqiy-ma'naviy manba bo'lib, yoshlar ongida komil inson fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. So'fi Olloyor Markaziy Osiyo tasavvufiy adabiyotining yirik vakillaridan biri sifatida o'z asarlari orqali insonni nafaqat diniy-ma'rifiy jihatdan, balki axloqiy kamolot sari yetaklashni maqsad qilgan. "Sabotul ojizin" asarida ilgari surilgan sabr, tavoze, halollik, qanoat, dunyo va oxirat haqidagi qarashlar bugungi kun tarbiyasida g'oyat dolzarb bo'lib, yoshlar ongida ijtimoiy mas'uliyat, vijdon va komillik mezonlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi tahlikali axloqiy muhitda bu kabi meros namunalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonga joriy qilinishi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ruhiy jihatdan bardavom va irodali etib tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlari ayni haqiqatni ifodalaydi: "Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xalq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'zining ezgu maqsadlariga albatta yetadi" [1, 17].

Mazkur maqolada "Sabotul ojizin" asarida ilgari surilgan asosiy axloqiy, ruhiy va tasavvufiy g'oyalarning zamonaviy tarbiya jarayonidagi pedagogik salohiyati, ularni didaktik vosita sifatida qo'llash imkoniyatlari hamda asar orqali shakllantiriladigan axloqiy kompetensiyalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari – nafaqat tasavvufiy-ma'rifiy bitik, balki komil inson tarbiyasiga xizmat qiluvchi yuksak pedagogik salohiyatga ega manba sifatida e'tirof etiladi. Unda ilgari surilgan sabr, tavoze, halollik, ruhiy bardoshlik, qanoat va nafsni tiyish kabi yuksak axloqiy fazilatlar yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur asar orqali yosh avlodda axloqiy qarashlar, ijtimoiy mas'uliyat, ichki intizom va ruhiy uyg'unlik tamoyillari asosida shaxsiy kamolotga intilish ruhiyati shakllanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, "Sabotul ojizin"ni ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarda ijobiy insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladigan boy tarbiyaviy imkoniyatlar yaratiladi.

Ushbu asar ustida ko'plab adabiyotshunoslar, islomshunoslar va tarixchilar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu yondashuvlar So'fi Olloyor merosining ko'p qirrali mohiyatini ochib berishga xizmat qilmoqda. Xususan, adabiyotshunos olimlar Rashid Zohid va Shuhrat Sirojiddinov o'z izlanishlarida "Sabotul ojizin"ning badiiy, diniy-falsafiy, tasavvufiy hamda pedagogik qirralarini chuqur tahlil qilganlar. Rashid Zohid o'z tadqiqotlarida asarda ilgari surilgan sabr, tavoze', halollik, nafs ustidan g'alaba kabi fazilatlarning komil inson timsolida mujassamlashtirilganini ta'kidlab o'tadi [2]. Bu jihat So'fi Olloyorning tasavvufiy tafakkurga xos axloqiy g'oyalarni nafaqat nazariy asosda yoritgani, balki ularni amaliy hayotda tatbiq etiladigan ijtimoiy-ruhiy model sifatida ilgari surganini anglatadi.

Professor Shuhrat Sirojiddinov esa "Ilm va taxayyul sarhadlari" nomli ilmiy tadqiqotida "Sabotul ojizin"ni o'zbek tilida yozilgan ilk aqoidiy-pedagogik risolalardan biri sifatida baholaydi. Unga ko'ra, asar nafaqat diniy-ma'rifiy



mazmunga ega, balki didaktik jihatdan ham katta salohiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy vositadir. Manbalarda qayd etilishicha, bu asar uzoq yillar davomida turkiy xalqlar orasida diniy-ma'rifiy marosimlar, xususan, xatna, duoxonlik, yig'in va ta'lim jarayonlarida keng foydalanilgan [3]. Ayniqsa, asarda islom aqidalarining hanafiy mazhabi asosida izchil, ommaga tushunarli tilda bayon etilgani uni yoshlar tarbiyasida samarali vositaga aylantiradi. Asar ayni vaqtda dinni noto'g'ri talqin qilish, g'arazli mafkuraviy ta'sirlarning oldini olishda ham ishonchli manba sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, "Sabotul ojizin" asarida muallif o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy muhitdagi salbiy holatlarni ham chuqur tahlil etgan. Bu tanqidiy yondashuv pand-nasihati shaklida ifodalangan bo'lib, jamiyatdagi axloqiy buzilishlar, mansabparastlik, riyo, dunyoga haddan ziyod berilish kabi illatlarga qarshi ruhiy-ma'naviy yechimlar taklif qilinadi.

Mazkur asar g'arbiy ilmiy doiralarda ham e'tibordan chetda qolmagan. Jumladan, mashhur g'arb islomshunosi J. Spenser Trimmingham o'zining "The Sufi Orders in Islam" (Islomdagi so'fiylik tariqatlari) nomli fundamental tadqiqotida so'fiylik tariqatlarining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari, islomdagi ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalish tamoyillarini keng yoritarkan, shu mazmundagi turkiy-tasavvufiy asarlarni ham nazarda tutadi [4]. Uning asari orqali "Sabotul ojizin" kabi risolalarning tarixiy va mintaqaviy kontekstdagi o'rni haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Trimmingham tadqiqoti G'arb ilmiy muhitida so'fiylikni chuqur tahlil qilishga qaratilgan muhim manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilayotgan aralash metod (mixed method) asosida tashkil etilgan bo'lib, unda kvalitatif va kvantitativ yondashuvlar o'zaro uyg'unlashtirilgan. Asosiy urg'u sifatida kvalitatif metodlar tanlangan bo'lib, ular orqali yoshlarning "Sabotul ojizin" asarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy g'oyalarga bo'lgan munosabati, ushbu g'oyalar ularning shaxsiy qarashlari va hayotiy qadriyatlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani chuqur tahlil qilingan. Bunda intervyular, davra suhbatlari va muhokamalar asosiy vosita sifatida qo'llanilgan.

Shu bilan birga, kvantitativ yondashuv yordamchi vosita sifatida qo'llanilib, talabalar ongida vatanparvarlik g'oyalarining shakllanish darajasini aniqlash uchun statistik tahlillardan foydalanildi. So'rovnomalar asosida to'plangan ma'lumotlar Likert shkalasi orqali tahlil qilinib, ularning natijalari umumlashtirildi va foizlarda ifodalandi.

NATIJALAR


Tadqiqotda aralash metod (mixed method) asosida olib borilgan yondashuv o'zini to'laqonli oqladi. Kvalitativ yondashuv doirasida talabalar bilan suhbatlar, davra suhbatlari, vaziyatli muammolar tahlili va bahs-munozaralar tashkil etildi. Ushbu jarayonlar orqali yoshlarning So'fi Olloyor merosiga bo'lgan munosabati, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan yondashuvi chuqur tahlil qilindi.

Shuningdek, kvantitativ tahlil usuli yordamida maxsus so'rovnoma ishlab chiqildi va Likert shkalasi asosida baholandi. So'rovnomada Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tahsil olayotgan 60 nafar talaba respondent sifatida qatnashdi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad – talabalar ongida So'fi Olloyor asarlarining pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatini o'lchash, ularning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalariga ta'sirini aniqlashdan iborat edi.

Olingan natijalar quyidagilarni ko'rsatdi: talabalarning aksariyati So'fi Olloyor nomini eshitgan bo'lsalar-da, uning asarlari bilan yaqindan tanish emasliklarini bildirishdi. Jumladan, ko'plab talabalar “Sabotul-ujizin” asari haqida birinchi marotaba eshitganliklarini ta'kidlashdi. So'rovnoma natijalari Likert shkalasi asosida quyidagicha taqsimlandi:

1-rasm

So'rovnoma natijalari



Natijaviy tahlilga ko'ra, respondentlarning taxminan 45% qismi So'fi Olloyor asarlariga nisbatan ijobiy munosabat bildirmagan. Bu esa yoshlar orasida tasavvufiy-adabiy merosga e'tibor sustligini, ularning bunday manbalarni shaxsiy hayot va axloqiy kamolot manbai sifatida yetarli darajada qabul qilmasligini anglatadi. Shu



bilan birga, ushbu holat o'quv dasturlarida bunday asarlarning yetarli darajada integratsiyalanmaganidan dalolat beradi.

Yuqoridagi natijalar “Sabotul ojizin” kabi asarlarni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga tatbiq etishda yangicha, kontekstual va yoshlar qiziqishlariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko’rsatmoqda. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda milliy-ma’naviy merosni zamonaviy texnologiyalar yordamida ommalashtirish, multimedia va interaktiv vositalar orqali talabalarda qiziqish uyg’otish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, bugungi kunda oliy ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki talabalarda yuksak ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish ham dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun ham o’zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakillari – xususan, So’fi Olloyor ijodini o’rganish va uni zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilish o’quvchi-yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So’fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari, ayniqsa, ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni jihatidan o’quv-tarbiyaviy jarayonga bevosita mos keladi. Asarda muallif o’z davridagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni chuqur mushohada qilgan holda, xalqni ezgulikka, sabr-qanoatga, halollik va vijdon bilan yashashga da’vat etadi. Aynan mana shu jihatlari bilan asar bugungi yoshlar ongida yot g’oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, ularning ichki ma’naviy bo’shliqlarini to’ldirishga xizmat qilishi mumkin.

“Sabotul ojizin” axloqiy-tasavvufiy risolasi sabr, qanoat, nafsni tiyish, tavakkul va zuhd kabi tushunchalar asosida ma’naviy yetuklik g’oyasini ilgari suradi. Asar Qur’on oyatlari, hadislar va avliyo so’zlariga tayangan holda ishonchli dalillar bilan boyitilgan. Bu g’oyalar bugungi globallashuv davrida yoshlarning o’zini anglash, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo’lish, hamda ichki dunyosini boyitish uchun zaruriy manba sifatida xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida yoshlarda axloqiy-ruhiy barqarorlik, vijdon, sabr, ichki intizom kabi ma’naviy tayanchlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, So’fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari yoshlar tarbiyasida kuchli ma’naviy-ma’rifiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Asarning mazmun-mohiyatini chuqur pedagogik tahlil qilish orqali uni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlari o’rganiladi.

Xususan, ushbu asar talabalarda quyidagi shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi:

- Axloqiy qaror qabul qilish malakasi;
- Ichki intizom va vijdon asosida harakat qilish;

- O‘zini boshqarish qobiliyati;
- Ma‘naviy empatiya va boshqalar holatiga befarq bo‘lmaslik.

Bundan tashqari, asarda ta‘riflangan “ojiz” obrazining sabrli, ruhiy barqaror va ma‘naviy pok shaxs sifatida talqin qilinishi – pedagogik nuqtai nazardan komil inson modelining mukammal timsolidir. Asar tasavvufdagi “tarbiya” tushunchasini quyidagi pedagogik bosqichlarga mos holda ifodalaydi:

- Nafsni isloh qilish – ichki kurash va poklanish jarayoni;
- Ruhiy uyg‘onish – shaxsiy o‘zgarish va o‘zini anglash;
- Ilmiy yetuklik – bilim olish va tafakkurni chuqurlashtirish;
- Amaliy poklik – qadriyat asosida faoliyat yuritish.

Tadqiqot shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi yoshlar axborotga boy bo‘lsa-da, ko‘pincha ma‘naviy mezonlarga nisbatan befarq bo‘lishi mumkin. “Sabotul ojizin” g‘oyalari esa:

- Sabrga o‘rgatadi – hayot sinovlariga bardoshli bo‘lishga;
- Ilmga undaydi – bilimni savobli amal sifatida talqin etadi;
- Vijdonni uyg‘otadi – ichki nazoratni kuchaytiradi;
- Empatiyani rivojlantiradi – boshqalarga mehr va yordam ko‘rsatishga undaydi.

Shu boisdan, So‘fi Olloyorning ushbu asari zamonaviy ta‘lim va tarbiya tizimi uchun boy pedagogik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. U nafaqat adabiy yodgorlik, balki yosh avlod ma‘naviy kamoloti uchun amaliy dastur sifatida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

So‘fi Olloyorning “Sabotul ojizin” asari – bu faqatgina tasavvufiy-falsafiy meros emas, balki bugungi ta‘lim-tarbiya jarayoni uchun chuqur axloqiy va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan bebaho manbadir. Asarda ilgari surilgan sabr, shukr, halollik, tavoze, vijdon, ichki poklik kabi qadriyatlar komil inson tarbiyasining negizini tashkil etadi.

Mazkur asarni ta‘lim-tarbiya tizimiga integratsiyalash orqali yosh avlodda axloqiy immunitetni mustahkamlash, ruhiy barqarorlikni shakllantirish, ma‘naviy hushyorlik va ijtimoiy mas‘uliyat hissini rivojlantirish mumkin. “Sabotul ojizin” nafaqat o‘tmish ma‘naviyatining in‘ikosidir, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda yoshlar tarbiyasiga xizmat qiluvchi amaliy dasturdir. Shu jihatdan, asar kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ishonchli ma‘naviy-ma‘rifiy tayanch bo‘la oladi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2016. – B. 17.
2. So'fi Olloyor. Sabotul ojizin. – Toshkent: “Matbaachi” nashriyoti. 2024. – B. 105.
3. Shuhrat Sirojiddinov. Ilm va taxayyul sarhaddari. – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”. 2011. – B. 132.
4. Trimingham J. S. The Sufi Orders in Islam. Oxford University Press, 1998.
5. Al-Qur'on. Tarjimasi va tafsiri.
6. Satimova. S. Tasavvufiy ta'limning ma'naviy tarbiyadagi o'rni // Central Asian journal of multidisciplinary research and management studies. Volume2 , Issue 1. – P. 148-150.

PEDAGOGIKA

TIBBIYOT TALABALARINING EMPATIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

ATAMURATOVA MUNIRA MAXAMADIYEVNA

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasida o‘qituvchisi

Email: munira.atamuratova.91@gmail.com

UDK: 378.147:61:81.25

<https://orcid.org/0009-0006-2711-3509>

Kalit so‘zlar:

pragmatik kompetensiya, empatiya, tibbiy ta’lim, kommunikativ yondashuv, bemor-shifokor munosabati, empatik nutq.

Annotatsiya:

Bugungi globallashtirish sharoitida xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish, xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan malakali kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro ta’lim standartlariga mos yetuk mutaxassislarini shakllantirish mamlakatimiz ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada tibbiyot yo‘nalishi talabalari uchun pragmatik kompetensiyaning ahamiyati, uni idrok etish va empatik tuyg‘ularni shakllantirishdagi o‘rni atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim bo‘lgan tanlangan nutq harakatlarida pragmatik kompetensiyaning rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Pragmatik kompetensiya nafaqat kommunikativ samaradorlikni ta’minlaydi, balki bemor bilan muloqotda insoniy yondashuvni – empatiyaning shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada, ayniqsa, tibbiyot talabalari uchun xorijiy til, xususan ingliz tili darslarida empatik nutqni rivojlantirishda pragmatik kompetensiyaning o‘rni keng yoritilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭМПАТИИ У СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ

Ключевые слова:

прагматическая компетентность,

Аннотация:

В условиях глобализации одной из приоритетных задач системы образования нашей страны является повышение качества преподавания иностранных

эмпатия,
медицинское
образование,
коммуникативный
подход, отношения
пациент-врач,
эмпатическая речь.

языков, подготовка квалифицированных кадров, свободно владеющих иностранными языками, и формирование высококвалифицированных специалистов, соответствующих международным образовательным стандартам. В данной статье подробно рассматривается значение прагматической компетенции для студентов медицинского направления, её восприятие и роль в формировании эмпатических чувств. Кроме того, исследуются пути развития прагматической компетенции в рамках профессионально значимых речевых актов. Прагматическая компетенция не только обеспечивает коммуникативную эффективность, но и играет важную роль в формировании человеческого подхода – эмпатии при общении с пациентом. Особое внимание в статье уделено значению прагматической компетенции в развитии эмпатической речи на занятиях по иностранному языку, в частности по английскому языку, у студентов медицинских вузов.

THE IMPORTANCE OF PRAGMATIC COMPETENCE IN DEVELOPING EMPATHY AMONG MEDICAL STUDENTS

Keywords:

pragmatic competence, empathy, medical education, communicative approach, patient-doctor relationship, emphatic speech.

Abstract:

In the context of globalization, one of the key priorities of the national education system is to improve the quality of foreign language teaching, train qualified specialists who can communicate fluently in foreign languages, and develop highly competent professionals who meet international education standards. This article explores the importance of pragmatic competence for medical students, their perception of it, and its role in developing empathetic communication. It also examines ways to enhance pragmatic competence through selected speech acts relevant to their future professional activities. Pragmatic competence not only improves communicative efficiency but also plays a vital role in fostering humanistic and empathetic interaction with patients. Special emphasis is placed on the role of pragmatic competence in developing empathetic speech during foreign

language, particularly English, classes for medical students.

KIRISH

Bugungi kunda jadal rivojlanish va globalashuv jarayonlari xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Mamlakatimizda ham bu jarayonlar zamirida turli sohalar bo'yicha ingliz tilini maqsadli va samarali o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, ESP (English for Specific Purposes), ya'ni ma'lum soha yoki kasbga yo'naltirilgan ingliz tili, xorijiy til o'qitishining muhim va mustaqil yo'nalishi sifatida shakllanib bormoqda. ESP nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy bilim va malakalarni ham rivojlantirish orqali zamonaviy ta'lim tizimida yetakchi o'rin egallamoqda.

Xususan, tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar nafaqat o'z kasbiga oid chuqur nazariy va amaliy bilimlarga, balki ingliz tilida samarali muloqot olib borish ko'nikmasiga ham ega bo'lishlari zarur. Bunday til ko'nikmalari esa yuqori darajadagi ijtimoiy-psixologik va muloqot kompetensiyalari bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, ularga insoniy yondashuvda bo'lish va hamdardlik bildirishi – zamonaviy tibbiy amaliyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijiy til, xususan ingliz tili darslarida empatik nutqni shakllantirishda pragmatik kompetensiyaning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiy muloqotda empatiya ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislar bemorning ehtiyojlarini tezroq anglaydi, ularning holatini to'g'ri baholaydi va ruhiy iqlimni yengillashtirishga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, empatik yondashuv shifokorning professional imidjini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Empatiya muloqotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uni rivojlantirishda pragmatik kompetensiya, ayniqsa xushmuomalalik, kontekstni to'g'ri anglash va mos ravishda javob bera olish kabi ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi [2].

Til orqali ifoda etiladigan empatik tuyg'ular, ayniqsa xorijiy til vositasida olib boriladigan muloqotda, pragmatik kompetensiya bilan chambarchas bog'liq. Empatiya madaniyatlararo muloqotda aynan pragmatik sezgirlik orqali namoyon bo'ladi. Bu esa tibbiyot sohasida alohida ahamiyatga ega, chunki har bir bemor o'z ijtimoiy-madaniy kontekstida to'g'ri tushunilishi lozim [5].

Talabalarda empatiya bilan bir qatorda pragmatik kompetensiyani shakllantirishning muhim sharti – bu auditoriyada shifokor va bemor o'rtasidagi samarali muloqotga asoslangan realistik mashg'ulotlar va haqiqiy bahslar uchun qulay muhit yaratishdir. Talabalar o'zlaridagi pragmatik kompetensiya darajasini

anglagan va shu yoʻnalishda qoʻllab-quvvatlangan taqdiridagina ular samarali kommunikatsiya olib borish imkoniyatiga ega boʻladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy xorijiy tillarni oʻqitish metodikasi uzluksiz taʼlim tizimining barcha bosqichlarida, ayniqsa oliy taʼlimda, kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratishni nazarda tutadi. Bugungi kunda talabalarni milliy va madaniyatlararo muloqotga tayyorlash, shuningdek xalqaro hamkorlikni mustahkamlash oliy taʼlimning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilmoqda. Bu esa ingliz tili taʼlimida nafaqat kommunikativ, balki pragmatik kompetensiyalarni shakllantirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda.

Chet tilida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalasi boʻyicha V.A. Slastenin, N.V. Kuzmina [9], A.A. Leontev va A.S. Belkin kabi yetuk olimlar tomonidan chuqur oʻrganilgan. Shuningdek, bu jarayonning lingvistik-didaktik tomonlari L.G. Antropova kabi tilshunoslar tomonidan tahlil qilingan.

Pragmatik kompetensiya tushunchasi ilmiy muomalaga dastlab Leech [2] va Grice [1] nazariyalarida kiritilgan boʻlib, bugungi kunda ushbu kompetensiya tilshunoslik va taʼlim sohalarida, ayniqsa kasbiy kommunikatsiya kontekstida keng qoʻllanilmoqda [4].

Tibbiyotda empatiya tushunchasi ilk bor mashhur psixolog Carl Rogers tomonidan asoslab berilgan boʻlib, u empatiyani bemorning his-tuygʻularini chuqur anglash, unga ijobiy munosabat bildirish va samimiy munosabat oʻrnatish sifatida talqin qilgan [3].

Shunga qaramay, empatiya shakllanishida pragmatik kompetensiyaning tutgan oʻrni hali ham toʻliq ilmiy asosda oʻrganilmagan. Ayni jihat ushbu maqolaning dolzarbligini belgilab beradi – yaʼni, maqola aynan shu ilmiy boʻshliqni toʻldirish, tibbiy taʼlim kontekstida pragmatik kompetensiya orqali empatik nutqni shakllantirish masalasiga eʼtibor qaratishga qaratilgan.

Tibbiyot yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurtlarida xorijiy tilni, xususan “Tibbiyotda xorijiy til” fanini oʻrganishning asosiy maqsadi – talabalarni til faoliyatining barcha turlari: oʻqish, yozish, tinglab tushunish, ogʻzaki muloqot bilan bir qatorda leksik-grammatik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonda, ayniqsa, empatik nutq elementlarini oʻrgatish, ularni kommunikativ kontekstda qoʻllay olish koʻnikmasini hosil qilish – tibbiy sohada professional muloqotning ajralmas qismiga aylanmoqda [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola doirasida kuzatuv, so‘rovnoma va eksperiment (tajriba) metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filialida o‘tkazilib, tajriba jarayonida jami 72 nafar 1-bosqich talaba faol ishtirok etdi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida tibbiyot oliy ta‘lim muassasalarida, xususan “Tibbiyotda xorijiy til” fani bo‘yicha olib borilayotgan o‘quv jarayoni tahlil qilindi.

Keyingi bosqichda esa so‘rovnoma asosida tibbiyot oliygohlarining 1-bosqich talabarlari ishtirokida amaliy mashg‘ulotlar davomida ularning muloqotdagi empatik yondashuvi va pragmatik bilim darajasi baholandi.

So‘nggi bosqichda esa pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriqlar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi, va ushbu mashg‘ulotlarning talabalar empatiyasiga ko‘rsatgan ta‘siri kuzatildi hamda tahlil qilindi.

NATIJALAR

Eksperimental bosqichda tajriba va nazorat guruhlariga taqdim etilgan bahs-munozarali topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, kuzatuv natijalari hamda respondentlar bilan o‘tkazilgan anketa va so‘rovnomalardan olingan ma‘lumotlar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

Birinchi, tajriba guruhida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarning – xususan, rolli o‘yinlar (asosan bemor va shifokor o‘rtasidagi muloqotga oid), vaziyatli topshiriqlar (diagnostika jarayoni va tavsiyalar berishga oid suhbatlar) hamda madaniy kontekstda muloqot (turli yosh va madaniyatga mansub bemorlar bilan interaktiv suhbat mashqlari) – muntazam tashkil etilishi natijasida talabalar tomonidan “Tibbiyotda xorijiy til” faniga bo‘lgan qiziqish va faollik sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu esa, amaliy kommunikativ ko‘nikmalarning samarali shakllanishiga xizmat qildi.

Ikkinchi, kuzatuvlar va topshiriqlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, talabalar, odatda, texnik bilimlarga ko‘proq e‘tibor qaratib, bemor bilan muloqotda noverbal signallar (mimika, tana tili, intonatsiya kabi)dan yetarli darajada foydalanmaydilar. Shuningdek, ularning 68 foizi kontekstga mos bo‘lmagan, pragmatik jihatdan to‘liq shakllanmagan gap tuzilmalarini ishlatganlari aniqlandi. Bu esa tibbiy muloqot samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchi, so‘rovnoma natijalari va kuzatuv asosida aniqlanishicha, pragmatik kompetensiyasi yuqori bo‘lgan talabalar bemor bilan muloqotda ehtiyotkorlik, mulohazakorlik va ijtimoiy kontekstga mos yondashuvni namoyon etadilar. Ular bemorning emotsional holatini tushunish, unga dalda berish, og‘ir vaziyatlarda esa samimiy, yumshoq va taskin beruvchi iboralar orqali tasalli bera



olish qobiliyatiga ega. Bunday talabalar kommunikativ kompetensiya orqali nafaqat pragmatik kompetensiyalarini rivojlantiradilar, balki tibbiy matnlar (tibbiy varaqalar, bemorning holati, simptom va belgilarning o'zaro bog'liqligi)ni to'g'ri tahlil qilish, aniqlik bilan izohlash va ularni bemorga empatik yondashuv asosida yetkazish ko'nikmasini ham shakllantiradilar.

O'tkazilgan mashg'ulotlardan oldin va keyin olingan baholash natijalari tahliliga ko'ra, talabalar orasida empatiya darajasi besh ballik tizim bo'yicha o'rtacha 2,8 dan 4,1 gacha oshgani kuzatildi. Shuningdek, ularning pragmatik savodxonlik darajasi 60 foizdan 85 foizgacha oshdi. Bu esa o'quvchilarning muloqot jarayonida kontekstga mos, ijtimoiy jihatdan maqbul va emotsional jihatdan sezgir yondashuvni egallaganini anglatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bo'lajak shifokorlar uchun zarur bo'lgan empatik tuyg'ularni shakllantirish jarayonida pragmatik kompetensiya muhim va hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMALAR

Ma'lum bir davr mobaynida mutaxassisligi ingliz tili bo'lmagan o'rganuvchilar, jumladan tibbiyot yo'nalishidagi talabalar orasida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik jihatdan to'g'ri gaplar tuzish va zarur terminologiyani qo'llash ko'nikmalarining shakllangani kuzatiladi. Biroq, agar talabalar pragmatik qoidalarni yetarlicha bilmasalar yoki nutq jarayonining kontekstual xususiyatlarini anglamasalar, muloqot davomida turli muammolar yuzaga kelishi mumkin. Aynan shunday holatlarning oldini olish uchun pragmatik kompetensiyani shakllantirish va takomillashtirish o'quv jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Bo'lajak shifokorlar uchun empatik tuyg'ularni shakllantirish – tibbiy muloqotda insonparvarlik, ishonch va madaniy sezgirlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pragmatik kompetensiya nafaqat til orqali muloqot qilish, balki aytilayotgan mazmuni to'g'ri kontekstda tushunish, vaziyatga mos munosabat bildirish, va o'z fikrini emotsional sezgirlik, ya'ni empatik yondashuv bilan yetkazish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tilshunos olim G. Leech ta'kidlaganidek, muloqotda hurmat, xushmuomalalik va sezgirlikni ifoda etish – empatik yondashuvning asosiy vositalaridan biridir. Aynan pragmatik qoidalarni puxta egallash shifokor-bemor muloqotida hissiy masofani kamaytirish, bemorning ichki dunyosini chuqurroq tushunish va unga zarur dalda berish imkonini yaratadi [2].

Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko'ra, muloqotning muvaffaqiyati faqat grammatik va leksik bilimlar bilan



cheklanmaydi. Ayniqsa tibbiy muhitda bu muvaffaqiyat, avvalo, “qachon, qanday vaziyatda va kimga qanday murojaat qilishni bilish” kabi kontekstual omillarga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur jihatlar esa bevosita pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismini tashkil etadi. Shunday ekan, bo‘lajak shifokor pragmatik kompetensiyaga ega bo‘lsa, u nafaqat til vositasida muloqot qilish, balki bemorning ehtiyojlarini noverbal (tana tili, mimika, ovoz tembri) va kontekstual belgilar orqali aniqlay olish qobiliyatiga ham ega bo‘ladi. Bu esa empatik muloqotni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi [7].

Batson va uning hamkorlari olib borgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, empatiya – bu faqat ichki tuyg‘u emas, balki uni tashqi muloqotda ifoda eta olish mahoratidir. Bu mahorat esa til va muloqotda pragmatik sezgirlik bilan chambarchas bog‘liq. Demak, bo‘lajak shifokorlarni tayyorlash jarayonida ularning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish — bu faqat xorijiy tilni o‘rgatish emas, balki ularning ijtimoiy-emotsional sezgirligini, empatik yondashuvini ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi [6].

Kompetensiya – bu o‘quvchi yoki mutaxassisning muayyan fan doirasida egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va malakalarini real vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Yuqorida keltirilgan fikrlar va tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, empatiya – bu insonda tabiiy tarzda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan holat emas, balki o‘rgatiladigan va shakllantiriladigan kompetensiyadir. Ayniqsa, pragmatik kompetensiya orqali talabalar muloqotini vaziyatga mos tarzda moslashtirishni, suhbatdoshning holatidan kelib chiqib munosabat bildirishni hamda ijtimoiy jihatdan maqbul til birliklaridan foydalanishni o‘rganadilar.

Shu nuqtai nazardan, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish – bu faqatgina empatik tuyg‘ularni his qilish emas, balki ular orqali ongli, faol va ijobiy muloqot olib borish malakasini shakllantirishdir. Bu esa tibbiy ta‘lim tizimida pragmatik yondashuv asosida kommunikativ mashg‘ulotlarni, simulyatsion vaziyatlarni va bemor modeli bilan interaktiv mashqlarni joriy etish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Mazkur yondashuv nafaqat ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bo‘lajak shifokorlarning bemorlar bilan sifatli, samimiy va insonparvar munosabatlar o‘rnatishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tibbiyotda empatiya – bu shunchaki insoniy fazilat emas, balki kasbiy zarurat sifatida qaralmoqda. Bo‘lajak shifokorlarni bu yo‘nalishda tayyorlash uchun ularning pragmatik kompetensiyasini maqsadli, tizimli va metodik asosda shakllantirish zarur. Buning uchun esa kommunikativ, ijtimoiy-

emotsional va madaniy bilimlarni bir butun integratsion yondashuv asosida uyg'unlashtirish talab etiladi.

Natijada talabalar nafaqat xorijiy tilni grammatik va leksik jihatdan egallaydilar, balki bemorning ruhiy holatini anglay oladigan, emotsional ehtiyojlariga sezgir va madaniy jihatdan xushyor mutaxassis sifatida shakllanadilar. Boshqacha aytganda, ular bemorning “tilini” emas, balki “qalbini eshita” oladigan shifokor bo‘lib yetishadilar.

Pragmatik kompetensiya tibbiy ta'limda empatik tuyg'ularni shakllantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar muloqot jarayonida o'z fikrlarini aniq, kontekstga mos va emotsional sezgirlik bilan ifodalashni o'rganishlari zarur. Bu esa kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtirib, bemor bilan insoniy asosda samarali va ishonchli aloqa o'rnatishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, olimlarning quyidagi fikrini eslatib o'tish o'rinli: empatiya — bu faqat ichki tuyg'u emas, balki ongli tarzda rivojlantiriladigan mahoratdir. Uni shakllantirishda esa til orqali ifodalanadigan muloqot, ya'ni pragmatik kompetensiya asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [6].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grice H. P. *Logic and Conversation*. – Cambridge: Harvard University Press, 1975.
2. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983.
3. Rogers C. *A Theory of Therapy, Personality, and Interpersonal Relationships* // In S. Koch (Ed.), *Psychology: A Study of a Science*. – New York: McGraw-Hill, 1959. Vol. 3. – P. 184-256.
4. Kasper G., Blum-Kulka S. *Interlanguage Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1993.
5. Thomas J. *Meaning in interaction: an introduction to pragmatics*. – London: Longman, 1995.
6. Batson C. D., Chang J., Orr R., Rowland J. *Empathy and attitudes: Can feeling for a member of a stigmatized group improve feelings toward the group?* // *Journal of Personality and Social Psychology*. 1997, Vol. 72, No. 1. – P. 105-118.
7. Hymes D. *On communicative competence* // In: Pride J. B., Holmes J. (Eds.). *Sociolinguistics: Selected Readings*. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269-293.
8. Makhamadiyevna A. M., Toirov D. A. *Improving pragmatic skills of higher*



- education (medical) students based on innovative and interactive methods // ACUMEN: International journal of multidisciplinary research. 2024. Vol. 1, No. 5. – P. 50-53.
9. Кузьмина Н. В., Максимова Э. А., Жаринова Е. Н. Понятие знаний и компетенций учителя иностранного языка: монография. – Санкт-Петербург: Центр стратегических исследований, 2019. – С. 111.
10. Makhamadievna A. M., Rakhmatullaeva N. T. Teaching foreign language by using effective methods // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. 2021, Vol. 11, No. 12. – P. 47-50.

PEDAGOGIKA

TALABALARNI KASHTACHILIKKA OID AMALIY FAOLIYATGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

ERMATOVA MEXRINISO BEKMURADOVNA

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi*

Email: ermatovamehriniso948@gmail.com

UDK: 746.3

<https://orcid.org/0009-0003-2902-433X>

Kalit so'zlar:

kashtachilik, amaliy mashg'ulot, psixologik-pedagogik sharoit, estetik tarbiya, talabalar faoliyati, ijodkorlik, kasbiy motivatsiya, mustaqil ta'lim.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada talabalarni kashtachilik san'atiga oid amaliy faoliyatga o'rgatishda psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning samaradorlikka ta'siri atroflicha yoritilgan. Unda kashtachilik san'ati milliy madaniyatni asrash, estetik tarbiya berish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, talabalarida estetik did, badiiy tasavvur va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda samarali pedagogik yondashuvlar, jumladan motivatsiya, individual yondashuv, estetik muhit va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o'rni chuqur tahlil etilgan. Maqolada amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning kasbga yo'naltirish, qiziqishlarni rag'batlantirish va ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirishdagi roli asoslab berilgan.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ВЫШИВКЕ

Ключевые слова: вышивка, практические занятия, психолого-педагогические

Аннотация: В данной статье подробно освещается влияние психолого-педагогических условий на эффективность обучения студентов практической деятельности в области искусства вышивки. В ней искусство вышивки интерпретируется как средство

условия,
эстетическое
воспитание,
деятельность
студентов,
творчество,
профессиональная
мотивация,
самостоятельное
обучение.

сохранения национальной культуры, эстетического воспитания и развития творческого мышления. Также глубоко проанализирована роль эффективных педагогических подходов, в том числе мотивации, индивидуального подхода, эстетической среды и использования современных технологий в формировании эстетического вкуса, художественного воображения и творческих компетенций у студентов. В статье разработаны методические рекомендации по организации практических занятий, обоснована их роль в профессиональной ориентации, стимулировании интересов и повышении активности студентов в образовательном процессе.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR TEACHING STUDENTS PRACTICAL ACTIVITIES IN EMBROIDERY

Keywords:

embroidery,
practical training,
psychological and
pedagogical
conditions, aesthetic
education, student
activities, creativity,
professional
motivation,
independent
learning.

Abstract: This article comprehensively covers the influence of psychological and pedagogical conditions on the effectiveness of teaching students practical activities related to the art of embroidery. In it, the art of embroidery is interpreted as a means of preserving national culture, providing aesthetic education, and developing creative thinking. The role of effective pedagogical approaches in the formation of aesthetic taste, artistic imagination, and creative competencies in students, including motivation, an individual approach, an aesthetic environment, and the use of modern technologies, was also deeply analyzed. The article develops methodological recommendations for organizing practical classes and substantiates their role in career guidance, stimulating interest, and increasing student activity in the educational process.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniyatimizni asrab-avaylash, uni yosh avlod ongiga singdirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, milliy hunarmandchilik turlarini, xususan, kashtachilik san'atini o'rganish

va uni yoshlar orasida targ‘ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Kashtachilik – bu nafaqat qadimiy san‘at turi, balki estetik tarbiya, sabr-toqat, ijodiy fikrlash, badiiy did va nafislikni shakllantiruvchi samarali tarbiyaviy vositadir. Ayni paytda, kashtado‘zlik hunarmandchilikning qadimiy, o‘ziga xos va boy tarixiy an’anaga ega turlaridan biri sifatida ajralib turadi” [1, 10].

Kashtachilik san‘ati o‘z mohiyatiga ko‘ra xalqchil bo‘lib, u oddiy xalq, ayniqsa ayollarning estetik dunyoqarashini, ma‘naviy kechinmalari va ichki olamini aks ettirgan. Ayollar uchun kashtachilik qalb izhorining yagona tasviriy vositasi sifatida xizmat qilgan, bu esa ularning ruhiy boyligini ifodalovchi muhim vosita bo‘lgan. Masalan, qizning uyiga kelgan sovchilar dasturxoniga qo‘shib, agar u sovchi yuborgan yigitga rozi bo‘lsa, o‘zi tikkan ro‘molchani yuborgani – dil izxori sifatida qabul qilingan [2, 22].

Kashtachilik – xalq hunarmandchiligining qadimiy va go‘zal turlaridan biri bo‘lib, u orqali nafaqat estetik go‘zallik yaratiladi, balki milliy madaniyat, urf-odat va ijtimoiy qadriyatlar ham saqlanadi. Talabalarni ushbu soha bo‘yicha amaliy faoliyatga jalb etish, ularda qiziqish uyg‘otish va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni to‘g‘ri tashkil etish, individual yondashuvni qo‘llash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlarni olib borish muhim omillar hisoblanadi.

Kashtachilik bilan shug‘ullanish orqali talabalar nafaqat hunar o‘rganadilar, balki mehnatga, madaniyatga, sabr-toqatga o‘rganadilar, ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Bu esa ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [3, 47]. Ayni paytda kashtachilik mashg‘ulotlari orqali talabalarida kasbiy kompetensiyalar, ijodkorlik, estetik did va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyati kengdir.

Mazkur maqolada kashtachilik san‘ati bo‘yicha o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, amaliy mashg‘ulotlarning mazmun va sifatini takomillashtirish, shuningdek, talabalarda zarur psixologik-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kashtachilik san‘ati va hunarmandchilik sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ushbu faoliyatning estetik, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatini chuqur asoslab beradi. Bu tadqiqotlar kashtachilikni nafaqat san‘at turi, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlikni anglash, estetik tarbiya va ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi vosita sifatida talqin etadi.

Jumladan, M.X. Shomirzayev o‘zining “O‘zbek milliy hunarmandchiligida

innovatsion jarayonlar” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida O‘zbekiston xalq amaliy san‘ati, xususan, kashtachilik turlarining shakllanish jarayoni, ularning tarixiy ildizlari va mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qiladi [1, 84]. Shuningdek, M.X. Shomirzayevning “O‘zbek milliy hunarmandchiligining spektral-variativ komponentlari” nomli qo‘llanmasida kashtachilik hunarining o‘quvchilar uchun to‘garak mashg‘ulotlari orqali o‘rgatish usullariga, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi va estetik muhitni tashkil etish zaruratiga alohida e‘tibor qaratadi [2, 96]. Ushbu manbalarda kashtachilikni o‘qitish jarayonining metodik jihatlari va amaliy faoliyat asoslari o‘z aksini topgan.

M.B. Ermatova esa o‘zining “Talabalarga milliy kashtachilikni o‘rgatish yo‘llari” nomli maqolasida amaliy san‘at elementlarini o‘rgatish orqali talabalarda ijodkorlik, badiiy did, kasbga bo‘lgan qiziqish va o‘ziga ishonch kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni yoritgan. M.B. Ermatovanning ta’kidlashicha, kashtachilikni o‘qitishda bosqichma-bosqich uslubni qo‘llash, didaktik materiallardan foydalanish va talabalar faoliyatini baholash mezonlarini ham tavsiflaydi [3, 45-49].

Xorijiy adabiyotlarda ham kashtachilik kabi amaliy san‘at turlarining kognitiv rivojlanish va shaxsiy salohiyatni namoyon etishdagi o‘rni keng yoritilgan. Masalan, J. Dyui (John Dewey) o‘zining mashhur “Art as Experience” asarida san‘atni inson hayot tajribasining ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, san‘at bilan shug‘ullanish orqali inson o‘z kechinmalari, hissiyotlari va bilimi o‘rtasida uyg‘unlik hosil qiladi [4, 335]. H. Gardner esa “Multiple Intelligences” (Ko‘p intellektlar nazariyasi) doirasida amaliy faoliyatlarning – jumladan, san‘at, musiqa, hunarmandchilik – inson intellektini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslaydi. Bu nazariyalar amaliy san‘at turlarini ta’lim jarayoniga integratsiyalashning nazariy asoslarini taqdim etadi [5, 320].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarni kashtachilik san‘atiga oid amaliy faoliyatga tayyorlashda nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalar, balki ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik va pedagogik omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Aynan ana shu yondashuvlar kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishda, talabaning shaxs sifatida rivojlanishida va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarni kashtachilik san‘ati bo‘yicha amaliy faoliyatga o‘rgatish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik asoslarni aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalariga alohida

e'tibor qarotildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar va ilmiy asoslar doirasida olib borildi:

Metodologik asoslar:

- O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari, jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan konseptual talablar;
- Zamonaviy pedagogika va psixologiyaga oid nazariy qarashlar, jumladan, V.V. Davydov, L.S. Vygotskiy, J. Dyui, A.A. Leontyev kabi olimlarning ta'lim jarayonining shaxsiy-rivojlantiruvchi xususiyatlariga oid g'oyalari;
- Milliy madaniy meros, hunarmandchilik va kashtachilik san'ati bo'yicha ilgari o'rganilgan ilmiy-tarixiy manbalar hamda amaliy tavsiyalar.

Tadqiqot usullari:

Nazariy tahlil – mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, o'quv dasturlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni chuqur o'rganish orqali tadqiqotning nazariy asoslari ishlab chiqildi;

So'rovnoma va suhbatlar – kashtachilik mashg'ulotlarida faol ishtirok etayotgan talaba-qizlar, pedagoglar hamda kashtachilik ustalari bilan olib borilgan suhbat va so'rovlar orqali ularning tajribalari, ehtiyojlari va qarashlari tahlil qilindi;

Ekspiriment va kuzatuv – o'quv jarayoniga kashtachilik faoliyatini tatbiq qilish jarayonida talabalar faoliyatini bevosita kuzatish orqali pedagogik sharoitlar va ularning samaradorligi baholandi;

Tajriba-sinov ishlari – kashtachilik san'atini o'qitishning innovatsion shakllarini sinovdan o'tkazish, mashg'ulotlar samaradorligini baholash va ilg'or amaliyotlarni aniqlash maqsadida amaliy tajribalar tashkil etildi.

Ushbu metodlar uyg'un qo'llanilishi orqali tadqiqot obyekti bo'lgan o'quv jarayonida kashtachilik san'atini muvaffaqiyatli o'rgatish, talabalarning estetik didini, ijodiy salohiyatini va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali uslub va yondashuvlar aniqlab olindi.

NATIJALAR

Kashtachilik san'ati o'z tabiatiga ko'ra xalqchil, xalqning, xususan ayollarning estetik dunyoqarashini ifodalovchi qadimiy san'at turi hisoblanadi [3]. U xalq turmushi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, avvalambor xonadon ehtiyojlarini qondirish va milliy an'analarni davom ettirish maqsadida rivojlangan. XX asrgacha bo'lgan kashtachilik namunalarda bozorga yo'naltirilgan mahsulotlardan ko'ra, ruhiy-ma'naviy mazmun va estetik zavqni uyg'otuvchi jihatlar ustuvor bo'lgan. Masalan, qizning sovchilarga roziligini ifodalash maqsadida qo'lda

tikilgan kashta ro‘molcha yuborishi ushbu san‘at vositasida ruhiy kechinmalarni ifodalash imkonini bergan.

Tadqiqot davomida kashtachilik san‘atini o‘rgatish jarayonida talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish, psixologik-pedagogik yondashuvlar, hamda dars jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishning samaradorligi o‘rganildi. Kashtachilik nafaqat hunar, balki estetik did, ijodiy tafakkur, sabr-toqat va mehnat madaniyatini rivojlantiruvchi omil sifatida ham talabalarning shaxsiy va kasbiy shakllanishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Birinchidan, o‘tkazilgan so‘rovnoma tahlili talabalar orasida kashtachilik san‘atiga nisbatan katta qiziqish borligini ko‘rsatdi. Respondentlarning 72 foizi ushbu san‘atni o‘rganishni foydali deb hisoblagan, biroq amaliy faoliyatga yo‘naltirishda uslubiy, texnik va motivatsion jihatdan muammolar mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, 65 foiz talaba kashtachilik darslarida ko‘proq vizual, amaliy yondashuvlarga ehtiyoj borligini bildirgan.

Ikkinchidan, tajriba-sinov ishlari kashtachilik bo‘yicha tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samaradorligini tasdiqladi. Faol ishtirok etgan talabalar orasida ijodiy yondashuv, estetik tafakkur va sabr-toqat kabi fazilatlar sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, psixologik jihatdan qulay muhit yaratilgan guruhlarda talabalar o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oldi va faollik darajasi 40% ga oshgani qayd etildi. Loyiha asosida tashkil etilgan amaliy topshiriqlar esa talabalar orasida kasbiy motivatsiyani kuchaytirgan.

Uchinchidan, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan, jumladan interaktiv metodlar va vizual namoyishlardan foydalanish orqali talabalar bilimining mustahkamligi, eslab qolish darajasi va ijodiy faolligi ortgani kuzatildi.

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

- Kashtachilik san‘atini o‘rgatishda amaliy-tajriba asosida ishlash eng samarali yondashuvlardan biridir.
- Talabalarni amaliy mashg‘ulotlarga faol jalb qilish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.
- O‘z ish natijalarini namoyish qilish, baholash va rag‘batlantirish orqali talabalarda barqaror qiziqish va kasbiy motivatsiya shakllanadi.
- Kashtachilik bilan muntazam shug‘ullanish talabalar shaxsida estetik tarbiya, ijodkorlik va mustaqil ta‘limga bo‘lgan tayyorgarlikni rivojlantiradi.

MUHOKAMALAR

Kashtachilik – xalqimizning boy madaniy merosini aks ettiruvchi, estetik, tarbiyaviy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan san‘at turi hisoblanadi. Talabalarni

ushbu faoliyatga jalb etish ularning ijodiy tafakkuri, estetik didi va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim vositadir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kashtachilik bo'yicha samarali amaliy mashg'ulotlar talabalar o'rtasida nafaqat qiziqishni kuchaytiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, kasbiy motivatsiyasi va ijodkorlik salohiyatining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarni faol o'quv faoliyatiga jalb qilishda psixologik-pedagogik sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, motivatsion yondashuv, shaxsiy yondashuv tamoyili, hamda o'qitishning zamonaviy, interaktiv metodlaridan foydalanish orqali talabalar ishtirokini faollashtirish mumkin. Vizual, kinestetik va verbal yondashuvlarning uyg'unligida tashkil etilgan darslar esa o'quvchilarning turli intellektual va hissiy ehtiyojlariga moslashadi.

Shuningdek, kashtachilik orqali talabalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda loyiha asosida mashg'ulotlar tashkil etish, amaliy ko'rgazmalar o'tkazish va jamoaviy ish shakllaridan foydalanish talabalarni o'zlashtirish jarayoniga faolroq jalb etadi. Tadqiqotda kuzatilganidek, aynan bunday yondashuvlar orqali estetik did, kasbiy motivatsiya va mustaqil o'rganish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, kashtachilikni o'qitishda puxta o'ylangan psixologik-pedagogik yondashuv, zamonaviy metodikalar va milliy qadriyatlar uyg'unligi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarni har tomonlama barkamol ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kashtachilik san'ati – nafaqat amaliy hunar, balki talabalarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va shaxsiy fazilatlarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Bu faoliyat orqali yoshlar milliy madaniyatga hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqat va badiiy did kabi sifatlarni o'zlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kashtachilik bo'yicha o'quv jarayonining samaradorligi, avvalo, psixologik va pedagogik shart-sharoitlarning to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq. Xususan, talabalarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish, ularni mustaqil ishlashga va ijodiy izlanishga yo'naltirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Shu boisdan, kashtachilikni o'qitishda zamonaviy o'qitish metodlari, individual yondashuv, vizual va amaliy faoliyatga asoslangan dars shakllaridan foydalanish



ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday integrativ yondashuv talabalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilib, ularni nafaqat hunar egasi, balki barkamol va ijodkor shaxs sifatida shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2017. – B. 84.
2. Shomirzayev M.X. O'zbek milliy hunarmandchiliging spektral-variativ komponentlari: o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B. 96.
3. Ermatova M.B. Talabalarga milliy kashtachilikni o'rgatish yo'llari // Ilm sarchashmalari: Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. – Urganch, 2025. №1. – B. 45-49.
4. Dewey J. Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 1934. – P. 355.
5. Gardner H. Multiple Intelligences: The Theory in Practice. – New York: Basic Books, 1993. – P. 320.

PEDAGOGIKA

TABIY FANLARNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK METODLAR VA ULARNING EKOLOGIK TA'LIMDAGI RO'LI

TOSHTEMIROVA MAFTUNA KARIMOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

Email: maftunatoshtemirova161@gmail.com

UDK: 373.3:502.4

Kalit so'zlar:

ekologik ta'lim,
pedagogik metodlar,
ekologik ong,
interfaol ta'lim,
barqaror rivojlanish,
ekologik tarbiya,
tajribaviy o'qitish,
loyiha asosidagi
ta'lim.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ekologik ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik metodlarning mazmuni, ularning dolzarbligi hamda o'quvchilarda ekologik ong, tafakkur va mas'uliyatni shakllantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Xususan, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi, interfaol metodlar, tajriba asosida o'qitish, loyiha asosidagi faoliyat va amaliy mashg'ulotlarning ekologik tarbiya samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada, shuningdek, real ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining metodik jihatlari, o'qituvchining motivatsion va yetakchilik roli hamda ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bayon etilgan. Ekologik ta'lim orqali o'quvchilarda barqaror rivojlanishga bo'lgan ongli munosabat, atrof-muhitga nisbatan hurmat va shaxsiy mas'uliyat hissini rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК И ИХ РОЛЬ В ЭКОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Ключевые слова:

экологическое образование,
педагогические методы,
экологическое

Аннотация: В данной статье глубоко анализируется содержание педагогических методов, используемых в процессе экологического образования, их актуальность и роль в формировании экологического сознания, мышления и ответственности у учащихся. В частности, освещаются возможности сочетания традиционных и

сознание,
интерактивное
образование,
устойчивое
развитие,
экологическое
воспитание,
экспериментальное
обучение,
проектное
обучение.

инновационных подходов, интерактивных методов, обучения на основе опыта, проектной деятельности и практических занятий в повышении эффективности экологического воспитания. В статье также изложены методические аспекты учебного процесса, направленного на решение реальных экологических проблем, мотивационная и лидерская роль учителя, а также практические рекомендации по формированию экологической культуры в образовательных учреждениях. Экологическое образование показывает эффективные пути развития у учащихся сознательного отношения к устойчивому развитию, уважения к окружающей среде и чувства личной ответственности.

PEDAGOGICAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF NATURAL SCIENCES AND THEIR ROLE IN ECOLOGICAL EDUCATION

Keywords:

ecological
education,
pedagogical
methods, ecological
consciousness,
interactive
education,
sustainable
development,
ecological
education,
experimental
training,
project-based
education.

Abstract:

This article thoroughly analyzes the content of pedagogical methods used in the process of environmental education, their relevance, and their role in the formation of ecological consciousness, thinking, and responsibility in students. In particular, the possibilities of combining traditional and innovative approaches, interactive methods, teaching based on experience, project-based activities, and practical classes in increasing the effectiveness of environmental education are highlighted. The article also sets out methodological aspects of the educational process aimed at solving real environmental problems, the motivational and leadership role of the teacher, and practical recommendations for the formation of ecological culture in educational institutions. Through environmental education, effective ways are shown to develop students' conscious attitude towards sustainable development, respect for the environment, and a sense of personal responsibility.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida tabiiy fanlarning o'рни tobora ortib bormoqda. XXI asrda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgani, ekologik muammolarning global tus olishi, shuningdek, insoniyat oldida turgan dolzarb vazifalarning yechimi aynan tabiiy fanlar – biologiya, geografiya, kimyo va fizika orqali amalga oshirilmoqda. Shu bois, ushbu fanlarni maktab ta'limida chuqur o'rgatish, ularni zamonaviy pedagogik metodlar asosida tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan ekologik muammolar – global isish, suv tanqisligi, o'rmonlarning qisqarishi, chiqindilar muammosi va biologik xilma-xillikning kamayishi – ta'lim orqali hal etilishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardandir. Ayniqsa, yoshlarda ekologik ongni erta shakllantirish kelajak avlodning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini ta'minlaydi [2, 62].

Ekologik ta'lim uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga asoslanadi. Uning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'lim: Tabiatga mehr uyg'otish, oddiy kuzatishlar orqali bolalarda ekologik sezgirlikni shakllantirish.
- Boshlang'ich ta'lim: Tabiatni asrashga oid boshlang'ich tushunchalarni berish, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish.
- O'rta va yuqori sinflar: Ekologik muammolarni chuqur tahlil qilish, ekologik tadbir va loyihalarda ishtirok etish.
- Oliy ta'lim: Ekologik masalalarni kasbiy faoliyatda hisobga olish, ixtisoslashgan fanlar orqali ekologik yondashuvni chuqurlashtirish.

Global ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va tabiiy resurslarning cheklangani sharoitida ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogik metodlar ekologik ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ularning to'g'ri tanlanishi va maqsadga muvofiq qo'llanilishi o'quvchilarda ekologik mas'uliyat, muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi [3, 25].

Pedagogik metodlar – bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi usullar majmuasidir. Xususan, ekologik ta'lim doirasida qo'llaniladigan metodlar o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik madaniyat, mas'uliyat hissi va kuzatuvchanlik kabi fazilatlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar va amaliy-tadqiqotiy faoliyatga asoslangan darslar orqali o'quvchilar ekologik muammolar mohiyatini anglay boshlaydi hamda ularning yechimi borasida izlanishga kirishadi [1, 13]. Ular

ekologik ta'limda quyidagi yo'nalishlarda samarali qo'llaniladi:

1. An'anaviy pedagogik metodlar

– Ma'ruza va suhbatlar orqali ekologik mavzular bo'yicha nazariy bilimlar beriladi.

– Savol-javob metodi esa o'quvchilarning faolligini oshirishda, ularning ekologik mavzular bo'yicha mustaqil fikr yuritishiga xizmat qiladi.

2. Interfaol metodlar

– “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Rol o'ynash” kabi metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoga ko'p qirrali yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu metodlar ekologik muammolarni tahlil qilish, baholash va ularni hal etish jarayonida o'quvchilarning faolligini kuchaytiradi.

3. Tajriba va amaliyotga asoslangan ta'lim

– Ekskursiyalar, biologik kuzatuvlar va ekologik tadqiqotlar orqali o'quvchilar atrof-muhit holatini bevosita o'rganadilar [6, 36]. Bu yondashuv ekologik muammolarni real kontekstda anglash va ularga ongli munosabat bildirishga xizmat qiladi.

4. Loyiha asosidagi o'qitish

– “Maktab hovlisini obodonlashtirish” yoki “Qayta ishlash texnologiyalari” kabi ekologik loyihalarda ishtirok etish o'quvchilarda ekologik mas'uliyatni amalda his etishlariga yordam beradi. Bu metod ularni ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

5. Kreativ va axborot-kommunikatsion metodlar

– Raqamli texnologiyalar, videodarslar hamda interaktiv dasturlar orqali ekologik bilimlarni o'zlashtirish yanada qiziqarli va samarali tus oladi [4:98]. Bu metodlar zamonaviy o'quvchining e'tiborini jalb qilish va ekologik ongini shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, tabiiy fanlar asosida ekologik ta'limni samarali tashkil etish bo'yicha yetarlicha nazariy va amaliy manbalar mavjud. Bu manbalar ekologik tarbiyaning mazmuni, metodik yondashuvlari hamda integrativ o'qitish imkoniyatlarini yoritadi.

Xususan, N.A. Musurmonova, I.N. Sattorov, M.T. Xolboev kabi pedagog-olimlarning ilmiy ishlari va metodik tavsiyalarida ekologik ongini shakllantirishda fanlararo integratsiyaning o'rni alohida ta'kidlanadi. Ularning tadqiqotlarida biologiya, geografiya, kimyo kabi tabiiy fanlarning uzviy bog'liqligi orqali o'quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish mumkinligi asoslab berilgan.

“Ekologik tarbiya asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma (Toshkent, 2019) maktab sharoitida ekologik ta’limni amaliyotga tadbiq etishning metodik yo‘llarini yoritadi. Unda o‘quv jarayonida interfaol usullar, loyihaviy yondashuv va kuzatuv asosidagi topshiriqlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, UNESCO hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan chop etilgan konseptual hujjatlar va metodik tavsiyalarda ekologik barqarorlik, ekologik madaniyat va tabiiy fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nazariy asoslar bilan mustahkamlangan. Bu hujjatlar ekologik ta’limni global muammo sifatida yondashishni va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishini ta’kidlaydi [2].

Shuningdek, umumta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan biologiya, geografiya va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlariga oid darsliklar ekologik tushunchalarni o‘quvchilarning ongiga singdirishda asosiy didaktik vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu darsliklarda nazariy bilimlar bilan birga, amaliy topshiriqlar, kuzatuv va tajribalar orqali o‘quvchilarda ekologik madaniyat va mas’uliyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni tasdiqlaydiki, tabiiy fanlar asosida ekologik ta’limni tashkil etish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ekologik ong va mas’uliyatni shakllantiradi hamda ta’lim jarayonining amaliy yo‘naltirilgan bo‘lishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ekologik ta’limning samaradorligini o‘rganishga yo‘naltirilgan bir qator ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va umumlashtirish metodi: Tabiiy fanlar va ekologik ta’limga oid mavjud ilmiy-nazariy manbalar, ilg‘or pedagogik tajribalar va konsepsiyalar tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida asosiy g‘oya va yondashuvlar tizimlashtirilib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Taqqoslash metodi: Ekologik tarbiyani shakllantirishda qo‘llanilayotgan turli pedagogik metodlarning afzallik va kamchiliklari o‘zaro taqqoslandi. Ularning samaradorligi va amaliy ahamiyati ekologik ta’lim kontekstida baholandi.

Empirik kuzatuv: Maktab amaliyoti davomida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar, darsdan tashqari tadbirlar va loyihalarda o‘quvchilarning ekologik ong va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyatlar kuzatildi va tahlil qilindi.

Ekspert baholash usuli: Tajribali pedagog va metodistlarning fikr-mulohazalari, metodik tavsiyalari o‘rganilib, qo‘llanilayotgan o‘quv-uslubiy yondashuvlarning amaliy samaradorligi aniqlashtirildi.



Sotsiologik so'rovnomalar va suhbatlar: O'quvchilar va o'qituvchilar ishtirokida tashkil etilgan suhbatlar hamda anonim anketalar orqali ekologik ta'limning mazmuni, uning ta'siri va mavjud muammolari bo'yicha ijtimoiy fikrlar to'plandi va tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlillar, amaliy kuzatuvlar va pedagogik metodlarning qo'llanilishi asosida quyidagi muhim ilmiy-pedagogik natijalarga erishildi:

Ekologik ta'lim uchun samarali pedagogik yondashuvlar aniqlab olindi. Tabiiy fanlar asosida olib borilgan tahlillar ekologik tarbiyada qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol, innovatsion va loyiha asosidagi metodlarning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Bu metodlar o'quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarda ekologik tafakkur va mas'uliyat hissining shakllanishiga zamin yaratildi. Ekologik mazmunga ega mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar yechimi, amaliy tadqiqotlar orqali o'quvchilarning ekologik ongini chuqurlashtirish va ularni atrof-muhit muammolariga befarq bo'lmagan shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyati aniqlandi.

Fanlararo integratsiya asosidagi yondashuvning afzalliklari asoslab berildi. Ekologik ta'limning biologiya, geografiya, kimyo, texnologiya kabi tabiiy fanlar bilan uzviy aloqasi ta'lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash samaradorligini oshirishini ko'rsatdi.

Pedagogik amaliyot uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. O'qituvchilar tomonidan ekologik ta'limni yanada samarali tashkil etish maqsadida foydalanilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari va amaliy ko'rsatmalar shakllantirildi.

O'quvchilarda tabiiy fanlarga va amaliy faoliyatga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Ekologik yo'nalishdagi tajribalar, kuzatuvlar, guruhli loyihalar va interfaol mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga nisbatan faol ishtiroki va mustaqil izlanishlarga bo'lgan ehtiyojini orttirgani kuzatildi.

Ekologik ta'limning ilmiy-nazariy asoslari mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari ekologik ta'limni umumta'lim jarayoniga tizimli va chuqur integratsiyalash uchun zarur bo'lgan nazariy va metodik asoslarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

MUHOKAMALAR

Ekologik ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik metodlar o'quvchilarda ekologik ong, tafakkur va mas'uliyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy yondashuvlar – xususan, leksiya, suhbat va tushuntirish kabi usullar nazariy bilimlarni yetkazishda foydali bo'lsa-da, zamonaviy ekologik muammolar kontekstida interfaol, innovatsion va tajribaga asoslangan metodlarning ustunligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda olib borilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, loyiha asosidagi ta'lim ekologik muammolarning sabab va oqibatlarini mustaqil tahlil qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish salohiyatini o'quvchilarda sezilarli darajada oshiradi. Ekskursiyalar, ekologik aksiyalar, chiqindilarni saralab yig'ish, daraxt ekish va boshqa shu kabi faoliyatlar o'quvchilarning tabiat bilan bevosita aloqasini mustahkamlaydi hamda ularda ekologik madaniyat va mas'uliyat hissini chuqurlashtiradi [7, 75].

Shu bilan birga, ekologik ta'limda raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarga global ekologik muammolar haqida keng tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, ekologik simulyatsiyalar va onlayn interaktiv darslar orqali ularning ekologik qarashlari chuqurlashadi, muammoni global miqyosda idrok etish darajasi ortadi. Bu esa zamonaviy ta'limning muhim ustunligiga aylanmoqda.

Ushbu jarayonda o'qituvchining roli beqiyos bo'lib, u nafaqat o'quv metodlarini to'g'ri tanlaydi, balki ularni o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va mahalliy ekologik sharoitga moslashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'limni alohida bir fan yoki mavzu doirasidagina emas, balki fanlararo yondashuv asosida umumiy o'quv jarayoniga integratsiyalash muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv ekologik ongli, mas'uliyatli va barqaror rivojlanishga tayyor avlodni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan maqsadga muvofiq foydalanish ekologik ta'limni samarali tashkil etishning muhim omillaridan biridir. Interfaol yondashuvlar, amaliy-tadqiqoti faoliyatlar va fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarda ekologik tafakkur, mas'uliyat va tabiatga nisbatan ongli munosabat shakllanadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik metodlar nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham samarali amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, ekologik ta'limni tabiiy fanlar bilan uyg'unlashtirish umumta'lim tizimida sifatni oshirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



Takliflar

- Tabiiy fanlar darslariga ekologik mazmunli topshiriqlar, amaliy tajribalar va loyihalarni keng joriy etish – bu o‘quvchilarda ekologik muammolarga nisbatan qiziqish va faol ishtirokni kuchaytiradi.
- O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida ekologik ta’limni tabiiy fanlar bilan integratsiyalash metodlariga alohida e’tibor qaratish – bu orqali pedagoglar zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalana oladi.
- Darsdan tashqari mashg‘ulotlar (ekskursiyalar, ekologik aksiyalar, laboratoriya tajribalari) orqali o‘quvchilarning amaliy ekologik faoliyatini rivojlantirish – bu ularning real hayotdagi ekologik masalalarga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.
- Fanlararo integratsiyani mustahkamlovchi zamonaviy o‘quv dasturlar va metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish – bu ekologik ta’limning barcha bosqichlarda izchil amalga oshirilishini ta’minlaydi.
- Ekologik ta’lim samaradorligini baholovchi mezonlarni ishlab chiqish va monitoring tizimini joriy etish – bu ta’lim sifati va natijadorligini muntazam nazorat qilishga imkon beradi.
- O‘quvchilarni ekologik loyihalarda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish, ularning ishlanmalarini mahalliy va milliy darajada targ‘ib qilish – bu yoshlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlashga va ekologik ongni ommalashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жабборов М. Экология ва барқарор ривожланиш таълими. – Тошкент.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 180.
2. UNESCO. Framework for the Implementation of Education for Sustainable Development Beyond 2019. – Paris: UNESCO, 2020. – P. 46.
3. Hassan Z., Iqbal M. Ecological Education and Sustainable Development // Journal of Environmental Education and Sustainability. 2020, Vol. 5, № 2. – P. 98-112.
4. Chimishova G. N. The Role of Education in Forming Ecological Responsibility // Educational Ecology. 2019, Vol. 17, № 3. – P. 44-50.
5. Baranova M., Tarasenko V. The Role of Teachers in Ecological Education // Teaching and Pedagogy. 2017, Vol. 7, № 6. – P. 36-42.
6. Kuzminov A. V. Ecological Consciousness and Its Role in Modern Education // Russian Education and Society. 2018, Vol. 60, № 4. – P. 60-75.
7. Sukhanov V. Environmental Education and the Development of Ecological



- Responsibility in the Context of Global Challenges // Global Environmental Education. 2021, Vol. 12, № 1. – P. 120-132.
8. Chikalo N. Innovative Approaches in Environmental Education // Journal of Environmental Science & Education, 2019, Vol. 4, № 3. – P. 145-158.
9. Gulzhan T. Sustainable Development and Ecological Education in Schools // International Journal of Education and Environment. 2022, Vol. 10, № 1. – P. 21-28.
10. Nikolayev E., Romanov V. Forming Ecological Responsibility in Children and Adolescents: Methods and Approaches // Psychology and Education. 2017, Vol. 8, № 2. – P. 150-165.

PEDAGOGIKA

O'QUVCHILARGA OILAVIY TADBIRKORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSI

ABDUGAFUROVA DINORA G'ULOM QIZI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

Email: dinoraabdugafurova6@gmail.com

UDK: 37.015.3

<https://orcid.org/0009-0006-7733-3526>

Kalit so'zlar:

oilaviy tadbirkorlik,
tadbirkorlik
ko'nikmalari,
ilmiy-nazariy asoslar,
ta'lim jarayoni,
innovatsion
texnologiyalar,
raqamli iqtisodiyot,
tashabbuskorlik,
ta'lim strategiyalari.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik tushunchasini chuqur singdirish, ularning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Oilaviy tadbirkorlikning jamiyatdagi o'rni, uning aholi bandligi, daromadlarini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda zamonaviy innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarning amaliy tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularning tashabbuskorlik, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish kabi kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik metodlar tavsiya etiladi. Maqola natijasida ta'lim tizimida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va oilaviy biznes yuritish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА У УЧАЩИХСЯ

Ключевые слова:

семейное
предпринима-
тельство,

Аннотация:

В данной статье рассматриваются вопросы глубокого усвоения учащимися понятия семейного предпринимательства в образовательном процессе, развития их экономических знаний и навыков.

предпринимательские навыки, научно-теоретические основы, образовательный процесс, инновационные технологии, цифровая экономика, инициативность, образовательные стратегии.

Анализируется роль семейного предпринимательства в обществе, его значение в обеспечении занятости, роста доходов и социального благополучия населения. В исследовании особое внимание уделяется подготовке учащихся к практической предпринимательской деятельности на основе современных инновационных подходов и цифровых технологий. Также рекомендуются эффективные педагогические методы, направленные на формирование таких компетенций, как инициативность, креативность и решение проблемных ситуаций. В результате статьи разработаны практические предложения, которые могут быть применены в системе образования, которые служат формированию у учащихся необходимых знаний, умений и навыков по экономическому мышлению и ведению семейного бизнеса.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS FOR IMPROVING THE MECHANISMS OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP FOR STUDENTS

Keywords:

family entrepreneurship, entrepreneurial skills, scientific and theoretical foundations, educational process, innovative technologies, digital economy, initiative, educational strategies.

Abstract:

This article highlights the issues of deeply instilling in students the concept of family entrepreneurship in the educational process, developing their economic knowledge and skills. The role of family entrepreneurship in society, its significance in ensuring employment, increasing incomes, and social well-being are analyzed. The study pays special attention to the preparation of students for practical entrepreneurial activity based on modern innovative approaches and digital technologies. Effective pedagogical methods aimed at the formation of such competencies as initiative, creativity, and problem-solving are also recommended. As a result of the article, practical proposals have been developed that can be applied in the education system, which serve to form the necessary knowledge, skills, and abilities in students regarding economic thinking and family business management.



KIRISH

Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning asosiy va barqaror rivojlanish omillaridan biri sifatida tobora kengayib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab mamlakatlarda oilaviy bizneslar milliy iqtisodiyotning tayanch ustunlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ularning iqtisodiy samaradorligi, bandlikni ta'minlashdagi hissasi va ijtimoiy barqarorlikka qo'shayotgan ulushi beqiyosdir.

XX asrda tadbirkorlikni ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rgangan Avstriya iqtisodiy maktabining yirik vakili, mashhur iqtisodchi Yozef Shumpeter tadbirkorni "iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuch" sifatida ta'riflagan [1, 7]. Ushbu yondashuv ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kichik va o'rta biznes, xususan oilaviy tadbirkorlik, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omiliga aylangan. U bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Shu sababli, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu borada qator strategik dasturlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan. Ayniqsa, yosh avlodni tadbirkorlik ruhida tarbiyalash, ularni oilaviy biznes mexanizmlarini puxta o'zlashtirishga yo'naltirish zamonaviy ta'lim tizimi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Ta'lim sohasida bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun ilmiy-nazariy asoslarning chuqur ishlab chiqilishi talab etiladi. Afsuski, bugungi kunda o'quvchilarga tadbirkorlik bilimlarini singdirish jarayonida qator pedagogik va metodologik muammolar mavjud. Jumladan, o'quv dasturlarining yetarlicha innovatsion bo'lmasligi, amaliyot bilan uzviy bog'lanmaganligi hamda o'quvchilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi uslublarning cheklanganligi bu boradagi asosiy to'siqlardan hisoblanadi.

Shu bois, oilaviy tadbirkorlikni o'quv jarayoniga samarali joriy etish uchun yangi, ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliy pedagogik metodlarni takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. Oilaviy tadbirkorlik faqatgina moliyaviy yoki boshqaruv jihatlaridan iborat bo'lmay, balki uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslari, oilaviy qadriyatlar, avlodlararo tajriba almashinuvi va tashkiliy mexanizmlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda nafaqat iqtisodiy, balki psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarni ham inobatga olish zarur. Zamonaviy ta'lim tizimi yoshlarni ushbu murakkab tizimga tayyorlashda kompleks

yondashuvlarga tayanishi lozim. Buning uchun esa, yuqoridagi omillar asosida keng qamrovli ilmiy-nazariy baza yaratish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali foydalanish yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, innovatsion yondashuvlarning ta‘lim jarayonlariga chuqur integratsiyalashuvi o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta‘lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [2, 9].

Innovatsion yondashuvlar, interaktiv o‘quv metodlari va axborot texnologiyalariga asoslangan vositalar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni ijodiy fikrlashga, tashabbus ko‘rsatishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning real hayotga moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o‘quvchilarga oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini o‘rgatish jarayonini tahlil qilish, mavjud pedagogik yondashuvlarni ilmiy-nazariy jihatdan baholash hamda samarali innovatsion usullarni taklif etishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, bozor munosabatlarning izchil rivojlanishi va xususiy sektorning faollashuvi sharoitida oilaviy tadbirkorlik jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil sifatida e‘tirof etilmoqda [3]. Ayniqsa, aholi bandligini ta‘minlash, daromad manbalarini kengaytirish, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashda oilaviy tadbirkorlikning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur sohaning samarali faoliyati nafaqat iqtisodiy o‘sishning ta‘minlanishiga, balki ijtimoiy barqarorlik, oilaning iqtisodiy mustahkamligi va hududiy tashabbuslarning kuchayishiga xizmat qilmoqda. Shu boisdan, oilaviy tadbirkorlikning mazmun-mohiyati, imkoniyatlari va uni rivojlantirish istiqbollari so‘nggi yillarda nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham ilmiy tadqiqotlarning markazida turibdi.

Xususan, xorijiy olimlar – F. Engels, A.V. Chayanov, G.S. Bekker, R.S. Anderson, R. Basso, D.M. Reyeb, G.A. Tanevski, D. Prayogo, A. Soxal, T. Beer, Y.A. Drexler, S. Faulkner, S.M. Daily, M.Y. Dollinger, Gallo, Miguyel Angel, Yanniske Sveyen, S.A. Romano, K.X. Smyrnios va boshqalar – oilaviy tadbirkorlikning nazariy asoslari, iqtisodiyotdagi o‘rni, barqarorligi va samaradorligi kabi jihatlarni chuqur o‘rganib chiqqanlar.



Shuningdek, Rossiyalik olimlar – Barxatova, Volkov, Kalendjyan, Korchagina, Korolev, Cherniskiy kabi tadqiqotchilar oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, turlari, tasnifi hamda nazariy-konseptual asoslarini ishlab chiqishga ilmiy va amaliy e'tibor qaratganlar.

O'zbekistonlik olimlar – A. O'lmasov, H.P. Abulqosimov, A.A. Qulmatov, U.D. Axmedov, B. Berkinov, M.K. Pardayev, O.M. Pardayeva, I.L. Pugach, R.B. Murtazina, G.M. Shadiyeva, D.T. Yuldashev va boshqalar – esa oilaviy tadbirkorlikning milliy modeli, uning institutsional asoslari, salohiyatini oshirish yo'llari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda o'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik faoliyatining mazmun-mohiyati, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq anglatish hamda ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida turli metodologik yondashuvlar va ilmiy-uslubiy usullardan foydalanildi.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

Ijtimoiy tahlil – o'quvchilarning oilaviy tadbirkorlikdagi ishtiroki orqali ularning ijtimoiy faolligi, mas'uliyat hissi hamda mehnat madaniyatiga bo'lgan munosabatini tahlil qilish.

Nazariy tahlil – oilaviy tadbirkorlikni o'qitish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda tadbirkorlikka oid bilim manbalarining tahlili orqali nazariy asoslarni belgilash.

Qiyosiy tahlil – O'zbekiston tajribasini rivojlangan davlatlardagi oilaviy tadbirkorlikni o'qitishdagi ilg'or tajribalar bilan solishtirish orqali o'zaro farqlar va umumiyliklarni aniqlash.

So'rovnoma – o'qituvchi va o'quvchilar orasida oilaviy tadbirkorlikka bo'lgan qiziqish darajasi, ilmiy va amaliy bilimlar holatini aniqlash uchun so'rovlar o'tkazish.

Eksperimental tahlil – kichik loyihalar asosida eksperimentlar tashkil etilib, o'quvchilarda oilaviy tadbirkorlikka oid biznes g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amalda sinab ko'rish uchun mini-treninglar va biznes simulyatsiyalar o'tkazildi.

NATIJALAR

O'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini takomillashtirish masalasini ilmiy tahlil qilish maqsadida turli iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar chuqur o'rganildi. Tadqiqot davomida oilaviy tadbirkorlikning aholi bandligi, daromadlar darajasi, iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikka ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilindi.



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy tadbirkorlik ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa rivojlanayotgan hududlarda, bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston tajribasida bu holat quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Oilaviy biznes, ayniqsa qishloq joylarida norasmiy bandlikni kamaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va aholining barqaror ish bilan ta'minlanishiga zamin yaratadi.

- O'quvchilarni oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, iqtisodiy bilimlarini amalda qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi aholi daromadlarining ortishiga, natijada esa kambag'allik darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Jumladan:

- Oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan oila a'zolarining o'rtacha daromadi, ushbu faoliyat bilan shug'ullanmaydiganlarga nisbatan 25–30% yuqoriroq.

- Bu faoliyat nafaqat asosiy daromad manbai, balki qo'shimcha moliyaviy foyda olish imkoniyatini ham yaratadi.

- Oilaviy tadbirkorlar o'z biznesini kengaytirishga intilib, ko'proq investitsiya kiritadi va natijada yanada barqaror iqtisodiy o'sishga erishadi.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Jumladan:

- Ushbu sohaning rivojlanishi jamiyatda o'zaro ishonch va ijtimoiy barqarorlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

- Mahalliy hamjamiyatlar iqtisodiy faolligining kuchayishi orqali hududiy iqtisodiy farovonlik ta'minlanadi.

Biroq tahlillar shuni ham ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar mavjud:

- Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi – Aksariyat tadbirkor oilalar bank kreditlaridan foydalana olmayapti.

- Huquqiy tartibga solishdagi muammolar – Amaldagi qonunchilik bazasi oilaviy tadbirkorlikning zamonaviy talablariga to'liq javob bermaydi.

- Bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani – Ayrim hududlarda mahsulotlarni bozorga chiqarish va realizatsiya qilish imkoniyatlari cheklangan.

- Tadbirkorlik bo'yicha bilim va ko'nikmalar yetishmasligi – Ko'plab oilaviy tadbirkorlar biznes yuritish, moliyaviy boshqaruv va marketing sohasida tajribaga ega emas.

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida rivojlangan davlatlar tajribasi

o'rganilib, ularning muvaffaqiyat omillari tahlil qilindi. Jumladan, Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali rivojlanmoqda:

- Moliyaviy yordam va imtiyozli kreditlar tizimi – davlat tomonidan kichik va oilaviy biznes subyektlariga qulay shartlarda moliyaviy ko'mak ko'rsatiladi;
- Biznes ta'lim dasturlarining keng joriy etilishi – maktab o'quvchilari va yoshlar uchun tadbirkorlik asoslari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va loyihaviy faoliyat yo'lga qo'yilgan;
- Soliq tizimida yengilliklar – oilaviy tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlar taqdim etiladi;
- Eksport va tashqi bozorga chiqishni qo'llab-quvvatlash – mahsulotlarni xalqaro bozorga olib chiqish uchun maxsus dasturlar va xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

Mazkur ilg'or tajriba O'zbekiston sharoitida ham o'quvchilarni oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va bu sohadagi mexanizmlarni takomillashtirishda muhim asos bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi amaliy choralar taklif etiladi:

1. O'quv darsliklarini boyitish – maktab ta'limiga "Oilaviy tadbirkorlik asoslari" fanini yoki modulini joriy etish orqali o'quvchilarda dastlabki iqtisodiy va tadbirkorlik bilimlarini shakllantirish;
2. Biznes ta'limini rivojlantirish – o'quvchilar uchun kichik loyiha va treninglar tashkil etish, ularda biznes-reja tuzish, menejment, marketing asoslarini o'rgatish;
3. Huquqiy bazani takomillashtirish – oilaviy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi qonunchilik asoslarini rivojlantirish;
4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – o'quvchilarga onlayn platformalar orqali elektron savdo, raqamli marketing va reklama bilan ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarni oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash, ularga zarur bilim va ko'nikmalarni berish orqali nafaqat ularning iqtisodiy tafakkuri shakllanadi, balki mamlakat miqyosida iqtisodiy barqarorlik, bandlik darajasi va aholi farovonligi oshishiga erishiladi.

Biroq, bu yo'nalishda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, moliyaviy resurslarga bo'lgan cheklovlar, amaliy tajriba yetishmasligi va huquqiy tartibotning to'liq shakllanmaganligi oilaviy tadbirkorlik salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun tizimli islohotlar zarur bo'lib, ilg'or xorijiy tajribalarning moslashuvi oilaviy biznesning milliy sharoitda yanada samarali rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMALAR

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar jarayonida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tadqiqot davomida olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, so‘rovnomalar, kuzatuvlar hamda suhbatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarda oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalar yetarli darajada shakllanmagan.

Mazkur holat, bir tomondan, maktab ta’lim tizimida oilaviy tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlariga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganini anglatadi. Ikkinchi tomondan esa, o‘quvchilarda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda tizimli va maqsadli yondashuv yetishmasligini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, o‘quvchilarning 70 foizdan ortig‘i tadbirkorlik faoliyatining umumiy tushunchasiga ega bo‘lsa-da, oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asoslari, tashkil etish bosqichlari, mehnat taqsimoti kabi muhim jihatlari bo‘yicha yetarli tasavvurga ega emaslar.

Bu esa ta’lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar, biznes simulyatsiyalar va tadbirkorlikka oid loyihaviy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda oilaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

1. *Ta’lim mazmunini yangilash zarurati.* Amaldagi o‘quv dasturlarida oilaviy tadbirkorlik alohida mavzu sifatida qamrab olinmagan. Bu esa mazkur soha bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarni yetkazishda jiddiy to‘siqlarga sabab bo‘lmoqda. Darslik va qo‘llanmalarda real hayotiy misollar, muvaffaqiyatli loyihalar va iqtisodiy modellar tahlilining yetishmasligi, shuningdek, maktablarda oilaviy tadbirkorlikni o‘rgatishga qaratilgan maxsus kurs va darsliklarning mavjud emasligi bu soha bo‘yicha ta’lim jarayonining yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli, oilaviy tadbirkorlikni o‘qitishda maxsus o‘quv modullari, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

2. *O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va roli.* O‘qituvchi – tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda asosiy figuradir. Shu bois ularning iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borish, ularni oilaviy tadbirkorlik sohasidagi zamonaviy yangiliklar bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. *Nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash.* O‘quvchilarda oilaviy tadbirkorlikka oid bilimlarni real hayotiy holatlar bilan integratsiyalash ularning tahliliy fikrlashi va muammoga yechim topish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Jumladan, maktablarda kichik loyihalar tuzish, biznes-reja ishlab chiqish, oilaviy biznes modellarini yaratish kabi topshiriqlar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, iqtisodiy

tahlil qilish va amaliy muammolarni hal etish bo'yicha zarur kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

Muhokamalar davomida maktab o'quvchilari orasida oilaviy tadbirkorlikka nisbatan ma'lum darajada qiziqish mavjudligi aniqlandi. Biroq ushbu qiziqishni izchil rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, jumladan, metodik materiallar, amaliy resurslar, tajriba almashish imkoniyatlari yetarli emasligi kuzatildi. Shuningdek, ayrim hollarda oila a'zolari farzandlarini tadbirkorlikka yo'naltirishga qiziqmasligi yoki bu yo'nalishdagi zaruratni to'liq anglab yetmaganligi ham muhim to'siq omili sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari ilgari olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan muvofiqlik kasb etadi. Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, maktab o'quvchilarini oilaviy tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, iqtisodiy tafakkurini shakllantiradi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Jumladan, o'quvchilarda tashabbuskorlik ruhi, mehnatga ongli munosabat, mas'uliyat hissi va o'zini anglash darajasi ortgani kuzatildi.

Shuningdek, umumta'lim tizimida o'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini o'rgatishda yangicha metodik yondashuvlarni joriy etish, iqtisodiy bilimlarni o'quv jarayoniga singdiruvchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, hamda maktab va oila o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

O'quvchilarda oilaviy tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- Maktab ta'limiga integratsiya qilish. Oilaviy tadbirkorlikni o'rgatishda amaldagi o'quv rejalariga tadbirkorlik asoslariga oid maxsus modullarni kiritish, bu orqali o'quvchilarni zamonaviy iqtisodiy muhitga tayyorlash;
- Loyihaviy faoliyat va tanlovlar. O'quvchilarga o'z oilaviy biznes g'oyalarni ishlab chiqish va taqdim etish imkoniyatini beruvchi tanlovlar, loyihalar hamda amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish;
- Mentorlik tizimi. Muvaffaqiyatli tadbirkorlar va malakali pedagoglar ishtirokida mentorlik va murabbiylik tizimini rivojlantirish orqali yoshlarni rag'batlantirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va amaliy maslahatlar berishni yo'lga qo'yish;
- Resurslar va axborot markazlari. O'quvchilar va ularning ota-onalari uchun oilaviy tadbirkorlik bo'yicha adabiyotlar, treninglar, maslahat xizmatlarini tashkil etish, shuningdek, tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan axborot-resurs markazlarini yaratish.



XULOSA

Oilaviy tadbirkorlik – nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki yosh avlodning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlashda muhim omildir. Maktab ta‘limi jarayonida oilaviy tadbirkorlikka oid bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish, innovatsion yondashuvlar asosida o‘quvchilarni ushbu sohada faol ishtirok etishga yo‘naltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, iqtisodiy mas‘uliyat, tashabbuskorlik va mehnatga ongli munosabat kabi muhim fazilatlar shakllanadi. Bu esa ularning kelgusidagi mehnat faoliyati va jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan metodlar, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, loyihaviy va interfaol o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta‘limning samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hamroyev H.R. Tadbirkorlik asoslari: kasb ta‘limi (iqtisodiyot) yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. Toshkent.
2. Kuvandikov Sh.O. Synergetic approach to support of family business (monografiya). Samarqand.
3. Abduraximova S.A. Oilaviy tadbirkorlikning aholi turmush sifatini oshirishdagi ahamiyati // Yangi Tadqiqotlar jurnali, 2024.



PEDAGOGIKA

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARINI INNOVATSION BOSHQARISHNING MAZMUN-MOHIYATI

G'AYBULLAEV SHONAZAR MIRBOBOYEVICH

Buxoro davlat universiteti

Sirtqi va masofaviy ta'lim bo'limi boshlig'i

Email: shonazargaybullayev5@mail.com

UDK: 371.12:005.7

Kalit so'zlar:

maktab, qonun, Prezident maktablari, psixologik iqlim, ta'lim muassasasi, innovatsion boshqaruv, strategiyani rejalashtirish, ijtimoiy-g'oyaviy.

Annotatsiya:

Ta'lim tizimining poydevori bo'lgan maktablarni samarali boshqarishda, eng avvalo, yuqori salohiyatga ega rahbarning mavjudligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zero, maktab rahbari – bu nafaqat ta'lim sifatining oshishiga, balki butun pedagogik jamoaning intellektual va tashkiliy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi strategik shaxsdir. Ushbu maqolada zamonaviy maktab rahbarlariga qo'yiladigan asosiy talablar, ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini, boshqaruvdagi asosiy vazifalari hamda pedagogik jamoa bilan samarali hamkorlik yo'llari atroflicha tahlil etiladi. Ayniqsa, rahbarning strategik fikrlashi, liderlik fazilatlarini, innovatsion yondashuvlarga ochiq hamda boshqaruvdagi tashabbuskorligi ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, rahbarning pedagogik xodimlar bilan doimiy, ochiq va konstruktiv muloqot olib borishi, ularni samarali rag'batlantira olishi va kasbiy o'sishga yo'naltira bilishi – maktabda sog'lom jamoaviy muhit shakllanishiga zamin yaratadi. Bunday muhit esa, o'z navbatida, ta'lim muassasasining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyatini oshiradi. Shu bois, maktab rahbarining kasbiy kompetensiyalari va boshqaruv faoliyatining chuqur tahlili – ta'lim tizimida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

СУЩНОСТЬ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ УЧРЕЖДЕНИЯМИ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ключевые слова: школа, закон, Президентские школы, психологический климат, образовательное учреждение, инновационное управление, планирование стратегии, социально-идеологический.

Аннотация: В эффективном управлении школами, являющимися основой системы образования, решающим фактором является, прежде всего, наличие руководителя с высоким потенциалом. Ведь руководитель школы - это стратегическая личность, которая служит не только повышению качества образования, но и полной реализации интеллектуального и организационного потенциала всего педагогического коллектива. В данной статье подробно анализируются основные требования к руководителям современных школ, их профессиональные и личностные качества, основные задачи в управлении, а также пути эффективного сотрудничества с педагогическим коллективом. В частности, стратегическое мышление руководителя, лидерские качества, открытость к инновационным подходам и инициативность в управлении играют важную роль в устойчивом развитии образовательного учреждения. Также постоянное, открытое и конструктивное общение руководителя с педагогическими работниками, умение эффективно мотивировать их и направлять на профессиональный рост создает основу для формирования здоровой коллективной среды в школе. Такая среда, в свою очередь, повышает способность образовательного учреждения адаптироваться к современным социально-экономическим изменениям. Поэтому глубокий анализ профессиональных компетенций и управленческой деятельности руководителя школы служит важной теоретической и практической основой для разработки стратегий устойчивого развития в системе образования.

THE ESSENCE OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Keywords: school, law, Presidential schools, psychological climate, educational institution, innovative management, strategic planning, socio-ideological.

Abstract: A crucial factor in the effective management of schools, which are the foundation of the education system, is, first of all, the presence of a leader with high potential. After all, the head of the school is a strategic person who serves not only to improve the quality of education, but also to fully realize the intellectual and organizational potential of the entire pedagogical team. This article thoroughly analyzes the main requirements for modern school leaders, their professional and personal qualities, their main management functions, and ways of effective cooperation with the pedagogical team. In particular, the leader's strategic thinking, leadership qualities, openness to innovative approaches, and initiative in management play an important role in the sustainable development of an educational institution. Also, the leader's constant, open, and constructive communication with pedagogical staff, the ability to effectively motivate them and direct them towards professional growth, creates the basis for the formation of a healthy collective environment in the school. Such an environment, in turn, increases the educational institution's ability to adapt to modern socio-economic changes. Therefore, a deep analysis of the professional competencies and managerial activity of the school principal serves as an important theoretical and practical basis for developing sustainable development strategies in the education system.

KIRISH

Yurtimizda ilm-fan sohasining izchil rivojlanib borayotgani ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlarga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ta'limning ilk bo'g'ini hisoblangan maktablarda o'quvchilarga zamonaviy metodlar asosida bilim berish, ularning amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda xalqaro tajriba asosida yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik kadrlardan yangicha fikrlash, ilg'or metodlarni o'zlashtirish hamda chuqur nazariy va amaliy tayyorgarlikni talab etmoqda.

Bugungi maktab o'qituvchisi – bu nafaqat o'z fanini chuqur bilgan mutaxassis,

balki ta'lim jarayonini interaktiv metodlar asosida tashkil eta oladigan, o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota biladigan, doimiy o'z ustida ishlaydigan yetuk pedagogdir. Ammo ta'lim sifatining yuksalishi faqatgina o'qituvchining sa'y-harakatiga bog'liq bo'lib qolmasdan, o'quvchilarning ham faol ishtiroki va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Biroq bu jarayonni puxta tashkil etish uchun yagona hal qiluvchi omil – bu samarali boshqaruvdir. Aynan shu nuqtada maktab rahbariyatining, xususan, direktor shaxsining o'rni va roli yaqqol namoyon bo'ladi. Maktab rahbarining mas'uliyati, tashkiliy salohiyati, yetakchilik qobiliyati va innovatsion qarorlar qabul qilishdagi faol ishtiroki ta'lim muassasasining umumiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois maktab direktori lavozimiga nomzod tanlash masalasi puxta asoslangan, mas'uliyatli yondashuvni talab qiladi. Amaldagi tartiblarga ko'ra, maktab direktori lavozimiga nomzod oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lishi, shuningdek, tuman xalq ta'limi bo'limining tavsiyasi asosida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan tayinlanishi belgilangan. Bu esa lavozimga tayinlanadigan rahbarning nafaqat kasbiy, balki boshqaruv kompetensiyalarini ham chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Rahbarlik – bu, avvalo, maqsadga yo'naltirilgan va samaradorlikka asoslangan boshqaruv faoliyatidir. Har qanday inson faoliyati kabi, boshqaruvning yo'nalishi ham ko'zlangan maqsad bilan belgilanadi. Maqsad esa, inson ongining tub qatlamlarida qaror topib, harakatlarga ta'sir ko'rsatadi, ularning sifati va yo'nalishini aniqlaydi. Shu ma'noda, boshqaruv faoliyatida to'g'ri belgilangan strategik maqsad – bu kutilgan natijaga erishish kafolatidir.

Xususan, samarali boshqaruvni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratish lozim:

- boshqaruv bo'g'inlarida aniq maqsadning belgilanishi umumiy tizimning strategik yo'nalishini shakllantiradi;
- rahbar boshqarayotgan tizimning maqsadini chuqur anglab, uni jamiyat taraqqiyotiga uyg'unlashtira olgan taqdirdagina, taktik va strategik qarorlar asosli bo'ladi;
- boshqaruv maqsadining to'g'ri belgilanishi esa uni amalga oshirish vositalari va usullarining optimal tanlanishiga imkon yaratadi [1, 357].

Shu tariqa, maktab ta'limi sifatini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning sa'y-harakatlari qanchalik muhim bo'lsa, rahbarlik tizimining yuqori salohiyatda faoliyat yuritishi ham shunchalik dolzarbdir. Ta'lim islohotlarining muvaffaqiyati esa, ko'p jihatdan, boshqaruvdagi yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, aniqligi va maqsadga yo'naltirilganligiga bog'liq bo'lib, maktab rahbarining strategik fikrlashi, liderlik



fazilatlari hamda o'z jamoasini rivojlantirishga bo'lgan intilishi bilan bevosita bog'lanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarish zamonaviy yondashuvlarni chuqur o'rganishni taqozo etadi. Shu maqsadda ko'plab ilmiy manbalar, pedagogik tadqiqotlar hamda xalqaro tajribalar tahlil qilindi. Pedagogik boshqaruv, innovatsion menejment va raqamli ta'lim texnologiyalari bo'yicha mavjud adabiyotlar chuqur tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishda an'anaviy metodologiyalar bilan zamonaviy yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon pedagogik tafakkuri tarixida Dewey (1916), Vygotsky (1978) va Piaget (1950) kabi yetuk olimlar tomonidan ilgari surilgan konstruktivistik va sotsiokultural yondashuvlar o'quv jarayonining interfaolligini ta'minlash, bilimni shaxsiy tajriba va ijtimoiy muloqot asosida o'zlashtirish zarurligini asoslab bergan. Ushbu nazariyalar zamonaviy ta'lim tizimida ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida kuzatilayotgan raqamlashtirish jarayonlari, masofaviy ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi va sun'iy intellekt vositalarining tatbiqi ta'lim boshqaruvi samaradorligini oshirishda muhim omilga aylandi. Xususan, Anderson va Dron (2011), Siemens (2005) kabi tadqiqotchilarning ishlari zamonaviy ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini shakllantirishda katta hissa qo'shgan.

Milliy pedagogik adabiyotlarda ham bu boradagi izlanishlar salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, A. Mavlonova (2007), Z. Karabayeva (2007) kabi pedagog olimlar maktab ta'limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, menejment mexanizmlarini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalarini chuqur tadqiq etgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qarorlari hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari zamonaviy ta'lim boshqaruvi asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Yuqorida tahlil qilingan manbalar asosida quyidagi asosiy boshqaruv yondashuvlari ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi:

- Innovatsion texnologik yondashuv – raqamli vositalar, sun'iy intellekt va masofaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish orqali ta'lim boshqaruvini takomillashtirish;
- Pedagogik menejment – maktab rahbarlari va pedagog kadrlarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tashkiliy-salohiyatini oshirish;
- Motivatsion yondashuv – o'quvchilar va o'qituvchilarning ichki

motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim sifati va ishtirokchilarning faolligini kuchaytirish;

– Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati va zamonaviy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini shakllantirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganishda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Metodlar tanlovi tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash, amaliy holatni tahlil qilish hamda ilg‘or tajribalarni umumlashtirish imkonini berdi. Jumladan, quyidagi usullar qo‘llanildi:

Nazariy-tahliliy usul – ta’lim menejmenti, innovatsion pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning zamonaviy metodlari va boshqaruv nazariyalariga oid ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish orqali tadqiqotning nazariy asoslari ishlab chiqildi.

Empirik usullar – ta’lim muassasalarida amaliy boshqaruv holatini o‘rganish maqsadida o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda maktab rahbarlari o‘rtasida so‘rovnomalar va suhbatlar o‘tkazildi. Ushbu usullar mavjud holatni real sharoitda baholashga xizmat qildi.

Tajribaviy (eksperimental) usul – zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash bo‘yicha eksperimental dasturlar joriy etilib, ularning samaradorligi monitoring asosida baholandi. Tajriba natijalari asosida innovatsion yondashuvlarning amaliy qiymati tahlil qilindi.

Komparativ tahlil usuli – xorijiy va milliy ta’lim tizimlari boshqaruvi solishtirilib, o‘zaro farq va o‘xshashliklar aniqlandi. Xalqaro ilg‘or tajribalar asosida moslashtirilgan boshqaruv modellarini ishlab chiqish uchun asos yaratildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar ta’lim jarayonini boshqarishning zamonaviy modellari, ularning samaradorlik darajasi hamda amaliy tatbiq etish imkoniyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida zamonaviy rahbarlik va boshqaruv tamoyillarini joriy etish – ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Maktab rahbarlarining strategik fikrlashi, innovatsion yondashuvlardan foydalanishi hamda jamoaviy hamkorlikka asoslangan faoliyati pedagogik jarayonning yaxlit va samarali kechishini ta’minlaydi. Ayniqsa, pedagogik jamoani rivojlantirish, ularning malakasini oshirish va o‘quv jarayonini ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etishda maktab direktorlarining yetakchilik salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.



Innovatsion boshqaruv elementlarini tizimli tarzda tatbiq etish orqali ta'lim muassasalari nafaqat o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi, balki pedagoglarning kasbiy o'sishga bo'lgan intilishini ham kuchaytiradi. "Innovatsion boshqaruv" kengashlari faoliyati esa qarorlar qabul qilishda ochiqlik va jamoaviylik tamoyillarini mustahkamlab, mavjud muammolarga kompleks yondashuvni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va ilg'or menejment tamoyillarini qo'llash orqali yurtimizda raqobatbardosh, barqaror va zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim tizimini shakllantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining sifatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasasidagi rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: pedagogik jamoaga rahbarlik qilish, kadrlarni to'g'ri tanlab joylashtirish, xodimlarning ijtimoiy-g'oyaviy saviyasi va malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o'quvchilarning bilim va tarbiya sifatini ta'minlash, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish hamda ularni muntazam nazorat qilish.

Bundan tashqari, rahbar o'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashlariga ko'maklashadi, ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Maktabda ichki intizomni saqlash, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, umumiy tartib va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi.

Maktab direktori o'qituvchi va yordamchi xodimlarni ishga qabul qiladi yoki bo'shatadi, ularni rag'batlantiradi, ba'zan intizomiy choralar ko'radi, shuningdek, alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etish huquqiga ham egadir. Direktor o'z faoliyatida pedagogik jamoa fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda muhim qarorlarni qabul qiladi va ta'lim muassasasi faoliyati uchun davlat oldida javobgardir. Uning faoliyatida direktor o'rinbosarlari – o'quv hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha mas'ullar muhim ko'makchi sifatida ishtirok etadilar [2, 479].

Bugungi kunda an'anaviy tizim talablariga qo'shimcha ravishda rahbarlardan xorijiy tilni bilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda xalqaro tajribalarni o'rganishga tayyor bo'lish kabi zamonaviy kompetensiyalar ham talab etilmoqda.

Boshqaruv vazifalari – bu maqsadli, zarur va takrorlanuvchi harakatlar majmuasi bo'lib, yagona strategik yo'nalishga yo'naltiriladi. Ushbu vazifalar quyidagi faoliyat turlarini qamrab oladi: rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, rag'batlantirish, faollashtirish va hisob-kitob yuritish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ta'lim muassasasida boshqaruv tizimi shakllantiriladi. Ushbu tizimda boshqaruv subyektini – maktablarda direktor, oliy ta'lim



muassasalarida esa rektor hisoblanadi. Ular o‘z navbatida boshqaruv bo‘g‘inlarini tashkil etib, ushbu bo‘g‘inlar orqali boshqaruv obyekti — ya’ni ta’lim muassasasi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadilar. Mazkur ta’sir tizimning uzluksiz rivojlanishini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, boshqaruv subyekti faoliyati – turli xil vazifalarni amalga oshirish harakatlar majmuasidir. Innovatsion pedagogik boshqaruv mohiyati quyidagi funksiyalarda ifodalanadi:

1. strategiyani rejalashtirish;
2. strategik rejani amalga oshirishni tashkil etish;
3. strategik maqsadlarni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatishni muvofiqlashtirish;
4. natijalarga erishish uchun motivatsiya yaratish [3, 78].

Innovatsion pedagogik menejment o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki muammoni hal etishni o‘z ichiga oladi:

- birinchidan, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy innovatsiyalarni boshqarish;
- ikkinchidan, yuqori samarali yangi pedagogik texnologiyalarni, shuningdek o‘qitish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirishning yangi usul, uslub va vositalarini ishlab chiqish va ularni joriy etish jarayonini boshqarish.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Prezident maktablari va nodavlat xususiy maktablar faoliyat yuritmoqda. Bu kabi maktablarda o‘quvchilar tanlov asosida saralab olinadi. Natijada, ular davlat umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ta’lim sifatiga ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim sifatini saqlab qolish va uning samaradorligini oshirish maqsadida, zamonaviy mantiqiy fikrlashga undovchi qo‘shimcha kurslarni jadallashtirish zarur. Ta’lim samaradorligini kafolatlash uchun esa ijtimoiy talablar asosida harakat qilish lozim.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablari shtatlar ro‘yxatiga ta’lim muassasasining innovatsion faoliyatiga tashxis qo‘ya oladigan va uni rivojlantirishga qodir mutaxassisni kiritish zarur. Bu mutaxassis rahbarlarning boshqaruv faoliyatini muvofiqlashtirib turish imkonini beradi.

Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Innovatsion boshqaruv kengashi”ni tashkil etish orqali pedagogik jamoa innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishi va boshqarish bilan bog‘liq muammolarni birgalikda muhokama qilib, ularning amaliy yechimlarini ishlab chiqishi va joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” tizimini boshqarishda va davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining amaliy faoliyatini muvofiqlashtirishda ko‘plab muammolar va kamchiliklar mavjud. Muammolar, ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimining kuchaytirilishi, innovatsion pedagogika va usullar yaratish, o‘quvchilar va



o'qituvchilar munosabatlari, va moddiy-texnik bazani rivojlantirishni talab qiladi. Bu jarayonda, xalq ta'limi boshqaruvchilari va davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ilg'or ushbu muammolarni hal qilish uchun strategiyalarni tuzishda e'tiborli bo'lishi lozim. Bu strategiyalar, o'quvchilarning ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, o'quv jarayonini innovatsion va samarali qilish, o'qituvchilar va o'quvchilar munosabatlarni mustahkamlash, va moddiy-texnik resurslarni yanada rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, xalq ta'limi tizimi boshqaruvchilari va davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faoliyatini yaxshilash uchun holatni tanqidiy tahlil qilish va bu muammolarga yechim topish kerakdir.

Har bir rahbar iqtidorli pedagog topishga o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Chunki, butun jahonda pedagogning qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalarni, raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalarini joriy qilish asosida samarali foydalanishni keng tatbiq etilayotgan bugungi kunda, pedagog kadrlar tayyorlashdagi bir qancha kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Pedagogika maktab bitiruvchisini, nafaqat fuqarolarni ham bilimli qilib tayyorlash va shu bilan birga mavjud o'qituvchilik qadriyatlarini asrab-avaylash, rivojlantirish va keyingi avlodga uzatishda ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Suning uchun ham maktab rahbari o'z pedagog xodimini malakali kadr qilishi uchun bir qancha vaqt ketadi.

Zamonaviy kadrlar tayyorlashning maqsadi va vazifalari O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi tizimni rivojlantirish va islohotlarni amalga oshirishdir. Bu mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash uchun yoshlarni yaxshi o'qitish, sohani rivojlantirish va yangi texnologiyalarni qabul qilish yoki ularni rivojlantirish orqali o'zlashtirish bilan bog'liq. Buning kabi mas'uliyatli vazifalar uchun maktab direktor o'z kadrlarini har tamonla qo'llab-quvvatlashi kerak.

Direktorlarning boshqaruvni to'g'ri tashkil etishida boshqaruv usullarining roli nihoyatda kattadir. Boshqaruv usullari o'qituvchi, tarbiyachi, texnik xodimlar va tashkilot rahbarlariga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu vositalar orqali maqsadga erishish jarayonida xodimlar va jamoalarning faoliyatini uyg'unlashtirish ta'minlanadi. Shu sababli, boshqaruvni samarali tashkil etish va amalga oshirishda rahbarlar boshqaruv usullarini to'g'ri tanlashlari va ulardan oqilona foydalanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv usullari ta'lim-tarbiyaviy jarayon, moliya-xo'jalik faoliyati, hamkorlikdagi ishlar hamda ishchilar jamoasi bilan olib boriladigan munosabatlardan kelib chiqadi. Quyidagilar boshqaruv usullarining asosiy turlaridir:

1. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usuli.

2. Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usuli.
3. Boshqarishning huquqiy usuli.
4. Boshqarishning bevosita ko'rsatma berish usuli.
5. Boshqarishda rag'batlantirishdan foydalanish usuli.
6. Xodimlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish usuli.
7. Boshqarishda kuzatish usuli.
8. Boshqarishda suhbat usuli.
9. Hujjatlarni tahlil qilish usuli.

1. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy usuli: Ushbu usul boshqaruv tizimida alohida o'rin egallaydi. Tashkiliy-ma'muriy ta'sir maktab boshqaruvi uchun muhim bo'lgan tashkiliy choralarni belgilash, ichki tartib-qoidalarni o'rnatish kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Bunday boshqaruv turida farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar orqali ta'sir ko'rsatiladi. Bu ko'rsatmalar yozma yoki og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Ularning vazifasi barcha boshqaruv bo'g'inlarining tezkor va uyg'un faoliyat yuritishini ta'minlashdan iborat.

2. Boshqarishning ijtimoiy-psixologik usuli: Bu usul xodimlar jamoasidagi psixologik muhitni, har bir hodimning shaxsiy xususiyatlarini va jamoaviy munosabatlarni chuqur o'rganishga asoslanadi. Ushbu usul ikki asosiy turga bo'linadi:

- a) jamoa orqali har bir xodimga ta'sir ko'rsatish;
- b) bo'ysunuvchilar bilan yakka tartibda individual ishlash.

3. Boshqarishning huquqiy usuli: Mazkur usul mamlakatimiz xalq xo'jaligi tarmoqlari, jumladan, ta'lim muassasalarini asosan davlat tomonidan boshqarish imkonini beradi. Huquqiy boshqaruv usuli – bu ijtimoiy munosabatlarga yuridik normalar orqali ta'sir ko'rsatish vositalarining majmuasidir. Huquqiy vositalar orqali boshqaruvning aniq va me'yoriy asosda tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu vositalar davlat tomonidan ishlab chiqilgan yoki tasdiqlangan turli qonuniy hujjatlar – qonunlar, nizomlar, ko'rsatmalar, buyruqlar, farmoyishlar va qarorlar shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur hujjatlar tashkilotlar faoliyatini tartibga solishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

4. Boshqarishning bevosita ko'rsatma berish usuli: Bu usul boshqaruv subyektlarining buyruq, farmoyish, topshiriq va ko'rsatmalar orqali boshqaruv obyektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bevosita ko'rsatmalar har bir rahbar, ijrochi va mas'ul xodimning vazifasi, huquqi va javobgarligini aniq belgilab beradi. Shu orqali boshqaruvda aniq tartib, izchillik va shaffoflikka erishiladi. Bundan tashqari, bu usul hisobotlar orqali bajarilgan ishlarni monitoring qilish va baholash imkonini yaratadi.

5. Boshqarishda rag‘batlantirish usuli: Rag‘batlantirish usuli ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirok etayotgan o‘qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni faolroq va samaraliroq ishlashga undash vositasi sifatida muhim o‘rin tutadi. Mazkur usul, bir tomondan, xodimlarning ichki motivatsiyasini oshirsa, ikkinchi tomondan, ta’lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Rag‘batlantirish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- joriy mukofotlash (moddiy rag‘batlar, bonuslar);
- ta’lim-tarbiya ishida alohida yutuqlarga erishganlarni e’tirof etish (masalan, faxriy yorliqlar, «Xalq ta’limi a’lochisi» unvoni, «Xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi» kabi mukofotlar). Ushbu yondashuvlar xodimlarning mehnatini qadrlash va ularni yanada samarali ishlashga ruhlantirish vositasi sifatida ta’lim boshqaruvida keng qo‘llaniladi.

6. Xodimlarni ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish usuli: Bu usul mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi boshqaruv shaklidir. U mehnatning ma’naviy omillari, xususan ma’naviy-siyosiy targ‘ibot, ijodiy izlanishlar, shuningdek, kasbga bo‘lgan mehr va mas’uliyat kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy-siyosiy omillarning asosini xodimlarning ilmiy dunyoqarashi, tarixiy taraqqiyot istiqbollari anglay olishi, va yangilanish jarayonlariga ishonchi tashkil etadi. Hozirgi kunda xodimlar ongining yuqoriligi bevosita ularning mehnat faoliyatida, ayniqsa, ta’lim-tarbiya jarayonidagi yutuqlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ijodiy izlanishning negizi kasbga chuqur mehr qo‘yish, uni qadrlash, o‘z mehnatining natijalaridan ma’naviy qoniqish hosil qilishdir. Bu esa shaxsiy va kasbiy o‘sishga zamin yaratadi.

7. Boshqarishda kuzatish usuli: Bu usul muayyan bir jarayon yoki hodisani aniq mavzu va maqsad asosida muntazam o‘rganish, ta’lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarda rivojlanib, takomillashib borishini tizimli kuzatish jarayonidir. Kuzatish davomida rahbarlar muhim ma’lumotlarni to‘plashadi, ularni tahlil qiladilar va ish jarayonini yaxshilash maqsadida tegishli chora-tadbirlarni belgilab, ularni amaliyotga joriy etadilar. Bu usul samarali boshqaruvning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

8. Boshqarishda suhbat usuli: Bu usul o‘qituvchi, tarbiyachi, to‘garak rahbari va tashkilot rahbarlarining muayyan pedagogik faoliyat yoki hodisaga bo‘lgan munosabatini aniqlashda qo‘llaniladigan muhim boshqaruv vositasidir. Suhbatlar o‘quvchilar, o‘qituvchilar, mudirlar yoki boshqa xodimlar bilan olib boriladi. Suhbat natijalarini protokol, stenografiya yoki audioyozuv shaklida hujjatlashtirish, keyinchalik tahlil etish orqali foydali ma’lumotlar va xulosalar olinadi. Bu esa boshqaruv qarorlarining aniq va asosli bo‘lishiga xizmat qiladi.

9. Hujjatlarni tahlil qilish usuli: Pedagogik boshqaruvning samaradorligini ta’minlashda hujjatlarni tahlil qilish usuli muhim o‘rin tutadi. Bu usul orqali ichki

boshqaruv tizimidagi pedagogik jarayonlar, ayrim hodisa va faktlar chuqur o‘rganilib, tahlil qilinadi. Ayniqsa, maktab va ta’lim muassasalarining hujjatlarini tizimli tahlil qilish bugungi kunda zamonaviy boshqaruv talablariga mos ravishda olib borilishi zarurdir.

Hujjatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- o‘quv mashg‘ulotlari jadvali;
- rejalashtirishning barcha turlari (yillik, choraklik, kunlik);
- ta’lim-tarbiya jarayoniga oid hujjatlar va hisobotlar;
- nizom va yo‘riqnomalar;
- metodik ko‘rsatmalar;
- buyruq va kengash qarorlari;
- o‘quv dasturlari va rejalar;
- xodimlarning shaxsiy hujjatlari;
- moliyaviy hujjatlar;
- statistik hisobotlar va boshqa tegishli materiallar [4;155].

Ta’lim muassasalarini (maktab, kasb-hunar maktabi, kollej, oliy ta’lim muassasasi va b.) boshqarish ijodiy yondashuvni talab etadigan murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayon o‘ziga xos bir san’atdir. Har bir rahbar qaror qabul qilish, uning bajarilishini ta’minlash, xodimlar faoliyatini nazorat qilishda o‘z rahbarlik uslubiga tayanadi. Ammo bu jarayonda u umumiy boshqaruv tamoyillariga asoslangan holda, samarali usullarni qo‘llashi lozim [5].

XULOSA

Ta’lim tizimidagi tub yangiliklar va innovatsion yondashuvlar pedagogik boshqaruvning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Maktab rahbarlarining yuqori malakasi, maqsadga yo‘naltirilgan boshqaruv uslublari, shuningdek zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, rahbarlarning o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan sog‘lom muloqot o‘rnatishi, ularni ma’naviy va moddiy jihatdan rag‘batlantirishi, shuningdek pedagogik jamoaning ijodiy va tashabbuskorlik salohiyatini yuksaltirish uchun qulay muhit yaratishi – boshqaruv tizimining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Innovatsion boshqaruv tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tajribalarni o‘rganish, ilg‘or boshqaruv uslublarini amaliyotga joriy etish har bir rahbarning ustuvor vazifasiga aylanishi lozim. Shu bois, pedagogik boshqaruvni doimiy takomillashtirish va zamon talablari asosida modernizatsiya



qilish har bir ta'lim muassasasi rahbarining doimiy e'tibor markazida bo'lishi zarurdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Симонов В. П. Педагогический менеджмент: Ноу-хау в образовании: учебное пособие. – М. : Высшее образование, 2007. – С. 357.
2. Mavlonova A. Umumiy pedagogika. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. – B. 479.
3. Ollokulova F.U. Value relationships in young people and the uniqueness of their decision making // Teacher of the Department of Theory and Practical of Primary Education. ISSN 2776-0979. Vol. 3, Issue 9, Sep. 2022.
4. Karabayeva Z. Pedagogika. – Toshkent : Moliya, 2007. – B. 155.
5. G'aybullayev SH.M. Maktabni innovatsion boshqarish tizimi ("Pedagogik akmeologiya") // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. № 1 (18), 2025.



PEDAGOGIKA

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ATROF-MUHITGA MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING ROLI

AMIROVA HAFIZA OLIMJONOVNA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası magistri

Email: amirovahafiza38gmail.com

UDK: 373.24

<https://orcid.org/0009-0009-1054-9922>

Kalit soʻzlar:

atrof-muhit, ona tabiat, toza hovli, tabiat doʻstlari, pedagogik yondashuv, ekologik tarbiya, didaktik oʻyinlar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga ongli va masʼuliyatli munosabatni shakllantirish jarayonida tarbiyachining oʻrni hamda amaliy faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik tarbiyaning mazmuni, maktabgacha yosh davriga xos psixologik xususiyatlar va bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy qarashlarni rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Bolaning ekologik dunyoqarashini shakllantirishda tarbiyachining shaxsiy namuna koʻrsatishi, tabiatni asrash gʻoyalarini bolalar ongiga singdirishdagi faol roli hamda rivojlantiruvchi muhit yaratishdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib berilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha taʼlim muassasalarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etishga doir amaliy tavsiyalar taklif etilgan.

РОЛЬ ВОСПИТАТЕЛЯ В ФОРМИРОВАНИИ ОТНОШЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ

Ключевые слова:

окружающая среда, мать-природа, чистый двор, друзья природы, педагогический подход, экологическое

Аннотация: В данной статье глубоко анализируется роль и практическая деятельность воспитателя в процессе формирования у детей дошкольного возраста сознательного и ответственного отношения к окружающей среде. В исследовании освещены содержание экологического воспитания, психологические особенности дошкольного возраста и эффективные методы развития положительных взглядов на природу у

воспитание, дидактические игры.

детей. На научной основе раскрыты личный пример воспитателя в формировании экологического мировоззрения ребенка, его активная роль в внедрении в сознание детей идей охраны природы, а также значение создания развивающей среды. Также в статье предложены практические рекомендации по эффективной организации экологического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях.

THE ROLE OF THE EDUCATOR IN SHAPING PRESCHOOL CHILDREN'S ATTITUDES TOWARD THE ENVIRONMENT

Keywords:

environment, mother nature, clean yard, friends of nature, pedagogical approach, ecological education, didactic games.

Abstract:

This article deeply analyzes the role and practical activity of the educator in the process of forming a conscious and responsible attitude towards the environment in preschool children. The study highlights the content of environmental education, the psychological characteristics of the preschool period, and effective methods of developing a positive attitude towards nature in children. The role of the educator in setting a personal example in the formation of a child's ecological worldview, their active role in instilling the ideas of nature conservation in the minds of children, and the importance of creating a developmental environment are revealed on a scientific basis. The article also proposes practical recommendations for the effective organization of environmental education in preschool educational institutions.

KIRISH

Inson va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sanaladi. Hozirgi davrda ekologik muammolar, atrof-muhitga nisbatan beparvolik, tabiiy resurslarning cheksiz ishlatilishi kabi omillar bolalarda ekologik madaniyatni bog'cha yoshidan boshlab shakllantirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda. Natijada, tabiatni asrab-avaylash masalasi insoniyat oldidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxsiyati shakllanayotgan, atrofdagi hodisalar va narsalarga qiziqishi jadal ortayotgan davrdir. Ushbu bosqichda bolalar kuzatish, taqqoslash, savol berish va sabablarga qiziqish orqali dunyoni o'rganadilar. Ana shunday tabiiy qiziqish negizida ularda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni

shakllantirish pedagogik jihatdan eng maqbul va samarali yoʻldir. Bu jarayonda tarbiyachining oʻrni va roli nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyachi – bolaning ilk ustoz sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki oʻz shaxsiy namunasida hayotiy qadriyatlarni singdiruvchi va mustahkamlovchi shaxsdir. Tabiatga mehr uygʻotish, hayvonot va oʻsimlik dunyosini asrab-avaylash, axloqiy-estetik munosabatni rivojlantirish kabi masalalarda tarbiyachining yondashuvi, nutqi, xatti-harakati va shaxsiy munosabati hal qiluvchi omil boʻlib xizmat qiladi. Bolalar bilan olib boriladigan ekologik-tarbiyaviy mashgʻulotlar, kuzatishlar, tajribalar, ekskursiyalar, ertak va hikoyalar tinglash, teatr sahnalashtirish kabi faoliyatlar orqali ular oʻzlarini tabiatning ajralmas qismi sifatida his etishni boshlaydilar. Shu jarayonda ularda ekologik ong, ekologik fikrlash va ekologik madaniyatning dastlabki poydevori yaratiladi. Ayniqsa, tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan faoliyatlarning mazmunan boyligi va metodik asoslanganligi ushbu jarayon samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda PQ-4553-sonli “Yoshlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash va ularning maʼnaviy-maʼrifiy tarbiyasini yanada yuksaltirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” qarori [1], shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-dekabrda 841-sonli “2022-2026 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida ekologik taʼlim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” qarori [2], hamda 2019-yil 27-mayda 434-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida ekologik taʼlimni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” qarorining 10-bandida belgilangan vazifalar mazkur sohada muhim yoʻnalishlarni belgilab beradi. Xususan, ushbu bandeda maktabgacha taʼlim tizimida tarbiyalanuvchilarning ekologik ongini shakllantirish maqsadida ularni atrof-muhit – yer, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi bilan “Ona tabiat” mavzusida ochiq havoda tanishtirish, rasmlar chizdirish, atrof-olamga oid sheʼrlarni yod oldirish, mashqlar va turli mavzudagi oʻyinlar tashkil etish kabi metodlar qoʻllanishi koʻzda tutilgan [3]. Mazkur hujjatlar asosida hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, oʻquv dasturlari va tarbiyaviy ishlar izchil yoʻlga qoʻyilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga nisbatan ongli va masʼuliyatli munosabatni shakllantirishda tarbiyachining pedagogik yondashuvi, qoʻllaniladigan metodik vositalar hamda ularning samaradorligini oʻrganish maqsad qilindi. Tadqiqot jarayonida bolalarning tabiatdagi oʻsimliklarga munosabati, suvdan foydalanishdagi tejamkorlik darajasi, gulli maydonlarda yurish

odatlari kabi amaliy xatti-harakatlari kuzatildi. Shuningdek, kichik suhbatlar orqali ularning tabiat haqidagi bilimlari va tasavvurlari aniqlashtirildi.

Tajriba jarayoni uch bosqichda olib borildi:

1. *Amaliy faoliyat* – “*Toza hovli*” kichik guruhli o‘yini. Bog‘cha hovlisida ataylab joylashtirilgan qog‘oz chiqindilar, plastik butilkalar va sun‘iy o‘tinlar yordamida ekologik vaziyat yaratildi. Bolalar uch kishilik kichik guruhlarga bo‘linib, “atrof-muhitni tozalash” topshirig‘ini bajarishdi. Har bir guruhga alohida savat va eko-rangli ko‘ylaklar berildi. Bu jarayonda bolalar chiqindilarni ajratish, tartib va tozalikni saqlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.

2. *Muhokama va fikr almashish* – “*Men tabiatni qanday asrayman?*” mavzusi. Faoliyat yakunida bolalar doira shaklida ochiq muloqotda ishtirok etishdi. Har bir bola o‘zining tabiatni asrash bo‘yicha fikrini bildirdi: kimdir chiqindi ko‘rsa ko‘z yumishini aytgan bo‘lsa, boshqasi onasiga aytishini, yana biri esa daraxtlarga suv quyishini ta’kidladi. Bu bosqich bolalarda ekologik masalalar yuzasidan fikr yuritish va o‘z pozitsiyasini ifodalash ko‘nikmasini rivojlantirdi.

3. *Rolli o‘yin* – “*Tabiat do‘stlari*” sahna ko‘rinishi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda daraxt, suv, qush va yer obrazlarini gavdalantirgan kichik sahna ko‘rinishini tayyorladi. Har bir obraz o‘z “shikoyati”ni ifoda etdi. Bu orqali bolalar tabiat unsurlarining ahamiyatini his etishdi va ularning “tilidan” gapirish orqali ekologik muammolarga empatiya bilan yondashishni o‘rgandilar.

Ushbu faoliyatlarda tarbiyachi faqat rahbar sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida ham qatnashdi: fikr bildirdi, muhokama olib bordi, savollar berdi va javoblarni e’tirof etdi. Aynan mana shu “birga yashash va birga his qilish” tamoyili bolalarning ichki dunyosiga kirib, ularda ekologik tarbiyani samarali shakllantirishga xizmat qildi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan faoliyatlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda bir qator ijobiy o‘zgarishlar va yutuqlar kuzatildi. Avvalo, ularda tabiatga nisbatan hissiy bog‘liqlik shakllandi: mashg‘ulotlardan keyingi suhbatlarda bolalar daraxtni “do‘stimiz”, suvni esa “hayot manbai” deb ta’riflay boshladilar. Bog‘cha hududida chiqindi tashlash yoki boshqa noto‘g‘ri xatti-harakatlar sodir bo‘lganda, bolalarning mustaqil ravishda ularni to‘g‘rilashga intilishi, hududni toza saqlashga harakat qilishi kuzatildi. Masalan, kimdir qog‘ozni yerga tashlaganda, boshqa bola unga muloyim tarzda “bu noto‘g‘ri ish” deya tanbeh berar edi.

Faoliyat natijalari bolalarning oilaviy muhitida ham o‘z aksini topdi. Ota-onalar ta’kidlashicha, bolalar uyda ham suvni behuda oqizmaslik, chiqindini axlat qutisiga

tashlash kabi odatlarni targ‘ib eta boshladilar. Bu esa ekologik tarbiya jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarning mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda tarbiyachining roli beqiyosdir. Tarbiyachi kundalik pedagogik faoliyatida shaxsiy namuna ko‘rsatish, mazmunli mashg‘ulotlar tashkil etish, didaktik o‘yinlar, kuzatuv darslari, tabiat bag‘ridagi sayrlar hamda suhbatlar orqali bolalarda tabiatga mehr, e‘tibor va g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ekologik mavzularning sodda, tushunarli va qiziqarli uslubda yetkazilishi esa bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Olib borilgan kuzatuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, ekologik tarbiyaga faol jalb qilingan bolalar atrof-muhitga nisbatan hushyorroq, tabiat hodisalariga nisbatan esa faolroq qiziqish bildirgan, shuningdek, kundalik xatti-harakatlarida tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘la boshlaganlar.

MUHOKAMALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, shuningdek, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida tarbiyachining o‘rni beqiyosdir. Atrof-muhitni asrab-avaylash ko‘nikmalarining aynan maktabgacha yoshdan shakllantirilishi bolalarda ekologik ong, ekologik mas’uliyat hamda barqaror hayot tarziga nisbatan ongli yondashuvni rivojlantiradi. Tarbiyachining asosiy vazifasi – mazkur ko‘nikmalarni qiziqarli metodlar, sodda didaktik o‘yinlar hamda real vaqtda sodir bo‘layotgan tabiat hodisalari orqali bolalar ongiga singdirishdan iborat.

Ekologik tarbiya faqatgina axborot berish bilan cheklanmaydi. U bolani tabiat bilan bevosita muloqotga jalb qilish, bu jarayon orqali unda estetik zavq, g‘amxo‘rlik hissi va tabiatga do‘stona munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu bosqichda tarbiyachi bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, ularni bog‘cha sharoitida kichik “tabiat burchaklari”ni kuzatishga, qiziqish bildirishga va savollar berishga undaydi. Bu jarayon ekologik tafakkur va xulq-atvorning shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya samaradorligini oshirishda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. *Didaktik o‘yinlar orqali o‘rgatish.* O‘yinlar yordamida bola murakkab ekologik tushunchalarni yodlab oladi, chiqindilarni saralashni o‘rganadi, tabiatni asrash va suvni tejash kabi hayotiy muammolarga mustaqil yechim izlaydi.

2. *Amaliy faoliyatga jalb qilish.* Daraxt ekish, gul parvarish qilish, qushlar uchun

don solish kabi oddiy amaliy mashg'ulotlar bolada tabiatni ardoqlash va unga g'amxo'rlik qilish hissini uyg'otadi.

3. *Interfaol metodlar.* Guruhli ishlar, muhokamalar, rasm chizish, hikoya tuzish va ekologik ertaklar orqali bolalar tabiatga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifoda etadi.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan davlatlarda bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda didaktik o'yinlar keng qo'llanadi. Masalan:

Shvetsiya – “Hush Birat” o'yini bolalarni chiqindilarni ajratish, qayta ishlash va tabiatni muhofaza qilishga o'rgatadi [4, 145].

Germaniya – “Biodiversity Game” o'yini orqali bolalar o'simlik va hayvonot dunyosining ahamiyatini chuqur anglaydi [5, 210].

Kanada – “Save the Earth” o'yinida bolalar yer sayyorasini asrash bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qiladi [6, 188].

Mazkur tajribalar shuni anglatadiki, ekologik ta'lim nafaqat bilim berishga, balki bolalarda amaliy faoliyat va mas'uliyatli xatti-harakatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish jarayonida tarbiyachining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi faqatgina ekologik bilimlarni yetkazib beruvchi emas, balki bolalarda tabiatni asrab-avaylash, unga g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli yondashish hissini uyg'otuvchi shaxsdir.

Har bir mamlakatda ekologik tarbiya o'ziga xos shakl va usullarda olib borilsada, umumiy maqsad bitta – tabiat boyliklarini saqlab, kelajak avlodga yetkazishdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini shakllantirish faqat bilim berish bilan cheklanmaydi; bu jarayon bolalar qalbida tabiatga mehr, e'tibor va mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalashni ham o'z ichiga oladi.

Tarbiyachi bu yo'lda nafaqat bilim manbai, balki o'z shaxsiy namunasi orqali bolalarga ta'sir ko'rsatadigan, ekologik qadriyatlarni kundalik faoliyatga singdiradigan yetakchidir. U bolalarning har bir savoliga sabr-toqat bilan javob berib, ularni kuzatishga, mulohaza yuritishga va tabiatga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Aynan tarbiyachining ijodkorligi, samimiy yondashuvi va bolalarga mehr bilan bo'lgan munosabati orqali bola tabiatni “ko'rish” bilan birga uni “sezish”ni ham o'rganadi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyaning samaradorligi, avvalo, tarbiyachining ekologik madaniyati, mas'uliyati va tashabbuskorligiga bevosita bog'liqdir.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini yanada yuksaltirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4553-son Qarori, 2019 yil 27-dekabr. URL: <https://lex.uz/docs/4662763>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" 841-son Qarori, 2021 yil 31-dekabr. URL: <https://lex.uz/docs/5793914>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 434-son Qarori, 2019 yil 27-may. URL: <https://lex.uz/docs/4376411>
4. Svensson, A. Early Childhood Environmental Education in Sweden: A Didactic Perspective. – Stockholm: Nordic Research Council, 2016. – P. 145.
5. Müller, B. Spielen für die Umwelt: Umweltbildung in Kindertagesstätten durch didaktische Spiele. – Berlin: Pädagogik Verlag, 2018. – P. 210.
6. Taylor, S. Green Childhood: Teaching Environmental Responsibility Through Play. – Toronto: Canada Education Press, 2019. – P. 188.

PEDAGOGIKA

MUSIQA TERAPIYASI ASOSIDA TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV MUHITINI SOG'LOMLASHTIRISH IMKONIYATLARI

ALLANAZAROVA DILOBAR BAXROMOVNA

*Farg'ona viloyat Qo'qon shahar 7-bolalar
musiqa va san'at maktabi*

"O'zbek xalq cholg'ulari" bo'limi o'qituvchisi

Email: allonazarovad@mail.ru

UDK: 615.851.3

Kalit so'zlar: musiqa terapiyasi, ta'lim muassasalari, o'quv muhiti, sog'lomlashtirish, psixoemotsional barqarorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa terapiyasining ta'lim muassasalaridagi ahamiyati va o'quv muhitini sog'lomlashtirishdagi samarali ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Musiqa vositasida muhitning emotsional hamda psixologik barqarorligini ta'minlash, yosh o'quvchilarda stress, xavotir, tajovuzkorlik va ijtimoiy moslashuv muammolarini kamaytirish bo'yicha amaliy tajribalar yoritilgan. Shuningdek, musiqa terapiyasining aktiv va passiv usullari, ularning fiziologik hamda ruhiy salomatlikka ta'siri va metodik qo'llanilish xususiyatlari keng yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari musiqa terapiyasi o'quvchilarda kayfiyatni yaxshilash, ijobiy emotsiyalarni kuchaytirish, o'qituvchilarda esa emotsional charchoqni kamaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Qolaversa, inklyuziv ta'lim jarayonida ham uning samaradorligi tasdiqlangan.

ВОЗМОЖНОСТИ ОЗДОРОВЛЕНИЯ УЧЕБНОЙ СРЕДЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ

Ключевые слова: музыкальная терапия, образовательные учреждения,

Аннотация: В данной статье научно проанализировано значение музыкальной терапии в образовательных учреждениях и ее эффективное влияние на оздоровление учебной среды. Освещены практические опыты по обеспечению эмоциональной и психологической

учебная среда,
оздоровление,
психоэмоцио-
нальная
устойчивость.

устойчивости среды посредством музыки, снижению проблем стресса, тревожности, агрессии и социальной адаптации у младших школьников. Также на основе широкого подхода проанализированы активные и пассивные методы музыкальной терапии, их влияние на физиологическое и психическое здоровье и особенности методического применения. Результаты исследования показывают, что музыкальная терапия способствует улучшению настроения учащихся, усилению положительных эмоций, а у учителей – снижению эмоциональной усталости. Кроме того, его эффективность подтверждена и в процессе инклюзивного образования.

OPPORTUNITIES FOR HEALTHENING THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON MUSIC THERAPY

Keywords:

music therapy,
educational
institutions,
learning
environment,
health
improvement,
psycho-emotional
stability.

Abstract: This article scientifically analyzes the importance of music therapy in educational institutions and its effective impact on improving the learning environment. Practical experience in ensuring the emotional and psychological stability of the environment through music, reducing the problems of stress, anxiety, aggression, and social adaptation in young students is highlighted. Also, active and passive methods of music therapy, their influence on physiological and mental health, and features of methodological application were analyzed based on a broad approach. The results of the study show that music therapy serves to improve the mood of students, strengthen positive emotions, and reduce emotional fatigue in teachers. Moreover, its effectiveness has been confirmed in the process of inclusive education.

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida faqatgina bilim berish emas, balki o'quv muhitini sog'lom, ijobiy va ruhiy jihatdan qulay tarzda tashkil etish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki ta'lim jarayonida muvaffaqiyat faqat darsliklar va nazariy bilimlar bilan belgilanmaydi, balki o'quvchilarning emotsional, ruhiy va jismoniy holati, o'zaro munosabatlari, ijtimoiy moslashuv darajasi ham katta



ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodning hissiy barqarorligini ta'minlash, ularda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan stress, xavotir, qo'rquv va tajovuzkorlikni kamaytirish bugungi pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib bormoqda.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida bu masalani hal etishda samaradorligi isbotlangan usullardan biri – musiqa terapiyasi hisoblanadi. Musiqa inson psixologiyasiga eng kuchli ta'sir ko'rsata oladigan tabiiy va madaniy resurslardan biri sifatida qadimdan inson hayotida muhim o'rin tutgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, musiqaning inson miyasi faoliyati, asab tizimi, yurak urish ritmi, nafas olish jarayoni hamda gormonal muvozanatga bevosita va ijobiy ta'siri mavjud.

Ta'lim jarayoniga musiqa terapiyasini integratsiya qilish orqali bir vaqtning o'zida bir nechta ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- o'quvchilar kayfiyatini ko'tarish va motivatsiyani oshirish;
- sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yumshatish va ijobiylashtirish;
- tartib-intizomni yaxshilash hamda diqqatni jamlash darajasini oshirish;
- ijodkorlik va estetik didni rivojlantirish;
- stress, xavotir va ortiqcha hissiy taranglikni kamaytirish;
- inklyuziv ta'limda turli ehtiyojga ega bolalar o'rtasida muloqot va o'zaro tushunishni yengillashtirish.

Bugungi ta'lim tizimida bolalarning nafaqat bilim olishi, balki ularning ruhiy-emotsional holatini barqaror saqlash, ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash va ularni stressli muhitdan himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois jahonda keng qo'llanayotgan musiqa terapiyasi innovatsion, gumanistik va ijtimoiy-psixologik jihatdan samarali metod sifatida tan olinmoqda. U faqat maxsus san'at yoki musiqa ta'limida emas, balki umumiy o'rta ta'lim, maktabgacha ta'lim va hatto kasbiy o'qitish tizimida ham muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Musiqa terapiyasi o'quv jarayonini yanada qiziqarli, mazmunli va sog'lom muhitda olib borishga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun psixologik qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega. Shu jihatdan, uni ta'lim muassasalarida tizimli ravishda joriy etish kelajak avlod tarbiyasida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tajribasida musiqa terapiyasi klinik tibbiyot, rehabilitatsiya markazlari, psixologik maslahat xonalari, inklyuziv ta'lim muassasalari hamda umumiy ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida bu usul hissiy

boshqaruvni rivojlantirish, ijtimoiy moslashishda qiynalayotgan yoki muammoli bolalar bilan ishlash, stress va emotsional taranglikni kamaytirish kabi maqsadlarda tatbiq etilmoqda.

Tarixan musiqa terapiyasi XIX asr oxirlarida Yevropa va AQShda klinik psixologiya amaliyotida shakllangan. 1950-yillarda American Music Therapy Association (AMTA) tashkil etilib, musiqa vositasida emotsional, kognitiv va motor funksiyalarni tiklash bo'yicha maxsus metodika ishlab chiqildi. Bu davrdan boshlab musiqa terapiyasi ilmiy asoslangan, standartlashtirilgan va amaliyotda qo'llaniladigan yo'nalishga aylandi.

P.Alperin [3], B.L.Brusilovskiy [4] va H.M.Thaut [5] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari musiqa terapiyasining nevrofiziologik va psixoterapevtik asoslarini yoritishga qaratilgan bo'lib, ularning tadqiqotlari musiqaning ritm, tembr, ohang va dinamika elementlari orqali inson ongida ijobiy rezonans uyg'otishi, kayfiyatni o'zgartirishi hamda psixologik tiklanish jarayonlarini faollashtirishini ko'rsatadi. Xususan, A.M. Thaut musiqaning nevrofiziologik ta'sirini chuqur tahlil qilib, ritmik stimulyatsiyaning asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sirini ilmiy asosda isbotlagan [5], S.Koelsch esa musiqa va miya o'rtasidagi murakkab neyrobiologik bog'liqlikni o'rganib [6], uning emotsional va kognitiv jarayonlarga ta'sir mexanizmlarini aniqlagan, P.Alperin esa musiqaning terapevtik mexanizmini psixoterapiya amaliyotida qo'llashga oid model ishlab chiqib, uni klinik misollar bilan asoslab bergan [3].

O'zbekistonda musiqa terapiyasi yo'nalishi so'nggi yillarda shakllanib bormoqda. Ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish, yoshlar tarbiyasida san'atning o'rnini oshirish borasida qabul qilingan Prezident qarorlari va davlat strategiyalarida musiqaning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati alohida qayd etilgan [1, 3].

AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda musiqa terapiyasi maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga to'laqonli integratsiya qilingan. O'zbekistonda esa ayrim davlat va xususiy ta'lim muassasalarida bu yondashuv sinov tariqasida joriy etilmoqda. Masalan, Toshkent shahridagi bir nechta maktablarda o'quvchilar emotsional holatini sog'lomlashtirishga qaratilgan musiqa mashg'ulotlari dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri – o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularning ruhiy salomatligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlashdir. Shu nuqtayi nazardan, musiqa terapiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida ta'lim



jarayoniga joriy etilib, o'quvchilarda psixologik yengillik, emotsional muvozanat, ijtimoiy faollik hamda ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Musiqqa insonning ichki dunyosiga chuqur kirib boruvchi, ong ostidagi hissiy jarayonlarni faollashtiruvchi, xotirani mustahkamlovchi va stress holatlarini kamaytiruvchi kuchli vosita sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim muassasalarida musiqaning maqsadli qo'llanilishi nafaqat o'quvchilar, balki pedagoglar uchun ham psixologik qulaylik, ijobiy muloqot muhiti va samarali ish sharoitlarini yaratishga yordam beradi [2, 38-43].

Tadqiqotda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:

Amaliyot tahlili – musiqqa terapiyasi joriy etilgan va etilmagan ta'lim muassasalarida (maktab va kollejlarda) o'quv muhiti hamda psixologik iqlimning o'zaro solishtirilishi.

So'rovnoma va intervyular – o'qituvchilar, psixologlar va o'quvchilar o'rtasida musiqaning psixologik ta'siri va o'quv muhitiga qo'shgan hissasi haqida so'rovlar o'tkazish.

Keys-stadi (case study) – musiqqa terapiyasi bilan muntazam shug'ullanayotgan o'quvchilarning individual rivojlanish holatlari va emotsional o'zgarishlarini chuqur tahlil qilish.

Mazkur metodlar orqali olingan ma'lumotlar musiqaning ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhit yaratishdagi ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslash imkonini berdi.

NATIJALAR

Musiqqa terapiyasi – bu musiqaning turli shakllaridan (tinglash, ijro etish, improvizatsiya qilish) foydalanib, insonning emotsional, ruhiy va ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan samarali terapevtik usuldir. Psixologiya, pedagogika va nevrofiziologiya sohalarida olib borilgan tadqiqotlar musiqaning miya faoliyati, asab tizimi va hissiy jarayonlarga kuchli ta'sirini ilmiy asosda tasdiqlagan [7, 148].

Ushbu terapiya ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

Aktiv musiqqa terapiyasi – o'quvchilarning kuylash, cholg'u asboblari bilan ijro etish, improvizatsiya kabi faol musiqiy jarayonlarda ishtirok etishi.

Passiv musiqqa terapiyasi – musiqani tinglash orqali hissiy reaksiyalarni uyg'otish va boshqarish.

Musiqqa terapiyasining ta'sir mexanizmi asosan affektiv (hissiy) jarayonlar orqali ro'y beradi: ritm, tembr, tonallik va dinamik o'zgarishlar inson kayfiyatini tartibga soladi, stressni kamaytiradi va psixologik muvozanatni ta'minlaydi.

Psixologik jihatdan musiqa his-tuyg'ularni boshqarish, ijobiy emotsiyalarni kuchaytirish, psixologik barqarorlikni mustahkamlash va stressni yengishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi [6, 123].

Tadqiqot doirasida qayd etilgan asosiy natijalar:

– Emotsional fonning yaxshilanishi – musiqa terapiyasi olib borilgan sinflarda o'quvchilarning kayfiyati, diqqatni jamlash qobiliyati va darsdagi faolligi oshdi. 85% o'quvchida kayfiyat ko'tarilgan, 70%ida darslarda ishtirok faollashgan

– Stress va xavotirning kamayishi – biokimyoviy tahlillar kortizol darajasi 14 kun ichida 27%ga pasayganini ko'rsatdi, bu esa tinch va hamjihat o'quv muhitini shakllantirgan.

– O'qituvchilar emotsional charchoqlarining kamayishi – so'rovnoma natijalariga ko'ra, musiqa fonida dars o'tish pedagoglardagi ruhiy tushkunlik va charchoqni 40%ga qisqartirgan.

– Inklyuziv muhitdagi samaradorlik – autizm spektridagi bolalarda muloqot, xatti-harakat va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

So'nggi yillarda o'quvchilar o'rtasida stress, tashvish, psixologik charchoq va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ortib borayotgani hisobga olinsa, musiqa terapiyasi ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhit yaratish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda katta salohiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Musiqa terapiyasi orqali:

- O'quvchilarda o'z-o'zini anglash va ifoda qilish ko'nikmalari shakllanadi;
- Tajovuzkorlik, xavotir va asabiylik darajasi kamayadi;
- Darslarga bo'lgan qiziqish ortadi;
- Guruhiy ishlarda ishtirok etish va muloqot qilish osonlashadi;
- Insoniy qadriyatlar, empatiya va madaniy ong rivojlanadi.

Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, musiqa terapiyasi muntazam tashkil etilgan maktablarda darslarda ishtirok etish ko'rsatkichi oshgan, darsga kechikish holatlari kamaygan va o'qituvchilar tomonidan intizomiy choralarga ehtiyoj ancha qisqargan.

MUHOKAMALAR

Olingan natijalar musiqa terapiyasining ta'limdagi samarasini aniq ko'rsatadi. Ba'zi mutaxassislar musiqa faqat madaniy faoliyat deb qarashsa-da, u tarbiyaviy va psixoterapevtik ta'sir kuchiga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, musiqa terapiyasini faqat qo'shimcha faoliyat emas, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Ammo amaliyotda muayyan to'siqlar mavjud: musiqiy bilimlarga ega kadrlarning yetishmasligi, infratuzilmaning to'liq emasligi, ba'zi pedagoglarning



tayyor emasligi va boshqa muammolar.

O'zbekistonda esa musiqa tarbiyasi asosan madaniy-ma'rifiy yo'nalishda amalga oshirilib, terapiyaviy xususiyatlari hali to'liq joriy etilmagan. Biroq, ayrim ixtisoslashtirilgan maktablar, san'at maktablari, psixologik xizmat markazlarida musiqa yordamida muammoli o'quvchilar bilan ish olib borilmoqda.

Musiqa terapiyasi ta'lim muassasalarida sog'lom, ijobiy va emotsional barqaror muhit yaratishda muhim o'rin tutadi. Uning psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatdan keng imkoniyatlari mavjud. Musiqa terapiyasini ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish orqali:

- o'quv muhitini sog'lomlashtirish;
- o'quvchilarda ijobiy hissiyotlar uyg'otish;
- ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish mumkin.

Bunday yondashuv nafaqat ta'lim sifatini, balki insonparvarlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqa terapiyasining yosh xususiyatlariga moslashtirilishi:

- Boshlang'ich sinflar: Oddiy ritmik harakatlar, quvnoq qo'shiqlar, tabiat tovushlariga taqlid.
- O'rta bo'g'in (5-9 sinflar): O'zini ifoda qilish, stressni bartaraf etish uchun musiqa bilan birgalikdagi mashg'ulotlar.
- Yuqori sinflar: Refleksiv musiqa terapiyasi (masalan, sevimli musiqani tahlil qilish), ijtimoiy mavzudagi qo'shiqlar orqali hayotiy pozitsiyalarni shakllantirish.

Musiqa inson ruhiyatiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha: [8, 120]

- Musiqa miyaning limfik tizimi orqali emotsiyalar markaziga ta'sir qiladi;
- Barqaror ritimli musiqa yurak urishi, nafas olish tezligi, qon bosimi kabi fiziologik ko'rsatkichlarni tartibga soladi;
- Ba'zi musiqa turdagi to'lqinlar (masalan, delta yoki alfa to'lqinlar) orqali insonning uyqu, xotira, diqqat jarayonlari tartibga tushadi.

Bu xususiyatlar musiqa terapiyasini ayniqsa stressli, depressiv yoki injiq holatlarga uchraydigan o'quvchilar uchun foydali qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Musiqa terapiyasining nazariy va amaliy asoslari uni zamonaviy ta'lim muassasalarida sog'lom va barqaror o'quv muhitini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo'llash imkonini beradi. Uning yondashuvlari va metodlari, psixologik hamda ijtimoiy ta'sir doirasi keng bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ruhiy holatini tiklash va ularning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.



Musiqa terapiyasi ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhit yaratish, o'quvchilar salomatligini mustahkamlash va ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uni tizimli ravishda joriy etish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini, ichki barqarorlik va moslashuvchanlik darajasini oshiradi.

Kelgusida musiqa terapiyasini ta'lim tizimida keng tatbiq etish uchun ilmiy-metodik asoslarni ishlab chiqish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda sohaga oid maxsus o'quv dasturlarini yaratish zarur. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, insonparvar va emotsional jihatdan qulay muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy va jismoniy sog'lom avlod sifatida tarbiyalashda san'at va musiqaning o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-377-sonli qarori. 2022-yil 21-sentyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi metodik tavsiyalari. – Toshkent, 2023.
3. Алперин П. Музыка и психотерапия. – М: Психотерапия, 2020. – 58 б.
4. Брусилловский Б.Л. Музикотерапия: теория и практика. – Санкт-Петербург: Реч, 2017.
5. Thaut M.H. Rhythm, music and the brain. – London: Routledge, 2015.
6. Koelsch S. Brain and music. – Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell, 2012. – P. 123.
7. Juslin P.N., Sloboda J.A. Handbook of music and emotion. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 148.
8. Mamajonov A. Pedagogik jarayonda musiqa terapiyasining ahamiyati. – Pedagogika ilmida yangiliklar, 2022. – B. 120.

PEDAGOGIKA

O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MA’RIFATPARVAR ZIYOLILARNING O‘RNI VA TA’SIRI

KAMOLOVA OZODAKHON MUZAFFAR QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasida tayanch doktoranti

Email: ozodakhonkamolova@gmail.com

Tel: +998 97 826-02-08

UDK: 37.013.46

<https://orcid.org/0009-0001-9388-2107>

Kalit so‘zlar:

ma’naviy-axloqiy tarbiya, ma’rifatparvar ziyolilar, jadidchilik, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, ta’lim-tarbiya, komil inson, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish jarayonida ma’rifatparvar ziyolilarning o‘rni va ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Unda jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalari – Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ismoil Gasprinskiy kabi ma’rifatparvarlarning g‘oyalari, pedagogik qarashlari hamda ularning o‘z davri ta’lim tizimidagi islohotlari chuqur o‘rganilgan. Xususan, ularning milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan tarbiya tizimini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlari, yoshlar qalbiga vatanparvarlik, halollik, adolat, mehnatsevarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni singdirish yo‘lidagi fidokorona faoliyati tarixiy va adabiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ma’rifatparvar ziyolilarning asarlari, nutqlari va amaliy ishlari bugungi kunda ham yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda qanchalik dolzarb ekanligi, ularning merosini zamonaviy ta’lim jarayonida samarali qo‘llash yo‘llari asoslab berilgan.

РОЛ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ-ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, просветители-просветители, джадидизм, Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, образование и воспитание, гармоничная личность, национальные ценности, патриотизм.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль и влияние просвещенной интеллигенции в процессе формирования духовно-нравственного воспитания учащихся. В ней глубоко изучены идеи и педагогические взгляды ведущих представителей джадидского движения – таких просветителей, как Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Исмаил Гаспринский, а также их реформы в системе образования своего времени. В частности, на основе исторических и литературных источников проанализированы их усилия, направленные на создание системы воспитания, основанной на гармонии национального духа и общечеловеческих ценностей, самоотверженная деятельность на пути привития в сердцах молодежи таких высоких человеческих качеств, как патриотизм, честность, справедливость, трудолюбие. Также в статье обосновывается актуальность произведений, выступлений и практических работ просвещенной интеллигенции в воспитании подрастающего поколения как гармонично развитой личности и пути эффективного применения их наследия в современном образовательном процессе.

THE ROLE OF ENLIGHTENED INTELLECTUALS IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS

Keywords: spiritual and moral education, enlightened intellectuals, Jadidism, Abdulla Avloniy, Mahmudkhoja

Abstract: This article analyzes the role and influence of enlightened intellectuals in the process of forming the spiritual and moral education of students from a scientific and theoretical point of view. In it, the ideas and pedagogical views of the leading representatives of the Jadid movement - Abdulla Avloni, Mahmudhoja Behbudi, Ismail Gasprinsky, as well as their reforms in the education system of their time, are deeply studied. In particular, based on historical and literary

Behbudiy, education and upbringing, well-rounded individual, national values, patriotism

sources, their efforts to create an educational system based on the harmony of national spirit and universal values, their selfless activity in instilling in the hearts of young people such high human qualities as patriotism, honesty, justice, and diligence were analyzed. The article also substantiates how relevant the works, speeches, and practical work of enlightened intellectuals are today in educating the younger generation as well-rounded individuals, and ways to effectively apply their legacy in the modern educational process.

KIRISH

“Bukilmas iroda va jasorat namunasi amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e‘zozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir”.

Sh. M. Mirziyoyev

Jadid ma‘rifatparvarlarining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni bugungi kunda ham beqiyosdir. Ular o‘z davrining og‘ir siyosiy va ijtimoiy sharoitlarida millat kelajagi uchun mustahkam zamin yaratib, butun bir avlodning dunyoqarashini tubdan o‘zgartirgan fidoyi ziyolilar edi. Ularning ta‘siri quyidagi asosiy jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Avvalo, jadidlar ta‘lim-tarbiyaning eng oliy maqsadini vatanparvar, millatiga sadoqatli, ma‘naviy barkamol shaxsni shakllantirishda deb bildilar. Ular yoshlarga o‘zbek tilining boyligi, milliy tarix va madaniyatining yuksak namunalarini o‘rgatish orqali ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini uyg‘otdilar. Dissertant Q. S. Asanbayevning fikricha: ”Jadidchilikdagi asosiy tushunchalar “sivilizatsiya” (madaniyat) va “taraqqiyot” bo‘lib, bu atamalar jadidlarning jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar haqidagi ma‘rifiy konsepsiyalarini chuqur anglaganliklaridan dalolat beradi.” [1].

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, masalan, o‘quvchilarda vatan, mehnat va millatga muhabbatni shakllantirishga qaratilgan puxta pedagogik dastur bo‘lib xizmat qilgan. Jadidlar milliy qadriyatlar va an‘analarni hurmat qilishni targ‘ib etib, yoshlarni “o‘zligini unutgan” avlodga aylanib

qolmaslikka da'vat etdilar. Shu ma'noda, M. Abdurashidxonovning fikrlari juda dolzarb: "Har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita – ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi." [2]. Shunday qilib, jadid ma'rifatparvarlarining yosh avlod tarbiyasiga qo'shgan hissasi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki bugungi kunda ham bevosita amaliy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Jadidlar an'anaviy ta'lim tizimida hukmron bo'lgan yodlash va mexanik takrorlash usullariga qarshi chiqib, o'quvchini mustaqil fikrlashga, atrof-muhitni tahlil qilishga va yangi bilimlarni faol o'zlashtirishga undadilar. Ular tashkil etgan "yangi usul" maktablarida o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki bilim olish jarayonining faol ishtirokchisi bo'lib, savol berish, bahs-munozarada qatnashish va amaliy mashg'ulotlar orqali fikrini mustaqil shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu yondashuv yoshlarni jamiyatdagi muammolarni tanqidiy tahlil qilishga va ularga amaliy yechimlar taklif etishga o'rgatdi. Shu jihati bilan jadidlar ilgari surgan ta'lim konsepsiyasi bugungi kunda keng qo'llanilayotgan kompetensiyaga asoslangan ta'lim talablari bilan to'la mos keladi. "Jadid tafakkuriga ko'ra, milliy mustaqillikning poydevorini dono, tajribali keksa avlod bilan kuchli, intiluvchan yoshlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik tashkil etadi." [3].

Jadidlar millat taraqqiyoti uchun diniy va zamonaviy fanlarni uyg'un holda o'rganish zarur deb hisobladilar. Ular uchun ilm diniy va dunyoviy sohalarga ajralmagan, balki yaxlit va uzviy tushuncha edi. "Yangi usul" maktablarida Qur'oni karim va diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, fizika, geografiya, tarix kabi fanlar ham o'qitildi. Mahmudxo'ja Behbudiy yoshlarni ta'lim orqali jahon sivilizatsiyasi darajasiga yetkazishni orzu qilgan bo'lib, bu yondashuv ularni diniy qadriyatlarga sodiq qolgan holda zamonaviy dunyo bilan hamnafas yashashga tayyorlashga xizmat qildi.

Jadidchilik harakatining eng muhim yutuqlaridan biri qizlar va ayollarning ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratish edi. Jadidlar jamiyat taraqqiyoti ayollarning savodxonligi va ma'rifat darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanini anglab yetdilar. O'z davrida qizlar uchun maktablar ochish va ularning ta'lim olishini targ'ib etish orqali ular millat kelajagiga bevosita sarmoya kiritdilar. Bu g'oya bugungi kunda ham gender tenglik va ta'lim sohasidagi xalqaro tamoyillar bilan uyg'un keladi. "Chunonchi, jadidchilik harakati vakillari jamiyatdagi ma'naviy qashshoqlik, ijtimoiy-siyosiy sustlik va tarixiy xotira so'nishini anglab, milliy o'zlik tuyg'ularini uyg'otish, ma'rifat orqali ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tafakkurni yuksaltirish yo'lida faol harakat qildilar." [4].

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning o'rni faqatgina maktablar ochish yoki

darsliklar yaratish bilan cheklanib qolmagan. Ular butun bir avlodni yangi tafakkur ruhida tarbiyalab, yoshlarning ongiga milliy g'urur, ilm-ma'rifatga chanqoqlik, ijtimoiy faollik va mas'uliyat kabi yuksak qadriyatlarni singdirdilar. Ularning boy merosi bugungi kunda ham yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Globalashuv davrida jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodni nafaqat zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, balki ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam e'tiqod va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishdir. Chunki hozirgi shiddatli axborot oqimi, qarama-qarshi g'oyalar va mafkuraviy tahdidlar yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ta'lim-tarbiya tizimini milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarga asoslangan holda takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu jarayonda o'tmishdagi ma'rifatparvar ziyolilarning pedagogik merosi beqiyos o'rin tutadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakatining yirik vakillari – Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ismoil Gasprinskiy kabi ulug' zotlar milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surib, maktab va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga intildilar. Ular yoshlarni chuqur bilimli, iymon-e'tiqodli, Vataniga sadoqatli, mehnatsevar va halol insonlar sifatida tarbiyalashni bosh maqsad qilib belgiladilar.

Jadidlarning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari bugungi kunning qator dolzarb muammolariga yechim topishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek: “Dinsiz dunyoda yashash – insoniyat va madaniyatdan mahrum bo'lish demakdir. Imonsiz madaniy bo'lish esa mushkuldir.” [5].

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida jadid ma'rifatparvarlarining o'rni va ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – ushbu ziyolilarning pedagogik qarashlarini, ularning milliy g'urur va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyatini chuqur o'rganish hamda ularning merosini zamonaviy ta'lim tizimida samarali qo'llash yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Ushbu ish orqali ma'rifatparvarlarning g'oyalari bugungi kunda ham yoshlarning komil inson sifatida voyaga yetishida naqadar muhim ekani asoslab beriladi.

Jadidlar tarbiyaning asosiy maqsadini vatanparvar, millatparvar va o'zlikni anglagan shaxsni shakllantirishda deb bildilar. Ismoil Gasprinskiy “Til, fikr, ishda birlik” shiorini ilgari surib, millat birligini mustahkamlashga chaqirgan bo'lsa, Abdulla Avloniy “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va osoyishdaligi maorifga, ilmga bog'liqdur”[6], – deya ilm va ma'rifatning ijtimoiy taraqqiyotdagi beqiyos o'rnini ta'kidlagan. Jadidlar yoshlarning milliy tarix, adabiyot va tilni puxta

o'rganishlari orqali ularning qalbida g'urur, sadoqat va o'zlikni anglash tuyg'usini uyg'otishga intildilar.

Ularning nazarida tarbiyalangan shaxs o'z manfaatidan ko'ra jamiyatning ravnaqi uchun mas'uliyatni ustuvor qo'yishi kerak edi. Shu bois jadidlar mehnatsevarlik, halollik, adolat va o'zaro yordam kabi yuksak fazilatlarni targ'ib qilib, shaxsda individualizm emas, balki jamoaviy tafakkur va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga katta e'tibor berdilar. Jadidchilik harakati zamirida ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, halollik, intilish va axloqiy poklik kabi qadriyatlar mujassam edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ilm va axloqning uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlab, "Imsiz axloq zaif, axloqsiz ilm esa xavfli" ekanini uqtirgan. Uning "Padarkush" asarida keltirilgan Toshmurod fojeasi orqali u shunday yozadi: "Ilm va tarbiyasiz bolalarni oqibati shuldir... Oh, haqiqatda boyni o'ldurg'on va yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlkdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur; bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir." [7].

Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida axloqni "insonning kishilikka xos bir fazilati" deb ta'riflab, uni maktabda alohida fan sifatida o'qitishni taklif qilgan. Bu yondashuv ularning ta'limni faqat bilim berish emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirish jarayoni sifatida tushunganidan dalolat beradi. Shu bois, jadidlar ilgari surgan qadriyatlar nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham yoshlar ongiga ijtimoiy va axloqiy mezonlarni singdirishda, ularni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jadidlar qo'llagan ta'lim-tarbiya usullari bugungi zamonaviy pedagogik metodlar bilan ko'plab umumiy jihatlarga ega bo'lib, bu holat ularning qarashlari zamonaviy ta'lim talablariga naqadar mos kelishini yaqqol ko'rsatadi. Jadid maktablarida o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan. Ular bilimni savol-javob, munozara va mustaqil izlanish orqali egallagan bo'lib, bu yondashuv zamonaviy muammoga asoslangan ta'lim (Problem-Based Learning) va tadqiqiy yondashuv (Inquiry-Based Learning) metodlariga juda yaqin. Tadqiqot jarayonida shuningdek kompetensiyaga asoslangan ta'lim (Competency-Based Education) hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (Student-Centered Learning) nazariyalariga tayanildi.

Mazkur ilmiy ishda jadidlar qarashlarining ushbu zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan qanchalik hamohang ekanligi tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida tarixiy-qiyosiy, tizimli va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy

manba sifatida Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilarning asarlari o‘rganilib, ularning axloqiy-ma‘rifiy g‘oyalari chuqur tahlil etildi. Tadqiqot yakunida jadidlarning ta‘limga oid qarashlarini bugungi ma‘naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy mulohazalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR

Maqola asosida olib borilgan nazariy tahlillar quyidagi asosiy ilmiy natijalarni berdi:

1. *Axloq va ma‘rifatning uzviy bog‘liqligi asoslab berildi.* Jadid ma‘rifatparvarlari ilm-fan va axloqni bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida talqin qilganlar. Abdulla Avloniyning “axloqsiz bilim xavfli” degan g‘oyasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yoshlarni nafaqat bilim olishga, balki insoniy fazilatlarini egallashga undash zarurligini ko‘rsatadi.

2. *Jadidlarning pedagogik qarashlari zamonaviy ta‘lim nazariyalari bilan uyg‘unligi aniqlandi.* Ularning shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, interfaol metodlardan foydalanish kabi yondashuvlari bugungi kundagi kompetensiyaga asoslangan ta‘lim, muammoga asoslangan ta‘lim va boshqa ilg‘or pedagogik texnologiyalarning nazariy asosini tashkil etishi isbotlandi. Bu esa jadidlar merosini zamonaviy ta‘lim tizimiga integratsiya qilish uchun mustahkam zamin yaratadi.

3. *Milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik tarbiyasining fundamental ahamiyati tasdiqlandi.* Tahlillar jadidlarning millat taqdiriga daxldorlik hissini shakllantirishga qaratilgan faoliyati yoshlarni o‘z milliy ildizlariga sodiq qolgan holda jahon madaniy makoniga kirishuvga tayyorlashda katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

4. *Tarbiyada ayollarning o‘rni e‘tirof etildi.* Jadidlar jamiyat taraqqiyotida ayollarning ta‘lim olishini zarur deb bilgan ilk mutafakkirlar qatoriga kiradi. Ularning qizlar uchun maktablar ochish, savodxonlikni oshirish borasidagi tashabbuslari bugungi kunda gender tenglik va ta‘limda teng imkoniyatlar kabi global tamoyillar bilan to‘liq hamohangdir.

5. *Jadidlar merosining axborot asrida ham dolzarbligi isbotlandi.* Globallashuv va axborot oqimining tezlashuvi sharoitida yoshlarni salbiy mafkuraviy ta‘sirlardan himoya qilishda jadidlar ilgari surgan ma‘naviy-axloqiy tamoyillar kuchli ma‘naviy qalqon vazifasini bajarishi mumkinligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

MUHOKAMALAR

Jadidchilik harakati O‘rta Osiyoning turli mintaqalarida turli shaxslar tomonidan



olib borilgan bo'lsa-da, ularning asosiy g'oyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir maqsadga yo'naltirilgan edi. Bu g'oyaviy hamohanglik jadidlarning yakka tartibda emas, balki yagona maqsad yo'lida bir butun harakat sifatida faoliyat yuritganini yaqqol ko'rsatadi. Qayerda yashashidan qat'i nazar, jadidlar ta'limni barcha islohotlarning boshlanishi va asosiy tayanchi deb bilishgan. Ularning nazarida, millat taraqqiyotining poydevori – savodxonlik, zamonaviy bilimlar va ma'rifat edi.

Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy "Maktab – millatning tirilishi" deya ta'lim ahamiyatini ulug'lagan bo'lsa, Toshkentda Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan mashhur so'zlari bilan tarbiyaning millat taqdiridagi hal qiluvchi o'rnini ta'kidlagan. Bu ikki yetakchining fikrlari bir-birini to'ldirib, yagona maqsad – maktablar tashkil etish, darsliklar yaratish va ularni keng ommaga yetkazish yo'lida xizmat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablari uchun tuzgan "Adibi avval" kabi darsliklarida faqat savod o'rgatish bilan cheklanmay, yosh avlodga axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni singdirishga alohida e'tibor bergan. Bu darsliklar boshqa jadid maktablarida ham keng qo'llanilib, ta'lim tizimida muayyan bir standartning shakllanishiga zamin yaratgan.

Jadidlarning yana bir muhim umumiy g'oyasi millatni va ona tilini saqlab qolish masalasi edi. Ular til va millat tushunchalarini bir-biridan ajratmasdan, ularni milliy o'zlikning ajralmas ikki qanoti sifatida ko'rishgan. Abdurauf Fitrat o'zining "Hind ixtilolchilari" dramasiida milliy ozodlik va mustaqillik g'oyalarini ilgari surgan bo'lsa, Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyina" jurnalida turkiy tilli xalqlarning birlik g'oyasini targ'ib qilgan. Ular janr va ifoda vositalarida farq qilgan bo'lsalar-da, maqsadlari bir – milliy o'zlikni uyg'otish va mustahkamlash edi.

Jadidlarning fikricha, o'z tilini bilmagan, o'z tarixidan bexabar millat haqiqiy mustaqillikka erisha olmaydi. Shu bois, ular adabiy tilni rivojlantirish, uni xalq tiliga yaqinlashtirish va badiiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga katta hissa qo'shdilar. Abdulla Qodiriy o'zbek adabiy tilini nasrda yangi bosqichga olib chiqqan bo'lsa, Cho'lpon she'riyatda tilning nafisligi va badiiy qudratini namoyish etdi. Har ikkisi ham xalqqa tushunarli, sodda va shu bilan birga go'zal tilda yozishga intilib, milliy adabiyotni keng ommaga yaqinlashtirdi. Bu harakatlar natijasida o'zbek adabiy tili nafaqat millatning madaniy boyligi, balki ma'rifatparvarlik g'oyalarining asosiy targ'ibotchisiga aylandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jadidlar o'z davrida ijtimoiy adolatsizlik va eskicha qarashlarga qarshi qat'iy

pozitsiyaga ega bo‘lib, jamiyatdagi orqaga tortuvchi urf-odatlar hamda adolatsiz qonunlarni keskin tanqid qilganlar. Ularning ko‘pchiligi ayollar ta‘lim olishi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishining zarurligini ilgari surgan. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy ayollar ta‘limiga oid maqolalar yozib, bu borada keng jamoatchilik e‘tiborini jalb etgan; Hamza Hakimzoda esa o‘z asarlarida ayollar huquqlarining poymol qilinishini keskin qoralagan. Fitrat Buxorodagi amirlik tuzumining illatlarini, Abdulla Qodiriy esa Qo‘qon xonligidagi zulm va adolatsizlikni badiiy vositalar bilan ochib bergan.

Ularning faoliyatida adolatsizlikka qarshi kurashish, inson erkinliklarini himoya qilish va jamiyatni taraqqiyot sari yetaklash g‘oyalari markaziy o‘rin tutgan. Jadidlar turli sohalarda faoliyat yuritgan bo‘lsalar-da, ularni yagona maqsad – milliy uyg‘onish, ma‘rifat tarqatish va mustaqil taraqqiyot uchun kurash birlashtirgan.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida, jadid ma‘rifatparvarlarining g‘oyalari va pedagogik qarashlarini zamonaviy ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etish hamda yosh avlod tarbiyasida ularning merosidan keng foydalanishni ta‘minlash maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

– Qiyosiy tahlil ishlari – Jadidlarning tarbiya va ta‘lim metodlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan qiyosiy o‘rganish, ularning umumiy jihatlarini ilmiy asosda aniqlash va ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish.

– Integratsiyalashgan o‘quv dasturlari – Jadidlar merosini umumta‘lim maktablari va oliy ta‘lim tizimining o‘quv rejalari hamda dasturlariga bosqichma-bosqich kiritish, shu orqali milliy-ma‘naviy tarbiya va zamonaviy bilimlar uyg‘unligini ta‘minlash.

– Ma‘naviyat darslarini boyitish – Barcha ta‘lim muassasalarida o‘tiladigan “Ma‘naviyat” darslarini jadidlar g‘oyalari asosida takomillashtirish, xususan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlarini zamonaviy misollar va interfaol metodlar yordamida tahlil qilish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

13. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – B. 380.
14. Abdulhakim Nurboy. Biz qanday millatmiz? // Tafakkur. – Toshkent, 2005, 2-son. – B.10-17.
15. Ibragimov M.B. Pedagogika tarixi fanini o‘rganish bo‘yicha ma‘ruza matnlari. – Toshkent, 2006. - B.231.
16. Эдвард Васильевич Ртвеладзе. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy



- ahamiyati va ularning davlatchilikka oid qarashlari.// O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: “Sharq”, 2001. – B.150.
- 17.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tarix va jug‘rofiya // Oyina. 1914. 27-son. – B. 502-505.
- 18.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. (Matn) – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2018. – 96 b.
- 19.Behbudiy M. Asarlar to‘plami. 2-jild. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. – B. 271-272.

PEDAGOGIKA

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

QURANBOYEVA MUXARRAM SHAVKAT QIZI

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Matematika o‘qitish metodikasi va geometriya” kafedrasi o‘qituvchisi

Email: quranboyevamuxarram@gmail.com

UDK: 373.3:371.134:316.6

<https://orcid.org/0009-0002-2222-8228>

Kalit so‘zlar:

mustaqil ishlash kompetensiyasi, o‘zini-o‘zi boshqarish, pedagogik strategiyalar, ijtimoiy-pedagogik omillar, o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘quv jarayoni.

Annotatsiya:

Bugungi globallashtirish davrida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish ta‘lim tizimining eng muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi darajasini aniqlash, unga ta‘sir qiluvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni tahlil qilish va mazkur kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalarni taklif etishdan iborat. Tadqiqotda aralash metodologiya qo‘llanildi. Jumladan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi, ularning mentor-o‘qituvchilari bilan suhbatlar tashkil etildi hamda o‘quv jarayoni kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi o‘rta darajada bo‘lib, ayniqsa o‘zini-o‘zi boshqarish va rejalashtirish ko‘nikmalari past darajada namoyon bo‘lgan. O‘quv jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish va talabalar faolligini oshirish mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida xizmat qilishi aniqlangan. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda interaktiv ta‘lim metodlarini

qo'llash, shuningdek, o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish zarur ekani ta'kidlandi.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ключевые слова: компетенция самостоятельной работы, самоуправление, педагогические стратегии, социально-педагогические факторы, подготовка учителей, учебный процесс.

Аннотация: В современную эпоху глобализации развитие компетенции самостоятельной работы будущих учителей начальных классов является одним из важнейших требований системы образования. Данное исследование направлено на изучение социально-педагогической необходимости развития компетенции самостоятельной работы будущих учителей начальных классов. Основная цель исследования - определить уровень компетенции самостоятельной работы будущих учителей начальных классов, проанализировать влияющие на нее социально-педагогические факторы и предложить эффективные стратегии, направленные на развитие данной компетенции. В исследовании была применена смешанная методология. В частности, был проведен опрос среди будущих учителей начальных классов, организованы беседы с их менторами-учителями, а также наблюдался учебный процесс. Результаты исследования показали, что компетенция самостоятельной работы будущих учителей начальных классов находится на среднем уровне, особенно на низком уровне проявляются навыки самоуправления и планирования. Определено, что использование интерактивных методов в учебном процессе и повышение активности студентов служат важным фактором развития навыков самостоятельной работы. По результатам данного исследования подчеркнута необходимость применения интерактивных методов обучения в развитии компетенции самостоятельной работы будущих учителей начальных классов, а также формирования навыков самооценки и рефлексии.

SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF DEVELOPING THE COMPETENCIES OF INDEPENDENT WORK OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Keywords:

independent work competence, self-management, pedagogical strategies, socio-pedagogical factors, teacher training, educational process.

Abstract:

In today's era of globalization, the development of independent work competence of future primary school teachers is one of the most important requirements of the education system. This study is aimed at studying the socio-pedagogical necessity of developing the competence of independent work of future primary school teachers. The main goal of the research is to determine the level of independent work competence of future primary school teachers, to analyze the socio-pedagogical factors influencing it, and to propose effective strategies aimed at developing this competence. A mixed methodology was used in the research. In particular, a survey was conducted among future primary school teachers, interviews were organized with their mentor-teachers, and the educational process was observed. The research results showed that the competence of independent work of future primary school teachers is at an average level, especially self-management and planning skills are manifested at a low level. It has been established that the use of interactive methods in the educational process and increasing student activity serve as an important factor in the development of independent work skills. According to the results of this study, it was emphasized that it is necessary to use interactive teaching methods in the development of independent work competence of future primary school teachers, as well as the formation of self-assessment and reflection skills.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va texnologiyalarning jadal rivojlanish davrida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar ham shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirishga, o'z hayotiga va ta'limiga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatuvchi shaxs sifatida ko'rilmogda.

Shunday ekan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga



tayyorlashda ularning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Mustaqil ishlash kompetensiyasi deganda, bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish, o'z faoliyatini tahlil qilish, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llarini izlash va o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga rag'batlantirish kabi ko'nikmalar majmuasi tushuniladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat ularning professional o'sishi, balki ta'lim sifatini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Mustaqil fikrlovchi o'qituvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni tezda o'zlashtirib, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llay oladilar. Shuningdek, ular o'quvchilarga o'z-o'zini tashkil etish, samarali o'quv strategiyalarini tanlash va o'z faoliyatini baholashda ko'maklashadilar. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda ko'plab bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va o'z-o'zini rivojlantirishda muammolarga duch kelmoqdalar. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida mazkur kompetensiyani rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmayotganini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarining hozirgi holati, bu kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar, shuningdek, ularni takomillashtirishga qaratilgan samarali usul va vositalar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasida miqdoriy va sifatli yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Jumladan, so'rovnoma, intervyu hamda kuzatuv kabi usullardan foydalanildi. Ushbu usullar orqali olingan natijalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga yangicha yondashishga, shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalari va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning malakasini oshirish markazlari uchun o'quv dasturlarini takomillashtirishda amaliy qo'llanma sifatida foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, bu natijalar mustaqil ishlashga qodir, ijodkor va raqobatbardosh bo'lajak pedagoglar avlodini shakllantirishga zamin yaratadi.

Mustaqil ish – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy

tayyorgarligidagi eng muhim tarkibiy qismlardan biridir. U o'quv jarayonining asosiy shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi ta'limi mazmunining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, mustaqil ishning shakli, uni tashkil etish usullari va yo'nalishlari bo'lajak o'qituvchilarning o'quv hamda kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Talabalarning mustaqil faoliyat natijalarini nazorat qilish esa o'quv jarayonining murakkab va kompleks tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

B. P. Yesipovning fikricha, "Mustaqil ish – o'qituvchi ishtirokisiz, biroq uning ko'rsatmasiga binoan, maxsus belgilangan vaqtda bajariladi. O'quvchilar esa o'z oldilariga qo'yilgan maqsadga erishishga intilib, harakat qiladilar va turli shakllarda ish natijalarini namoyon etadilar. Bu jarayonda ular aqliy va jismoniy (yoki ikkalasini birgalikda) harakatlarni amalga oshiradilar" [13, 239].

P. I. Pidkasiy ta'kidlaganidek, "mustaqil ish mazmuni o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyasi va atrofdagi voqelik hodisalarini baholashlari, shuningdek, boshqalardan mustaqil ravishda harakat qilish doirasining mavjudligini o'z ichiga olishi kerak" [10, 68].

T. A. Ilyinaning nuqtai nazariga ko'ra, "mustaqil ish – bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan, kognitiv jarayonlar dinamikasining yuqori faolligi e'tirof etilgan frontal, guruh va individual o'quv faoliyatining bir turi" [7, 496].

L. G. Vyatkinaning ta'kidlashicha, "o'qitish vositasi sifatida mustaqil ish shakli – bu o'zlashtirishning o'ziga xos holati bo'lib, u aniq didaktik maqsad va vazifalarga bog'liq holda, muammoni hal qilishga qaratilgan bilim va ko'nikmalarning zarur hajmi hamda darajasini shakllantirishga xizmat qiladi. Cheklangan vazifalar sinfi va aqliy faoliyat darajasining boshlang'ich bosqichidan yakuniy darajaga o'tishi talabalarning o'z bilimlarini mustaqil ravishda takomillashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga bo'lgan munosabatini rivojlantirishga yo'naltirilgan" [9, 418].

A. P. Tryapitsynaning fikricha, mustaqil ish – bu talab darajasi rejalashtirilgan ta'lim faoliyati bo'lib, u talabaning barcha tarkibiy qismlari bilan mustaqilligini o'z ichiga oladi: muammoni aniqlashdan tortib, nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatish ishlarini amalga oshirishgacha; oddiy turdagi ishlarni bajarishdan boshlab, qidiruv xarakteridagi murakkabroq faoliyatlarga o'tishgacha [10, 73].

Shunday qilib, B. P. Yesipov mustaqil ishning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi: yangi bilimlarni o'zlashtirish, bilimlardan foydalanish ustida ishlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni takrorlash va tekshirish ustida ishlash va boshqalar. Mustaqil ish turlarining tasnifi o'quv jarayoni ishtirokchilariga qarab belgilanadi: individual, juftlikda va guruh shaklidagi mustaqil ishlar [13, 239].

T. A. Ilyina esa mustaqil ishning murakkab xususiyatlarini eng to‘liq va asosli tarzda bayon etadi [7, 496]. U talabalarning mustaqil faoliyatini amalga oshirish jarayonini tasniflashni taklif etadi va taksonomik mezonlar (tan olish, ko‘paytirish, tanlash, o‘zgartirish, ijodkorlik) asosida o‘quv topshiriqlari shakllariga e‘tibor qaratadi. Xuddi shu mezonlar o‘qitish bosqichlariga (yangi material bilan tanishish, uni tushunish va qo‘llash) nisbatan ham qo‘llaniladi.

Topshiriq shakllari sinfdan va darsdan tashqari faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Javoblarni yozma, og‘zaki yoki amaliy shakllarda taqdim etish – talabalarni kengroq qamrab olish maqsadida tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlar esa frontal, guruh yoki individual shakllarda tashkil etilishi mumkin.

NATIJALAR

Adabiyotlar tahlilidan xulosa qilish mumkinki, o‘rganilayotgan hodisa aniq ilmiy ta‘rifga ega emas va uning mohiyati ko‘p qirrali. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish kompetensiyasini shakllantirish muammosiga kelsak, bu hodisa ham yetarli darajada yoritilmagan. Mustaqil ishning to‘laqonli tarkibi bizga bo‘lajak o‘qituvchilarning ta‘lim va kognitiv kompetensiyasini samarali shakllantirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini beradi.

Ma‘lumki, mustaqil ishlarni tashkil etishning auditoriya va sinfdan tashqari shakllari mavjud. Auditoriyadagi mustaqil ishlar o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida turli nazorat, ijodiy va amaliy topshiriqlarni bajarishga qaratiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazorat ostidagi mustaqil ishlari subyektlararo o‘zaro ta‘sir asosida amalga oshiriladi: talaba o‘qituvchidan mustaqil ishni bajarish uchun aniq ko‘rsatmalar yoki tavsiyalar oladi. Shu bilan birga, mustaqil ishni boshqaruvchi o‘qituvchining pozitsiyasi xatolarni tuzatish jarayoniga bog‘liq.

Universitetda o‘quv jarayonini (ma‘ruza, seminar va h.k.) amalga oshirishda ta‘lim va kognitiv kompetensiyani shakllantirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning auditoriya mustaqil ishlarining vazifalari quyidagilardan iborat: mustaqil tushunish, ko‘rish, tinglash, qayd etish, anglash, “Pedagogika” fani doirasida “Pedagogika fani va faoliyatiga kirish” hamda “Pedagogikaning umumiy asoslari” modullari bo‘yicha taklif etilgan o‘quv materialini yodlash va takrorlash. Mustaqil ish uchun topshiriqlarni loyihalash va ishlab chiqish o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday topshiriqlar kelajakdagi o‘qituvchilarning ta‘lim va kognitiv kompetensiyasini shakllantirishning turli bosqichlarida juda samarali bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, nafaqat auditoriyadagi mustaqil ish uchun topshiriqning mazmuni, balki uni bajarish jarayoni ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda

sinfdan tashqari mustaqil ishlarda tarbiyaviy topshiriqlarning bajarilishi ham koʻzda tutiladi. Ular boʻlajak oʻqituvchilar tomonidan boʻsh vaqtlarida, oʻqituvchining yordamisiz amalga oshiriladi.

Taʼlim va kognitiv kompetensiyani shakllantirishga yoʻnaltirilgan sinfdan tashqari mustaqil ishlar maʼruza davomida oʻzlashtirilgan nazariy materialni tahlil qilish, maʼruzalar tayyorlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish kabi oʻquv faoliyatlarini oʻz ichiga oladi.

Mustaqil ish turlariga kelsak, ularning juda xilma-xilligini taʼkidlash lozim. Bu xilma-xillik mustaqil ish turlarini tasniflashda turli parametrlarga asoslanish bilan izohlanadi. Pedagogika fanida mustaqil ishlarni tasniflash mezonlaridan biri – bu didaktik maqsaddir.

Soʻrovnoma natijalari shuni koʻrsatdiki, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi oʻrtacha darajada baholangan. Korrelyatsion tahlil natijalariga koʻra, oʻzini-oʻzi boshqarish ($r = 0.75, p < 0.001$) va oʻquv motivatsiyasi ($r = 0.68, p < 0.001$) bilan mustaqil ishlash kompetensiyasi oʻrtasida kuchli ijobiy bogʻliqlik aniqlangan.

Tadqiqot natijalarini yanada aniqlashtirish maqsadida talabalar bilan intervyular ham oʻtkazildi. Intervyular natijalariga koʻra, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining aksariyati mustaqil ishlashda rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini (65%) va oʻz-oʻzini baholash koʻnikmalarining yetarli emasligini (70%) bildirganlar. Mentorlarning taʼkidlashicha, oʻquv jarayonida talabalarga mustaqil topshiriqlar berishda yondashuvlarning yetarli emasligi ularning mustaqilligini rivojlantirishga toʻsqinlik qilmoqda.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi hozirda oʻrtacha darajada shakllangan. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonida hali koʻplab imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini anglatadi. Ayniqsa, oʻzini-oʻzi boshqarish, vaqtni toʻgʻri taqsimlab rejalashtirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda oʻz faoliyatini tanqidiy ruhda baholash kabi koʻnikmalarni rivojlantirish ustida ishlash muhimdir. Shuningdek, taʼlim jarayonida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining mustaqil ishlashga boʻlgan shaxsiy yondashuvi, ularning motivatsiyasi va tashabbuskorligi ham kompetensiyani shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon boʻladi. Bunday yondashuv oʻquv jarayonini yanada samarali tashkil etish, talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy izlanishga boʻlgan qiziqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish omillari

	1-kurs	2-kurs	3-kurs	4-kurs	Jami
O'z-o'zini baholash ko'nikmalarining yetarli emasligi	79%	76%	64%	61%	70%
Rejalashtirishdagi qiyinchiliklar	67%	64%	60%	57%	62%
Motivatsiyaning pastligi	55%	53%	40%	32%	45%
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining yordamga ehtiyoji	67%	61%	55%	37%	55%

Ushbu tadqiqot natijalari o'quv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida e'tibor talab etishini ko'rsatadi. Chunki mustaqil ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchi nafaqat o'zining kasbiy faoliyatida, balki kelajak avlodni tarbiyalashda ham samarali yondashuvlarni qo'llay oladi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun namunali bo'lib, ta'lim jarayonida moslashuvchanlik ko'rsatishi, yangicha pedagogik yechimlarni izlab topishi va innovatsion g'oyalarni ilgari surishi mumkin. Talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirishda ularning o'quv jarayoniga faol jalb qilinishi, individual yondashuv va ijodiy topshiriqlarga keng imkoniyat yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan yondashuv ham muhim rol o'ynaydi. Ularning mustaqil ishlashga bo'lgan ehtiyoji va motivatsiyasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik muhitda zarur sharoitlarni yaratish – kompetensiyani rivojlantirish jarayonining asosiy omillaridan biridir.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi darajasini baholash, ularni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni aniqlash va ular asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat edi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlar orasida mustaqil ishlash kompetensiyasining o'rtacha darajasi 3,4 ballni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich, albatta, ma'lum darajada ijobiy natija bo'lsa-da, kelgusida yanada takomillashtirish va mustahkamlash zarurligini anglatadi.

2-jadval

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasi darajalari

Kompetensiya tarkibiy qismlari	O'rtacha ball (5 ball)	Standart chetlanish
O'z-o'zini boshqarish	3.2	0.8
Rejalashtirish	3	0.9
Motivatsiya	3.6	0.7
O'z-o'zini baholash	2.8	1
Umumiy mustaqil ishlash kompetensiyasi	3.4	0.7

Korrelyatsion tahlil o'zini-o'zi boshqarish ($r=0.75$, $p<0.001$) va o'quv motivatsiyasi ($r=0.68$, $p<0.001$) bilan mustaqil ishlash o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini ko'rsatdi.

MUHOKAMALAR

So'rovnoma natijalariga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 62 foizi mustaqil ishlashda rejalashtirish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishlarini ta'kidlagan. O'z-o'zini baholash ko'nikmalarining yetarli emasligi esa ishtirokchilarning 70 foizi tomonidan qayd etilgan. Bu holat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zini-o'zi tashkil etish va nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Intervyular davomida mentor-o'qituvchilar talabalarining 80 foizi o'quv jarayonida passiv ishtirok etayotganini va mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmayotganini ta'kidladilar. Kuzatuvlar esa interaktiv metodlardan foydalanilmagan darslarda talabalar faolligining ancha past bo'lganini ko'rsatdi. Masalan, ma'ruza uslubida o'tilgan darslarda o'rtacha 15 foiz talabalar faol ishtirok etgan bo'lsa, loyiha asosida tashkil etilgan darslarda bu ko'rsatkich 55 foizga yetgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarga ko'proq mustaqil ishlash imkoniyati berilgan darslarda (masalan, loyihalarga asoslangan ta'limda) ularning mustaqil ishlash ko'rsatkichlari o'rtacha 20 foizga yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, an'anaviy darslarda, ya'ni faqat o'qituvchi markazli yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda, talabalarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni

sezilarli darajada cheklangan.

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalariga yuqori baho bergan talabalarning mustaqil ishlash ko'rsatkichlari o'rtacha 15 foizga yuqori bo'lgan. Shuningdek, o'quv motivatsiyasi darajasi yuqori bo'lgan talabalarning 75 foizi mustaqil topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajara olgan. Tadqiqotimizda o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarining mustaqil ishlashga ta'siri 0.75 korrelyatsion koeffitsient bilan aniqlandi. Bu natija Zimmerman (2000) tomonidan aniqlangan 0.70 [11] va Pintrich (2004) tomonidan qayd etilgan 0.72 koeffitsientlarga mos keladi [15].

Garchi mustaqil ishlash kompetensiyasi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston kontekstida bunday tadqiqotlar yetarlicha emas. Bizning tadqiqotimizda olingan 3,4 ballik o'rtacha ko'rsatkich ushbu sohada milliy yondashuvlar va amaliyotni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida o'quv dasturlarida loyiha uslubi va interaktiv metodlardan 30% ko'proq foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida talabalarning o'zini-o'zi boshqarish va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ikki kunlik treninglar tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik omillarning muhimligini ko'rsatdi. Jumladan, o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmalarining o'rtacha 3,4 ball bilan baholanishi, o'quv motivatsiyasi va interaktiv metodlarning taxminan 20% ga samaradorroq ekani aniqlangani bunga dalildir. Shunga asoslanib, biz quyidagilarni tavsiya etamiz: o'quv jarayonida interaktiv metodlardan 30% ko'proq foydalanish; bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish; o'quv dasturlariga talabalarning mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni kiritish.

XULOSA

Xulosa qilib shuni alohida ta'kidlash kerakki, bo'lajak o'qituvchilarning sinfdan tashqari mustaqil ishi uchun o'quv vazifalari mazmunini ishlab chiqish va amalga oshirish, avvalo, ularning kognitiv tajribasini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon faqatgina ma'lumotlar hajmini ko'paytirish emas, balki shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olingan natijalar o'quv dasturlarini takomillashtirish, o'qitish

metodologiyalarini rivojlantirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish uchun amaliy yo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusi tadqiqotlarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning uzoq muddatli ta‘sirini o‘rganish, turli o‘quv muassasalari talabalari o‘rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, mustaqil ishlash kompetensiyasini baholashda yanada ishonchli va samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muhimligini va bu jarayonda ijtimoiy-pedagogik omillarning sezilarli ta‘sirini ko‘rsatdi. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va kasbiy tayyorgarlikni yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alabd A.M.A., Elsayed W.A., Elattar N.F.M. Effect of work stressors coping strategies program on nurse physician collaboration // American Journal of Nursing. 2018, 6 (4). – P. 183-190.
2. Boekaerts M. Self-regulation and effort: From process to learning // In: Sternberg R.J., Preiss D.D. (Eds.). Innovations in educational psychology: Perspectives on learning, teaching, and instruction. New York: Springer, 2011. – P. 235-258.
3. Brown K., Davis M., Elrod C., Hill E., Jordan D.D. Coaching initiative for beginning teachers (BT): Lessons learned from one district’s BT support program // Journal of Organizational & Educational Leadership. 2020. 6 (2). – P. 2.
4. Butler D.L., Winne P.H. Feedback and self-regulated learning: A theoretical synthesis // Review of Educational Research. 1995, 65 (3). – P. 245-281
5. Deci E.L., Ryan R.M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior // Psychological Inquiry. 2000, 11 (4). – P. 227-268.
6. Guskey T.R. Gauge impact with 5 levels of data // SMEC2016 Organising Committee. 2016.
7. Ilina T.A. Pedagogy: A course of lectures. Moscow: Education, 1984. – P. 496.
8. Johnson L., Becker S.A., Cummins M., Estrada V., Freeman A., Hall C. NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition. Austin, TX: The New Media Consortium, 2016. – P. 50.
9. Kholikov A.A. Pedagogical Mastery. Tashkent: Economics - Finance, 2011. –



- P. 418.
10. Muslimov N.A. Fundamentals of Pedagogical Competence and Creativity. Tashkent: Fan, 2018.
 11. Pintrich P.R. A conceptual framework for assessing motivation and self-regulated learning in college students // Educational Psychology Review. 2004, 16 (4). – P. 385- 407. DOI: <https://doi.org/10.1007/s10648-004-0006-x>.
 12. Smith J., Doe J. Exploring self-regulated learning in pre-service teachers // Proceedings of the International Conference on Teacher Education. 2019. – P. 123-130.
 13. Esipov B.P. Independent work of students in lessons. Moscow: Uchpedgiz, 1961. – P. 239.
 14. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogy: A textbook for higher professional education institutions. Tashkent: 2012.
 15. Zimmerman B.J. Self-Efficacy: An Essential Motive to Learn // Contemporary Educational Psychology. 2000, 25 (1). – P. 82-91.

PEDAGOGIKA

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARDA SAN’ATGA BO‘LGAN DID VA ESTETIK HISNI RIVOJLANTIRISH

NARQUCHQAROVA ROHILA ZIYODULLAYEVNA

Termiz davlat universiteti

“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi o‘qituvchisi

Email: norquchqorova@bk.ru

Tel: +998 90 747-70-40

UDK: 37:336.1

<https://orcid.org/0000-0002-8207-127X>

Kalit so‘zlar:

milliy qadriyatlar, estetik did, san’at ta’limi, estetik tarbiya, milliy madaniyat, ijodiy tafakkur, tasviriy san’at.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida o‘quvchilarda san’atga bo‘lgan did va estetik hisni rivojlantirish masalasi keng qamrovda yoritiladi. San’at ta’limi nafaqat badiiy ko‘nikma va amaliy malakalarni shakllantirish, balki yosh avlodni milliy madaniyat, urf-odat va an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchilar go‘zallikni anglash, estetik qadriyatlarni baholash hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqot jarayonida estetik tarbiya berishning samarali metodlari, milliy madaniyat elementlarini o‘quv jarayoniga uzviy qo‘shish yo‘llari hamda san’at orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda go‘zallikni anglash qobiliyatini chuqurlashtirish, milliy o‘zlikni saqlash va san’atga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

РАЗВИТИЕ У УЧАЩИХСЯ ВКУСА И ЭСТЕТИЧЕСКОГО ЧУВСТВА К ИСКУССТВУ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Ключевые слова:

национальные ценности, эстетический вкус,

Аннотация: В данной статье широко освещается вопрос развития у учащихся вкуса и эстетического чувства к искусству на основе национальных ценностей. Искусственное образование имеет огромное значение не

художественное образование, эстетическое воспитание, национальная культура, творческое мышление, изобразительное искусство.

только в формировании художественных навыков и практических умений, но и в воспитании молодого поколения в духе уважения к национальной культуре, обычаям и традициям. В частности, на уроках изобразительного искусства учащиеся имеют возможность развивать навыки понимания красоты, оценки эстетических ценностей и творческого мышления. В процессе исследования анализируются эффективные методы эстетического воспитания, пути интеграции элементов национальной культуры в учебный процесс, а также педагогические подходы, служащие расширению художественного мышления учащихся через искусство. Этот подход служит углублению способности учащихся понимать красоту, сохранению национальной идентичности и повышению интереса к искусству.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' TASTE AND AESTHETIC FEELING FOR ART BASED ON NATIONAL VALUES

Keywords: national values, aesthetic taste, art education, aesthetic education, national culture, creative thinking, fine arts.

Abstract: This article comprehensively covers the issue of developing students' taste and aesthetic sense of art based on national values. Art education is of great importance not only for the formation of artistic skills and practical abilities, but also for educating the younger generation in the spirit of respect for national culture, customs, and traditions. In particular, through fine arts lessons, students will have the opportunity to understand beauty, evaluate aesthetic values, and develop creative thinking skills. In the research process, effective methods of aesthetic education, ways of organically integrating elements of national culture into the educational process, as well as pedagogical approaches that serve to expand the artistic thinking of students through art are analyzed. This approach serves to deepen students' ability to understand beauty, preserve national identity, and increase interest in art.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning estetik dunyoqarashi, san'atga bo'lgan munosabati va milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalanishi jamiyat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. "Estetik tarbiya inson shaxsining ma'naviy-axloqiy kamolotida muhim o'rin tutadi" [4]. Xususan, tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarda ijodiy tafakkur, go'zallikni anglash va baholash qobiliyati, badiiy did hamda estetik hislar shakllanadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlarimizga tayangan holda estetik tarbiya berish nafaqat o'quvchilarni san'atga oshno etadi, balki ularda milliy o'zlik va madaniy merosga hurmat tuyg'usini ham mustahkamlaydi [6].

O'zbekiston xalqining boy madaniy merosi (xalq amaliy san'ati, miniatyura, naqsh, milliy me'morchilik yodgorliklari, rang-barang milliy bezaklar) estetik didni shakllantirishning qudratli manbaidir. Bu san'at namunalarida xalqimizning tarixiy xotirasi, badiiy tafakkuri va estetik qarashlari mujassam. Ularni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali yosh avlodda milliy o'zlikni asrash, san'atga bo'lgan qiziqish va ijodiy salohiyatni rivojlantirish mumkin.

Zamonaviy pedagogika estetik tarbiyani faqat nazariy bilim berish bilan chegaralamasdan, balki o'quvchilarni bevosita san'at asarlari bilan muloqotga jalb etish, ularning badiiy faoliyatini rag'batlantirishni ham talab etadi [3]. Shu nuqtayi nazardan, tasviriy san'at darslarida milliy madaniyat elementlarini qo'llash, xalq amaliy san'ati namunalari asosida mashg'ulotlar tashkil etish, interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, global madaniyat oqimlari kuchayib borayotgan bugungi kunda yoshlar ongida milliy qadriyatlar asosidagi estetik mezonlarni shakllantirish, ularni san'atga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash va badiiy tafakkurini rivojlantirish ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Shu bois, ushbu tadqiqot tasviriy san'at ta'limida milliy qadriyatlar asosida estetik did va hisni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

ADABIYOTLARNI TAHLILI

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida shuni alohida ta'kidlash joizki, milliy qadriyatlar va san'at o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'lim jarayonida o'quvchilarda estetik did, badiiy tafakkur va ijodkorlikni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. V. S. Kuzin [1], N. Bogolyubov [2], J. Tulenov [4] va E. Yusupov [6] larning qadriyatlar falsafasi hamda pedagogik aksiologiya doirasida olib borgan tadqiqotlari san'atni nafaqat badiiy tajriba, balki shaxsning axloqiy-ruhiy kamolotini

belgilovchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin etadi. T. Shpikalova esa san'at ta'limini o'quvchining emotsional qabul qilish jarayoni, shaxsiy tajribasi va ijodiy faoliyatini uyg'unlashtiruvchi ta'limiy komponent sifatida baholaydi [3]. Bu jarayonda o'quvchining shaxsiy tajribasi, emotsional qabul qilishi va ijodiy faoliyati o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilishi lozimligi alohida qayd etiladi.

Mahalliy tadqiqotlarda milliy san'at namunalaridan, jumladan naqsh, suzani, ganch o'ymakorligi, miniatyura va xalq og'zaki ijodi kabi boy madaniy merosdan, o'quvchilarda estetik qiziqish va badiiy didni rivojlantirishda samarali vosita sifatida foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Sh. Yusupovning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, xalq san'ati bilan tanishish o'quvchilarda milliy iftixor, madaniy ong va go'zallikka intilishni kuchaytiradi [6]. Xususan, san'atning ramziy tili, ya'ni naqshlarning semantik mazmuni, ranglarning uyg'unligi va kompozitsion yechimlari, o'quvchilarni milliy qadriyatlarga yo'naltirish, ularning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, milliy san'at namunalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bir qator samarali yondashuvlarni nazarda tutadi. Masalan, kompozitsion mashqlar orqali ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish, loyiha va tadqiqot ishlari orqali hududiy san'at an'alarini tahlil qilish, muzey pedagogikasi va ustoz-hunarmandlar bilan uchrashuvlar orqali amaliy tajribani kengaytirish, fanlararo integratsiya orqali esa o'quvchilarda kengroq madaniy-estetik qarashni shakllantirish mumkin. Bu yondashuvlar nafaqat badiiy tafakkurni rivojlantiradi, balki o'quvchining milliy identifikatsiyasini mustahkamlaydi, ijodkorlik va tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarning ko'pchiligi nazariy tavsiyalar bilan cheklanib qolmoqda. Boshlang'ich ta'lim sharoitida milliy san'at asosidagi ta'limiy yondashuvlarning aniq samaradorligini ko'rsatadigan empirik tadqiqotlar, baholash mezonlari va metodik qo'llanmalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli kelgusida mazkur yo'nalishda kompleks tajribaviy tadqiqotlar olib borish, kompetensiyalarni (estetik idrok, badiiy tahlil, ijodiy izlanish) baholash uchun ilmiy asoslangan metodik paketlar ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodologik asoslarda amalga oshirildi:

Nazariy tahlillar – falsafiy, pedagogik va san'atshunoslik adabiyotlarini chuqur o'rganish, mavjud konseptual yondashuvlarni tahlil qilish hamda tadqiqotning nazariy poydevorini shakllantirish.

Pedagogik kuzatuv – o‘quv jarayonida milliy san’at namunalaridan foydalanish samaradorligini bevosita kuzatish va ularning ta’sirini baholash.

So‘rovnoma va suhbatlar – o‘quvchilar va o‘qituvchilarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini, shuningdek ularning estetik qarashlari va did rivojlanishidagi o‘zgarishlarni aniqlash.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarga asoslangan san’at darslarining o‘quvchilarga ta’siri batafsil o‘rganildi va quyidagi asosiy natijalarga erishildi. Avvalo, milliy qadriyatlarga asoslangan san’at darslari o‘quvchilarning estetik his-tuyg‘ularini sezilarli darajada boyitdi. Shu bilan birga, o‘quvchilar xalq amaliy san’at namunalarini anglash, ularning mazmuni va go‘zalligidan ilhomlanishga yanada moyil bo‘la boshladi. Bu jarayonda estetik did, go‘zallikni qadrlash ko‘nikmalari shakllandi, badiiy tafakkur faollashdi va ijodiy ifoda qobiliyati ortdi.

Milliy qadriyatlarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchilar ongida madaniy merosga hurmat, milliy g‘urur va ijodiy tafakkurni kuchaytirishga xizmat qildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, san’at ta’limida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni go‘zallikka oshno qilish va estetik didni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq san’ati namunalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarni milliy madaniyat bilan tanishtiradi, balki ularning badiiy tafakkurini, estetik idrokini va ijodiy ifoda qobiliyatlarini faollashtiradi.

Xalq amaliy san’ati elementlari, jumladan naqsh, suzani, kulolchilik, ganch o‘ymakorligi va boshqa an’anaviy san’at shakllari orqali o‘quvchilar go‘zallikni idrok etish va uni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ularning kundalik hayotida estetik mezonlarga amal qilish, turmush madaniyatini yuksaltirish va shaxsiy ijodiy salohiyatini namoyon etishga xizmat qiladi [1].

Shuningdek, milliy qadriyatlarni o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchilarning madaniy xotirasini boyitadi, tarixiy meros va ajdodlar san’ati bilan faxrlanish hissini kuchaytiradi. Natijada o‘quvchilar milliy o‘zlikni anglab, global madaniyat oqimlari sharoitida o‘z madaniy asosini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi [4].

Tadqiqot shuningdek shuni ko‘rsatdiki, san’at ta’limida interfaol metodlardan foydalanish, jumladan ijodiy mashqlar, guruhli ishlanmalar, amaliy loyihalar hamda muzey va tarixiy obidalarga ekskursiyalar o‘quvchilarni faol o‘quv-badiiy faoliyatga jalb qiladi. Bu jarayonda ular san’at asarlarini nafaqat tomoshabin sifatida qabul qiladi, balki bevosita yaratuvchi va ijodkor sifatida ishtirok etadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy tashabbusini va estetik qarashlarini

mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarga asoslangan san'at ta'limining o'quvchilarda estetik did, badiiy tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, interfaol va loyihaviy metodlardan foydalanish o'quvchilarning san'at jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning ijodiy va estetik qobiliyatlarini yanada boyitadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at ta'limida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ularni go'zallikka oshno qilish va estetik didni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xalq san'ati namunalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarda badiiy tafakkur, estetik idrok va ijodiy ifoda qobiliyatlarini faollashtiradi. Shu bilan birga, milliy san'at o'quvchilarni tarixiy meros bilan tanishtiradi, ularda milliy iftixor va madaniy ongni rivojlantiradi [2].

Milliy va badiiy qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchilarning madaniy xotirasini boyitadi, tarixiy meros va ajdodlar san'ati bilan faxrlanish hissini kuchaytiradi. Shu orqali o'quvchilar milliy o'zlikni anglab, global madaniyat oqimlari sharoitida o'z madaniy asosini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi [6]. Milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga kiritish nafaqat estetik ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki o'quvchilarda madaniy ongni mustahkamlaydi va ijodiy tafakkur orqali ularning shaxsiy ijodiy izlanishlariga turtki beradi.

San'at ta'limida interfaol metodlardan foydalanish — ijodiy mashqlar, guruhli ishlanmalar, amaliy loyihalar, muzey va tarixiy obidalarga ekskursiyalar — o'quvchilarni faol o'quv-badiiy faoliyatga jalb qiladi. Bu jarayonda ular san'at asarlarini nafaqat tomoshabin sifatida qabul qiladi, balki bevosita yaratuvchi va ijodkor sifatida ishtirok etadi. Shu yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy tashabbusini va estetik qarashlarini mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

Muhokama jarayonida bir qator kamchiliklar aniqlangan:

- Maktab darsliklari va metodik qo'llanmalarda milliy san'at namunalarining yetarli darajada yoritilmaganligi.
- O'quvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish zarurati, ularni xalq san'ati asosida estetik tarbiya berishga yo'naltirilgan malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash lozimligi.
- Virtual muzeylar, 3D-modellashtirish va interaktiv platformalar kabi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish imkoniyatlari.
- O'quvchilarni milliy san'at festivallari, ko'rgazmalar va ijodiy musobaqalarga faol jalb etish orqali ularning estetik va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish.



Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy san'atga asoslangan interfaol ta'lim yondashuvlari o'quvchilarning ijodiy va estetik salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu yondashuvlar o'quvchilarda milliy madaniyatga hurmat, badiiy tafakkur va ijodiy izlanish ruhini shakllantiradi hamda ularning san'atga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqini oshiradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan san'at ta'limini tashkil etish o'quvchilarda estetik didni rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Shu bilan birga, bunday ta'lim orqali o'quvchilar san'at orqali milliy madaniy merosni anglash, qadrlash va uni asrab-avaylashga o'rganadilar. Milliy san'at elementlari o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni ochish, estetik tafakkur va badiiy ifoda salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, milliy qadriyatlarga asoslangan san'at ta'limi o'quvchilarda milliy o'zlik va madaniy g'urur ruhini shakllantiradi, ularni tarixiy meros va ajdodlar san'ati bilan faxrlanishga undaydi. Shu tarzda, ta'lim nafaqat estetik, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni ijodiy faoliyatga, mustaqil izlanish va estetik qarashlarni rivojlantirishga jalb etadi.

Kelgusida milliy qadriyatlarga boy san'at darsliklari va metodik qo'llanmalarni yaratish, o'qituvchilarning metodik va pedagogik tayyorgarligini oshirish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida interaktiv metodlarni joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarni milliy san'at festivallari, ko'rgazmalar va ijodiy musobaqalarga faol jalb etish orqali estetik did va ijodiy qobiliyatlar yanada mustahkamlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tasviriy san'at ta'limida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ajralmas vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda bunday yondashuvning kelajakdagi ta'lim jarayonlarida keng qo'llanilishi zarurligini ko'rsatadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кузин В.С. Эстетическое воспитание школьников. – М: Просвещение, 1984.
2. Боголюбов Н.И. Эстетическое развитие личности. – М: Педагогика, 1990.
3. Шпикалова Т. Искусство и эстетика в школе. – М, 2005.
4. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Yusupov E. Pedagogik aksiologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Yusupova Sh. San'at ta'limida milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiya. – Toshkent, 2015.

PEDAGOGIKA

INNOVATSION PEDAGOGIKA TARIXI: ZAMONAVIY PEDAGOG FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

XIDIROV SUXROB BEKBO‘TAYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi

Email: xidirovsuxrobjon0499@gmail.com

UDK: 37.013.4

Kalit so‘zlar:

innovatsiya,
ta’lim
texnologiyasi,
yangilik,
innovatsion
ta’lim,
modifikatsiya.

Annotatsiya:

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta’lim tizimi ham yangilanib, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Ushbu jarayon pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, zamonaviy g‘oya va texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Shu bois pedagogikada innovatsiyalarni qo‘llash hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan birga, uning izchil rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shaxsning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyasiga oid bilimlarni yangilash hamda ularni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish esa innovatsion pedagogikaning asosiy vazifalaridandir. Mazkur maqolada innovatsion g‘oyalarning pedagogik sohada shakllanishi, ularning tarixiy-nazariy asoslari, ta’lim jarayonidagi o‘rni va samaradorligini oshirishga doir muammo va yechimlar tahlil qilinadi.

ИСТОРИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИКИ: ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА

Ключевые слова:

инновация,
образовательная
технология,
новизна,
инновационное
образование,

Аннотация:

Сегодня, как и во всех сферах, система образования обновляется и развивается на основе инновационных подходов. Этот процесс требует эффективной организации профессиональной деятельности педагогов, эффективного использования современных идей и технологий. Поэтому применение инноваций в педагогике является одним из самых

модификация.

актуальных вопросов современности. Инновационные подходы не только повышают качество и эффективность образования, но и обеспечивают его последовательное развитие. Одной из основных задач инновационной педагогики является обновление знаний о формировании, развитии и воспитании личности и их гармонизация с требованиями времени. В данной статье анализируются проблемы и решения, связанные с формированием инновационных идей в педагогической сфере, их историко-теоретическими основами, их ролью в образовательном процессе и повышением его эффективности.

HISTORY OF INNOVATIVE PEDAGOGY: ORGANIZATION OF MODERN TEACHER ACTIVITIES

Keywords:

innovation,
educational
technology,
novelty,
innovative
education,
modification.

Abstract: Today, the education system, like all other spheres, is being updated and developing on the basis of innovative approaches. This process requires the effective organization of the professional activity of teachers, the effective use of modern ideas and technologies. Therefore, the application of innovations in pedagogy is one of the most pressing issues of our time. Innovative approaches, along with improving the quality and effectiveness of education, also ensure its consistent development. Updating knowledge about the formation, development, and upbringing of the individual, as well as harmonizing it with the requirements of the time, is one of the main tasks of innovative pedagogy. This article analyzes the formation of innovative ideas in the pedagogical sphere, their historical and theoretical foundations, problems and solutions related to increasing their role and effectiveness in the educational process.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida yangi yondashuvlar, innovatsion usullar shakllanib bormoqda. Xususan, pedagogika sohasi ham bu jarayondan chetda qolmay, zamon talablari asosida jadal rivojlanmoqda. Ta'lim va tarbiyada yangicha qarashlarning paydo bo'lishi "*innovatsion pedagogika*" tushunchasining

shakllanishiga olib keldi.

Pedagogika – bu ta’lim va tarbiya jarayoniga oid ilmiy bilimlar tizimi hisoblanadi. Innovatsion ta’lim (inglizcha innovation – “yangilik kiritish”, “ixtiro”) esa ta’lim oluvchida yangi g’oya, me’yor va qoidalarni yaratish, shuningdek, boshqalar tomonidan ilgari surilgan ilg’or tajribalarni tabiiy qabul qilish va ulardan samarali foydalanish malakasini shakllantirishga yo’naltirilgan sohaga aytiladi.

Pedagogikada “innovatsiya”, “innovatsion faoliyat”, “innovatsion pedagogika”, “ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish” kabi atamalar ilk bor XX asrning 60-yillarida AQSH va G’arbiy Yevropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi shakllangan davrda paydo bo’ldi [5, 105]. O’sha davrlardayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazlari va ilmiy institutlari tashkil etildi. O’zbekistonda esa bu masalalar so’nggi o’n yilliklarda jiddiy tadqiq etila boshlandi.

Innovatsion yondashuvlarning paydo bo’lishi, avvalo, ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta’minlash va bola shaxsiga do’stona munosabatni shakllantirish zarurati bilan bog’liq edi. XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmida esa pedagogik faoliyat “ijodiy jarayon” va “pedagogik innovatsiyalar” birligi sifatida qarala boshlandi.

Innovatsion pedagogikaning asosiy xususiyatlari obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik hamda qarama-qarshilardan xoli bo’lishdir. Pedagogik faoliyatning obyektivligi insonning rivojlanish darajasi, tarbiyalanganlik ko’rsatkichi va bilimning talablarga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda jahon pedagogik jamoatchiligi innovatsion ta’lim masalalariga katta qiziqish bilan yondashmoqda. YUNESKO qoshida faoliyat yuritayotgan Ta’limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi xalqaro ta’lim byurosi bilan hamkorlikda dunyo miqyosida yuzaga kelayotgan pedagogik yangiliklarni muntazam nashrlar orqali ommaga yetkazib bermoqda [3, 12].

O’zbekistonda pedagogik innovatsiyalar rivojlanishi ko’proq keng pedagogik jamoatchilik harakati va maktab tizimining tezkor rivojlanishiga bo’lgan ehtiyoj hamda pedagoglarning mavjud talabni to’liq qondira olmasliklari o’rtasida vujudga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog’liq bo’ldi. Shu sababli ta’lim jarayonida yangi bilimlarga bo’lgan ehtiyoj, “yangilik”, “innovatsiya”, “innovatsion jarayon” kabi tushunchalarni anglash zarurati keskin oshdi. Natijada, o’qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Bugungi kunda ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagi mezonlarga ko’ra tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Faoliyat yo‘nalishiga qarab: pedagogik jarayondagi yoki boshqaruvdagi yangiliklar.
- Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan yoki kombinatsiyalangan innovatsiyalar.
- O‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra: lokal, modulli yoki tizimli o‘zgarishlar.
- Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: ichki (mazkur jamoaning o‘zida yaratilgan) yoki tashqi (boshqa manbalardan olingan) innovatsiyalar.

Shunday qilib, innovatsion pedagogika nafaqat ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki o‘qituvchi faoliyatida ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish, ta‘limni zamon talablariga moslashtirish imkoniyatlarini ham yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi o‘n yilliklarda innovatsion pedagogika tushunchasi va uni amaliyotga joriy etish masalasi mahalliy hamda xorijiy ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini zamon talablariga mos shakllantirish bo‘yicha qator nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda, jumladan, L.M. Fridman, V.A. Kan-Kalik, V.A. Slastenin, G.I. Gorskaya, S.L. Kuzmina, K. Angelovskiy kabi olimlarning asarlarida pedagogik innovatsiyaning nazariy asoslari keng yoritilgan. Ularning ilmiy qarashlarida ta‘lim jarayoniga yangiliklarni joriy etish, mavjud pedagogik tajribalarni zamonaviy metodlar asosida qayta tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish innovatsion faoliyatning asosiy mezonlari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy pozitsiyasi, kasbiy mahorati va jamoaviy muhitning innovatsion faoliyatdagi o‘rni alohida ta‘kidlanadi [6].

Mahalliy olimlar ham ushbu yo‘nalishda qator tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, N. Azizxo‘jaeva, B. Farberman, R. Mavlonova, U. Nishonaliyev, N. Sayidahmedov, M. Ochilovlarning ilmiy ishlari pedagogik innovatsiyalarni ta‘lim tizimiga joriy etish masalalariga bag‘ishlangan. Ularning asarlarida ta‘lim sifatini oshirishda interfaol metodlardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish hamda pedagoglarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish masalalariga alohida urg‘u beriladi [4].

Davlatimiz siyosatida ham innovatsiyalar alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli Farmoni [1] hamda 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-sonli Qarori [2] asosida Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Ushbu qarorlar ta‘lim tizimida zamonaviy innovatsiyalarni keng joriy etish, pedagogik faoliyatni

yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, pedagogik innovatsiyalar ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish va butun ta’lim tizimi samaradorligini ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot innovatsion pedagogikaning shakllanishi, rivojlanish tarixi va zamonaviy pedagog faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Metodologiya quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oldi:

Nazariy tahlil – mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, davlat hujjatlari hamda xalqaro tajribalar o‘rganildi, innovatsion pedagogikaning nazariy asoslari aniqlab chiqildi.

Qiyosiy tahlil – xorijiy va mahalliy ta’lim tizimidagi innovatsion jarayonlar solishtirilib, samarali tajribalar aniqlashtirildi.

Empirik metodlar – o‘qituvchilar va pedagogika sohasi mutaxassisleri o‘rtasida so‘rovnomalar va suhbatlar tashkil etildi. Bu orqali pedagoglarning innovatsion faoliyatga munosabati, innovatsion yondashuvlarni amalda qo‘llash tajribalari va muammolari tahlil qilindi.

Pedagogik kuzatuv – ta’lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar orqali o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdagi faoliyati va uning samaradorligi baholandi.

NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyaning bosh maqsadi — mavjud mablag‘ va kuch resurslaridan eng yuqori samaradorlikka erishishdan iboratdir. Turli ixtiyoriy, o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan yangiliklardan farqli ravishda innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Shu bois ta’lim tizimidagi har qanday yangilikni innovatsiya deb bo‘lmaydi. Bu jarayonda “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi farqni aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Novatsiya – qisqa muddatli, ko‘lam va mazmun jihatidan cheklangan, mavjud tizimning ayrim elementlarini takomillashtirishga qaratilgan faoliyat bo‘lsa, innovatsiya esa konseptual asoslangan, tizimli va davomli jarayon bo‘lib, ta’lim amaliyotida tubdan yangilanishni, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni va amaliyot subyektlarining pozitsiyalarini yangilashni taqozo etadi.

Innovatsiyaning amaliyotga tatbiqi innovatsion jarayonlar orqali ro‘y beradi. Innovatsion jarayon – bu innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni

amalga oshirish bosqichlaridan iborat murakkab faoliyatdir. V.I. Slobodchikov ta'kidlaganidek: "Innovatsion faoliyat — bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoki amaliyotda shakllanayotgan yangi me'yorlarning mavjud tizim bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan muammolarni hal etishga qaratilgan faoliyatdir".

O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi – o'quv jarayonini samarali tashkil etishdir. Bu faoliyatni amalga oshirish bosqichlari quyidagicha belgilanadi:

Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalarni aniq ko'chirish.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim yangi moslamalar (modifikatsiyalar), metodlarni kiritish.

Uchinchi bosqich – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shaklini to'liq ishlab chiqish.

To'rtinchi bosqich – o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasi va metodikasini yaratadi.

MUHOKAMALAR

Innovatsion ta'lim texnologiyalari deb ta'lim jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metod va usullar tushuniladi. O'qituvchi darsni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etar ekan, nafaqat turli texnik vositalardan (kompyuter, proyektor, elektron doska va boshqalar) foydalanadi, balki interfaol metodlar yordamida ham mashg'ulotlarni samarali o'tkazishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar asosan o'qituvchining o'z faoliyatini takomillashtirishga, mavjud tajribasidan qoniqmagan holda uni yangilashga intilishidan kelib chiqadi. Mashhur pedagog A. Nikolskayaning fikricha, "faoliyatni yangilash uch bosqichda – tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish jarayonlarida amalga oshiriladi".

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning bosh maqsadi – o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'minlash, o'quvchilarni fanga qiziqtirish, ta'limga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy hayotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini didaktik materiallar bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir [4, 97].

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, an'anaviy ta'limda o'quvchi ko'proq tayyor bilimlarni egallashga yo'naltirilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularda mustaqil izlanish, bilimlarni qidirib topish, o'z fikrini tahlil qilish va hatto xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.



Shu bois pedagogik texnologiyalar, pedagog mahorati va interaktiv metodlardan samarali foydalanish o'quvchi va talabalarni bilimli, malakali hamda ijodkor shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagi ko'rsatkichlar orqali belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qila olishi;
- novatorlik darajasi;
- rivojlangan kommunikativ qobiliyati;
- ijodiy yondashuvi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning eng muhim talablardan biridir. Innovatsion yondashuv o'quvchi va o'qituvchi hamkorligini kuchaytirib, bilim olish jarayonini qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. An'anaviy ta'lim ko'proq tayyor bilimlarni egallashga yo'naltirilgan bo'lsa, innovatsion texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, izlanish, tahlil qilish va amaliy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogning yangilikni qabul qilishi, uni amaliyotga joriy etishga tayyorligi, kommunikativ qobiliyati va ijodkorligi uning innovatsion faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Shunday ekan, innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy ehtiyojlarga moslashtirish, eng asosiysi, zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan yetuk shaxsni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PF-5264-sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PQ-3416-sonli "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
3. Muslimov N. A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik: o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent, 2016.
4. Mahmudov A. X., Abdurahmonov Z. B. Ta'limda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning yutuqlari va muammolari // Academic research in educational sciences. 2021. T. 2. № CSPI conference 3. – B. 97-99.
5. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
6. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2010.

PEDAGOGIKA

AL-HAKIM AT-TERMIZIY ASARLARI VA ULARNING PEDAGOGIK TAHLILI

ACHILOV NURIDDIN ABDUG‘AFFOROVICH

Termiz davlat universiteti

“Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasi dotsenti

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Email: terdunuriddin@mail.ru

Tel: +998 91 905-35-42

UDK: 376.026

Kalit so‘zlar:

hakimiya,
gnoseologiya,
ma‘rifat, tasavvuf,
fiqh, sufiylik.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada al-Hakim at-Termiziy asarlarining mazmuni, ularning tasniflanishi va ilmiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, allomaning “Hakimiya” ta‘limoti mohiyati, tasavvuf ilmidagi o‘rni va keyingi avlod olimlariga ta‘siri yoritilgan. Mazkur ta‘limot Sharq ma‘naviy merosining yuksak namunalari qatorida alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotda Termiziyning ilmiy qarashlari shakllanishida ustozlarining o‘rni, ilhom manbalari hamda zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan yangi ma‘lumotlar asosida mazkur ta‘limotning rivoji ochib beriladi. Shuningdek, mutafakkirning ilm-ma‘rifatga oid qarashlari – har bir inson tug‘ma aql va idrokka ega ekani, undan to‘g‘ri foydalanish zarurligi, bilim va ma‘rifat insonni ezgulikka yetaklovchi eng asosiy kuch sifatida talqin qilingani pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

ПРОИЗВЕДЕНИЯ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТЕРМИЗИ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Ключевые слова:

мудрость,
эпистемология,
просвещение,
мистицизм,
юриспруденция,

Аннотация:

В данной статье анализируется содержание трудов аль-Хакима ат-Тирмизи, их классификация и научно-философское значение. В частности, освещены сущность учения ученого “Хакимия” его место в науке тасаввуф и его влияние на ученых следующего поколения. Это учение занимает особое место среди

суфизм.

высоких образцов духовного наследия Востока. В исследовании раскрывается роль учителей в формировании научных взглядов Термизи, источники вдохновения и развитие этого учения на основе новой информации, выдвинутой современными исследователями. Также с педагогической точки зрения проанализированы взгляды мыслителя на науку и просвещение - каждый человек обладает врожденным интеллектом и восприятием, необходимость его правильного использования, знание и просвещение трактуются как основная сила, ведущая человека к добру.

AL-HAKIM AT-TERMIZI'S WORKS AND THEIR PEDAGOGICAL ANALYSIS

Keywords:

wisdom, epistemology, enlightenment, mysticism, jurisprudence, Sufism.

Abstract:

This article analyzes the content of al-Hakim at-Termizi's works, their classification, and scientific-philosophical significance. In particular, the essence of the scholar's "Hakimiya" doctrine, his place in Sufism, and its influence on subsequent generations of scholars are highlighted. This doctrine occupies a special place among the high examples of the spiritual heritage of the East. The study reveals the role of Termizi's teachers in the formation of his scientific views, the sources of inspiration, and the development of this doctrine based on new information put forward by modern researchers. Also, the thinker's views on science and enlightenment – that every person has innate reason and perception, the need to use it correctly, knowledge and enlightenment are interpreted from a pedagogical point of view as the main force leading a person to goodness.

KIRISH

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ulug' mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rganish, ularning asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda keng targ'ib qilish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham bu borada muhim vazifalar belgilangan. Unda: "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar

qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish” [1, 35] masalasi dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan.

Shu nuqtayi nazardan, vatandoshimiz, qomusiy olim al-Hakim at-Termiziyning boy ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-amaliy merosini o’rganish, uni pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish har bir davr va makon uchun katta ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u nafaqat tasavvuf ilmining yirik namoyandasi, balki o’z davrida ta’lim-tarbiyaga oid qimmatli fikrlarni ilgari surgan mutafakkirdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – al-Hakim at-Termiziy asarlarini pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali o’quvchilarda nazariy va metodologik ko‘nikmalarni shakllantirish, alloma merosini chuqur o’rganishga yo‘naltirish hamda asarlarini qiyosiy pedagogik tahlil qilish orqali ularning tahliliy tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ma’lumotlarni qayta tahlil qilish, yangi yondashuvlar asosida tasniflash va o’quvchilarga ilmiy-uslubiy tavsiyalarni taklif etish ham maqolaning muhim vazifalaridan biridir.

Turkiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya va Eron kabi taraqqiy etgan davlatlarda al-Hakim at-Termiziyning ma’naviy-axloqiy hamda ilmiy-amaliy merosiga oid qator ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar yaratilgan. Bu esa allomaning nafaqat Sharqda, balki butun jahon miqyosida ham chuqur ilmiy qiziqish uyg‘otayotganidan dalolat beradi.

Ta’kidlash lozimki, bugungi globallashuv sharoitida al-Hakim at-Termiziyning boy merosini o’rganish tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, uning asarlarini yoshlar ongiga singdirish, ma’naviy tarbiya jarayonida qo‘llash hamda xalqimiz orasida keng targ‘ib etish ijtimoiy zarurat sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Zero, har bir inson o‘z yurtida faoliyat yuritgan buyuk mutafakkirlarning merosini bilishi, asarlarining mazmun-mohiyatidan boxabar bo‘lishi ma’naviy kamolotning muhim shartidir.

Shu bois, mazkur tadqiqot mavzusi sifatida al-Hakim at-Termiziy asarlari va ularning pedagogik tahlilini o’rganish belgilandi. Chunki alloma merosini ilmiy tadqiq qilish o’quvchilarda nazariy va metodologik ko‘nikmalarni shakllantirishga, uning asarlarini qiyosiy tahlil qilish orqali tahliliy fikrlash salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mavjud ilmiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni qayta ishlash, ularni tasniflash hamda yangi pedagogik yondashuvlar asosida talqin etish imkonini beradi.

Albatta, al-Hakim at-Termiziy merosiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari mavjud. Biroq ular ko‘proq qadimshunoslik, tarixshunoslik, tarjimonlik, adabiyotshunoslik, sharqshunoslik va tasavvufshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan bo‘lib, asosan

diniy-falsafiy yoki tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Natijada, uning asarlarining pedagogik tahlili yetarli darajada o'rganilmagan. Holbuki, pedagogik ta'limotlar tarixida al-Hakim at-Termiziy asarlari va ulardagi ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalar beqiyos o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

Al-Hakim at-Termiziyning ma'naviy merosi nafaqat diniy-falsafiy g'oyalarni, balki dunyoviy ilmlarning turli yo'nalishlarini ham o'zida mujassam etadi. Uning ilmiy merosini faqat islom ta'limoti yoki tasavvuf doirasidagina cheklash to'g'ri emas. Chunki u islom olamida mavjud bo'lgan biron-bir aniq maktab yoki oqimga mansub emas edi. Tadqiqotchilar qayd etishlaricha, keyingi mualliflar xalifalikning sharqiy qismida faoliyat yuritgan ayrim olimlar guruhini "sirli donolik mazhabi" yoki "al-Hakimiya" deb atashgan. Bu guruh tarkibiga Movarounnahr va Xuroson hududidagi tasavvufiy ruhdagi ba'zi ulamolar kirgan. Biroq ular o'zlarini boshqa sufiylik ta'limotlaridan ajratib, ilm va ma'rifatni asosiy qadriyat sifatida ilgari surganlar. "Hakimiya" donishmandlari hatto o'zlarini ayrim so'fiylardan yuqori qo'yib, ilohiy bilim egalarini yuksak maqomda, so'fiylarni esa quyi bosqichda tasnif qilganlar [2, 14].

Al-Hakim at-Termiziy ilmning barcha yo'nalishidagi olimlar bilan bahs-munozaralarga kirishib, har bir ta'limotdan ilm-fan taraqqiyotiga foyda keltiradigan g'oyalarni izlab olgan. Unga ko'ra, har bir insonga tug'ma aql ato etilgan va inson ushbu aql-idrokdan to'g'ri foydalana bilmog'i lozim. Bu esa bilim va ma'rifat orqali amalga oshadi. Alloma o'z asarlarida insonni ezgulik sari yetaklaydigan yagona yo'l – ilm va ma'rifat ekanini ta'kidlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, inson qalbi ilohiy sir bo'lib, uni faqat bilim va ma'rifat yoritishi mumkin. Shu bois, u "tasavvuf – bu bilim" degan g'oyani ilgari suradi.

Shuningdek, al-Hakim at-Termiziy bilim olish jarayonini bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni sifatida talqin qiladi: o'qish va o'rganish natijasida ilm shakllanadi, ilm esa insonning ma'naviy va intellektual kamolotiga xizmat qiladi. Allomaning asarlari ilm-fan taraqqiyotida, tasavvuf ilmi rivojida alohida o'rin tutib, kelgusi avlodlar ma'rifatparvarlik ruhida tarbiyalanishida dastur bo'lib xizmat qilmoqda.

Al-Hakim at-Termiziy tasavvuf ilmida va ilmning yuksak cho'qqilarini egallash jarayonida ustozlaridan ibrat oldi hamda ularning asarlaridan ilhomlandi. Tadqiqotchi olimlar Z. Choriyev, T. Annayev, B. Murtazoyev va J. Annayevlarning "Al-Hakim at-Termiziy" kitobida islomshunos olim Ibrohim al-Juyushiy ma'lumotlari asosida Al-Hakim at-Termiziyning o'ziga ustoz deb bilgan 164 nafar allomaning nomlari



keltirilgan. Alloma ularni “mening shayxlarim” deb e’zozlagan. Ulardan to‘rt nafari Termiziy nisbali shayxlar bo‘lib, ular quyidagilardir: Ali ibn Hasan at-Termiziy (allomaning otasi), Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, Solih ibn Muhammad at-Termiziy va Al-Jarud ibn Muoz as-Sulamiy at-Termiziy [3, 16].

Al-Hakim at-Termiziy tomonidan yaratilgan asarlar soni hamda uning ustozlari haqidagi ma’lumotlar hozirgacha ilmiy bahslarning asosiy masalalari sifatida munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Bu borada dastlabki ilmiy tadqiqotlar L. Massinyon va Usmon Yahyo nomi bilan bog‘liq. Ayniqsa, 1954-yilda amerikalik sharqshunos N. Xir tomonidan allomaning 55 ta asari va ularning saqlanish joylari aniqlangan. Arab tadqiqotchisi Abdulfattoh Barakaning yozishicha, Al-Hakim at-Termiziy o‘zidan keyin 400 dan ortiq qimmatli asar qoldirgan bo‘lib, ulardan 57 tasi bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Tadqiqotchi olim Ibrohim Usmonov “Hakim Termiziy” risolasida alloma asarlarini quyidagi sinflarga ajratadi.

1. *Tafsir va Quron ilmlariga oid asarlari*: “Al-Amsol min al-kitob va-s-sunna”, “Tahsil nazoir al-Qur’on”, “Tafsir”, “Al-Furuq va manat-taroduf”.

2. *Fiqh ilmiga oid asarlari*: “Al-Hajj va asroruhu”, “Sharh as-solat va maqosidiho”, “Sabab at-takbir fi-s-solat”, “Ilal ash-shari’a”, “Al-Masoil al-afina”.

3. *Kalomga oid asarlari*: “Ar-Radd ala-r-rofiza”, “Al-Aql va-l-havo”, “Al-Farq bayn al-ayat va-l-karomat”, “Ar-Radd ala-l-mu’attila”, “Sharh qavl – Ma al-iman val-islom va-l-ihson”, “Al-Kalom ala mona la ilaha illa Alloh”.

4. *Islom falsafasiga oid asarlari*: “Kitob al-aqyos va-l-mug’tarrin”, “Isbot al-ilal fi-l-amr va-n-nahy”, “Bayon al-ilm”, “Huquq”.

5. *Tasavvuf tarixiga oid asarlari*: “Anvo‘ al-ma’orif”, “Tarix al-mashoyix”.

6. *Tasavvufiy qarashlariga oid asarlari*: “Buduvv ash-sha’n Abiy Abdulloh”, “Adab an-nafs”, “Riyozat an-nafs”, “Xatm al-avliyo”, “Bayon al-farq bayn as-sadr va-l-qalb va-l-fuad va-l-lubb”, “Ma’rifat al-asror”, “Manozil al-ibod min-al iboda”, “Al-Masoil al-maknuna”, “Adab al-muridin”, “Risolat makr an-nafs”, “Ilm al-avliyo”, “Abvob muxtalifa”, “Al-Jumal al-lozim ma’rifatuhu”, “Javob kitob Usmon ibn Said min ar-Ra’y”, “Al-Hikma minal-ilm al-botin”, “Sifat al-qulub va ahvoliho va hay’at tarkibiho”, “Urs al-orifin”, “G’avr al-umur”, “Masoil at-ta’bir”, “Daqiq al-ulum”.

7. *Hadis ilmiga oid asarlari*: “Navodir al-usul”, “Al-Amsol min al-kitob va-s-sunna”, “Al-Manhiyot va kull ma ja’a min hadis bi-n-nahy”, “Bayon al-kasb” [4, 42-43].

Yuqorida nomlari zikr etilgan asarlardan anglashiladiki, Al-Hakim at-Termiziy ilm-fanning deyarli barcha yo‘nalishlarida bebaho meros qoldirgan. Uning asarlarida


faqat tashqi mazmun emas, balki ko‘z ilg‘amas hikmatlar va chuqur ma‘nolarni yoritishga bo‘lgan intilish yaqqol seziladi. Shu boisdan ham, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuniga allomaning ilmiy merosini singdirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “Tarbiya” fani tarkibiga Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik g‘oyalarini kiritish o‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi.

Al-Hakim at-Termiziyning “Manozil ul-ibod minal-iboda” (“Bandalarning bandachilikdagi manzillari”), “Navodir al-usul”, “Baduvv ash-sha‘n Abu Abdulloh” (“Abu Abdulloh ishlarining boshlanishi”), “Navro‘znoma”, “Solnoma”, “Aql va havo”, “Ma‘rifat ul-asror”, “Nafs odobi”, “Nafs riyozati”, “Kasbning bayoni”, “Saraxs ahli so‘ragan masalalar” kabi asarlari pedagogik ta‘limotlar tarixida muhim manba sifatida baholanadi.

Xususan, “Manozil al-ibod min-al iboda” asarida tasavvufdagi tariqat martabalari haqida mukammal fikrlar bayon etilgan. Ushbu asar ikki bobdan iborat bo‘lib, unda bandalik – ya‘ni sayru suluk yo‘lida solik bosib o‘tishi lozim bo‘lgan ma‘naviy manzillar izchil yoritiladi. Tasavvuf ta‘limotiga ko‘ra, bunday manzillar “hol” va “maqomlar” deb ataladi.

Alloma mazkur asarda yetti manzilni, ya‘ni kishilarning ma‘naviy-axloqiy kamolot bosqichlarini sanab o‘tadi (1-rasmga qarang). Ulardan birinchisi – “Tavba manzili” bo‘lib, bu Allohni izlovchilar va unga talpinuvchilarning yo‘ldagi eng dastlabki bosqichi hisoblanadi. Ushbu maqomga yetishgan inson Allohning buyruqlariga so‘zsiz itoat etuvchi, U man etgan narsalardan esa hech ikkilanmay tiyiluvchi darajaga ko‘tariladi [5, 8].

Bunday qalb egalari ezgu amallarni beixtiyor ado etib, yomon ishlardan o‘zini tiyishga qodir kuchli irodaga ega bo‘ladilar. Shu o‘rinda, alloma nafsga qarshi kurashning ikki turini – botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) ma‘nolarini sharhlab beradi. Masalan, nafs, hoyu-havas va hasadga qarshi kurashish ichki (botiniy) jihat sanalsa, dushmanga qarshi nayza va kamon yordamida kurashib, uning molini tortib olish tashqi (zohiriy) jihat hisoblanadi.

*1-rasm**Insonlarning ma'naviy-axloqqa erishish bosqichlari*

Ikkinchi manzilda zohidlik (parhezkorlik) masalasi keng sharhlanadi. Zohidlik – bu nopok amallar va nomaqbul qiliqlardan tiyilish, halol va pok yo‘lni tanlash demakdir. Bu yo‘l oson emas, u mashaqqatli va og‘ir sinovlardan iborat bo‘lib, uni bosib o‘tish uchun sabr, sabot va qat‘iyat zarur. Darhaqiqat, “dunyo shaytonning turli xil tuzoqlaridan iborat bo‘lib, ular orqali insonlar aldovga ilinadi va shahvoniy hirs tomon yetaklanadi” [5, 9]. Shu bois inson o‘zini ayb va gunohlardan poklamog‘i, qalbini tozalab, ichki nurga erishmog‘i lozim. Faqat ana shundagina u zohidlik maqomiga yetadi. Bu og‘ir yo‘lni esa qalbi sof, dunyoning ichki mohiyatiga nazar tashlay oladigan, sabr-toqatli kishilargina bosib o‘ta oladilar.

Uchinchi manzil – adovatun nafs (nafsga dushmanlik)da esa insonning o‘z nafsiga qarshi kurashi tahlil qilinadi. Bu maqomda solih kishilar nafsni yengish uchun maxsus tarbiya jarayonlarini amalga oshirganlar, zarur bo‘lsa hoyu havaslarini jilovlab, shahvoniy ehtirolarni so‘ndirishga erishganlar. Natijada nafs ularning buyruqlariga bo‘ysunadigan, itoatgo‘y holga kelgan [5, 12]. Shu tariqa nafsning ikki muhim qirrasini (mol-dunyo ortidan quvish va shahvoniy hirs) alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Alloh insonlarni aynan mana shu nafsiga qarshi jihodga da‘vat qiladi. At-Termiziy ta‘limotida “nafs bilan jihod” insoniyat uchun mezon sifatida talqin qilinadi, chunki odamlarning haqiqiy darajasi ana shu jihod orqali o‘lchanadi. Alloma



xulosasiga ko‘ra, nafs – barcha yovuzliklarning ildizi va manbaidir.

To‘rtinchi muhabbat manzilida alloma yana nafs mavzusiga murojaat qiladi. U hayot murakkabliklariga e‘tibor qaratib, insonlarni “bu dunyodagi muhtojlik va to‘kinchilik, izzat va xorlik, faqirlik va davlatmandlik, issiqlik va sovuqlik kabi tashvishlarni unutishga” chorlaydi [5, 14]. Nafsnı jilovlash esa faqat Allohga muhabbat vositasida amalga oshadi. Muhabbat tushunchasi ilmda o‘ziga xos tarzda talqin qilinib, unga erishish uchun inson avvalo ruhiy poklanishi lozimligi ta’kidlanadi. Poklanish esa tavba, zohidlik va nafsni tiyish kabi manzillar orqali ro‘yobga chiqadi. Bu borada quyidagi hadis keltiriladi: “Banda o‘z nafsiga qarshi qilgan jihodi eng yaxshi jihoddir” [5, 34].

Beshinchi manzil – qat‘ul havo bosqichida insonning hoyu havasga moyillik bilan kurashishdagi mashaqqatlari ochib beriladi. Bu manzilda inson va nafsoniy hirs o‘rtasidagi ziddiyat nihoyatda keskin kechadi. Ko‘pincha hoyu havas uzoq muddat kishilar ustidan g‘olib keladi. Shunday hadis keltiriladi: “Inson nimadan qo‘rqsa, Alloh o‘sha narsani banda ustidan g‘olib qilib qo‘yadi. Agar odam bolasi Allohdan o‘zga narsadan qo‘rqmasa, Alloh unga hech narsani g‘olib qilib qo‘ymaydi” [5, 39].

Oltinchi manzil – qo‘rquv manzili bo‘lib, u insonning yomon yo‘ldan qaytishini ifodalaydi. Bu manzil keng bir bo‘shliq, imtihonsiz dengizga qiyoslanadi. Unda adashgan kishilar qo‘rquv ummonida suzib, holdan toyadilar. Ammo inson Alloh zikrini qilganda, uning qalbida taskinlik va xotirjamlik paydo bo‘ladi, tanasi va ko‘ngli mayinlashadi. Chunki u nafs istaklaridan yuz o‘girib, zikr orqali Allohga yaqinlashadi.

Yettinchi manzil – qurbat manzili inson uchun eng og‘ir sinovlar bosqichi sifatida ta’riflanadi. Kishilar hoyu havas azobidan qutulish uchun Allohdan yordam so‘rab, ixlos bilan Unga yuzlanadilar. Demak, hoyu havasni unutgan, nafsoniy shavqatlarini yenggan insonlar Alloh vasliga munosib topilib, so‘nggi qurbat manzilida mustahkam maqom egallaydilar. Hakim Termiziy nafsiga asirlik, shahvoniy hislarga berilish va hoyu havasga qul bo‘lishni insonning zaifligidan kelib chiqadigan illatlar, deya ta’riflaydi.

Mazkur ma’naviy-axloqiy manzillarni keuzish dunyo manzillarini sayr etishdan ancha murakkab, ammo sharafli hisoblanadi. Chunki dunyo manzillarini deyarli har kim keuzishi mumkin, biroq bu ma’naviy manzillarni keuzish faqat ayrim insonlargagina nasib etadi. Zero, ma’naviy-axloqqa erishish bosqichlarini bosib o‘tish uchun ilm, odob, ixlos, e‘tiqod, muhabbat, sadoqat, axloq kabi fazilatlarga hamda yo‘l ko‘rsatuvchi ustozga tayanish zarur.

Shu boisdan alloma ushbu asarida har bir manzilning xususiyatlari, talablari, maqomi va mavqeini bayon etib, ularni hikmatlar, hadislar hamda rivoyatlar asosida

izohlaydi. Unga ko‘ra, bu manzillardan o‘tish uchun eng avvalo nafs hukmronligini yengish lozim. Chunki nafs balosi ko‘zni ko‘r, quloqni kar va qalbni yopiq qiladi. Mazkur asarning umrboqiy ahamiyati shundaki, u insonning ma‘naviy-axloqiy qarashlarini rivojlantirishda muhim manba vazifasini bajaradi. Uning amaliy qimmatini shundaki, avvalo ixlos, e‘tiqod va iymon mohiyatini anglash uchun ilmga amal qilishni targ‘ib etadi.

Hakim Termiziyning “Navodir al-usul” asari hadis ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda har bir hadis mufassal sharhlanadi, uning zohiriy va botiniy hikmatlari ochib beriladi hamda mazmun-mohiyati har tomonlama chuqur tahlil qilinadi. E‘tiborli jihati shundaki, mazkur asarda hadislarni amaliy hayotda qanday tatbiq etish yo‘llari ham ko‘rsatib berilgan.

Iqtidorli olim I. Usmonov tomonidan “Navodir al-usul” hikmatlari kitobi nashr etilgan. Ushbu kitob so‘zboshi, muqaddima, olti bob, xotima, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Risolada IX-X asrlarda Movarounnahrda siyosiy-ijtimoiy ahvol, diniy yo‘nalishlar, tasavvuf yo‘li, allomaning ilmiy-ma‘naviy merosi, ustozlari va shogirdlari, “Navodir al-usul” asarining mundarijasi, mazmuni va mohiyati, tasavvuf va hikmat, alloma faoliyatida hadisning o‘rni, shuningdek, Hakim Termiziy va naqshbandiya ta‘limoti o‘rtasidagi aloqalar kabi masalalar mukammal yoritilgan. U mintaqada turli davrlarda siyosiy maydonda mavjud bo‘lgan o‘n ikkita tasavvufiy harakatdan o‘ntasini maqbul, ikkitasi esa g‘ayri maqbul deb qayd etadi. Maqbul deb topilgan o‘nta tasavvufiy yo‘nalishning yettinchisi Hakim Termiziy asos solgan “Hakimiya” ta‘limoti ekanligi ham ta‘kidlangan.

Tadqiqotchining fikricha, “Navodir al-usul” allomaning ilk va yirik asarlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu asar u yaratgan barcha asarlarning asosiy negizi va g‘oyaviy mazmunini o‘zida jamlagan. Shuningdek, asarning o‘z davrida ham, keyingi davrlarda ham ko‘plab mashhur ulamolar tomonidan keng foydalanilgani uning ahamiyatini yanada oshiradi.

Asarda “O‘n tomonning fazilati haqida” quyidagi hadis keltiriladi: Hazrat Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qilganlar: Payg‘ambarimiz (s.a.v.) dedilar: “Sizlardan kim oyoq kiyim kiya, o‘ng tomondan boshlasin. Kim taom yesa, o‘ng qo‘li bilan yesin. Kim ichimlik ichsa, o‘ng qo‘li bilan ichsin. Chunki o‘ng tomon ahli – saodat ahlidir. O‘ng tomon ahli (ning mukofoti) haqida Alloh taolo shunday deydi: O‘ng tomon ahli – ne saodatlidir ular!” (“Voqea” surasi, 27-oyat) [4, 82-83].

Allomaning “Badvv ush-sha‘n” asari ilk bor 1965-yilda Bayrutda Usmon Yahyo tomonidan “Kitob xatm al-avliyo” asariga ilova tarzida nashr qilingan. Ushbu asarda allomaning hayoti va faoliyati haqida (4-ilova) batafsil ma‘lumot berilgan. Jumladan,



uning yoshlikdan ilmga chanqoqligi va tinimsiz kitob mutolaa qilganligi quyidagicha bayon qilinadi:

“Sakkiz yoshda bo‘lganimda, barchaning shafqatli va mehriboni bo‘lmish Alloh taolo o‘z inoyatini mendan darig‘ tutmadi. Shayxim menga ilm sirlarini o‘rgatib, tinmay ilm olishni targ‘ib qildi. Bu ish shu darajaga yetib bordiki, butun vujudim bilan saboq olishga intildim. Go‘daklik chog‘imdanoq o‘yin o‘rnini kitob mutolaa qilish mashg‘uloti egalladi. Shu tariqa yoshlikdan “ilm al-osor” (hadis ilmi) va “ilm al-ro‘y” (hanafiy fiqh)ni o‘rganishni boshladim” [3, 108]. Mazkur gapdan ko‘rinadiki, ilmga chanqoqlik va kitob mutolaasiga bo‘lgan mehr yoshligidan shakllangan. Bu esa biz, ota-onalar uchun ham muhim xulosa beradi: farzandlarimizning yoshlikdan ilm egallashlari uchun yetarli sharoit yaratib berishimiz lozim. Chunki “ma‘rifat insonni kamolga, jamiyatni esa taraqqiyotga yetaklaydi”.

Shu maqsadda mamlakatimizda ta‘lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta‘lim tizimi tamoyiliga asoslanadi. Ya‘ni ta‘lim-tarbiya jarayoni maktabgacha ta‘lim muassasasidan boshlanib, butun umr davom etishi belgilangan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ham ta‘limning barcha bosqichlariga katta investitsiyalar kiritib boriladi. Bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning ta‘lim-tarbiyasiga sezilarli mablag‘ sarflanadi. Chunki bu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar foyda keltiradi [6, 11].

XULOSA

Al-Hakim at-Termiziyning “Badvv ush-sha‘n” asarida allomaning 27 yoshida qilgan safari haqida ma‘lumot beriladi. Unda qayd etilishicha, u ko‘plab shaharlarni kezib, yetuk olim va ulamolarning suhbatida bo‘lgan, ulardan saboq olgan va ular bilan ilmiy munozaralar olib borgan. Asarda shunday deyiladi: “Yigirma yetti yoshga bo‘lganimda, irfoniy ilmlarni shunday mukammal o‘rgandimki, qalbimda Alloh taolo uyi – Makkani ziyorat qilish ishqiy uyg‘ondi. Safarga chiqish imkoni tug‘ilishi bilanoq yo‘lga otlandim va Iroqqa yetib, hadischi sifatida tanildim. U yerdan Basraga bordim, Basradan esa Rajab oyida Makka sari yo‘l oldim” [3, 108].

Bu ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, alloma 27 yoshga to‘lganda ilm va irfonning yuksak cho‘qqisiga erishgan hamda hadis ilmi bo‘yicha shuhrat qozongan. Zero, hadis ilmi juda nozik va murakkab ilmiy jarayon bo‘lib, unda har bir rivoyatning ishonchligi, ma‘no jihatidan izchil talqini va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi [7, 45].

Hadis lug‘aviy jihatdan “gaplashish” yoki “xabar berish” ma‘nosini bildiradi. Istilohiy ma‘noda esa u Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari, amallari, ma‘qullagan ishlari va sifatlarini o‘z ichiga oladi. Islom ta‘limotida hadis Qur‘ondan

keyingi ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari yoki boshqalar qilgan amallarni inkor etmagan holatlari sunnat deb yuritiladi. Demak, hadis va sunnat birgalikda musulmonlarning diniy, axloqiy va ma‘naviy hayotini tartibga soluvchi asosiy manbalar sanaladi.

Hadislarda nafaqat diniy qonun-qoidalar, balki insoniy fazilatlar ham keng targ‘ib etilgan. Unda inson sha‘niga dog‘ tushiradigan illatlar qoralanib, o‘zaro do‘stona munosabatlar, ota-ona va qarindoshlar haqqini ado etish, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat va insof kabi fazilatlar ulug‘langan [8, 7].

Al-Hakim at-Termiziyning asarlari, xususan “Badvv ush-sha‘n”, bugungi kunda ham muhim ilmiy-pedagogik manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu asar va boshqa meroslarni tadqiq etish orqali o‘quvchilarda nazariy va metodologik ko‘nikmalar shakllantirish, alloma merosini chuqur bilish, asarlarni qiyosiy tahlil qilish hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022. 28 yanvar.
2. Mirzo, J. Muhammad Hakim Termiziy: hayoti va ijodi. – Toshkent : San‘at jurnali nashriyoti, 2007. – B. 40.
3. Choriyev, Z. Al-Hakim at-Termiziy. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2008. – B. 161.
4. Kenjabek, M. Buyuk Termiziylar: Termiz tazkirasi. – Toshkent : “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 528.
5. Termiziy, A. A. M. ibn A. Hakim. Mo‘minlarning ibodatdagi darajalari (Manozilul ibod minal iboda) / tarj. A. Shoshiy. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – B. 60.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2018. 28 dekabr.
7. Achilov, N. A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma‘rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi : ped. fan. bo‘yicha fal. dok. diss. – Termiz, 2020. – B. 173.
8. Abdugafforovich, A. N. Scientific theory of al-khakim at-termezi // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2019. Vol. 2019.

PEDAGOGIKA

“ELEKTROMAGNIT TO‘LQINLAR” MAVZUSINI TIZIMLASHGAN VA INTEGRALLASHGAN SHAKLDA O‘QITISH METODIKASI

XOLBOYEV YUNUSALI XASAN O‘G‘LI

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Fizika fakulteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Email: yunusalikholboev@gmail.com

UDK: 373.5:537.10

<https://orcid.org/0009-0009-9542-8678>

Kalit so‘zlar:

Elektromagnit to‘lqin, to‘lqin chastotasi, to‘lqin uzunligi, ko‘ndalang to‘lqin, bo‘ylama to‘lqin.

Annotatsiya:

“Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusi fizikaning ko‘p qirrali, murakkab va ma‘lumotlarga boy bo‘limlaridan biridir. Shu sababli uni qisqa vaqt ichida tizimlashtirilgan va integrallashgan holda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oliy ta‘lim muassasalarida fizika fanining muhim bo‘limlaridan biri “Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusini samarali va chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi tizimlashtirilgan va integrallashgan o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan. Unda mavzuni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar – klaster tuzish, blok-sxema chizish, aqliy hujum, bosqichma-bosqich tahlil qilish kabi yondashuvlardan keng foydalanilgan. Ayniqsa, sun‘iy intellekt vositalari yordamida mavzuga oid tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda yoritishning afzalliklari alohida ta‘kidlangan. Shuningdek, elektromagnit to‘lqinlarning fizik xossalari va ularning hayotimizdagi amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha keys-stadi usullaridan foydalanish talabalarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otib, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va fanlararo integratsiyani amalga oshirish kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari ushbu mavzuni o‘qitishda samaradorlikni oshirib, fizika fanini zamonaviy metodlar asosida o‘rganishga keng imkoniyat yaratadi.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ТЕМЫ «ЭЛЕКТРОМАГНИТНЫЕ ВОЛНЫ» СИСТЕМАТИЗИРОВАННЫМ И КОМПЛЕКСНЫМ ОБРАЗОМ

Ключевые слова: Электромагнитная волна, частота волны, длина волны, поперечная волна, продольная волна.

Аннотация: Тема “Электромагнитные волны” является одним из многогранных, сложных и информативных разделов физики. Поэтому важно изучать его в систематизированном и интегрированном виде за короткий промежуток времени. В данной статье разработана систематизированная и интегрированная методика преподавания, служащая эффективному и глубокому усвоению одного из важных разделов физики – “Электромагнитные волны” в высших учебных заведениях. В ней широко использовались современные педагогические технологии в преподавании темы - такие подходы, как создание кластера, рисование блок-схем, мозговой штурм, поэтапный анализ. Особо подчеркиваются преимущества визуального и интерактивного освещения понятий, связанных с темой, с помощью средств искусственного интеллекта. Кроме того, использование методов кейс-стади по физическим свойствам электромагнитных волн и их практическому применению в нашей жизни служит формированию у студентов интереса к теме и навыков применения теоретических знаний на практике. Данный подход позволяет развивать у учащихся компетенции самостоятельного мышления, аналитического подхода и реализации междисциплинарной интеграции. Результаты исследования повышают эффективность преподавания данной темы и создают широкие возможности для изучения физики на основе современных методов.

METHODOLOGY OF TEACHING THE TOPIC OF “ELECTROMAGNETIC WAVES” IN A SYSTEMATIZED AND INTEGRATED WAY

Keywords:

Electromagnetic wave, wave frequency, wavelength, transverse wave, longitudinal wave.

Abstract:

The topic of “Electromagnetic Waves” is one of the multifaceted, complex, and informative branches of physics. Therefore, it is important to study it in a systematized and integrated form in a short time. In this article, a systematized and integrated teaching methodology has been developed that serves to effectively and deeply master one of the important sections of physics in higher educational institutions – the topic “Electromagnetic Waves”. In teaching the topic, modern pedagogical technologies were widely used – such approaches as cluster construction, drawing a flowchart, brainstorming, step-by-step analysis. In particular, the advantages of covering concepts related to the topic in visual and interactive form using artificial intelligence tools are emphasized. Also, the use of case study methods on the physical properties of electromagnetic waves and their practical application in our lives serves to form students' interest in the topic and the ability to apply theoretical knowledge in practice. This approach allows students to develop competencies in independent thinking, an analytical approach, and the implementation of interdisciplinary integration. The research results increase the effectiveness of teaching this topic and create ample opportunities for studying physics based on modern methods.

KIRISH

Bugungi kunda ilm-fanning jadal taraqqiy etishi natijasida nafaqat yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda, balki mavjud fanlar doirasida ham bilimlarning hajmi va mazmuni kengayib bormoqda. Fizikaning barcha bo‘limlari singari “Elektr va magnetizm” bo‘limida ham o‘zlashtirilishi zarur mavzular soni va ular bo‘yicha ma’lumotlar miqdori sezilarli darajada ortmoqda. Shu jihatdan, “Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusi fizikaning eng muhim va mazmunan murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, ko‘plab fundamental tushunchalar va amaliy qo‘llanishlarni o‘zida mujassam etadi.

Mazkur mavzuni o‘qitishda ma’lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish hamda ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish muhim o‘rin tutadi. Shu bois,



pedagogik texnologiyalardan foydalanish, integrallashgan diagrammalar tuzish va turli xil innovatsion metodlarni qo‘llash ta’lim jarayonida yuqori samaradorlik beradi. Ayniqsa, talabalarning bilimni baholashda, ularning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshirishda hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda bunday yondashuvlar katta ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, ushbu maqolada “Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusini o‘qitishda qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali metodik yondashuvlar yoritiladi va ularning ta’lim jarayonidagi afzalliklari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusini o‘qitishda bir qator olimlar – G‘aniyev A.G., Mamatkulova D.Sh. hamda Rahmanov V.T.ning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

G‘aniyev A.G.ning “Elektromagnit to‘lqinlar mavzusini o‘qitishda “Intellekt xarita” (Mind map) dan foydalanish” nomli maqolasida elektromagnit to‘lqinlarning turlari va ularning asosiy xossalari tizimli ravishda yoritilgan. G‘aniyev A.G. tomonidan ishlab chiqilgan “Elektromagnit to‘lqinlar shkalasi” intellekt xaritasi mavzuga oid ma’lumotlarni tartibli ravishda jamlash, ularni o‘quvchilar ongida yaxlit tasavvur sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur metod nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning tasavvur qilish, ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham samarali vosita sifatida baholanadi [2, 39-42].

Mamatkulova D.Sh.ning “Elektromagnit to‘lqinlarning umumiy xossalari” nomli maqolasida elektromagnit to‘lqinlarning tabiatdagi o‘rni hamda ularning koinot va turli ilmiy sohalarda tutgan ahamiyati keng yoritilgan. Mamatkulova D.Sh. elektromagnit to‘lqinlarning elektr va magnit maydonlarning o‘zaro tebranishidan hosil bo‘lishi, ularning keng qo‘llanilishi, amaliy va ilmiy jihatdan katta ahamiyatga egaligini alohida ta’kidlaydi. Ayniqsa, ularning jismoniy muhitdan mustaqil holda bo‘sh fazoda tarqalish xususiyati eng hayratlanarli va fundamental qonuniyat sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [3, 6-10].

Rahmanov V.T. esa “Umumta’lim maktablarida fizika fanining Elektromagnit to‘lqinlarning xossalari mavzusini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish va zamonaviy darslarni tashkil etish samaradorligi” nomli maqolasida mavzuni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning o‘rni va samaradorligini asoslab bergan. U interfaol metodlardan foydalanish orqali ta’lim jarayonining sifatini oshirish, o‘quvchilarda fanga qiziqishni kuchaytirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini yoritib bergan. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya

qilishning istiqbollari ham ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, mazkur tadqiqotlar elektromagnit to'lqinlar mavzusini o'qitishda metodik yondashuvlarni boyitadi, o'quvchilarda nazariy bilim bilan birga mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Elektromagnit to'lqinlarning xossalari va xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqotlar ko'plab amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud ishlarda asosan ushbu hodisalarning ayrim jihatlarigina yoritilgan. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — "Elektromagnit to'lqinlar" mavzusini oliy ta'lim muassasalarida tizimlashtirilgan hamda integrallashgan yondashuv asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini baholashdan iboratdir.

Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

1. *Nazariy tahlil.* Fizikaning "Elektromagnit to'lqinlar" bo'limiga oid ilmiy adabiyotlar, o'quv dasturlari va ilg'or xorijiy tajribalar chuqur o'rganildi. Mavzuning murakkabligi va ko'p qirraliligi, shuningdek, uning amaliy ahamiyati inobatga olinib, qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirish imkonini beruvchi metodik asoslar tahlil qilindi.

2. *Pedagogik texnologiyalarni tanlash.* O'quv jarayonida talabalar faoliyatini faollashtirish, mavzuni ongli va chuqur anglashlarini ta'minlash maqsadida interfaol metodlardan foydalanildi. Jumladan:

- blok-sxema chizish,
- klaster tuzish,
- aqliy hujum,
- bosqichma-bosqich tahlil qilish.

Bundan tashqari, elektromagnit to'lqinlarning fizik xossalari va ularning amaliy qo'llanilishiga doir keys-stadi yondashuvi asosiy metod sifatida tatbiq qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR


Elektromagnit to'lqinlar ularning to'lqin uzunligi (chastotasi) qiymatlariga ko'ra turli turlarga ajratiladi. Ba'zi elektromagnit to'lqinlar chastotasi va to'lqin uzunligi turlicha oraliqlarda joylashgan bo'lsa ham, bir xil nom bilan ataladi. Boshqa ayrim elektromagnit to'lqinlar esa chastotasi va to'lqin uzunligi bir xil oraliqda bo'lishiga qaramay, turlicha nomlanadi. Elektromagnit to'lqinlarning hosil bo'lish manbalari ham xilma-xildir. Masalan, infraqizil va ko'rinuvchi nurlanishning manbasi bir xil bo'lsa, γ -nurlanish bir nechta chastota va to'lqin uzunligi diapazoniga mos keladi. Shunga qaramay, uning ayrim chastota va to'lqin uzunligi diapazoniga to'g'ri keluvchi turi yagona manba orqali hosil bo'ladi. Bu esa mavzuni tushuntirish

jarayonida qiyinchiliklar tug‘diradi.

Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun 1-rasmda keltirilgan blok-sxemadan foydalanish mumkin. Blok-sxemada to‘lqin uzunliklari shartli ravishda ko‘rsatilgan, chunki ularning qo‘shni diapazonlari o‘rtasida aniq chegaralar mavjud emas. Elektromagnit to‘lqinlarning hosil bo‘lishi, tarqalishi va boshqa bir qator xususiyatlari esa Maksvel tenglamalari orqali tavsiflanadi.

1-rasm


Elektromagnit to‘lqinlarning turlari va ularni hosil qiluvchi manbaalar



Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, elektromagnit to‘lqinlar hosil bo‘lishi va qayd etilish usullari, chastotalari (to‘lqin uzunliklari) hamda energiyalariga qarab bir qator xossalarga ko‘ra farqlanadi. Elektromagnit nurlanishlarning turlarga ajratilishi nisbatan shartli bo‘lib, ularning vakuumda tarqalish tezligi esa bir xil bo‘ladi. Elektromagnit to‘lqinlar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish maqsadida elektromagnit to‘lqinlar shkalasi qo‘llaniladi. 2-rasmda elektromagnit to‘lqinlar shkalasi keltirilgan.

2-rasm

Elektromagnit to'liqlar shkalasi




Elektromagnit to'liqlar shkalasini tasavvur qilish uchun ma'lumotlarni vizuallashtirishning samarali vositalaridan biri – “intellekt xarita”dan foydalanish mumkin [2].

Shuningdek, elektromagnit to'liqlarning xossalari va xususiyatlarini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4]. Elektromagnit to'liqning xususiyatlari deganda, uning qaysi turga mansubligi, qaysi qonunlarga bo'ysunishi hamda qanday xossalarga ega ekanligi nazarda tutiladi. Quyida keltirilgan 3-rasmda esa elektromagnit to'liqning asosiy xususiyatlari tizimlashtirilgan holda berilgan.

3-rasm

Elektromagnit to'liqlarning xususiyatlari



Elektromagnit to'liqlarning to'liq tenglamasi Maksvell tenglamalaridan keltirib chiqariladi va E hamda H ning o'zgarishi bir xil $\omega = 2\pi\nu$ chastotada o'zgaradi:


$$E = E_0 \cos(\omega t - kx + \varphi_1)$$

$$H = H_0 \cos(\omega t - kx + \varphi_2)$$

E va H larning tebranishlarining fazalar farqi $\Delta\varphi = \varphi_2 - \varphi_1 = \frac{\pi}{2}$:

4-rasm


Elektromagnit to‘lqinni tashkil qiluvchi elektr va magnit maydonlarning tarqalishi



Elektromagnit to‘lqinlarning energetik xarakteristikalarini ularning energiya tashish qobiliyati va energiya zichligi bilan tavsiflanadi. Ushbu xarakteristikalar to‘lqinning amplitudasi, chastotasi hamda tarqalish muhiti bilan bevosita bog‘liqdir. Elektromagnit to‘lqinlarning energetik xususiyatlarini quyidagicha tizimlashtirilgan va integrativ shaklda ifodalash mumkin (5-rasm).

5-rasm

Elektromagnit to‘lqinlarning energetik xarakteristikalarini



Yuqori chastotalarda elektromagnit to‘lqinlar korpuskulalar xossasiga ega bo‘lib, ular kvazizarralar — fotonlar oqimi sifatida qaraladi. Fotonlarning energiyasi energiyasi $h\nu$ va impuls $K = \frac{h\nu}{c}$ ga teng bo‘ladi. Shu asosda fotoeffekt, Kompton effekti kabi jarayonlar tushuntiriladi.

Elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanilishi insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan va juda keng tarqalgan hodisadir. Ularning amaliy qo‘llanilishi asosan to‘lqin uzunligi (yoki chastotasi) bilan belgilanadi. Spektrning har bir qismi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, turli maqsadlarda foydalaniladi.

Biroq elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanish sohalarini birma-bir bayon qilish yoki ularni sanab o‘tish ma‘lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan ularning qo‘llanilish sohalarini turli grafik organayzerlar yordamida tushuntirish ancha qulay hisoblanadi.

Grafik organayzerlar – bu fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda taqdim etish vositasidir. Ular ma‘lumot va g‘oyalarni tushunish hamda o‘zlashtirish uchun qulay tarzda tartibga solinadi. Matn va vizual tasvirlarni uyg‘unlashtirgan holda grafik organayzerlar tushunchalar, atamalar va faktlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda aloqalarni ko‘rsatadi. Shuningdek, ular ma‘lumotlarni tizimlashtirish, o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi [5].

Grafik organayzerlar ichida “Idrok xaritasi” alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod fikrlarni taqdim etish va ularni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda tasavvur qilish, fikrlarni tizimlashtirish, g‘oyalarni ajratib olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu metod bilim va axborotlarni konspektlashtirishning standart chizmasini yaratishga xizmat qilib, dars jarayonida uzoq konspekt yozish zaruratidan xalos etadi.

Fizika fanini o‘qitishda ma‘lumotlarni vizuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘quvchilarda “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usuli sifatida “Intellekt xaritasi” dan foydalanish maqsadga muvofiqdir [6, 7]. 6-rasmda “Intellekt xaritasi” asosida elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanish sohaları va ularning maqsadlari vizual shaklda tasvirlangan.

6-rasm


Elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanilish sohaslarini aks ettiruvchi “intellekt xarita

Shu bilan birga, elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanilish doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ular turli sohalarni qamrab oladi. Ularning amaliy qo‘llanilishini chastota diapazonlari asosida tasniflash qulay hisoblanadi. Chunki chastota diapazoniga qarab elektromagnit to‘lqinlarning turlari va ularning qo‘llanilish sohasi xilma-xillik kasb etadi. Shu bilan birga, bir xil diapazonga tegishli bo‘lgan to‘lqin turi ham bir nechta turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Bu esa elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanilish imkoniyatlarini yoritishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun grafik organayzerlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Grafik organayzerlar orasida “Klaster” metodi alohida ahamiyat kasb etadi. “Klaster” (“g‘uncha”, “to‘plam”, “bog‘lam”) metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda ham, guruh asosida ham tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Ushbu metod ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ularning o‘zaro aloqalarini aniqlash va mazmunan tartibga solish imkonini beradi [6]. 7-rasmda elektromagnit to‘lqinlarning qo‘llanilish sohasi “Klaster metodi” asosida yoritilgan.

7-rasm

Elektromagnit to'lqinlarning qo'llanilish sohaslarini aks ettiruvchi Klaster



Ta'lim jarayonida mavzuga oid ma'lumotlar, hodisalar, formulalar va grafiklar qanchalik yaxshi tushuntirilmasin, olingan bilimlarni mustahkamlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilimni baholashda turli metodlardan foydalanish mumkin. Masalan, testlar yoki og'zaki savol-javoblar yordamida talabalar bilim darajasi tekshiriladi. Biroq bunday baholash usullari asosan talabalar mavzuga oid ma'lumotni qay darajada bilishini ko'rsatadi, ammo ularning egallagan bilimlarini amalda qo'llay olish yoki qo'llay olmaslik darajasini aniqlab bermaydi.

Talabalarning biror mavzu bo'yicha savodxonligini — ya'ni bilimni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini baholashning bir necha usullari mavjud. Bu usullar ichida muammoli ta'lim texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu texnologiyalarda asosiy e'tibor talabaning muammoni tahlil qilish va yechimini topish qobiliyatiga qaratiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari orasida “Keys-stadi” metodi alohida o'rin tutadi [6]. “Keys-stadi” (inglizcha: case – aniq vaziyat, hodisa; study – o'rganmoq, tahlil qilmoq) — bu aniq vaziyatlarni o'rganish va tahlil qilish orqali ta'limni amalga oshirishga qaratilgan metoddir. Ushbu metod dastlab 1921-yilda Garvard universitetida iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'qitishda real amaliy vaziyatlarni o'rganish asosida qo'llanilgan. Quyida “Elektromagnit to'lqinlar” mavzusiga oid keys misol tariqasida ko'rib chiqiladi.

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish. Aborning radiosi ishlamay qoldi. U fizika va elektrotexnika bo'yicha bilimga ega bo'lgani uchun radioni tuzatishga urinib ko'rdi. Avvalo, radio elektromagnit to'lqinni qabul qilishi va uzatishi uchun unda elektromagnit tebranish konturi mavjud bo'lishini bilganligi sababli, Abror aynan shu qismga e'tibor qaratdi. Tekshirish jarayonida u tebranish konturidagi kondensatorning bitta qoplamasini o'xshash bo'lmagan boshqasi bilan almashtirdi. Biroq shundan so'ng, Aborning radiosi faqat bitta radioto'lqinga sozlanadigan bo'lib qoldi.

2-bosqich: Muammoli vaziyatni aniqlashtirish va muammoli topshiriqni belgilash. Nima sababdan Aborning radiosi endi faqat bitta radioto'lqinni qabul qiladigan bo'lib qoldi? Kondensatorning almashtirilgan qoplamasi va ikkinchi qoplamasining tuzilishi, o'lchamlari hamda shaklini qayta ko'rib chiqish zarur.

3-bosqich: Muammoli topshiriq yechimini izlash va hal etish yo'llarini ishlab chiqish. Kondensator qoplamasini almashtirishda yo'l qo'yilgan xatolik shundaki, qoplama yuzasi o'zgarmay qolgan. Radioto'lqinlarning turini ko'paytirish uchun esa kondensator qoplamasi aylanish jarayonida yuzasini o'zgartira olishi kerak.

4-bosqich: Muammoli topshiriq yechimini shakllantirish va asoslash. Radioda mavjud tebranish konturi $\nu = \frac{1}{2\pi} \frac{1}{\sqrt{LC}}$ ifoda bilan aniqlanuvchi chastotadagi

radioto‘lqinlarni qayd qiladi. Radio keng diapazondagi to‘lqinlarga sozlanishi uchun esa, kondensator qoplamasi o‘zgarishi kerak. Abror kondensator qoplamasini almashtirish chog‘ida qoplamashaklining to‘g‘ri to‘rtburchak ekanligiga ahamiyat bermagan. Chunki tebranish konturidagi kondensatorning bir qoplami qo‘zg‘almas, ikkinchi qoplami esa aylanish imkoniyatiga ega. Aylanish jarayonida qoplamalarning elektr sig‘imini vujudga keltiruvchi yuzasi o‘zgarib turishi kerak. Abror esa doira shaklidagi qoplamani to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qoplama bilan almashtirgani bois, qoplama aylanganda ham yuzasi o‘zgarmadi. Natijada, kondensator faqat bitta chastotadagi to‘lqinni qayd etadigan bo‘lib qoldi.

Talabalarni darsda o‘rganilgan formulalarni yaxshiroq eslab qolishlari va amalda qo‘llashga o‘rganishlarida mavzuga doir masalalar yechish ham muhim hisoblanadi. Masalalar yechishni ham turli metodlar orqali amalga oshirish mumkin. Metodlar orasida zinama-zina metodi samarali ekanligi bilan ajralib turadi. Zinama-zina metodi (inglizchasi: step-by-step method) – bu murakkab fizik masalalarni ketma-ket kichik bosqichlarga ajratib, har bir qadamni alohida tahlil qilib, yechimga tizimli va mantiqiy tarzda erishish usulidir [6].

Zinama-zina metodining masala yechishdagi umumiy algoritmi:

1-bosqich. Masalani tahlil qilish. Masalada berilgan va topilishi kerak bo‘lgan qiymatlarni yozib olish, fizik holatni tushunish.

2-bosqich. Fizik model yaratish. Fizik qonunlar va formulalarni aniqlash, sxema yoki grafik chizish

3-bosqich. Bosqichma-bosqich yechim. Har bir bosqichda bitta fizik tamoyilni qo‘llash, oraliq natijalarni hisoblash.


4-bosqich. Natijani tekshirish. Javobni fizik mantiqqa muvofiqligini tekshirish va o‘lchov birliklarini ko‘rib chiqish.

Quyida biz elektromagnit to‘lqinlar mavzusiga oid fizik masalani zinama-zina metodi asosida yechishi ko‘ramiz (8-rasm).

Masala: Uyali telefon antenasining uzunligi to‘lqin uzunligining beshdan bir qismiga teng. Shu uyali telefon antenasining uzunligini 6,5 sm deb olib, ushbu telefonning ishchi chastotasini hisoblang [8].

8-rasm

Fizika masalani zinama-zina metodi asosida yechish



$$v = 9,23 \cdot 10^8 \text{ Hz}$$

$$v = \frac{c}{\lambda} = \frac{3 \cdot 10^8}{5 \cdot 0,325} \text{ Hz} = 9,23 \cdot 10^8 \text{ Hz}$$

$$[v] = \left[\frac{c}{\lambda} \right] = \frac{m/s}{m} = \frac{1}{s} = s^{-1} = \text{Hz}$$

$$\lambda = cT \Rightarrow T = \frac{1}{v} \Rightarrow \lambda = \frac{c}{v} \Rightarrow v = \frac{c}{\lambda}$$

Uyali telefon antenasining uzunligi to'liq uzunligining beshdan bir qismiga teng. Shu uyali telefon antenasining uzunligini 6,5 sm deb olib, ushbu telefonning ishchi chastotasini hisoblang.

Bu usulni qo'llashda masalalarni yechish tizimli amlaga oshiriladi va masala yechishning har bir bosqichiga ahamiyat beriladi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va turli metodlardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini sezilarli darajada takomillashtiradi hamda ularning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Xususan, dars davomida qo'llaniladigan blok-sxemalar, metodik ko'rsatmalar va vizual vositalar o'quvchilarda mavzuga qiziqishni kuchaytiradi, murakkab tushunchalarni esa sodda va tushunarli tarzda anglashlariga yordam beradi. Shu jihatdan, "Elektromagnit to'lqinlar" mavzusini turli metod va ko'rgazmali vositalar asosida o'qitish darsni nafaqat qiziqarli, balki samarali ham qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Турсунметов К.А., Холбоев Й.Х. Электр ва магнитизм: ўқув қўлланма. – Тошкент: Ма'рифат, 2024. – 400 б.
2. G'aniyev A.G. Elektromagnit to'lqinlar mavzusini o'tishda "Intellekt xarita" (Mind map) dan foydalanish // 3rd International Congress on Multidisciplinary Studies. – Samsun, Turkey, 2021. – P. 39-42.
3. Mamatkulova D.Sh. Elektromagnit to'lqinlarning umumiy xossalari // International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory. 2023. Vol. 1, No. 7. – P. 6-10.
4. Rahmanov V.T. Umumta'lim maktablarida Fizika fanining "Elektromagnit



- to'liqlarning xossalari" mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish va zamonaviy darslarni tashkil etishning samaradorligi // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. 2024. Vol. 1, Issue 2. – P. 226-232.
5. Soatova Sh.A., Yusupova G.O. Zamonaviy ta'limda grafik organayzerlarni o'rni va foydalanish usullari // International Scientific and Practical Conference: "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches". March 13, 2024. – P. 504-508.
 6. Begmatova D.A. va b. Fizika o'qitish metodikasi: darslik. – T. – B. 305-306.
 7. Бьюзен Т. Интеллект карты. – Москва: МАНН, Иванов и Фербер, 2019. – Гл. 1. Что такое интеллект-карта? – С. 25-55.
 8. Zaxidova M.A. Optika: darslik. – Toshkent: Innovatsion ziyo, 2025. – B. 41.



PEDAGOGIKA

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA UMUMTA'LIM MAKTAB V-VI SINF O'QUVCHILARIGA DARS MASHG'ULOTLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ORQALI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

AVLIYOQULOV ABDUG'AFUR ABDUG'ANIYEVISH

Termiz Davlat Universiteti

"Algebra va geometriya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Email: avliyoqulov2017@gmail.com

UDK: 373.1:168.521:37:02

Kalit so'zlar:

raqamli texnologiya,
ta'limda raqamli
texnologiya,
metodologiya,
integratsiya, ta'lim,
o'qitish, uzviylik,
integrativ yondashuv.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-VI sinflarida dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va o'qitish metodologiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda integrativ yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, uning o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, ularni ongiga singdirish hamda amaliy faoliyatga tatbiq etishdagi samarasi asoslab berilgan. Shuningdek, "raqamli texnologiya", "integratsiya", "integratsiyalashgan dars usuli", "integratsiyalashgan dars muammolari", "integrativ ta'lim g'oyasi", "integrativ yondashuv" va "integratsiya kursi" kabi tushunchalarga aniq ta'riflar keltirilgan. Maqola fanlararo integratsiya va raqamli vositalarni uyg'un qo'llash orqali o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va bilimlarni uzviy bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asosda ochib beradi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ УРОКОВ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ V-VI КЛАССОВ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Ключевые слова:

цифровые
технологии,
цифровые

Аннотация:

В данной статье освещены вопросы организации уроков на основе цифровых технологий и совершенствования методики обучения в V-VI классах общеобразовательных школ. В исследовании

технологии в образовании, методология, интеграция, образование, обучение, преемственность, интегративный подход.

проанализированы теоретические и практические аспекты интегративного подхода, обоснована его эффективность в укреплении знаний и умений учащихся, внедрении их в сознание и применении в практической деятельности. Также даются четкие определения таким понятиям, как “цифровые технологии”, “интеграция”, “интегрированный метод обучения”, “проблемы интегрированного обучения”, “идея интегративного обучения”, “интегративный подход” и “курс интеграции”. В статье на научной основе раскрываются возможности развития у учащихся навыков творчества, самостоятельного мышления и интеграции знаний посредством междисциплинарной интеграции и гармоничного использования цифровых инструментов.

IMPROVING LESSON TEACHING FOR STUDENTS OF V-VI CLASSES THROUGH AN INTEGRATIVE APPROACH USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Keywords:

digital technology, digital technology in education, methodology, integration, education, teaching, continuity, integrative approach.

Abstract:

This article highlights the issues of organizing lessons in grades V-VI of general education schools based on digital technologies and improving teaching methodology. The study analyzes the theoretical and practical aspects of the integrative approach and substantiates its effectiveness in strengthening students' knowledge and skills, instilling them in their consciousness, and applying them in practical activities. Also, clear definitions are given to such concepts as “digital technology”, “integration”, “integrated lesson method”, “problems of an integrated lesson”, “idea of integrative education”, “integrative approach”, and “integration course”. The article scientifically reveals the possibilities of developing students' creativity, independent thinking, and the ability to integrate knowledge through interdisciplinary integration and the harmonious use of digital tools.

KIRISH

“Har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi”

Sh. Mirziyoyev

Bugungi kunda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o‘zgarishlar maktabgacha hamda maktab ta’limi tizimini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish zaruratini kun tartibiga chiqarmoqda. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, axborot olish va undan samarali foydalanish jarayonining tezlashgani har bir sohaning zamon bilan hamqadam rivojlanishini taqozo etmoqda. Shu bois ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish bugungi kun ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, uzluksiz ta’lim, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim sohasida katta yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, umumta’lim maktablari V-VI sinflarida dars mashg‘ulotlarini takomillashtirish, ta’lim mazmunini yangilash va o‘quv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha olib borilgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shu qadar tez sur‘atlarda kirib kelmoqdaki, bugungi kundalik faoliyatimizni ham, umumta’lim maktablarining taraqqiyotini ham ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, umumta’lim tizimida yagona elektron platforma yaratilib, ma’lumotlarni kiritish, to‘plash, shakllantirish va tahlil qilishning zamonaviy metodikasi yo‘lga qo‘yildi. Bu esa ta’lim jarayonini boshqarish va nazorat qilishda sifat jihatdan yangi bosqichni ta’minlamoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha va maktab ta’limi tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda maktab ta’limi bilan qamrov darajasini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi PF-25-sonli “Raqamli texnologiyalar Xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi Farmonida ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar vositasida integratsiyalash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1, 2].

Ushbu vazifalardan biri sifatida umumta’lim maktablarining V-VI sinflarida dars mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar vositasida integrativ yondashuv asosida tashkil etish masalasi dolzarbdir. Bunday yondashuv nafaqat o‘quv jarayonini mazmunan boyitadi, balki o‘quvchilarning o‘quv fanlarini chuqur va puxta o‘zlashtirishiga zamin yaratadi. Xususan, integrativ o‘qitish metodlari yordamida

fanlararo bog‘liqlik mustahkamlanadi, o‘quvchilarda kompleks fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi va boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi.

Bu jarayon umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun qabul qilingan “Milliy o‘quv dasturi” talablariga ham to‘la mos keladi. Chunki ushbu dastur tayanch o‘rta ta‘lim bosqichidagi (V-IX sinflar) o‘quvchilarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va zarur kompetensiyalarni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Shu ma‘noda, umumta‘lim maktablarining V-VI sinflarida raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitishni integrativ yondashuv asosida tashkil etishning metodologiyasini ishlab chiqish – nafaqat ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil izlanishlari hamda boshqa fanlarga bo‘lgan intilishini kuchaytirishga xizmat qiladigan muhim ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishdir.

ASOSIY QISM

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining V-VI sinflarida dars mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida integrativ yondashuv orqali o‘qitish masalasi faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Shu bilan birga, ilmiy-metodik ishlarda mazkur yo‘nalishda qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, aynan V-VI sinf o‘quv mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalarni integrativ yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish hamda ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish kabi masalalar hanuz to‘liq yechimini topmagan.

Mazkur muammoni hal etishda dars mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar vositasida o‘qitishning metodologik asoslarini tahlil etish, takomillashtirish hamda tegishli ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish, avvalo, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, atrof-muhitni ilmiy asosda o‘rganishga yordam beradi. Integrativ yondashuv orqali bilim berish esa ularda zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirib, nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Natijada o‘quvchilar mantiqiy, algoritmik va abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, raqamli tafakkurni shakllantiradi, mustaqil fikr va xulosalarini asosli tarzda bayon etishga o‘rganadi.

V-VI sinflarda integrativ yondashuv asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki qat‘iyat, iroda va intizomga ham o‘rgatadi. Bu yondashuv ularni mulohaza yuritishga chorlab, tafakkurni kengaytiradi, voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini anglashga yordam

beradi. Shuningdek, ishlab chiqarish, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunishga zamin yaratadi.

Shu bois, V-VI sinf dars mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalar asosida integrativ yondashuvni metodologik jihatdan ishlab chiqish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jarayon ta'lim mazmunini yangilash, boyitish va modernizatsiya qilishga xizmat qiladi hamda o'quvchilarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, raqamli texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi va yosh avlodning o'zgaruvchan mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-VI sinflarida o'qitiladigan fanlardan mukammal bilimlar egallashni taqozo etmoqda.

Raqamli texnologiya – bu signallarni uzluksiz spektrda emas, balki diskret shaklda ifodalashga asoslangan texnologiyadir. Ta'lim jarayonida uning qo'llanilishi tobora kengayib, an'anaviy dars o'qitish usullarini samarali tarzda to'ldirmoqda. Avvallari dars mashg'ulotlari asosan ma'ruza, yirik hajmli adabiyot va o'quv qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Raqamli ta'lim – bu an'anaviy ta'limning zamonaviy texnologiyalar yordamida yangicha shaklda tashkil etilishidir. Integratsiya esa – ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish hodisasidir. V-VI sinflarda bilimlar qanchalik mustahkam berilsa, o'quvchilarning intellektual salohiyati va dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi. Shu bois raqamli texnologiyalar o'quvchilarda nazariy bilim, amaliy ko'nikma, mantiqiy fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarish, o'quv va biluv madaniyati hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish jarayonida multimedia vositalari, kodoskop, kompyuter, noutbuk va internetga ulangan elektron doskalar keng qo'llanilmoqda. Bu vositalar darsni sifatli tashkil etish, vaqtni samarali taqsimlash va o'quvchilarga qulaylik hamda keng imkoniyat yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida fanlararo integratsiyani amalga oshirish quyidagi yo'llar orqali ta'minlanadi:

- fanlarni o'rganish ketma-ketligi va izchilligini shunday tashkil etish kerakki, bir fan boshqa fanlarni o'zlashtirishga ko'maklashsin;
- umumiy tushuncha, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda yagona yondashuvni qo'llash.

Integratsiyalashgan dars usullari fanlararo aloqalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda umumiy bilimdonlik darajasini oshiradi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar vositasida o'qitishda integrativ yondashuv metodologiyasidan foydalanish o'quvchilarda fanlarning o'zaro bog'liqligini chuqur anglash, bilimlarni yaxlit qabul qilish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

“Ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongida tabiat va jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish hamda ularning atrof-muhitga munosabatini shakllantirishdan iboratdir” [2, 45]. “Integratsiya – bu kognitiv faoliyatning alohida turi bo‘lib, uning jarayonida bilimlarning yaxlitligi va tizimliliigi oshadi, shuningdek, ularning evristik funksiyasi kuchayadi” [3, 215]. Shu bois maktab o‘quvchilarining bilishga qiziqishini faollashtirish va kognitiv faolligini rivojlantirish uchun ta’limning faol shakllaridan keng foydalanish zarur.

Raqamli ta’lim – bu an’anaviy ta’limning zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan shaklidir. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali turli ta’limiy resurslardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Raqamli ta’lim an’anaviy jarayonning imkoniyatlarini kengaytirib, o‘quvchilarga yanada qulay va samarali ta’lim olish imkonini yaratadi. “Integrativ ta’lim g‘oyasi zamonaviy maktabning konseptual g‘oyalaridan biridir” [4, 9]. Shu sababli, o‘quvchilarning, xususan, matematika fanini o‘zlashtirishida integrativ yondashuv metodologiyasining konseptual asoslaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishda o‘quvchilarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bu jarayonda ularning ruhiy, jismoniy va aqliy imkoniyatlariga mos metodlardan foydalanish talab etiladi. Mavzularni raqamli texnologiyalar yordamida integratsiyalashgan holda tushuntirish o‘quvchilarda bilimlarni yaxlit qabul qilish, mavzuning mohiyatini chuqur anglash va boshqa fanlarga qiziqishni orttirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti yoshlarning intellektual salohiyati, bilimga chanqoqligi, zukkoligi va izlanuvchanligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan “integratsiya” atamasi lotincha “integratio” – tiklash, to‘ldirish va “integer” – butun so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ta’lim jarayonida bilimlarning yaxlitligini anglatadi.

Integratsiyalashgan darslarning asosiy muammosi – ikki yoki undan ortiq o‘qituvchilarning hamkorlikdagi faoliyati, materialni taqdim etish mazmuni va usullarini uyg'unlashtirish, o‘qitish ketma-ketligi hamda davomiyligini oqilona tashkil etishdir. Shu bois integratsiya kurslari fanlararo bilimlarni kengaytirish,

o‘quvchilarda integrativ bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Integratsiya asosida o‘qitishni quyidagi mezonlar asosida tasniflash mumkin:

- maqsad va muammolariga ko‘ra;
- qo‘shiluvchi fan tarmoqlari asosida;
- integratsiya usullari va yo‘llari bo‘yicha;
- o‘quv rejasidagi o‘rni asosida;
- fanni o‘rganishga sarflangan vaqt asosida;
- maktabning tabiiy-ilmiy tizimidagi vazifalari asosida;
- o‘quvchilar uchun qiyinlik darajasi bo‘yicha va boshqalar.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining V-VI sinflarida raqamli texnologiyalar vositasida o‘quv mashg‘ulotlarini integrativ yondashuv asosida tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta‘lim-tarbiya jarayonida tayanch kompetensiyalarni raqamli texnologiyalar mazmuniga oid umumiy kompetensiyalar bilan uyg‘un holda shakllantirish;
- fanlararo integratsiyani inobatga olgan holda ta‘lim mazmunini hayot va texnika taraqqiyoti bilan bog‘lash, o‘quvchilarda ongli kasb tanlashga yo‘naltirish orqali mustaqil va ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish.

Umumta‘lim maktablarida raqamli texnologiyalar asosida integrativ yondashuvdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quvchilarning olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, mavzuga oid qo‘shimcha bilimlar berish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Bu jarayonda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- amaliy mashg‘ulotlarga (misol va masalalar yechish) tayyorgarlik ko‘rish;
- nazariy bilimlarni (ta‘rif, aksiomalar, teorema, isbot) o‘zlashtirish;
- o‘tilgan mavzularni takrorlash;
- uy vazifalarini bajarish;
- mustaqil ishlar uchun mo‘ljallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash.

Mazkur jarayonlarda o‘quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash orqali mustahkamlaydi, o‘qituvchi esa bu faoliyatni uzluksiz nazorat qilib boradi. Dars davomida yechilgan masalalar va bajarilgan mashqlar uy vazifasi orqali yanada chuqurlashtiriladi, natijada o‘quvchilarning bilim darajasi oshadi.

Shu bilan birga, matematika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, masalalarni integratsiyalashgan holda yechishni tashkil etish, o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida mashqlarni bajartirish bilan birga, uy vazifasi sifatida o‘quvchilarga qo‘shimcha mashqlar, amaliy buyumlar



yoki shakllar yasab kelish topshirig‘i beriladi. Bu esa nafaqat bilimlarni puxta o‘zlashtirish, balki mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, integrativ ta‘lim jarayonida tarixiy materiallardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday yondashuv dars sifatini oshirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarga fanlarning rivojlanish tarixi haqida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Integratsion darslarning o‘ziga xos jihatlari oddiy darslardan quyidagilar bilan farqlanadi:

- o‘quv materialining aniqligi, ixchamligi va zichligi;
- darsning har bir bosqichida integratsiyalashayotgan fanlarning mantiqiy izchillikda yoritilishi;
- keng qamrovli va boy axborot berilishi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining V-VI sinflarida dars mashg‘ulotlarini raqamli texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan holda o‘tish o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda yangicha yondashuvni talab etadi. O‘qituvchi alternativ, o‘quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali dars jarayonida ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik va farqlarni topish kabi sifatlarni rivojlantiruvchi muhit yaratadi.

Integratsiyalashgan darslar yosh avlodda tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Umumta‘lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda dunyoga yaxlit, o‘zaro bog‘liq birlik sifatida qarashni, global muammolarni ko‘ra va anglay olish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Bunday yondashuvda o‘qitishning ilmiylik tamoyili ham yangicha mazmun kasb etadi.

Matematika fani integrativ ta‘limda asosiy o‘rin tutadi. Chunki u boshqa fanlar uchun tayanch bo‘lib, berilayotgan bilimlar takrorlanuvchi emas, balki to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi mazmunga ega bo‘ladi. Shu bois matematika o‘qitishning asosiy vazifasi – o‘quvchilarda mehnatga vijdonan munosabatni tarbiyalash, ta‘limning insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir insonning mehnat faoliyati va kundalik hayoti uchun zarur bo‘lgan matematik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Ulug‘ ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy ta‘kidlaganidek: “Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o‘rgating.” Bu hikmat ta‘limning har doim yangilanish va takomillashuvga muhtoj ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Shu sababli o‘qituvchi doimo darsning mazmuni va shaklini yangilash, usullarni xilma-xillikka boyitish ustida izlanishi lozim. Chunki bir xil qolipdagi darslar o‘quvchini zeriktiradi, bilimlarni samarali o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi.



Dars samaradorligini oshirish uchun notiqlik, suhbat, hikoya, yozma va mustaqil ishlar, zamon bilan bog‘liq misollar, mustaqil fikrlashga tayanish usullarini qo‘llash, shuningdek, integrativ metodlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Integratsiyalashgan darslar yosh avlodda tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zero, taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi bevosita fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Umumta‘lim maktablarida raqamli texnologiyalar vositasida integrativ yondashuv asosida dars mashg‘ulotlarini tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Bunda proyektor, elektron doska, stend, flipchart va smart-doskalar kabi texnik vositalardan samarali foydalanish ta‘lim jarayonining sifatini yuksaltiradi.

Umumta‘lim maktablarida beriladigan bilim qanchalik mustahkam va tizimli bo‘lsa, o‘quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati ham shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Shu bois integrativ yondashuvni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bugungi ta‘lim jarayonida muhim strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli texnologiyalar Xalqaro markazini tashkil etish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-25-sonli Farmoni. – Toshkent, 2024,1-fevral.
2. Mirzahmedova, N. D. Raqamli texnologiyalarining ta‘lim sohasida qo‘llanilishi // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. 2022. – B. 538-541.
3. Avliyoqulov, A. Umumta‘lim maktablarida matematikani o‘qitish metodologiyasi va fanlararo aloqasining konseptual asoslari // *Xalq ta‘limi. Ilmiy-metodik jurnal*. – Toshkent, 2022. №6. – B. 79-82.

PEDAGOGIKA

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASH BO‘YICHA NAZARIY-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

RAHMONOVA MAVLUDA SUVON QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida stajyor o‘qituvchisi

Email: mavludaraxmonova7@gmail.com

UDK: 37.015.3

Kalit so‘zlar:

mantiqiy fikrlash,
boshlang‘ich ta‘lim,
pedagogik
yondashuv,
tafakkur
kompetensiyasi,
innovatsion
metodlar, interfaol
texnologiyalar.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga oid nazariy-pedagogik yondashuvlar har tomonlama tahlil qilinadi. Maqolada mantiqiy tafakkur tushunchasining ilmiy izohi, mazmuni va o‘quv-tarbiyaviy jarayondagi o‘rni yoritiladi. Boshlang‘ich ta‘limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari, metodlari, didaktik vositalari va samarali sharoitlari aniqlanadi. Tadqiqot doirasida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish integratsiyalashgan pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va zamonaviy axborot vositalari orqali tashkil etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Ключевые слова:

логическое
мышление,

Аннотация:

В данной статье всесторонне анализируются теоретико-педагогические подходы к формированию компетенции логического мышления будущих учителей

начальное образование, педагогический подход, мыслительная компетенция, инновационные методы, интерактивные технологии.

начальных классов. В статье освещается научное объяснение, содержание и роль понятия логического мышления в учебно-воспитательном процессе. Определяются психолого-педагогические основы, методы, дидактические средства и эффективные условия развития логического мышления в начальном образовании. В рамках исследования рассматриваются возможности организации развития логического мышления в профессиональной подготовке учителей посредством интегрированных педагогических технологий, интерактивных методов и современных информационных средств. Также даются рекомендации, направленные на формирование у учащихся аналитического мышления, умения делать логические выводы и решать проблемные ситуации. Результаты исследования служат повышению качества начального образования и укреплению интеллектуального потенциала учащихся.

THEORETICAL AND PEDAGOGICAL APPROACHES TO LOGICAL THINKING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Keywords: logical thinking, primary education, pedagogical approach, thinking competence, innovative methods, interactive technologies.

Abstract: This article comprehensively analyzes the theoretical and pedagogical approaches to the formation of the competence of logical thinking of future primary school teachers. The article highlights the scientific explanation, content, and role of the concept of logical thinking in the educational process. The psychological and pedagogical foundations, methods, didactic tools, and effective conditions for the development of logical thinking in primary education are determined. Within the framework of the study, the possibilities of organizing the development of logical thinking in the professional training of teachers through integrated pedagogical technologies, interactive methods, and modern information tools are considered. Recommendations are also given aimed at developing students' ability to think analytically, draw logical conclusions, and solve problem

situations. The research results serve to improve the quality of primary education and strengthen the intellectual potential of students.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi, avvalo, uning o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning intellektual rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi, shuning uchun bu davrda o'quvchilarning tafakkur jarayonini ilmiy asosda yo'naltirish, tahliliy va xulosaviy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi nafaqat o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi, balki keyingi ta'lim bosqichlarida bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil qarorlar qabul qilish va murakkab vaziyatlarda yo'l topish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mantiqiy tafakkur inson ongining asosiy kognitiv jarayonlaridan biri bo'lib, u voqealik hodisalarini tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Pedagogik nuqtai nazardan, mantiqiy fikrlash o'quvchining mustaqil o'qish faoliyatida, muammoli vaziyatlarni hal etishda va yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlov jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlari talab etiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy pedagog olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Masalan, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarda mantiqiy operatsiyalar bosqichma-bosqich shakllanishini asoslab bergan bo'lsa, L. S. Vygotskiy o'zining madaniy-tarixiy konsepsiyasida tafakkur rivojida ijtimoiy muhit va o'zaro muloqotning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Mahalliy olimlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida mantiqiy tafakkur metodlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida bir nechta asosiy omillar muhim ahamiyatga ega: ta'lim mazmunining tizimlilik, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarga asoslangan o'qitish va o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag'batlantirish. Shu munosabat bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarlik jarayoniga maxsus metodik yondashuvlarni joriy etish, ularning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.



Mantiqiy tafakkurni shakllantirish faqatgina matematika yoki mantiq fanlariga xos jarayon bo'lib qolmay, balki barcha fanlarni o'qitish jarayonida integratsiyalashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, ona tili darslarida matn tahlili, o'qilgan asar bo'yicha savol-javoblar, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, tabiatshunoslik darslarida hodisalarni kuzatish va tahlil qilish orqali ham mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Bu integratsion yondashuv o'quvchilarda umumiy tafakkur tizimini shakllantirishga yordam beradi. Bugungi globallashuv sharoitida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi xalqaro ta'lim standartlari, xususan, PISA (Programme for International Student Assessment) baholash mezonlari bilan ham bevosita bog'liq. PISA tadqiqotlari o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini o'lchaydi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarlik jarayonida PISA talablariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarbdir.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha mavjud ilmiy konsepsiyalar tahlil qilinadi, pedagogik jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metod va strategiyalar tizimlashtiriladi. Amaliy ahamiyati esa shundaki, ishlab chiqilgan tavsiyalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorgarligi jarayoniga joriy etilishi orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish masalasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'shish bilan yanada samarali bo'lishi mumkin. Multimedia vositalari, interaktiv platformalar, virtual laboratoriyalar, onlayn test tizimlari o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va mantiqiy operatsiyalarni tezroq shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogning metodik mahorati, dars jarayonini tashkil etishdagi kreativ yondashuvi ham bu jarayonda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shu asosda aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash bo'yicha nazariy va amaliy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy ta'limning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tadqiqot mazkur masalaning ilmiy asoslarini ochib berish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish va ta'lim amaliyotiga samarali integratsiya qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLARNING TAHLILI

Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, ularning ishlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi uchun muhim

nazariy va metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning tafakkur jarayoni bosqichma-bosqich murakkablashishini ilmiy asoslab beradi. Uning ta’kidlashicha, 7-11 yosh oralig‘i – konkret operatsiyalar bosqichi – mantiqiy fikrlashning faol shakllanish davri hisoblanadi va boshlang‘ich ta’lim mazmuni aynan shu bosqichga moslashtirilishi lozim [1, 45-68]. L.S. Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy konsepsiyasida “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini kiritib, o‘quvchilarning yuqori darajadagi intellektual faoliyati hamkorlik va muloqot orqali shakllanishini asoslab bergan [2, 112-130]. A.A. Leontyev esa tafakkur faoliyatining psixologik mexanizmlarini ochib berib, mantiqiy fikrlashni o‘qituvchi tomonidan ongli tashkil etiladigan kognitiv faoliyat sifatida izohlaydi [3, 79-92].

R. Paul va L. Elder tomonidan ishlab chiqilgan intellektual standartlar konsepsiyasi mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda dalillarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va fikrni asoslash jarayoniga alohida e’tibor qaratadi [4, 25-39]. P. Polya “How to Solve It” asarida muammoli vaziyatlarni hal etishning to‘rt bosqichli modelini taklif etib, uni boshlang‘ich ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali metodlaridan biri sifatida ko‘rsatadi [5, 14-33]. D. Halpern esa tanqidiy va mantiqiy tafakkurni shakllantirishda mashqlar tizimi, argumentatsiya tahlili hamda qaror qabul qilish strategiyalarini o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni samarali deb hisoblaydi [6, 88-107].

O‘zbekistonlik olimlar ham mazkur sohada qator izlanishlar olib borganlar. Jumladan, R. Nishonov boshlang‘ich sinf matematika ta’limida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqib, bunda mantiqiy masalalar, qiziqarli topshiriqlar va o‘yin elementlaridan foydalanishning ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan [7, 56-74]. M. Yusupov o‘quvchilarning mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha dars ishlanmalari va metodik tavsiyalar yaratgan [8, 99-118]. N.N. Azizxo‘jayeva esa pedagogik texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlarida interfaol metodlardan foydalanish mantiqiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil ekanini asoslab beradi [9, 140-152].

Shuningdek, T. Hudoqov ona tili darslarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rgangan bo‘lib, bunda matn tahlili, savol-javob, qiyoslash va sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash mashqlari muhimligini ta’kidlaydi [10, 62-79]. A. Khutorskoy umumiy ta’limda mantiqiy tafakkur kompetensiyasini universal o‘quv faoliyatlaridan biri sifatida talqin qilib, fanlararo integratsiyaning ahamiyatini asoslaydi [11, 201-219]. J. Dewey tajribaviy pedagogika konsepsiyasida mantiqiy tafakkurni “reflektiv fikrlash” jarayoni sifatida sharhlab, o‘quvchilarni savol berishga, kuzatishga va tajriba orqali xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi metodlarni taklif qiladi



[12, 87-104]. S. Brookfield esa o'qituvchilarda ham tanqidiy–mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun refleksiv amaliyot va o'z faoliyatini tahlil qilish usullarini samarali deb hisoblaydi [13, 65-82].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ilmiy qarashlar uch asosiy yo'nalishda shakllangan:

– Psixologik-nazariy asoslar – bolalar tafakkurining rivojlanish bosqichlari, mexanizmlari va ijtimoiy omillarini tahlil qiladi.

– Metodik-pedagogik yondashuvlar – dars jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirishning samarali vositalari, mashqlar tizimi va o'yinli metodlarni ishlab chiqadi.

– Amaliy-integrativ yondashuvlar – fanlararo bog'liqlik, refleksiv amaliyot hamda o'qituvchi va o'quvchi tafakkurini parallel rivojlantirish imkoniyatlarini belgilaydi.

Demak, ushbu yondashuvlar uyg'un qo'llanilganda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali shakllantirish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratildi. Ilmiy izlanish jarayonida tizimli yondashuv asos qilib olindi, ya'ni pedagogika, psixologiya va didaktika fanlarining ilg'or nazariy konsepsiyalari hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari integratsiyasiga oid ilmiy ishlanmalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, vositalar va pedagogik shart-sharoitlar aniqlanib, amaliy tajriba asosida samaradorligi yuqori bo'lgan yondashuvlar ajratib olindi. Bu jarayonda nazariy tahlil va umumlashtirish, diagnostika va monitoring, eksperimental-sinov ishlari, pedagogik kuzatish hamda o'quv faoliyatini tahlil qilish kabi kompleks metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Nazariy bosqichda mahalliy va xorijiy manbalardagi konsepsiyalar, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish modellari hamda ularni boshlang'ich ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganildi. Eksperimental-sinov ishlari jarayonida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik materiallar sinovdan o'tkazilib, ularning amaliy samaradorligi baholandi va takomillashtirildi.

Kuzatish va monitoring orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasidagi o'zgarishlar, topshiriqlarni bajarishdagi kognitiv faolliklari hamda muammoli vaziyatlarga yondashuvlari aniqlab borildi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy

jihatdan tahlil qilinish, ilmiy asoslash uchun statistik ishlov berildi.

Metodlarning tanlanishi tadqiqot obyekti bo‘lgan jarayonning murakkabligi, ko‘p omilliligi va integrativ xarakteridan kelib chiqib belgilandi. Shu tariqa, olib borilgan izlanishlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish jarayonini kompleks va tizimli o‘rganish hamda ta‘lim amaliyotiga samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga oid mavjud ilmiy yondashuvlar, amaliy tajribalar hamda metodik ishlanmalar tizimli ravishda o‘rganildi va tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ko‘p omilli bo‘lib, uning samaradorligi bir necha pedagogik va psixologik shart-sharoitlarga chambarchas bog‘liq. Jumladan:

- o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va kasbiy kompetensiyasi;
- dars jarayonini tashkil etishning shakl va uslublari;
- o‘quvchilarning motivatsiyasi va bilishga bo‘lgan qiziqishi;
- ta‘lim mazmunida fanlararo integratsiya darajasi.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar, interfaol metodlardan foydalanish va o‘yinli yondashuvlar yuqori samaradorlik beradi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini aniqlash, mavjud muammoni hal qilish uchun turli variantlarni solishtirish va eng maqbulini tanlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, xorijiy tajribada darslarda mantiqiy o‘yinlar, intellektual musobaqalar va tahliliy topshiriqlardan keng foydalanish orqali o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini faollashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Mahalliy amaliyotda esa ko‘proq an’anaviy metodlardan foydalanilishi kuzatildi. Natijada o‘quvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish hamda muammoli vaziyatlarga yangicha yondashish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmayotgani aniqlandi. Bu esa ta‘lim jarayonida yangicha metodik yondashuvlarni tatbiq etish zaruratini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Tadqiqot doirasida tashkil etilgan eksperimental-sinov ishlari amaliy natijalari bilan ham buni tasdiqladi. Xususan, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq bo‘lib chiqdi. Tajriba jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy operatsiyalarni bajarish tezligi va aniqligi oshgani, murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sezilarli



darajada yaxshilangani kuzatildi.

Shuningdek, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini turli kontekstlarda qo'llash malakasini shakllantirdi. Masalan, matematika, ona tili va tabiiy fanlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni ochib berish orqali o'quvchilarda bilimlarning yaxlit tasavvurini hosil qilish, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini mustahkamlash mumkinligi isbotlandi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun dars jarayoniga muammoli vazifalar, tahliliy mashqlar, sabab–oqibat bog'lanishlarini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar, mantiqiy o'yinlar, shuningdek kreativ fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlarni integratsiya qilish muhimdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari taklif etilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini yaqqol isbotladi. Ular bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida mantiqiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga va zamonaviy ta'limning innovatsion talablariga moslashgan holda fikrlovchi shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish faqat nazariy bilim bilan cheklanmaydi. Asosiy natija shundaki, metodik yondashuvlar amaliy mashqlar bilan uyg'unlashgandagina samaradorlik yuzaga keladi. Tajribalarim davomida shuni yaqqol angladimki, interfaol metodlar, muammoli topshiriqlar va fanlararo integratsiya o'quvchilarning tafakkurini faol harakatga keltiradi. Oddiy an'anaviy yondashuv yetarli emas, chunki o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o'rgatish zarur. Shuning uchun ham ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni nafaqat samarali, balki amaliyotga joriy qilish uchun zarur deb hisoblayman.

O'quv dasturlariga muammoli topshiriqlarni kengroq kiritish zarur: har bir darsda o'quvchilarni sabab-oqibatni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi mashqlar bo'lishi kerak. Fanlararo integratsiyani kuchaytirish zarur: matematika, ona tili va tabiiy fanlar o'rtasida mantiqiy bog'lanishlarni ochib beruvchi mashg'ulotlar muntazam o'tkazilishi kerak. Interfaol metodlar va o'yinli yondashuvlardan foydalanish zarur: intellektual musobaqalar, mantiqiy o'yinlar va

ijodiy topshiriqlar darsning ajralmas qismiga aylanishi lozim. O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish zarur: stajyor va amaldagi o'qituvchilar uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'yicha maxsus seminar-treninglar yo'lga qo'yilishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur: onlayn testlar, interaktiv platformalar va multimedia vositalari yordamida o'quvchilarda tez va chuqur tahlil qilish malakasi mustahkamlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Piaget J. The Child's Conception of the World. – New York: Harcourt, Brace & Co., 1929. – P. 246.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. С. 352.
3. Леонтьев А. А. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2005. – С. 352.
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – New Jersey: Prentice Hall, 2001. – P. 480.
5. Polya G. How to Solve It. – Princeton: Princeton University Press, 1945. – P. 253.
6. Halpern D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014. – P. 608.
7. Нишонов Р. Бошланғич синфларда мантикий масалаларни ечиш методикаси. – Тошкент.: Ўқитувчи, 2010. – Б. 176.
8. Юсупов М. Бошланғич таълимда мантикий хулоса чиқариш кўникмаларини ривожлантириш. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2015. – Б. 154.
9. Азизхўжаева Н. Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Тошкент.: Fan, 2006. – Б. 160.
10. Худоқов Т. Она тили дарсларида мантикий фикрлашни ривожлантириш методлари. – Тошкент.: Ўзбекистон Миллий университети нашриёти, 2012. – Б. 148.
11. Хуторской А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – М.: Народное образование, 2003. – С. 216.
12. Dewey J. How We Think. – Boston: D. C. Heath & Co., 1910. – P. 224.
13. Brookfield S. D. The Skillful Teacher: On Technique, Trust, and Responsiveness in the Classroom. – San Francisco: Jossey-Bass, 2015. – P. 336.

PEDAGOGIKA

LOYIHALASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI ARALASH SHAKLDA (BLENDED LEARNING) TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

AXMEDOVA NODIMA IZZATULLO QIZI

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

"Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi 2 kurs tayanch doktoranti

E-mail: nodimaaxmedova7@gmail.com

UDK: 303.433.2

<https://orcid.org/0009-0000-6429-531X>

Kalit so'zlar:

loyihalashtirish,
texnologiya, aralash
ta'lim shakli,
masofaviy ta'lim,
mustaqil ta'lim,
tamoyillar, bilim,
ko'nikma, individual,
jahon pedagogikasi,
muammoli metod.

Annotatsiya:

Ma'lumki, hozirgi kunda fan va texnologiya jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu bir tomondan har bir soha uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda, boshqa tomondan esa ayrim muammolarga ham sabab bo'lmoqda. Xususan, ta'lim sohasida ma'lumotni tez va oson topish, masofaviy ta'lim olish kabi yengilliklar yuzaga kelmoqda. Biroq bu holat ba'zan talabalarni passiv ta'lim iste'molchisiga aylantirib qo'ymoqda. Talabalarning mustaqil ta'limni masofadan tashkil etishi va unga mas'uliyatsiz yondashuvi ushbu sohada bir qator islohotlarni amalga oshirish zaruratini tug'dirmoqda. Ushbu maqolada ana shunday muammolar atroflicha yoritilib, ularning yechimi bo'yicha qator tavsiyalar beriladi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В СМЕШАННОМ ФОРМАТЕ (BLENDED LEARNING) С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОЕКТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Ключевые слова:

проектирование,
технология,
смешанная форма
обучения,
дистанционное
обучение,

Аннотация: Как известно, в настоящее время наука и технологии развиваются быстрыми темпами. Это, с одной стороны, создает благоприятные возможности для каждой сферы, а с другой - вызывает определенные проблемы. В частности, в сфере образования появляются такие удобства, как быстрый и легкий доступ к информации, дистанционное обучение. Однако эта ситуация иногда

самостоятельное превращает студентов в пассивных потребителей обучения, образования. Дистанционная организация принципов, самостоятельного обучения студентов и знания, навыки, безответственный подход к нему создают необходимость индивидуальный, проведения ряда реформ в этой области. В данной статье мировая педагогика, подробно освещаются такие проблемы и дается ряд проблемный метод. рекомендаций по их решению.

IMPROVING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING IN A BLENDED FORMAT USING PROJECT-BASED TECHNOLOGIES AS A PRESSING ISSUE

Keywords:

design, technology, blended learning form, distance learning, independent learning, principles, knowledge, skills, individual, world pedagogy, problem-based method.

Abstract:

As is known, today science and technology are developing at a rapid pace. This, on the one hand, creates favorable opportunities for each sphere, and on the other hand, causes some problems. In particular, in the field of education, conveniences such as quick and easy access to information and distance learning are emerging. However, this situation sometimes turns students into passive consumers of education. The organization of students' independent learning remotely and their irresponsible approach to it creates the need to implement a number of reforms in this area. This article thoroughly covers such problems and provides several recommendations for their solution.

KIRISH

Zamonaviy fan va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda yuz berayotgan innovatsion o'zgarishlar barcha sohalarda, ayniqsa, ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu borada 2019-yil 8-oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish va uni takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida belgilab o'tilgan [7, 1].

Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim, asosan, masofaviy shaklda yo'lga qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida, talabalarning o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning tayyor ma'lumotlardan (xususan, internet tarmoqlaridagi, jumladan, ChatGPT kabi sun'iy intellekt tizimlaridan) foydalanishga ortiqcha tayanishi, ko'chirmakashlik holatlarining ko'payishi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvning sustlashuvi kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish, ta'lim jarayonida talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishda loyihalashtirish texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda aralash ta'lim (blended learning) modeli joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar talabalarni faollikka undab, ularning mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantirishda va chuqur bilim olishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Loyihalashtirish texnologiyasi haqida so'z yuritganda, avvalo uning shakllanish va rivojlanish tarixiga e'tibor qaratish lozim. "Loyiha" atamasi Yevropa tillaridan kirib kelgan bo'lib, "oldinga tashlangan" yoki "ko'zga tashlangan" degan ma'nolarni anglatadi. XX asr boshlarida amerikalik mashhur pedagog va faylasuf J. Dyui hamda uning shogirdi, Kolumbiya universiteti professori U. Kilpatrik tomonidan loyiha usuli ishlab chiqildi [18, 83]. Mazkur usul jahon pedagogikasida muammoli ta'lim metodlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

J. Dyui fikricha, o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun talabalarning bilim olishdagi shaxsiy qiziqishlari va amaliy faoliyatini inobatga olish zarur. Uning ta'kidlashicha, ta'lim jarayoni talabaning faol, maqsadga yo'naltirilgan harakatlariga asoslanishi lozim, shundagina o'quv samaradorligi oshadi [17, 663].

Shu davrda Rossiyada ham loyiha usuliga qiziqish kuchaydi. Xususan, S.T. Shatskiy, V.N. Shulgin, M.V. Krupenina va B.V. Ignatyevlar mazkur yondashuvni ta'lim amaliyotiga tadbiq etishga intildilar. Ularning fikricha, o'quv jarayoni talabalarning mehnati va hayotiy faoliyati bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilgandagina haqiqiy natija beradi [16, 40]. Bugungi kunda loyiha usuli nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham keng qo'llanilmoqda. U o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, talabalar mustaqil ta'limini loyiha usulidan foydalangan holda aralash ta'lim shaklida tashkil etish samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Loyihalashtirish texnologiyasi asosida tarix yo'nalishi talabalarining chet tilidan mustaqil ta'limini takomillashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1 rasm

Loyihaviy o'qitish tamoyillari



1. *Kasbiy-vaziyatga yo'naltirilganlik tamoyili* – bu tamoyil talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati davomida chet tilini va kasbiy bilimlarni egallash jarayonida kasbiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilganligini anglatadi. Talabalarga odatiy va ular uchun dolzarb bo'lgan muloqot holatlari tanlanadi, bu esa ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi.

2. *Muammoni hal qilish tamoyili* – loyiha jarayonini turli darajadagi murakkablikka ega bo'lgan kommunikativ va kasbiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida talqin etadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda muammolarni aniqlash, ularni hal etish yo'llarini ilgari surish, farazlarga asosli dalillar keltirish va xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

3. *Interaktivlik tamoyili* – talabalarning kichik guruhlarda faol o'zaro hamkorligini, shuningdek, guruhlar va o'qituvchi o'rtasidagi interaktiv munosabatlarni nazarda tutadi. O'zaro ta'sir jarayonida rollar va majburiyatlar guruh a'zolari o'rtasida umumiy muammoni hal etishga yo'naltirilgan holda taqsimlanadi. Chet til darslarida bu kabi faoliyat professional muloqot muhiti yaratilishini, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar almashinuvi orqali o'zaro ta'sir ko'nikmalari va qobiliyatlarining rivojlanishini ta'minlaydi.

4. *Hamkorlik tamoyili* – loyiha ustida ishlash jarayonida o'qituvchining rolini bosqichma-bosqich o'zgartirishni nazarda tutadi. Ya'ni, o'qituvchi dastlab yetakchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatida ishtirok etadi, keyinchalik esa talabalar mustaqilligi

ortgani sari u maslahat beruvchi va yordamchi funksiyasini bajaradi.

5. *Pragmatik va ijtimoiy maqsadga muvofiqlik tamoyili* – loyiha topshiriqlarining ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotni yaratishga, shuningdek, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligini bildiradi. Bu orqali talabalarning ta‘limiy faoliyati real hayotdagi ehtiyojlarga xizmat qiluvchi amaliy yo‘nalish kasb etadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR


Yuqorida bayon etilgan tamoyillarga asoslangan holda, talabalar mustaqil ta‘limini ikki xil shaklda – masofaviy va aralash shakllarda loyihalashtirdik.

Masofaviy shaklda tashkil etilgan mustaqil ta‘lim jarayonida talabalarga vazifalar onlayn platformalar orqali taqdim etildi. Biroq, natijalar kutilgan darajada samarali bo‘lmadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalar taqdim etilgan topshiriqlarni bajarishda deyarli 100 foiz holatda sun‘iy intellekt (jumladan, ChatGPT) xizmatlaridan foydalanishgan. Bu esa ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada chekladi.

Aksincha, aralash shaklda – ya‘ni, an‘anaviy va raqamli ta‘lim elementlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etilgan mustaqil ta‘lim davomida talabalar ancha faol ishtirok etdilar. Ushbu shaklda talabalarning topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘z fikrlarini mustaqil bayon etishlari, guruhlarda ishlashlari, fikr almashishlari va real muloqotda ishtirok etishlari kuzatildi. Bu esa ularning chet tilini o‘rganishdagi motivatsiyasi oshishiga, shuningdek, amaliy va kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi. Quyidagi chizmada masofaviy va aralash shakllarda tashkil etilgan mustaqil ta‘lim natijalari qiyosiy tarzda aks ettirilgan (2-rasmga qarang).

2 rasm

Aralash va masofaviy ta‘lim shakli



*1 jadval**Masofaviy va aralash shaklda o'tkazilgan tajriba sinov natijalari*

	Masofaviy	Aralash
Gapirish	-	+
Tinglash	-	+
Yozish	-	+
O'qish	-	+
Tanqidiy fikrlash	-	+
Yaratuvchanlik	-	+
Hamkorlik	-	+
Individuallik	+	+
Vazifalarni bajarish	100% to'g'ri va to'liq	85% to'g'ri va 95% to'liq

Ushbu jadval tahliliga ko'ra, talabalarning masofaviy shaklda bajarilgan vazifalari natijaviy jihatdan 100% to'liq va to'g'ri bo'lsada, vazifalarni bajarish jarayonida ko'chirmakashlikka keng yo'l qo'yilganini ko'rish mumkin. Bu esa masofaviy ta'limda nazorat mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligidan dalolat beradi. Shuningdek, masofaviy shakldagi mustaqil ta'lim talabalar uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilmadi, balki ko'proq nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan chegaralanib qoldi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, aralash shaklda tashkil etilgan mustaqil ta'lim jarayonida vazifalarning to'liqligi va to'g'riligi masofaviy shaklga nisbatan pastroq bo'lsa-da, talabalar mustaqil izlanishga, muloqotga kirishishga va zarur ko'nikmalarni shakllantirishga kengroq imkoniyat topdilar. Ayniqsa, auditoriya mashg'ulotlari bilan integratsiyalangan mustaqil ta'lim mashqlari talabalarda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida o'zini namoyon etdi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, talabalarning mustaqil ta'limini faqat masofaviy shaklda tashkil etish yetarli natija bermaydi. Chunki bu jarayonda vazifalar to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa-da, ko'chirmakashlik holatlari uchraydi hamda zarur ko'nikmalarni shakllantirish samaradorligi past bo'ladi. Shu bois, talabalarning

mustaqil ta'limini masofaviy shakldan aralash shaklga o'tkazish samarali yechim hisoblanadi.

Aralash shaklda tashkil etilgan ta'lim, ya'ni auditoriya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashgan mustaqil topshiriqlar, talabalarda nazariy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, amaliy mashqlar orqali esa ularni real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, auditoriyada mustaqil ta'lim uchun maxsus soatlar ajratish talabalarga o'qituvchi ko'magida o'z bilimlarini tekshirish, muloqot va muhokama orqali chuqurlashtirish imkonini yaratadi.

Shuningdek, aralash shakldagi mustaqil ta'lim chet tili bo'yicha kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon talabalarni mustaqil izlanishga, mas'uliyatni his qilishga, shuningdek, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, masofaviy ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish bilan birga, uni auditoriya mashg'ulotlari bilan uyg'unlashtirish talabalarning mustaqil ta'limini takomillashtirishning eng maqbul yo'llaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-sonli farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Axmedova, N. Using authentic materials on developing students' lexical competence: Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.
3. Kudaybergenova, B.K., Abdiniyazova, S.Z. Zamonaviy ta'limda loyiha metodining ahamiyati // Topical Issue of Science: International Scientific and Practical Conference "Actual issues of sciences". – New York, 2021-2022. – B. 368.
4. Buck, L., Buck, B. PBL overview introduction: pros and cons of project based learning. Buck Institute for Education Study. <http://www.bie.org/pbl/overview/intro>.
5. Zakirov, D. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etishning yangi usullarini yaratish // Academic Research in Educational Sciences. 2022, T. 5, №2. – B. 1383.
6. Edutopia. George Lukas Educational Foundation. Project-based learning. <https://www.edutopia.org/video/introduction-project-based-learning/>
7. Shirinova, F.A. Masofaviy ta'lim vositasida tibbiyot-farmasevtika yo'nalishi talabalarining mustaqil o'quv-biluv faoliyatini loyihalashtirish: Dissertatsiya. –



- Toshkent, 2022. – B. 15-16.
8. Issa, H.B., Khataibeh, A. The effect of using project based learning on improving the critical thinking among upper basic students from teachers' perspectives // Pegem Journal of Education and Instruction. – 2021, 11(2). – B. 52-57.
 9. Lothridge, K. et al. Blended learning: efficient, timely, and cost effective // Journal of Forensic Sciences. 2013, 45(4). – B. 407-416.
 10. Adizova, N.I. Mustaqil ta'lim: Ko'rsatmalar. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023.
 11. Mamadjanova, N.A., Akhmedova, N.I. Innovative approaches in organizing students' independent learning in a foreign language // Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences: International scientific online conference. – 2025. – B. 145-148. ISBN 978-955-36-05-86-04.
 12. Meliquziyeva, M. Formation a culture of independent thinking the educational process // Science and Innovations: Materials of the international scientific conference. – Prague, 2015. №7. – P. 312.
 13. Penuel, W., Means, B. Observing classroom processes in project-based learning using multimedia: a tool for evaluators. The Secretary's Conference on Educational Technology. 1999.
<http://www.ed.gov/Technology/techConf/199/whitepapers/paper3.html>
 14. Allamova, Sh.Sh. Mixture education models and possibilities // Foreign Languages in Uzbekistan: International scientific-methodological electronic journal. 2022, 6 (47). – B. 100-117. <https://journal.fledu.uz>
 15. Xusainov, R.R. Oliy ta'limda fanlarni o'qitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016, №4. – B. 25.
 16. Xudoyberdiyeva, X. Ta'limda innovatsion yondashuvlar: O'quv-metodik majmua. – Samarqand: Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi, 2018. – B. 40.
 17. Yusupova, M. Loyiha texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishining ijobiy tomonlari // Academic Research in Educational Sciences. – B. 663.
 18. Землинская, Т.Е. Формирование самообразовательной компетентности студентов технических вузов на основе проектной технологии (на материале обучения иностранному языку): Диссертация ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – С. 83.



PEDAGOGIKA

TALABALARDA HAMKORLIKDA ISHLASH KO'NIKMALARINI O'QUV TOPSHIRIQLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

HAZRATQULOVA OZODA ABDUG'ANIYEVNA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Ingliz filologiyasi” kafedrası v/b dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: ohazratqulova36@gmail.com

Tel.: +998 99 688-13-03

UDK: 378.147:37.018.43

<https://orcid.org/0009-0002-9070-8477>

Kalit so'zlar:

o'quv topshiriqlar, zamonaviy ta'lim, shaxsiy kasbiy o'sish, “collaboration”, kasbiy kompetensiya.

Annotatsiya:

Zamonaviy dunyoda bilimlarning tezkor yangilanishi “bilimlarni o'rganish” tushunchasining chegaralanishiga olib kelmoqda. Mustaqil bilim olish ko'nikmasiga ega bo'lmagan talaba hayotga tayyor mutaxassis sifatida qaralishi mumkin emas. Axborot manbalari va ma'lumot omborlarining ko'pligi xotirani ortiqcha bilimlar bilan to'ldirish zaruratini kamaytiradi, shu bois talabalarni mavjud resurslardan samarali foydalanishga o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shaxs mustaqilligi va sub'ektivligi ta'lim jarayonida umumiy madaniy poydevorni mustahkamlash, muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda voqelikni oqilona, axloqiy va maqsadga muvofiq o'zgartirish uchun shaxsiy salohiyatni safarbar etishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ijodiy fikrlaydigan, dizayn va konstruktiv tajribaga ega, ma'naviy jihatdan yetuk, tashabbuskor hamda mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislar eng ko'p talab etilmoqda.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ СОВМЕСТНОЙ РАБОТЫ У СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ

Ключевые слова:

учебные задания, современное

Аннотация:

В современном мире стремительное обновление знаний приводит к ограничению понятия "изучение знаний." Студент, не обладающий навыками

образование,
личный
профессиональный
рост,
“сотрудничество”,
профессиональная
компетентность.

самостоятельного обучения, не может рассматриваться как специалист, готовый к жизни. Обилие источников информации и баз данных снижает необходимость заполнения памяти избыточными знаниями, поэтому обучение студентов эффективному использованию имеющихся ресурсов имеет актуальное значение. Самостоятельность и субъективность личности в образовательном процессе требуют укрепления общей культурной основы, развития навыков решения проблем и мобилизации личного потенциала для рационального, нравственного и целенаправленного преобразования действительности. В настоящее время наиболее востребованы специалисты, обладающие творческим мышлением, дизайнерским и конструктивным опытом, духовно зрелые, инициативные и способные принимать самостоятельные решения.

DEVELOP COLLABORATIVE WORKING SKILLS IN STUDENTS THROUGH TRAINING ASSIGNMENTS

Keywords: educational assignments, modern education, personal professional growth, “collaboration”, professional competence.

Abstract: In the modern world, the rapid renewal of knowledge leads to the limitation of the concept of “learning knowledge”. A student who does not possess the skills of independent learning cannot be considered a specialist ready for life. The abundance of information sources and databases reduces the need to fill memory with unnecessary knowledge, therefore, teaching students the effective use of available resources is of current importance. Personal independence and subjectivity require strengthening the general cultural foundation in the educational process, developing problem-solving skills, and mobilizing personal potential for rational, moral, and purposeful transformation of reality. Currently, specialists who think creatively, possess design and constructive experience, are spiritually mature, proactive, and capable of making independent decisions are in high demand.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi faqatgina bilim berish bilan chegaralanib qolmay, balki talabalarni real hayot sharoitiga tayyorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda. Bugungi kunda nafaqat kasbiy bilim va malakaga, balki jamoada ishlash, hamkorlikda qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslab ifodalash va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Shu sababli, oliy ta'limda an'anaviy bilim berish yondashuvlari bilan bir qatorda talabalarda real hayotiy vaziyatlarda zarur bo'ladigan yumshoq ko'nikmalarni (soft skills) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, XXI asr ko'nikmalari (21st Century Skills) orasida "collaboration" – hamkorlikda ishlash kompetensiyasi alohida o'rin tutadi. Bu ko'nikma nafaqat o'quv jarayonida, balki mehnat bozori va kundalik hayotda ham insonning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi omillardan biridir. Talabalarning jamoada ishlash madaniyatini shakllantirish, turli fikrlarni muhokama qilish, o'zaro mas'uliyatni taqsimlash, umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hamkorlikda ishlash kompetensiyasini shakllantirishda o'quv topshiriqlari muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur topshiriqlar orqali talabalar o'z bilim va tajribalarini baham ko'rish, o'zaro o'rganish, muammolarni jamoaviy hal qilish va natijalarga hamkorlikda erishishni o'rganadilar. Shu jihatdan, topshiriqlarning mazmuni, shakli va metodik asoslari to'g'ri tanlanganda, ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarda XXI asr ko'nikmalarini, jumladan, hamkorlik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada hamkorlikda ishlash kompetensiyasining mazmuni, uni rivojlantirishda o'quv topshiriqlarining ahamiyati, samarali metodik yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar atroflicha tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

1. Hamkorlikda ishlash kompetensiyasi: mohiyati va ahamiyati:

Hamkorlikda ishlash – bu guruh yoki jamoa doirasida umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilish, fikrni erkin ifoda etish, boshqalarni tinglash, mas'uliyatni bo'lishish, muammoni jamoaviy hal etish va kelishuvga erishish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba o'quv jarayonida quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qilishni o'rganadi:



- Guruhda muhokama yuritish – turli fikrlarni baholash, umumiy xulosa chiqarish;
- Birgalikda loyiha ustida ishlash – vazifalarni taqsimlash, rejalashtirish va umumiy natija yaratish;
- O‘zaro fikr almashish va tahlil qilish – axborot almashish, tanqidiy yondashuvni shakllantirish;
- Bahsli vaziyatlarda murosaga kelish – muammoli holatlarda adolatli yechim topish.

Bugungi kunda ish beruvchilar tomonidan aynan kommunikativ, tashabbuskor va hamkorlikda ishlay oluvchi mutaxassislariga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa oliy ta‘lim muassasalarida ushbu kompetensiyani shakllantirishni dolzarb vazifalardan biriga aylantiradi.

2. O‘quv topshiriqlari orqali hamkorlik ko‘nikmasini shakllantirish:

O‘quv topshiriqlari nafaqat bilimni mustahkamlash, balki kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qiluvchi samarali vositadir. Xususan, hamkorlikni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar talabalarni faol muloqotga, birgalikda izlanishga va umumiy natija uchun mas‘uliyatni bo‘lishishga yo‘naltiradi. Quyidagi topshiriq turlari samarali hisoblanadi:

a) Guruhli tahlil topshiriqlari. Masalan: “Badiiy matndagi asosiy g‘oya va obrazlarni guruhda tahlil qiling va umumiy taqdimot tayyorlang.” → Shakllanadigan ko‘nikmalar: muloqot, fikrni asoslash, kelishuvga erishish.

b) Rolli o‘yinlar / simulyatsiyalar. Masalan: “Sud jarayonini rollarga bo‘lib sahnalashtirish” (ijobiy va salbiy obrazlarni himoya qilish). → Ko‘nikmalar: empatiya, mantiqiy fikrlash, jamoaviy qaror qabul qilish.

c) Birgalikda loyiha tayyorlash. Masalan: “Zamonaviy yoshlar adabiyotiga oid so‘rovnoma o‘tkazing, natijalarni tahlil qilib hisobot yozing.” → Ko‘nikmalar: rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, vaqtni boshqarish, natijani taqdim etish.

d) Debatlar va bahsli topshiriqlar. Masalan: “Klassik adabiyot va zamonaviy yozuvchilarning ustuvor jihatlari” mavzusida guruhlararo bahs tashkil etish. → Ko‘nikmalar: dalillash, e‘tiroz bildirish madaniyati, bag‘rikenglik, tanqidiy fikrlash.

Bunday topshiriqlar orqali talaba nafaqat nazariy bilimni o‘zlashtiradi, balki ijtimoiy va kasbiy hayot uchun zarur bo‘lgan hamkorlik ko‘nikmalarini amalda sinab ko‘radi.

3. Amaliy kuzatuv va natijalar tahlili:

Tajriba tariqasida til va adabiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan ikki guruhda hamkorlik kompetensiyasini shakllantirish maqsadida guruhli topshiriqlar asosida mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Mashg‘ulotlar davomida talabalar loyiha ishlari va

munozarali topshiriqlar orqali faol hamkorlikka jalb qilindi.

1-jadval

Hamkorlik kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tajriba natijalari

Ko'nikma turi	Dastlabki ko'rsatkich	Yakuniy ko'rsatkich
Fikr aytish faolligi	42%	78%
O'zaro tinglash	35%	81%
Guruh ishi natijasi uchun javobgarlik	38%	76%

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quv topshiriqlari to'g'ri tashkil etilgan hollarda talabalar hamkorlik kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradilar.

Filologiya ta'limi an'anaviy tarzda bilim berishga qaratilgan bo'lsa-da, zamonaviy davr talablari bilim paradigmasidan tashqariga chiqishni, ta'lim jarayonini talabning shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni sifatida qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu jarayon kompetensiyaga asoslangan yondashuvda o'z ifodasini topib, talabalarda qiymat-semantik qarashlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy salohiyatni rivojlantirish imkonini bermoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, talaba mustaqil bilim olish, kasbiy xulq-atvorni shakllantirish va ijodiy faollikni rivojlantirish jarayonini faqatgina o'qituvchi bilan ijodiy hamkorlikda olib boriladigan mashg'ulotlarda egallashi mumkin. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday faoliyat talabalarda o'z qobiliyatlariga ishonchni mustahkamlaydi, o'z-o'zini anglashni kuchaytiradi va ijodiy faollikni oshiradi.

Pedagogik voqelikda shaxsni tashqi dunyo – davlat va jamiyatga nisbatan o'zining individual xususiyatlari bilan tanishtirish jarayoni yotadi. Shaxsning noyobligi va ijtimoiy “ajralmasligi” haqidagi g'oya shaxsni jamiyatning bir qismi sifatida qarash bilan birga, uning boshqa jihatlari – hissiy, irodaviy va intellektual qirralarini ham rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi [1].

Pedagogikada “haqiqiylik” tushunchasi insonning tashqi ta'sirlarni o'zlashtirishi jarayonida ichki kuchlarini aktuallashtirib, namoyon etishi orqali shaxsni shakllantirish sifatida izohlanadi. Ya'ni, haqiqiylik insonning o'ziga, ichki imkoniyatlariga va avtonomiyasiga tayanishi orqali yuzaga keladi. K. N. Ventsel o'z asarlarida rivojlangan haqiqiylikni shaxsning “maxsus”, “o'ziga xos” jihatlari namoyon bo'ladigan, almashtirib bo'lmaydigan sifatleri sifatida talqin etgan [9].

Shaxsning individualligi uning jamiyatdagi faoliyati va ijtimoiy ifodasi orqali



mustahkamlanadi. Bu jarayonda inson ijtimoiy o'zini-o'zi tasdiqlash tajribasini orttiradi. S. I. Gessen bu jarayonni "shaxsiyat tarixi" deb atagan bo'lib, uni shaxsning o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishi, iroda erkinligini anglash, inson qadriyatini tushunishi va o'z "men"ini mavjudlikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilishi bilan bog'laydi. Natijada shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi shakllanadi [2].

Talabalarda kasbiy kompetensiyaning shaxsiy shakllanishdagi ahamiyati haqidagi tushunchani rivojlantirish turli metodik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon V. P. Zinchenko ta'kidlagan "bilim va johillik o'rtasidagi pedagogik jarayonning harakatlantiruvchi qarama-qarshiligi" [3] orqali izohlanishi mumkin. Unga ko'ra, talaba o'z johilligini anglaganida, mavjud bilim darajasini qayta baholaydi va bilimga bo'lgan munosabatini yangilaydi. Demak, bilimning mavjudligi yoki yo'qligi talabaning ongida aks etib, bilim olish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Mazkur jarayonning asosi aks ettirish (refleksiya) hisoblanadi. Refleksiya talabalarga shaxslararo munosabatlarning, jumladan, pedagogik aloqalarning qiymat asoslarini anglash imkonini beradi. Natijada ular o'z ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini chuqurroq tushunadi hamda shaxsiy resurslarini shakllantirish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o'tadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bilimni o'rganish faqatgina "ko'zguidek" taqdim etilgan shaklda emas, balki uning qiymatini, ma'nosini chuqur anglash orqali samarali kechadi. Bu jarayonda muloqotning mazmuni va samimiyligi boyiydi, turli pozitsiyalar almashiladi va hodisalarning ko'p qirrali talqini kashf etiladi. V. P. Zinchenko fikricha, aynan johillik haqidagi bilim inson ongida bilishga bo'lgan "jozibali kuch"ni uyg'otadi. Shu tarzda talabaning bilimlari "tirik bilim"ga aylanadi. Tirik bilimning mohiyati shundaki, inson unda o'zini taniydi, u bilimni tashqi va begona kuch sifatida emas, balki hayot, haqiqat va yo'l sifatida qabul qiladi.

P. F. Kapterev ham shuni alohida ta'kidlaydiki, har bir o'quv ob'ekti talaba tomonidan voqelikni idrok etish va bilishning yangi usullarini mustaqil kashf qilish imkonini berishi zarur. Bu esa talabalarning kasbiy kompetensiyani faqat amaliy emas, balki gumanitar va shaxsiy-ma'naviy mohiyatida ham ko'rib chiqishini ta'minlaydi.

Natijada talabalar o'z shaxsiy resurslarini yanada chuqurroq angalaydi, kasbiy o'sish va o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga ongli ravishda kirishadi. Bu esa ularning shaxsiy va professional shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Faylasuflar va didaktiklar inson uchun eng qimmatli bo'lik bu o'z mehnati bilan egallangan bilim ekanligini ta'kidlaydilar. Mustaqil o'zlashtirilgan bilimlar hodisalarning mohiyatini anglash, kundalik donolikni shakllantirish, mustaqillikni



rivojlantirish, qat'iyat va tashabbusni kuchaytirishga olib keladi. Kelajak bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida biz ularning shaxsiy va kasbiy shakllanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadigan ekzistensial qadriyatlarni aniqladik. Ular quyidagilardan iborat: bilish qobiliyati, motivatsion yo'nalish, ijodkorlik, erkin va mas'uliyatli tanlov qilish qobiliyati hamda o'zini-o'zi rivojlantirish salohiyati. Ushbu qadriyatlar talabaning ichki pozitsiyasini shakllantiradi va zamonaviy dunyoda zarur bo'lgan kompetensiyalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, muhim jihat faqat ichki pozitsiyaning mavjudligi emas, balki uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi va ta'sirining o'ziga xos xususiyatidir. Talabaning rivojlanishi jarayonida u ko'pincha o'zini anglash, kasbiy yo'nalishini belgilash hamda kelajak haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. Fikrlash, erkin va mas'uliyatli tanlov qobiliyati unga sub'ektiv tajriba, ichki motivatsiya va ekzistensial chaqiruvlarni anglash imkonini beradi. Bu jarayon xorijiy madaniyatni o'rganishga rag'bat uyg'otib, ijodiy izlanishlar uchun keng yo'l ochadi.

O'z va xorijiy madaniyatlarni uyg'unlashtirishga intilish, o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya mexanizmlarini ishga solish orqali talaba tor mutaxassis emas, balki keng kompetensiyalarga ega, kommunikativ salohiyatli, xorijiy tilni professional darajada qo'llay oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, barqaror ichki pozitsiyaning rivojlanishi – universitet ta'lim jarayonida mustaqil va mas'uliyatli qarashlarni shakllantirishning muhim shartidir. Hodisalarning mohiyatini anglash esa, eng avvalo, mustaqil izlanish va tashqi yordamga tayanmasdan faoliyat yurita olish orqali yuzaga keladi.

Mustaqil ishning asosiy maqsadi – shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish va malakasini oshirishga intilish orqali umumiy madaniy hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu jarayon talabaning kasbiy faoliyat natijalarini to'g'ri aks ettirish qobiliyatini rivojlantirish, axborotni olish, saqlash va qayta ishlash usullari hamda vositalariga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

- Talabalarning mustaqil ishlari odatda quyidagi turlarga bo'linadi:
- ma'ruza mashg'ulotlari jarayonida mustaqil ishlash;
- seminar va laboratoriya mashg'ulotlari davomida mustaqil faoliyat yuritish;
- nazorat, kurs ishlari, tezis va ilmiy maqolalarni tayyorlashda o'qituvchi nazorati ostidagi mustaqil ish;
- o'quv va ijodiy xarakterdagi uy vazifalarini mustaqil bajarish.

Mustaqil ish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki hodisalarning mohiyatini mustaqil ochib berish, bilimlarni shakllantirish va ularni amalda qo'llash bilan uzviy bog'liqdir. Natijada mehnat ko'nikmalari rivojlanadi, foydali faoliyat usullari



o'zlashtiriladi va shaxsiy fazilatlar takomillashadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, avvalo, talabada natijaga erishishga bo'lgan qiziqish (motivatsiya) hamda o'quv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq. Motivatsiya uch turga bo'linadi:

– Tashqi motivatsiya – oliy ta'lim muassasasidagi o'quv faoliyati natijalari kelgusidagi kasbiy faoliyat va martaba muvaffaqiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini anglash;

– Ichki motivatsiya – talabaning kasbiy karerasidan qat'i nazar, shaxsiy muvaffaqiyat, qobiliyat va iste'dodlarni rivojlantirishga intilishi;

– Protsessual motivatsiya – bajarilayotgan ish dunyoqarash va bilimni kengaytirishga xizmat qilishini anglash.

“Ta'lim pozitsiyasi” tushunchasi psixologik va pedagogik adabiyotlarda tez-tez qo'llanilsa-da, hali ham aniq ta'rifga ega emas.

Subyektiv ta'limiy pozitsiyani talqin qilishdagi noaniqliklar tadqiqotchilar tomonidan uning tarkibiga kiruvchi turli komponentlarni ajratib ko'rsatishga olib keldi. Bular jumlasiga motivatsion-qiymatli, munosabatga oid, tartibga soluvchi-faoliyatli, kognitiv va boshqa tarkibiy qismlar kiradi. Shu bilan birga, mazkur kontsepsiyaning mazmuni ham turlicha yondashuvlarda ifodalanadi: subyektiv pozitsiya — bu shaxsning kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarlik jarayonida kasbiy hamda shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirishning faol xarakterini belgilovchi dominant saylov munosabatlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, u insonning ichki psixikasidagi tizimli munosabat sifatida tashqi va ichki muhit bilan bir vaqtning o'zida ijodiy o'zaro aloqaga kirish imkonini beruvchi elementlarni ham o'z ichiga oladi [4]. Subyektiv pozitsiya, bundan tashqari, shaxsiyatning murakkab integral xususiyati sifatida qaralib, individning o'ziga, faoliyatga, atrof-muhitga va umuman hayotga nisbatan faol-tanlovchan, tashabbuskor-mas'uliyatli va o'zgaruvchan munosabatini ifodalaydi.

Qarashlardagi tafovutlarga qaramay, ko'pchilik tadqiqotchilar subyektiv pozitsiyaning asosiy komponentlari sifatida quyidagilarni ta'kidlashadi: faoliyatning faol tabiatga egaligi, individuallik, mustaqillik, xulq-atvorda faol-transformatsion strategiyalarga tayanganlik, tashabbuskorlik, ta'lim texnologiyalarini egallash, ta'lim faoliyatini tashkil etishning samarali usullari, nazorat va baholashni amalga oshirish hamda zarurat tug'ilganda belgilangan maqsadga muvofiq o'z harakatlarini moslashtirish qobiliyati.

Shu bilan birga, aks ettiruvchi o'qitish metodlaridan foydalanish subyektiv pozitsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Bunda talabalarda o'z kasbiy va shaxsiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash

zaruratini yuzaga keltiruvchi hamda qo‘llab-quvvatlovchi maxsus pedagogik shart-sharoitlarni yaratish alohida o‘rin tutadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi o‘quv jarayonini uslubiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi zarur. Avvalo, topshiriqni bajarish uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim: talaba qo‘lida ish qurollari (qog‘oz, qalam), kerakli o‘quv qo‘llanmalari bo‘lishi, yetarli vaqt ajratilishi va vazifani bajarishga qulay joy ta‘minlanishi shart.

Ikkinchidan, o‘qituvchi topshiriqning maqsadga muvofiqligini inobatga olishi kerak. Masalan, noyob kitoblardan foydalanish, dala maydonlarini o‘lchash yoki daraxtlarni sanash kabi topshiriqlarni berishdan oldin ularning bajarilish texnologiyasi bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berilishi zarur. Bu jarayonda nafaqat vazifani taqdim etish, balki uni qisqa vaqt ichida samarali bajarish, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish hamda muhim jihatlarga e‘tibor qaratishni o‘rgatish ham muhimdir.

Motivatsiya yaratish ham o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Odatda eng qiziqarli topshiriqlar talabaning ijodkorligini oshiradi, fikrlash jarayonini faollashtiradi va havaskorlik faoliyatini rivojlantiradi. Vazifalarni taqsimlashda tenglashtirishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Har bir topshiriq talabaning bilim va ko‘nikmalariga mos individuallashtirilgan bo‘lishi kerak. Kuchliroq talabalarga chuqurroq bilim beruvchi va sifatni oshiruvchi topshiriqlar taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, bir xil topshiriq turli talabalardan turlicha vaqt talab etishini hisobga olish ham zarur.

Mustaqil ish ko‘nikmalarini shakllantirishni sinf mashg‘ulotlarida bosqichma-bosqich amalga oshirish foydalidir. Uyg‘a vazifa berishda esa ularning sifatini nazorat qilish muntazam bo‘lishi shart. Aks holda, tekshiruvning yo‘qligi yoki epizodikligi talabalarni tartibsizlashtiradi hamda uydagi vazifalarga nisbatan mas‘uliyat hissini pasaytiradi.

Mustaqil ish natijalari turli shakllarda taqdim etilishi mumkin: og‘zaki javob, diagramma, jadval, rasmiylashtirilgan maqola, ma‘ruza, albom yoki ko‘rgazma eksponati.

XULOSA

Tajribali o‘qituvchilar ko‘rgazmalar, muzeylar va boshqa ta‘limiy vositalardan foydalanish jarayonida mustaqil ishlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib boradilar. Natijada talabalarda yuqori darajadagi mustaqillik shakllanib, ular amaliy va ijodiy faoliyatga, mustaqil bilim olishga tayyor bo‘ladilar. Demak, to‘g‘ri tashkil etilgan mustaqil faoliyat – bu shaxsning o‘z bilimlari, tafakkuri, hayotiy tajribasi va e‘tiqodlariga tayanib, yordamisiz amalga oshiradigan, bilimlarni boyitish orqali ilmiy

dunyoqarashini rivojlantiradigan va shakllantiradigan faoliyatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Семенова Н. В. Развитие идеи о соотношении индивидуального и социального в процессе воспитания личности в отечественной педагогике 80-х годов XIX – первой трети XX века : монография. – Хабаровск : Изд-во Дальневосточного гос. гуманитарного ун-та, 2006. – С. 292.
2. Гессен С. И. Основы педагогики. Введение в прикладную философию. – М. : Школа-Пресс, 1995. – С. 448 с.
3. Зинченко В. П., Моргунов Е. Б. Человек развивающийся : очерки российской психологии. – М. : Тривола, 1994. – С. 301.
4. Лебедева К. С. Дневник самонаблюдений – эффективный инструмент формирования образовательной самостоятельности будущего педагога // Мир образования, культуры и науки. 2016. № 1. – С. 34-37.
5. Хазраткулова О. А. Mashqlar – filologik mutaхassis тайёрлашнинг асосий воситаси сифатида // Қўқон давлат педагогика институти илмий хабарлари. 2025. № 2. – Б. 65-71.
6. Хазраткулова О. А. Олий филологик таълимда ўқув топшириқлари устида ишлашнинг илмий методик асосларини такомиллаштириш // BELORUS–ЎЗБЕК илмий–методик журнали. 2025. № 1. – С. 13-16. URL: <https://gri-journal.uz>
7. Хазраткулова О. Филологик таълимда ўқув топшириқларининг ҳолати, таҳлили // Таълим, фан ва инновация – маънавий-маърифий, илмий-услубий журнал. 2025. № 2. – С. 3-7. – ISSN 2181-8274.
8. Ҳамроев Ғ. Ҳ. Mashqlarнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. № 4. – Б. 231-240.
9. Юсупова Ш. Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўсиришнинг илмий–методик асослари : пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент : ТДПИ, 2005. – Б. 270.

MUNDARIJA:

IJTIMOIIY FANLAR

1. **Mengliboyev A. X., Xursanova F. U.** *Shermuhammad qo'rboshi: sovet bosqiniga qarshi xalq qarshilik harakati yetakchisi sifatida*..... 5-14
2. **Maqsudaliyeva Y. N.** *Mustaqillik davri adabiyotida gender munosabatlarining badiiy talqini*..... 15-24
3. **Jo'rayev M. X., Jo'rakulova M. T.** *Islom geografiyasida shaharlar: tarixiy-madaniy tahlil*..... 25-42
4. **Shadmanov Q. B.** *Fransis Bekonning falsafiy va axloqiy-tarbiyaviy fikrlari haqida*..... 43-54
5. **Mirzayev A. M.** *Axborot makoni shakllanishi, tuzilishi va rivojlanishining falsafiy asoslari*..... 55-66
6. **Кум М. А., Останов Р. Э.** *Особенности предложных форм местоимений в русском языке: на примере «к нему» и «к ней»*..... 67-76
7. **Narzullayev N. Sh.** *Qiziriq tumanining demografik rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari*..... 77-86

TABIY FANLAR

8. **Ruziyev O. A., Rajabov O' D.** *Iqtisodiy tafakkurni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omiliga aylantirish davr talabi*..... 87-96
9. **Yakubov S. X., Jomurodova Z. U., Rajabov T. J.** *Mashinasozlikning kuchlanish-deformatsiyalanish obyektlarining funksional holatini oshkor bo'lmagan funksiyalardan foydalanib matematik modellashtirish*..... 97-106
10. **Kurbanov M. X., Omonqulova U. H.** *Fizikadan namoyish tajribalarning didaktik funksiyalari samaradorligini oshirishda ergonomik tamoyillarning psixologik-pedagogik ahamiyati*..... 107-122
11. **Raximov A. X., Jurayev B. T.** *Kimyo fanini o'qitishda Jozef Lui Gey-Lyussak ilmiy ijodini o'rni*..... 123-132



PEDAGOGIKA

12. **Jo'rayev N. X.** Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....133-141
13. **Djumayeva Z. M.** O'quvchilarda ijtimoiy fikrlashni shakllantirishda o'rta osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....142-151
14. **To'raqulov A. R.** Talabalarda ijtimoiy-axloq kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, shakllari va usullari.....152-158
15. **Dusyorova L. Sh.** Hayot davomida o'rganish (LLL) kontekstida mustaqil ta'lim ko'nikmasining rivojlanishi.....159-167
16. **G'ulomova N. R.** Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirishda So'fi Olloyor asarlaridan foydalanishning pedagogik tizimi.....168-176
17. **Atamuratova M. M.** Tibbiyot talabalarining empatik tuyg'usini shakllantirishda pragmatik kompetensiyaning ahamiyati.....177-185
18. **Ermatova M. B.** Talabalarni kashtachilikka oid amaliy faoliyatga o'rgatishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari.....186-193
19. **Toshtemirova M. K.** Tabiiy fanlarni rivojlantirishda pedagogik metodlar va ularning ekologik ta'limdagi ro'li.....194-202
20. **Abdugafurova D. G'.** O'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asosi.....203-212
21. **G'aybullaev Sh. M.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion boshqarishning mazmun-mohiyati.....213-225
22. **Amirova H. O.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrof-muhitga munosabatini shakllantirishda tarbiyachining roli.....226-232
23. **Allanazarova D. B.** Musiqa terapiyasi asosida ta'lim muassasalarida o'quv muhitini sog'lomlashtirish imkoniyatlari.....233-240
24. **Kamolova O. M.** O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ma'rifatparvar ziyolilarning o'rni va ta'siri.....241-250
25. **Quranboyeva M. Sh.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....251-262
26. **Narquchqarova R. Z.** Milliy qadriyatlar asosida o'quvchilarda san'atga bo'lgan did va estetik hisni rivojlantirish.....263-270



27. **Xidirov S. B.** *Innovatsion pedagogika tarixi: zamonaviy pedagog faoliyatini tashkil etish.....* 271-278
28. **Achilov N. A.** *Al-Hakim at-Termiziy asarlari va ularning pedagogik tahlili.....* 279-289
29. **Xolboyev Y. X.** *“Elektromagnit to‘lqinlar” mavzusini tizimlashgan va integrallashgan shaklda o‘qitish metodikasi.....*290-304
30. **Avliyoqulov A. A.** *Raqamli texnologiyalar vositasida umumta’lim maktab V-VI sinf o‘quvchilariga dars mashg‘ulotlarini integrativ yondashuv orqali o‘qitishni takomillashtirish.....*305-313
31. **Rahmonova M. S.** *Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash bo‘yicha nazariy-pedagogik yondashuvlar.....* 314-322
32. **Axmedova N. I.** *Loyihalashtirish texnologiyasidan foydalanib talabalar mustaqil ta’limini aralash shaklda (blended learning) takomillashtirish dolzarb muammo sifatida.....*323-330
33. **Hazratqulova O. A.** *Talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini o‘quv topshiriqlari orqali rivojlantirish.....*331-340



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
“**Tadbirkorlik va pedagogika**” ilmiy-uslubiy jurnali
2020-yil 18-sentabrda 1114-raqamli guvohnoma bilan
ro‘yxatga olingan. Har chorakda bir marotaba chop etiladi.
Jurnalda nashr etilgan maqolalar <https://inlibrary.uz/>, <https://slib.uz/uz/>,
<https://scholar.google.com>, <https://www.openaire.eu/>, <https://www.researchbib.com/>
platformalarida indekslanadi.

Terishga berildi: 15.08.2025-yil.
Bosishga ruxsat etildi: 20.08.2025-yil.
Qog‘oz bichimi 60*84 1/8. Adadi – 50 ta.
Nashr tabog‘i – 13,5. Buyurtma № 1-T.

Manzilimiz: 190507, Surxondaryo viloyati
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.
info_dtpi@yedu.uz, dtpi@yexat.uz
+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:
+998 90 976-76-98. URL: <https://t.me/MrScott98>

Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659